

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**

JALILOVA NILUFAR TOXIR QIZI

**PEDAGOGIKA
NAZARIYASI VA TARIXI**

O‘quv qo‘llanma

**Toshkent – 2024
“Science and Innovation” nashriyoti**

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

UO'K: 141.2

KBK: 63.105

J-21

N.T.Jalilova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma.

– Toshkent: “Science and Innovation”, 2024. —228 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun (bilim sohasi -100000-gumanitar, ta'lim sohasi-110000 pedagogika) “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani bo'yicha syllabus (ishchi dastur)ning II moduli “Pedagogika tarixi” modullari rejasiga kiritilgan mavzular asosida tayyorlangan bo'lib, unda pedagogikaning ajralmas qismi sifatida didaktik qadriyatlar, ularning mazmun-mohiyatini talabalarga o'rgatish nazarda tutilgan. Qo'llanma mavzulari talabalarga didaktik qadriyatlar mohiyatini davriy izchillikda taqdim etish imkonini beradi. Kitobda ma'lum bir didaktik qadriyatlarga tarixiy manbalardan olingan materiallar bayon qilinib, mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar, innovatsion ishlanmalar, savol-topshiriqlar, nazarda tutilgan yo'nalishda atamalar izohi hamda didaktik materiallar taqim etilgan, bu talabalarda didaktik qadriyatlarning pedagogik ahamiyati haqida aniq tasavvur va zarur bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Qo'llanmada oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarga taqdim etiladigan didaktik qadriyatlar tizimlashtirilgan holda berilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi mazmunini boyitishdan iborat. Qo'llanma pedagogik jamoatchlik, oliy pedagogik ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatadigan professor o'qituvchilar, talabalar hamda tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mas'ul muharrir:

R.G. Safarova - P.f.d., prof.

Taqrizchilar:

Sh. Q. Mardonov - P.f.d., prof.

A.A. Urazimbetova - P. f.b. f. d., PhD.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydag'i “149”-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Guvohnoma raqami: 148061

ISBN: 978-9910-9205-3-0

© N.T.Jalilova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma , 2024

© “Science and Innovation” nashriyoti, 2024

KIRISH

Qadriyat inson hayoti, dunyoqarashi, bilim va tasavvurlari bilan yaqindan aloqador kategoriya sifatida uning madaniy-ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi hodisadir. Binobarin, u madaniy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, siyosiy qadriyatlar, ta'limiyyididaktik qadriyatlar kabi bir nechta turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda Xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sod Farmoni (2022 yil 11- may) asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga, oliy pedagogik ta'limga amaliy jihatdan kuchaytirishga qaratilgan davlat ta'limga siyosati amalga oshirilmoqda. Jumladan, unda "**2022-2023 o'quv yiliidan**" boshlab Toshkent davlat pedagogika universitetining kunduzgi ta'limga shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2 tartibida", shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'limga muassasasida, 2 kuni umumiyligida o'rta ta'limga muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlasin; Prezident ta'limga muassasalari agentligi bilan hamkorlikda Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarining tanishuv va malakaviy amaliyotlarini, umumiyligida o'rta ta'limga muassasalari bilan birga Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda ham tashkil etish choralarini ko'rsin", - deya ta'kidlandi.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayat yo'li hamda jahon sivilizasiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlarini olib borish" vazifasi yuklatildi [6].



Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O 'z R Prezidenti Sh. Murziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan

“Pedagogika fani konsepsiysi”da haqli ravishda ta’kidlanganidek, navbatdagi eng muhim vazifalardan biri “hozirgi zamон pedagogik tafakkuri bilan o’tmishda yaratilgan qarashlar orasida uzviylik, izchillikni ta’minlab borish uchun” ajdodlarimizning tiyrak tafakkurlari mahsuli bo’lgan pedagogik tajribalarni tadqiq etish lozim [83].

Jumladan, oliy pedagogik ta’lim jarayonida didaktik qadriyatlardan oqilona foydalanish muammosi ham tarixiy va zamонaviy ta’limiy qadriyatlardan samarali foydalanish orqali oliy pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida didaktik qadriyatlardan foydalanishda mavjud ta’limiy qadriyatlar tizimini aniq belgilab olish, unutilgan yoki ta’kidlab ko’rsatilmayotgan ta’limiy qadriyatlarni aniq innovatsion ishlanmalarga transformatsiyalash talabada ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishi bilan birga, ta’lim nazariyasi va amaliyotini milliy-tarixiy tajribalar asosida boyitish imkonini beradi. Ta’limga oid innovatsiyalarda milliylikni ta’minlashga, talabaning milliy ta’lim-tarbiya sohasidagi bilim, ko’nikma va malakalarini yangi innovatsion sharoitga ko’chirishga, shu bilan birga, innovatsion hodisalarga pedagogik omillarni singdirishga asos bo’ladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Didaktik qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u zamonaviy-novatorlik texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tafbiq etishda muayyan darajada ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limning hozirgi kundagi dolzarb muammolari: hayot davomida uzlucksiz ta’lim olish g‘oyasini amalga oshirish, mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

Qadriyat qadrli, zarur, foydali borliq, narsa-hodisa, moddiy-ma’naviy boylik, voqelik demakdik. U bir vaqtning o‘zida ham subyektiv, ham obyektiv xarakter kasb eta oladi. Qadriyat muayyan borliq, narsa-hodisaning sifatini tavsiflagani sababli subyektiv xarakterga, uning voqelikda mavjudligiga asoslangani sababli obyektiv xarakterga ega bo‘ladi.

Mavhum va aniq substansiylar birdek qadriyat hisoblanishi mumkin. Mas., qo‘l bilan ushlab bo‘lmasa-da, hissiyot bilan idrok etiladigan Vatan tuyg‘usi, sevgi-sadoqat,adolat, shafqat, nafosat tuyg‘usi kabi mavhum tushunchalar yoki aniq (mas., suv, non, daryo, havo, inson, bola, o‘quvchi, maktab, ona diyor kabi) inson uchun zarur, uning moddiy-ma’naviy mavjudiyatini belgilab beruvchi substansiylar qadriyat sanaladi. Masalan, har bir tarbiyalanuvchi pedagog uchun ham, ota-onan uchun ham muhim qadriyat sanaladi. Chunki pedagog o‘quvchisiz o‘z pedagogik faoliyatini tasavvur eta olmaydi, uning moddiy-ma’naviy manfaat va ehtiyojlari ta’lim-tarbiyaning bosh subyekti bo‘lgan bola shaxsiga qaratiladi. Xuddi shu kabi ota-onan ham farzandisiz hayotini tasavvur eta olmaydi. Chunki ota-onalikdek yuksak maqomning bosh manbai, ular ko‘zining oqu qorasi farzandidir.

Qadriyat ilmiy-pedagogik atama sifatida XIX asrning 60-yillaridan qo‘llanib, uni axloqiy va estetik kategoriya sifatida fanga olib kirgan nemis filosofi va vrachi R.G.Lotse borliq, haqiqat va qadriyat tushunchalarini o‘zaro munosabatini o‘rgangan holda, qadriyatni insoniy munosabatlarga qiyosan tahlil etgan [44].

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

“Falsafa: Qisqacha izohli lug‘at”da esa “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksilogik tushuncha” [107, 89] deb ta’riflanadi. “Pedagogika. Ensiklopediya” da qadriyat “Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha” (84, 265-266) ekanligi ta’kidlanadi.

Pedagog olimlar qadriyatni insoniy talab-istiklar bilan bog‘laydilar. “Qadriyat inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo‘lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o‘zaro munosabat, o‘zaro ta’sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir”(77, 5),- deb yozadi O.Musurmonova. Olimaning uqtirishicha, o‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir, shu sababli umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda, ta’lim-tarbiyaning mazmunini xalqchillashtirish, ta’lim mazmunidagi insonparvarlik g‘oyalarini kuchaytirish zarur.

Tadqiqotchi A. Aliyarov qadriyatlarni uch guruhgaga bo‘ladi: qadriyat-sifat, qadriyat- munosabat, qadriyat-bilim. Uning fikricha, qadriyat-sifat prognostik, kommunikativ, kreativ(ijodiy), empatik, intellektual, refleksiv hamda interfaollik kabi qobiliyatlar rivoji natijasida hosil bo‘ladi. Lekin qadriyat-sifat va qadriyatli munasabat qadriyat-bilim tuzilmasida amalga oshmasa, pedagogik faoliyat maqsadga muvofiq ta’minlanmaydi, chunki qadriyat-bilim shaxsni ijtimoiylashtirishning pedagogik nazariyasi, ta’lim jarayonining tuzilishi, qonuniyatlari hamda tamoyillari sifatida ifodalangan bilim va ko‘nikmalarning muayyan tarzda tartibga keltirilgan tizimidir [30]. Shaxsning ijtimoiy muhit subyekti sifatida jamiyatdagi o‘z o‘rnini qadriyatlar bilan uyg‘unlikda anglashi va amaliy faoliyatida shunga mos xulq-atvorni ko‘rsatishi qadriyatlarga asoslangan hatti-

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

harakatlar mohiyatini ifodalaydi. Shaxsning faoliyatga tayyorligini ifoda etuvchi kognitiv (bilim, axborot) hamda affektiv (hissiy) komponenentlar qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi.

Insonning o‘zi eng oliv qadriyat hisoblanadi. Chunki u moddiy-ma’naviy substansianing ham iste’molchisi, ham ishlab chiqaruvchisi ham tatbiq etuvchisidir. Shuningdek, qadriyatlar mazmun-mohiyatiga ko‘ra moddiy, ma’naviy; diniy, dunyoviy; axloqiy, intellektual; ekologik, texnik; ta’limiy, pedagogik, didaktik va h.k. turlarga bo‘linadi.

Tadqiqotchilar qadriyatlarning mohiyati, sifati hamda ijtimoiy ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Shu ma’noda A.I.Kravchenko: “Qadriyatlar ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do’stlik kabi hodisalar haqidagi tasavvurlardir” [67, 65], - deb uqtiradi. U qadriyatlarning inson hayotini tartibga soluvchi, yo‘naltiruvchi, unga ibratli ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarini ta’kidlab, uning barcha kishilar uchun etalon, ideal bo‘lib xizmat qiladigan hodisa sifatida tavsiflaydi.

Rus faylasuf olimi S.F.Anisimov qadriyatlarni moddiy-ma’naviy ehtiyojlar bilan aloqada talqin etadi. Uningcha, “muayyan ehtiyojlarni qondirilishi nuqtai nazaridan predmet yohud aniq bir subyekt faoliyatining ijobiy ahamiyati qadriyat deyiladi” [35, 40].

Aksiologiya (qadriyatlар nazariyasi)ga doir tadqiqotlarda talabalarning “qadriyatli ustanovka”si birqadar o‘rganilgan bo‘lib, M. Rokeach “qadriyatli yo‘nalganlik” va “qadriyatli ustanovka” tushunchalari orasidagi farqni alohida ajratib ko‘rsatadi. Uningcha, subyektning qadriyatli ustanovkasi abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy obyekt yoki vaziyat haqida uzoq vaqt davomida shakllanib, ishonch, e’tiqodlar majmui darajasiga erishgan munosabatlardir. Qadriyatli yo‘nalganlik esa jamiyatdagi me’yorlar bilan inson ehtiyojlari

o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi [90, 547].

X.M.Kazanov qadriyatli yondashuvning mazmun-mohiyatini hayot kechirishning ilk va asosiy sharti sifatida baholaydi: “Tabiat va jamiyat hodisalariga qadriyatli yondashuv, ya’ni bizga nima kerak, nima kerak emas, nimalarni biz qadrLAYMIZ, umuman, kundalik faoliyatimiz uchun elementar akt hisoblanuvchi narsa bo‘lib, usiz faoliyat yuritib ham, turli ehtiyojlar, qiziqishlar va maqsadlarga ega mavjudot – inson sifatida yashab ham bo‘lmaydi. Inson muayyan qadriyatlarga intilishdan mahrum etilsa, hayot o‘z mazmunini yo‘qotadi, hayot hayot bo‘lmay qoladi” [62, 5] .

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, qadriyatli yondashuv va qadriyatlarga yo‘nalganlik shaxsning ijtimoiy subyekt sifatidagi xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beruvchi muhim asosdir.

Bir necha asrlik pedagogik va didaktik merosimizda bugungi davr uchun zarur va foydali g‘oya va qarashlar, ta’limning shakl, usul va vositalari mavjud bo‘lib, bu didaktik qadriyatlarning ta’lim bilan alaqadorligi hamda ulardan foydalanishning zaruriyatini taqozo etadi. Ya’ni, yosh avlodga berilayotgan ta’lim-tarbiya bugungi kunning mahsuli bo‘lmay, insoniyatning bir necha ming yillik yuksak dahosidan vujudga kelgan.

Pedagogik tadqiqotlarda qadriyat va meros tushunchasi yaqindan uzviy aloqada o‘rganilib, ajdodlardan qolgan pedagogik va didaktik merosning qadr-qimmati yuksakligidan kelib chiqqan holda, asosiy urg‘u uning qadriyat ekanligiga qaratiladi. Tadqiqotchi N.E.Temirova meros hamda qadriyat bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lishiga qaramay, yagona tushuncha emasligini ta’kidlaydi. Ya’ni, har qanday meros qadriyat bo‘la olmaydi, meros taraqqiyot uchun zarur omil bo‘lgandagina qadriyat darajasiga ko‘tarilishi mumkin [101,22].

Qadriyatlar falsafiy, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-estetik, pedagogik-didaktik kategoriya sifatida: milliy-ma’naviy, siyosiy,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

huquqiy umummadaniy, umuminsoniy, ta’limiy-didaktik qadriyatlar kabi turlarga bo‘linadi. D.X.Qosimova o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlar shakllanishi muammosini o‘rganib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish uchun tadqiqotchilik, muammoli bayon, turli yo‘nalishdagi dialoglar (syujetli bilish, hissiy tahlil, shaxsiy tahlilga asoslangan dialoglar) dan foydalanish lozim deb hisoblaydi [113,106-113].

Ta’lim-tarbiya sohasida pedagogik, ta’limiy, didaktik qadriyatlar tushunchalari qo‘llaniladi.

Olimlar tomonidan pedagogik faoliyatga xos qadriyatlar moddiy-ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj va maqsadlarni qondirishga qaratilgan, ijtimoiy-kasbiy faollikni belgilab beruvchi hodisa sifatida tavsiflanadi.

Ta’limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlar berish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektiv va subyektiv omillar majmuidir [102,44].

“Didaktik qadriyat” tushunchasi hozirga qadar ilmiy atama sifatida chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ko‘pgina ishlarda ta’lim-tarbiyaga tegishli ayrim kategoriyalarning didaktik qadriyat ekanligi e’tirof etilmoqda Masalan, T.V.Makarovaning “O‘yinlarning didaktik qadriyati” [69]; I.B.Shmigirilovaning “Vazifalar va ularni rivojlantirish yo‘llari didaktik qadriyat sifatida” [112, 130-132] nomli maqolalari; R.M.Blakarning “Savol-javoblarning didaktik qadriyati”[43, 37-67] nomli ishlari shular jumlasidandir. Bular didaktikaga oid qadriyatlarning pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi. Didaktik qadriyatlarning pedagogik qadriyatlardan farqli jihat shundaki, u pedagogikaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktika fani bilan uzviy aloqador bo‘lib, unda asrlar osha bilim, ko‘nikma,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

malaka, kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayonida foydalanib kelinayotgan, muayyan yangiliklar bilan boyib borayotgan didaktik kategoriyalar, ta’limning shakl, usul, vositalari, ta’lim nazariyalari, ta’limga oid konsepsiylar qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qadriyatni talabalarga o‘rgatishda tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish, yangi innovatsion didaktik qadriyatlarni tarixiy-didaktik qadriyatlar bilan boyitish zamonaviy ta’lim samaradorligini belgilab beradi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunoncha —didaktikos o‘rgatuvchi, —didasko esa o‘rganuvchi) pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qitishning shakl, usul va vositalari, mazmun-mohiyati, umumiyligini qonuniyatlarini va tamoyillarini o‘rganadi. Didaktikaning umumiyligini prinsiplarini ko‘rgazmalilik, ta’lim-va tarbiyaning birligi, ta’limning uzviyligi va uzlusizligi, ta’limning hayot bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan birligi kabilar tashkil etadi. Pedagogika ensiklopediyasida “Didaktika” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Didaktika 1) pedagogikaning o‘qitish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy muammolari sirasiga kiradi” [84].

B.Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaevlar didaktikaga shunday ta’rif berishadi: “Didaktika – bilim berish nazariyasi. Aniqrog‘i, ta’lim-tarbiya beruvchilar va ularni oluvchilar orasidagi pedagogik munosabatlarning kechish qonuniyatlarini aniqlovchi va shu sohada qo‘llaniladigan tushuncha. Atama va qoidalarni ilmiy asoslab beruvchi hamda ularni boshqalarga o‘rgatuvchi pedagogik ilm-fan tarmog‘idir” [54,19]. U insoniyat madaniyati shakllangan davrlardan boshlab tarkib topa boshlagan. Inson o‘zligini taniy boshlashi bilanoq farzandiga ta’lim-tarbiya berish, uni yashashga o‘rgatish, hayot uchun kerakli bilimlarni berishga harakat qiladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Shu sababli didaktika ta’limga oid insoniyat to‘plagan tajribalar va ta’limiy qadriyatlarni translyatori hamdir. Ta’limiy faoliyatni tashkil etish borasida ko‘p asrlik katta tajribalar mavjud bo‘lib, bunda o‘qituvchi – o‘quvchi, o‘quvchi – o‘quv materiali, o‘qituvchilar jamoasi o‘rtasidagi, o‘quvchi va boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar texnikasi va texnologiyalari aks etadi.

Didaktik qadriyatlар o‘quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan milliy-umuminsoniy ta’lim paradigmалari, ta’limning samarali usul, vosita va metodlari bo‘lib, davr talabiga xamohang sifatli ta’lim berishga qaratilgan o‘qituvchi-o‘quvchi va o‘qitish vositalariga oid maqsadli munosabatlarni o‘zida jamlaydi. Didaktik qadriyatlар fan-texnika va texnologiyalar taraqqiyotiga monand o‘zgarib, davr talabi va ijtimoiy munosabatlar (davlat-jamiyat-ta’lim) ta’sirida yangilanib boradi.

Hozirga qadar xorijiy va vatandosh olimlarimiz tomonidan ta’lim hamda pedagogik qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligi, talabalarda pedagogik faoliyat tajribasinini shakllantirish hamda ta’lim jarayonida pedagogik qadriyatlardan foydalanish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan (A.M.Bulinin, V.G.Pryanikova, V.A.Slastenin, Z.I.Ravkin, R.Safarova, N.Egamberdieva, Sh.M.Mardonov, B.Xodjaev, Sh. Taylanova, D.Qosimova kabilar). Lekin oliy pedagogik ta’lim sharoitida, aynan ta’lim nazariyasi va ta’lim tarixini o‘rganish jarayonida ta’limiy qadriyatlardan foydalanish muammosining yetarlicha tadqiq etilmaganligi, ilmiy-amaliy yechimlarning taqdim etilmaganligi, zarur o‘quv-metodik adabiyotlarning yetishmasligi tufayli oliy pedagogik ta’lim sharoitida muayyan qiyinchilik vujudga kelmoqda, ta’lim subyektlari o‘quv jarayonida didaktik qadriyatlardan foydalanish, ularni tahlil etish hamda tatbiq qilish layoqatiga yetarlicha ega emaslar; kasbiy kompetensiyalarini pedagogik qadriyatlар negizida takomillashtirishga muayyan talablar qo‘yilgani holda, talabalar

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

ularni qanday qilib kasbiy mehnat vositasiga aylantirish mumkinligini bilmaydilar.

Didaktik qadriyatlar va ulardan pedagogik jarayonda foydalanish mexanizmlari ta’lim mazmuni, jarayoni, pedagog-talaba tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etishga asoslanadi. Didaktik qadriyatlarning amal qilish doirasi juda keng bo‘lib, ta’lim mazmunida, o‘quv faoliyatni tashkil etishda, ta’lim amaliyotini qayta tashkil etish va takomillashtirishda qo‘llanadi.

Qadimgi davrda ta’limning tashkiliy shakllari birmuncha fragmental-individual, qisman primitiv tusda bo‘lsa, asrlar osha to‘plangan tajribalar ta’lim jarayoniga ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qarash imkonini bermoqda. Ta’lim nazariyasi ta’limga oid optimal konsepsiylar, ilg‘or ta’lim texnologiyalari, masofaviy o‘qitishga oid tajribalar bilan boyidi. Ta’limga oid qadriyatlar translyatori sifatida didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ko‘p asrlik boy tajribalarni o‘rganish, madrasalarda qo‘llanilgan sharh va munozara metodi, voizlik san’ati, madrasa mudarrislari hamda talabalariga qo‘yilgan talablar va vazifalar, ulardan zamonaviy sharoitlarda foydalanish tendensiyalari va istiqbolini aniqlashdan iborat. Didaktik qadriyatlarni yangi mazmun va shakl bilan boyitish ta’limni jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan ijtimoiy-amaliy talablarga muvofiq takomillashtirish imkonini beradi. Didaktik qadriyatlar mazmunini aniqlash, qadriyat darajasiga yetgan ta’lim tamoyillari, metod va vositalarini qo‘llash chegaralarini belgilash asosida didaktik qadriyatlarni amaliy-me’yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifalarni ham bajaradi. Didaktik qadriyatlarning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi tarkibi nihoyatda boy bo‘lib, unda ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan ta’limga oid tushuncha va bilimlar aks etadi. Shu sababli o‘qitishning mazmuni, tuzilishi, ta’lim falsafasi, o‘qitishning shakl, usul va vositalari qadriyat sifatida o‘rganilgan ishlarda ta’limiy va

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

didaktik qadriyat tushunchalari ayni bir xil ma'noda qo'llanadi. Mavjud didaktik qadriyatlar mazmunan uch asosiy guruhga ajratiladi: 1) falsafiy-pedagogik qadriyatlar; 2) o'qitishning tashkiliy shakli, uslub va usuliga oid tushunchalar; 3) didaktik qadriyat darajasiga erishgan nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

Didaktik qadriyatlarda vorisiylik —mazmun — shakl —usul — aloqadorlik kabi falsafiy tushunchalar, umumiy ilmiy tushunchalardan —tizim —tuzilma —tarixiylik —zamonaviylik kabilar alohida o'rin egallaydi. Didaktik qadriyatlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini tavsiflashda ularning ta'lim paradigmalari, ta'lim funksiyalari, ta'limning mazmuni bilan bog'liq tamoyillari, ta'limning tashkiliy-metodik jihatlariga ham aloqador ekanini e'tirof etish katta ahamiyatga ega. Chunki tizimli didaktik bilimlar yaxlit, nazariy-empirik xarakterga ega bo'lib, qadriyat sifatida ajdodlardan avlodlarga o'tib, tobora mukammallahashmoqda. Pedagog olimlar qadriyatlarning ta'lim oluvchiga ma'naviy-axloqiy, moddiy ta'sir ko'rsatuvchi, ishonch, e'tiqod, effektiv, kognitiv va affektiv komponentlar birligi sifatida ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy, intellektual dunyoqarashini belgilab beruvchi hodisa sifatida e'tirof etadilar.

Didaktik qadriyatlar ham o'ziga xos madaniy hodisa, tushuncha, bilim va malakalardir. Ularni o'rganish va qo'llash ta'lim taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib beradi hamda ta'limni milliy va umuminsoniy asosda rivojlantirish imkonini yaratadi. Shunga ko'ra, biz o'z ishimizda didaktik qadriyatlarning tarixiy takomillashuvini nazarda tutgan holda, ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratib o'rganish zarur deb hisoblaymiz:

- I. Tarixiy retro-didaktik qadriyatlar;
- II. Innovatsion didaktik qadriyatlar;
- III. Istiqbolga qaratilgan didaktik qadriyatlar.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Oliy pedagogik ta’limni takomillashtirishda didaktik qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish, ta’limiy qadriyatlarni saqlash va yangicha mazmun bilan boyitish haqida rus olimlaridan A.M.Bulinin bunday deydi: “Hozirgi kunga kelib jamiyatning oliy pedagogik ta’limga taalluqli qadriyatlarini tarixiy-nazariy o‘rganish ehtiyoji oshdi va bu borada muayyan negizlar shakllandi. Bunda ta’lim tizimlarini isloh etishning tarixiy-pedagogik determinatsiyasi konseptual tamoyil sanalib, unga ko‘ra, isloh qilish eskini butkul rad etish va buzish emas, balki yangini yaratishni ilgarigi islohotlarga oid tajribalarni sinchiklab o‘rganish asosida amalga oshirishni talab etadi. Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarini kasbiy tayyorlashda aksilogik yo‘nalishni prognozlashning muvaffaqiyati aksariyat aynan mana shunga bog‘liq”, -deb ta’kidlaydi [45, 6].

XVII-XIX asrlarda O‘rta Osiyo, jumladan, Turkiston zaminida ilg‘or davlatlar pedagogik tajribalari yetarlicha o‘rganilmaganligi va ta’limning shakl, usul va vositalari umumjahon pedagogik tajribalari asosida rivojlantirilmaganligi Turkistondagi ta’lim tizimining taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab bo‘ldi. Shu sababli XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma’rifatparvar pedagoglar ta’lim islohoti g‘oyasi bilan chiqdilar hamda milliy didaktikaning ilmiy negizlarini shakllantirdilar.

ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM- TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

(*Avesto, qadimgi toshbitiklar(O'rxun-Enasoy va kultegin yodgorliklari) va islom asoslari(Qur'oni karim va hadisi sharif)da ilgari surilgan didaktik qadriyatlar mazmuni va ahamiyati*)

Zamondosh tarixchi olimlarimizdan Bo'riboy Ahmedov tarixiy qadriyatlarni o'rganishning murakkabligini uqtirib: "...biz yurtimiz va ajdodlarimiz tarixini yaxshi bilmaymiz. Chunki biz uni yaxshi o'rganmadik. To'g'risi, ko'hna yurtimiz ustidan 135 yil hukm yurgizib kelgan mustamlakachilar bunga yo'1 berishmadi"[39,3] ,-deb yozgan edi. Bu bevosita Sharq didaktika tarixini, o'tmishda qo'llanilgan ta'lism-tarbiya usul va shakllarini o'rganishga ham tegishli. Jumladan, retro didaktik qadriyatlarga oid bilimlarimizga ham bevosita taalluqli. Ularni o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishga juda katta ehtiyoj mavjud.

Shu o'rinda "retro didaktik qadriyatlar nima?"- degan savolga to'xtalib o'taylik. ***Retro – qaytish, o'tmishga murojaat etish degan ma'noni bildiradi. Didaktik qadriyatlар esa didaktika, ya'ni ta'lism nazariyasida qo'llanib, muayyan qimmat kasb etgan ta'lism sifatini ta'minlashga xizmat qilgan qadriyatlardir. Demak, tarixiy-retro didaktik qadriyatlар o'tmishda qo'llanilib, bizga meros bo'lib o'tgan va hozirga qadar ahamiyatini yo'qotmagan ta'lism sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan didaktik qadriyatlар hisoblanadi.***

Didaktik qadriyatlар mazmunini aniqlash ta'lim metodologiyasi (ta'lim nazariyasi, ta'limga tashkil etishning shakl, usul va vasitalari), muayyan davrda yetakchilik qilgan ta'lim konsepsiyalari, ta'lism-tarbiya birligi, tarbiyada yetakchilik qilgan asosiy qadriyatli yo'naliishlarni aniqlanishi bilan bog'liq.

Nemis filosofi Hans-Georg Gadamer (1900-2002)ning germenevtik (sharhlash, tushuntirish, izohlash san'ati) konsepsiyasida madaniy-ma'naviy an'analarni saqlashda tarixiy

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

qadriyatlarga tayanish kerakligi uqtirilgan. Uning fikricha, madaniyatning mazmuni ta’limning maqsadini belgilab beruvchi asosiy kuch hisoblanib, ta’lim tarixiy-madaniy fenomenlar taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib beradi, shunga ko‘ra, madaniy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish shaxs rivojlanishi va yashashning asosiy sharti hisoblanadi[109,66].

“Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G‘arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog‘i, ... yurtimiz sivilizatsiyasining ulkan hissasi jahon madaniyatining eng boy yutuqlari sifatida muqarrar sur’atda e’tirof etilmog‘i lozim”[102,40]. Olima Sh.Taylanova ta’kidlab ko‘rsatgan ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda, biz ham mavjud didaktik qadriyatlarni tanqidiy-retrospektiv asosda o‘rganishga harakat qildik. Chunki ta’lim taraqqiyoti o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, ta’limni rivojlantirish uchun unga oid tarixiy tajribalarni o‘zlashtirish zarur.

Didaktik qadriyatlar mazmunini aniqlash ta’lim metodologiyasi (ta’lim nazariyasi, ta’limni tashkil etishning shakl, usul va vositalari), muayyan davrda amal qilingan ta’lim konsepsiyalari, ta’lim-tarbiya birligi, tarbiyada yetakchilik qilgan asosiy qadriyatli yo‘nalishlarni aniqlanishi bilan bog‘liq. Xususan, pedagog olim Sh. Q.Mardonov, B..Xodjayev va A.Almamatovlar ta’limning bazali qadriyatları sifatida: ta’limning hozirgi zamon metodologiyasi, milliy va umuminsoniy madaniyat, sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, xalq pedagogikasi g‘oyalari, milliy va jahon pedagogikasi, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika fani, pedagogik jarayon psixologiyasi kabilarni qayd etib, innovatsion pedagogik texnologiyalarga ta’limiy qadriyat sifatida qaraydi, uni ta’lim subyektida ijodiy fikrlash, analitik qobiliyatlar, oldindan ko‘ra bilish va tahlil qilish, muqobil fikrlash, o‘z faoliyatiga nisbatan ishonch, keng dunyoqarashni, ijtimoiy ahamiyatli qarorlarni qabul qilish,

mas’uliyatni his etish kabilarni tarkib toptiradi deb hisoblaydilar[70, 45].

Tarixiy-retro didaktik qadriyatlar borasidagi tushunchalarimiz ancha sayoz. Ularni o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishga juda katta ehtiyoj mavjud.

O‘tmishda shunday ta’lim shakl va usullari qo‘llanilganki, ularni yangi sharoitga tatbiq etish ta’lim jarayonini mislsiz boyitishga xizmat qiladi. Birgina misol: 1644-yilda Fransiya bosh vaziri kardinal Mazinining buyurtmasiga ko‘ra, Fransiya shahzodasi, bo‘lajak Lyudovik XIV uchun geografiyadan yangicha o‘quv qo‘llanma – o‘yin kartalari tipidagi qiziqarli didaktik materiallar tayyorlangan edi. Har bir kartada biror mamlakatning majoziy tasviri aks ettirilgan edi (kartadagi rasmlarni taniqli rassom Stefano della Bella ishlagan). Ushbu majoziy rasmlarga qisqacha tavsifnomalar ham yozilgan bo‘lib, qo‘llanma bor-yo‘g‘i 48 betdan iborat bo‘lsada, unda Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika kabilar tasvirlangan. Keyinchalik Angliya, Germaniya, Gollandiya, Rossiyada ham zodagonlarning bolalariga ta’lim berishda shunga o‘xhash yoki uning aynan nusxasidan foylalanilgan [122]. Aynan shu o‘quv qo‘llanma didaktik qadriyat darajasiga yetgan va ta’lim amaliyotida undan bir necha yillab foydalanilgan. Qo‘llanmaning yaratilishi o‘ziga xos kashfiyot, didaktik vazifalarni hal etishning hozir ham o‘rnak olsa arzigulik yechimi deb e’tirof etilgan. Albatta, ta’lim oluvchilarni bilimga qiziqtirishga, jalb etishga qaratilgan didaktik mahsulotlar yoki ularga asos bo‘lgan g‘oyalar, ta’lim nazariyalaridan bugungi kunda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Chunki, o‘qitishning samaradorligini oshirish, uni ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirish, ta’limning qiziqarli va tushunarli bo‘lishini ta’minlash hamisha dolzarb masala bo‘lib qoladi.

Eramizdan avvalgi eng qadimgi yozuv namunalari sifatida Qo‘yqirilganqal’ a (Xorazm)dan topilgan xat, Panjikentdan (mil.avv.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

I asrda) topilgan sopol idishga chizilgan 23 harfli sug‘d alifbosi yurtimizda bolalarni yozuv orqali o‘zaro aloqa o‘rnatish, mavjud bilimlarni keljak avlodlarga uzatish maqsadida hamda yosh avloddda o‘qish va yozish malakalarini o‘stirish va xattotlik san’atini o‘rgatishga qaratilgan ta’lim turlarining birmuncha rivojlanganini isbotlaydi.

Biz retro-didaktik qadriyatlar tarkibiga kiritgan eng qadimiy yozma yodgorliklarimizdan “Avesto”da ustoz-shogird munosabatlarida ustoz shaxsining ustuvorligi, ta’limga jiddu jahd bilan yondashish, nazariya va amaliyot birligi, ekologik ta’limning ustuvorligi kabi didaktik qadriyatlar ilgari surilgan bo‘lib, maktab-madrasalarda bolalarga amaliy bilimlar berishga alohida e’tibor qaratilgan (1- rasm):

“Avesto” davrida ta’limning amaliy yo‘nalganligi
O‘qitilgan fanlar: matematika, tib ilmi, astronomiya kabilar
Amaliyot o‘tash obyektlari: otashkadalar qoshidagi ustaxonalar, sihatgoh (kasalxona), dorixona
Nazorat (imtihon) turlari va erishiladigan natija: lanamzadan - kadxudo –(uy xojasi) (17 yoshda); Zanzadan – kadbonu (uy bekasi) (15 yoshda)


1-rasm. “Avesto” davrida ta’lim mazmunini belgilovchi asosiy didaktik qadriyatlar

“Avesto”ning “Donishmandning o‘z farzandiga nasihat”, “Ustozning birinchi sinf o‘quvchisiga pandi”, “Solnomashunoslik xususida” kabi yashtlarida maktab qoidalari va unga rioya qilishning zarurligi, ota-bobolardan qolgan barcha ilmlarni o‘rganib olishning kerakligi kabilar yoritilgan. Avestoning axloq-odobga oid ta’limoti Gumata (ezgu fikr), Gukta (ezgu so‘z), Gvarshta (ezgu amal) g‘oyasida ifodalanadi. “Avesto”ning “Donishmandning o‘z farzandiga nasihat”, “Ustozning birinchi sinf o‘quvchisiga pandi”,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

“Solnomashunoslik xususida” kabi bandlarida yoshlar tarbiyasi, bu jarayonda ota-onalarda va jamoatchilikning burchi, muallimlarning vazifalari, yoshlarning mакtabda va odamlar orasida odob-axloqini namoyon qilish yo‘llari, umuman, yoshlarni yetuk shaxs sifatida shakllanishlari uchun qanday axloq me’yorlariga rioya qilishlari haqida fikr yuritilgan. Ilohiy bilimlar **savol-javob metodi** asosida tushuntirib izohlangan hamda yoshlarning bilim darajasini baholash uchun **munozarali savollardan** foydalanylган.

Unda “**ikki chandon aytilgan, o‘rgatilgan, o‘qitilgan, ustivar qilingan; takrorlangan; xotirada saqlangan; yoddan aytilgan**”[22,81] ilmlar olam qonunlari tizimida ko‘rsatiladi. Asarda ilmning mohiyati axloqiylikda ekanligi uqtirilishi bilan birga hayotning ma’nosisi ilm o‘rganish va donishmand bo‘lishdan iboratligi e’tirof qilinadi.



Авеста: “Видавдот” китоби (М.Исҳоқов таржимаси). – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2007. – 100 б. – 30-б.

Kunchiqardan kunbotar pallasigacha, oqshomdan to tong sahargacha bu odam bilim olsin, aqlu idrokini to‘ldirsin, natijada arta (haq) yo‘liga kirib, ruhi kamol topsin... Shunday ibodatlar orqali u tun yarmida orom uyqusida bo‘lib, (ruhini) yana ilmu bilimga astoydil tayyorlamog‘i mumkindir. O‘tganlardan qolgan hikmatlarni, bilim va ibratlarni jon-dil bilan o‘rganmog‘iga bu imkondir.

Milodiy V-VI asrlarda ochiq maydonda, tog‘-toshlarga bitilgan O‘rxun-Enasoy bitiklari turkiy til va yozuvni bolalikdan o‘rgatishga qaratilgan o‘ziga xos ta’lim tizimi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ta’limning bosh maqsadi bolalarda qabilaning ustuvor tamoyillari va qabiladoshlarini e’zozlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini

tarbiyalashdan iborat bo‘lib, ta’limning asosini diniy qadriyatlar mazmunini o‘rgatish tashkil etgan [117, 23-24].

Turkiy Oltoy tosh bitiklar

Turlari: Kultegin, O‘rxun-Enasoy

Foydalanilgan alifbo yozuvi: so‘g‘d (25 harfli), to‘qqiz o‘g‘uz (Uyg‘ur) alifbosi (28 harfli)

Ta’lim-tarbiyaning maqsadi: o‘qish va yozishni o‘rgatish, urug‘doshlarining ezgu maqsadlaridan xabardor qilish, yoshlarga jamoatchilik tuyg‘usini singdirish

O‘qitish shakli: individual (aksariyat hollarda), jamoaviy (kamdan kam holda)

Qo‘llanilgan usullar: pand-nasihat, ibrat

2-rasm. O‘rxun-Enasoy va Kultegin tosh bitiklariga tegishli didaktik qadriyatlar

Ular “oltoy tili”da bitilgan bo‘lib, turkiy tillar oilasiga mansub hamma tillarning negizi, asosi, dastlabki bo‘g‘ini hisoblanadi. So‘g‘dda (Samarqand va Buxoro hududida) xalq Sug‘d va Moniy yozuvlaridan foydalanishgan. Fahriddin Muborakshoh (1148-1215) turklarning o‘z yozuvlari va kitoblari bo‘lganligi, ularni bolalarga o‘rgatganlari, alifbolaridan biri 25 harfli so‘g‘d, ikkinchisi esa o‘ngdan chapga yozilgan 28 harfli to‘qqiz-o‘g‘izcha (uyg‘urcha) ekanini hamda alohida-alohida yozilganini qayd etadi”[106, 47].

Demak, Samarqand va Buxoroda bolalar yozishga va o‘qishga, jumladan, xattotlikka o‘rgatilgan, muallimlar o‘z uyida yoki o‘quvchining xonadonida unga alifboni individual ta’lim asosida o‘rgatishgan.

Ushbu davr ta’lim-tarbiyasining asosiy maqsadi farzandlarni qabila urf-odatlariga o‘rgatish, o‘z urug‘doshlarini hurmat qilish, kattalar va qabila boshliqlariga itoat etish, vatanini himoya qilishga undashdan iborat bo‘lgan. Zero, bitiktoshlarda o‘z yerini himoya

qilib qahramonlarcha halok bo‘lgan qabila boshliqlari ideal inson sifatida tavsiflanadi, yoshlarni ulardan ibrat olishga undaladi.

“O‘rta Osiyoda uyg‘urcha adabiy va rasmiy til o‘laroq shu darajada yuksalganki, uzoq muddat davlatlar o‘rtasida diplomatik til vazifasini o‘tagan. Masalan, 1027-yilda uyg‘ur va xitoy xonidan Mahmud G‘aznaviyga kelgan elchilar uyg‘urcha yozilgan maktub keltirganlar. Mahmud Koshg‘ariy qadimdan beri Qoshg‘ardan Yuqori Chingacha barcha Turk xoqon va sultonlari uyg‘urcha istifoda etganliklari, Chin va boshqa sharq qavmlari shu yozuvda turklarga maktub yozganliklarini va u yerlarda shaharliklar turkcha bilganliklarini ta’kidlash bilan uyg‘urchaning qanchalik keng yoyilganini ko‘rsatadi. Xorazmshohlari ham sharq turklari bilan uyg‘urcha (xatti uyg‘uriy) yozuvida xabarlashishardi. Xususan, qoraxoniylar davrida bitilgan dastlabki asarlar ham uyg‘ur yozuvida yozilgan”[106, 48-49]. Bizgacha yetib kelgan oltoy tilidagi matnlar uyg‘ur va runiy yozuvlarida bo‘lib, XVIII asrdan boshlab o‘rganilgan.

VI-VIII asrlarga tegishli runiy yozuvidagi matnlar hozirgi Xakas va Tuva Muxtor viloyatlari hududidagi (Enasoy daryosining yuqori qismi atrofidagi) toshlarga o‘yib yozilgan. Runiy yozuvida bitilgan O‘rxun yodnomalari esa VII-VIII asrga mansub O‘rxun daryosining Selenga havzasidan topilgan qabr toshlaridagi yozuvlardir. Bu qabrlar Kultegin, Bilge xoqon, Tonyuquq kabi yurt boshliqlariga tegishli bo‘lib, bitiklarda ularning hayoti va o‘limi haqida hikoya qilinadi.

Bilge xoqonning vaziri Tunyuquq buyuk Turon farzandiga xos millatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini quyidagi samimiy e’tiroflarida ifodalaydi: “Qopag‘on xon yigirma yetti yoshida taxtga chiqdi, kunduz o‘tirmadi, kecha uxlamadi. Men ham qizil qonimni to‘karchasiga, qora terimni oqizib uning xizmatida bo‘ldim. Il-tarish (Qutlug‘) xoqon himmat qilmasa yoki yo‘q bo‘lsa edi va men ham

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

ishlamasaydim, birlashgan turk yurti egasiz qolardi. Ular bilan birga chalishganim uchun turk millati birlikka qovushdi. Bugun Bilge xoqon ham ana shu zahmatlarning sharofati bilan turk va o‘g‘iz millatini idora etmoqda”[106, 85] deb yozgan edi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarlarga asoslanib ta’kidlash mumkinki, eng qadimgi davr Buyuk Turonida boshlang‘ich ta’lim rivojlanib, bolalar kichiklikdan xattotlik san’atiga o‘rgatilgan, ta’lim-tarbiyasining asosiy mazmuni yoshlarda vatanparvarlik, yurtparvarlik va mardlik va jasoratga intilishni tarbiyalashga qaratilgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Retro didaktik qadriyatlar nima? Misol keltiring.
2. Yozma yodgorliklarimizdan “Avesto”, O‘rxun-Enasoy va Kultegin tosh bitiklariga tegishli didaktik qadriyatlar misolida uzoq tariximizda qanday didaktik qadriyatlar ilgari surilganligini aytib bering.
- 3: “Avesto fayzları” asaridan foydalanib Avestoda ilgari surilgan didaktik qadriyatlarni topib yozing hamda jadvalni to‘diring

“Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal”jadvali

Ezgu fikr	Ezgu so’z	Ezgu amal
Shogird ustozining tavsiyalariga qulq solmagunicha, qalbini ilm eshitish uchun hozirlamagunicha uni fahmlay olmaydi	Azizim,ustozingga nisbatan yumshoq tuproqdek bo‘l.Qachon yumshoq tuproqqa mo‘l yomg‘ir yog‘sа, darrov o‘ziga singdiradi.	Muallimning ko‘rsatmalarini go‘zal tarzda eshitish, uni izzat qilish, xursandligi va minnatdorligini izhor etish

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Ilm o'rganishda tadrij va tartibga rioya qilgandagina muvaffaqiyat qozoniladi.	Do'stim, avvalgi fanni mukammal o'rganmasdan turib, boshqasiga kirishma.	Ha bir fanni ham amaliy, ham nazariy puxta o'rganish.
--------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Homidov H. "Avesto" fayzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. – 95 b.
2. O'g'uznama / nashrga tayyorlovchi Baxtiyor Isabek. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2007. – 40 b.
3. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T.: Cho'lpion, 1995. -104 b.
4. Болотова Ж.А., Кострикова Ю.В., Радченко Е.А., Рахманова М.Н. Ценности педагогической деятельности // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 1-2. – С. 257-259.

VII ASRDAN IX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

(*Qur'oni Karim, Hadislardagi asosiy didaktik qadriyatlar*)

Komil insonni tarbiyalash konsepsiysi Qur'oni Karim, Hadisi Sharifda o'z ifodasini topgan bo'lib, muqaddas kitoblarda axloqiy me'yorlar dastlab ikki turga – harom-halolga ajratilib, farz bajarilishi qat'iy, majburiy; manbud (sunnat) – majburiy bo'limgan, ma'qul; muboh – ixtiyoriy; makruh – harom, ta'qiqlangan axloqiy me'yorlarga ajratiladi. Ilk oyati “O'qi” so'zi bilan boshlangan Qur'oni karimda ilm, muloqot odobi, poklik ulug'lanadi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: “Kimgaki Olloh taalo yaxshilikni ravo ko'rgaydir, uni din ilmidan bahramand qilg'aydir, ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilg'aydir”[25,32] -deya uqtiradilar. Muhammad alayhissalom tomonidan ilm o'rgatish borasida muhim tavsiyalar beriladi: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, qiziqtiringiz, nafratlantirmangiz (o'zingizdan bezdirmangiz)”[25,33]. Hadislarda tayanilgan tushunarlilik, ko'rsatmalilik tamoyili (Muhammad alayhissalomning fikrni uqtirishda barmoqlarni turli shakllarda ko'rsatib tushuntirganlari), qo'llangan ta'kidlash (tayanch jumla yoki so'zni bir necha marta takrorlash) usuli some' (eshituvchi) tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda qariyb ming yildan ziyod tarixiga ega bo'lgan islomiy talim-tarbiya maktabi o'ziga xos didaktik qadriyatlarni ham tuhfa etgan.

Muqaddas Qur'oni Karimda odob-axloqli, yaxshi amalli, solih, mo'min,adolatli, shirin so'z, salomini kanda qilmaydigan, sahovatli, to'g'ri so'z, sharm-hayoli, ibodatli bo'lishga chorlash bilan birga, ularda insonni *ilm egallash va tafakkur yuritishga da'vat etilib, pand-nasihat, ibrat, eslatmadan foydalanish va to'g'ri xulosa chiqarishga* undaladi, ushbu diniy-didaktik

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

qadriyatlar maktab va madrasalarda diniy ilmlarni o'rgatishda qo'llanilgan asosiy ta'lif usullari, muhim didaktik qadriyatlar hisoblanadi. Xususan, An'om surasining 80-oyatida "Parvardigorm barcha narsani O'z ilmi bilan qamrab olgandir. Eslatma, ibrat olmaysizlarmi?"[114,89]; Yunus surasining 24-oyatida "Tafakkur qila oladigan qavm uchun oyatlarni mana shunday mufassal bayon qilurmiz"[114, 135]; Yunus surasining 39-oyatida "Ular Qur'on ilmini egallamasdan va ularga uning ta'vil, mohiyati ayon bo'lmasdan turib "yolg'on" dedilar. Ulardan avvalgilar ham mana shunday degan edilar. Mana endi unday zolim kimsalarning oqibati qanday bo'lganini ko'ring"[114, 136]; 57-oyatida "Ey insonlar, sizlarga Parvardigoringiz tomonidan pand-nasihat, dillaringizdagi buzuq e'tiqodlardan iborat narsalarga shifo va iymon keltirgan zotlar uchun hidoyat va rahmat (ya'ni, Qur'on) keldi"[114, 137-138]; 100-oyatida esa "U (Olloh) aql yurgazmaydigan kimsalarni azobga duchor qilur" [114,141] deyiladi. Shu tariqa, Qur'oni Karim qalblarga shifo, ham ilm, ham pand-nasihat ekani uqtirilib, insonlarni ilm egallah va borliq-tabiat hodisalarini tafakkur yuritib, anglashga intilishga chaqiriladi.

Qur'oni Karimda bilimdon insonni ulug'lovchi oyatlar ham mavjud bo'lib, "Yusuf" surasining 22-oyatida Olloh Yusuf alayhissalomga chiroyli amal qilganligi sababli hikmat va bilim bergenligi ta'kidlanadi. Shuningdek, tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lish asnosida ularning mavjudiyatini aql bilan idrok etish, tafakkur yuritish orqali uning hikmatini anglashga undovchi oyati karimalar ham insonni borliqdagi barcha narsalarni tafakkur yordamida anglashga da'vat etadi. Maslan, Nahl surasining 11-oyatida "U zot sizlar uchun o'sha (suv) yordamida (turli) ekinlarni, zaytun, xurmo, uzum va barcha mevalarni undirib-o'stirur. Albatta, bu narsada (ya'ni, bir xil suv yordaamida rangu ro'yi, ta'mu lazzati boshqa-boshqa bo'lgan meva-chevalarning unib-o'sishida) tafakkur


qiladigan qavm uchun oyat-ibrat bordir”[114, 179] deyiladi. Demak, diniy bilimlarni o‘rganishda, alloh yaratgan narsalarni aql bilan idrok etishda ko‘rsatmalillik va tushunarilik tamoyillari, **pand-nasihat, ibrat, istiqbolni ko‘rsatib tarbiyalash va eslatma usulidan** samarali foydalanilgan. Ushbu usullar umrboqiy didaktik qadriyat sifatida hozirgi kunda ham diniy va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi dunyoviy ilmlarni o‘rganishda faol qo‘llaniladi.

Birinchi renessans davri (ilk uyg‘onish davri - IX-XII asrlar)da ta’lim-tarbiya sohasida ijobiy o‘zgarishlar amalga oshib, ta’lim vositalaridan samarali foydalanishda katta tajribalar to‘plandi. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning birmuncha barqarorlashgani ham ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, somoniylar hokimiyati davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib, Buxoro, Samarqand, Marv, Balx, G‘azna, Hirot, Toshkent kabi shaharlar bilan Hazar, Bulg‘or, Rus va Xitoy mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

Qoraxoniylar davrida Tamg‘achxon rasman oliy hukmdor hisoblanib, ijtimoiy-siyosiy hayotda ulus hokimlarining (manbalarda ular iligxon atalgan) tutgan mavqeい kuchli bo‘ldi. Ulardan ayrimlari mustaqil siyosat yuritdilar. Farg‘ona (markazi O‘zgand) hamda Movarounnahr (markazi Samarqand) iligxonlari shular jumlasidandir. Mamlakatni iqtisodiy-siyosiy boshqarishda faol ishtirok etadigan saroy a’yonlari (xususan, elchilar)ga bilimli (astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini yaxshi bilish), aqli (shaxmat va nard o‘yinida o‘tkir raqib bo‘la olish), farosatli, kommunikativ jihatdan kirishuvchan, so‘zamol (so‘z va iboralarning ma’nolarini chuqur bilish va o‘rnida ishlatsiz), botir (harbiy san’atni chuqur o‘zlashtirish), jismoniy va ma’naviy sog‘lom (may va sharobdan narida bo‘lish) kabi talablar qo‘yilgan. Umuman olganda, X-XI asrlarda meros taqsim qilish, yer o‘lchash, kanal o‘tkazish kabi tabiiy talablar negizida matematika, geometriyaga oid amaliy

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

bilimlar yoshlarga o‘rgatilgan. Xususan, amaliy-matematik bilimlarga iqtidori bor yoshlар astronomik kuzatishlar, natijalarni qayd etish hamda umumiy xulosalar chiqarishga o‘rgatilgan. Bu davrdan boshlab madrasalarda ta’limning o‘ziga xos sharqona usullaridan foydalaniлган (3-rasm):



3-rasm. Madrasalarda qo‘llanilgan asosiy ta’lim usullari

Madrasalarda talabalarning mantiqiy mustaqil tafakkurini rivojlantirish uchun mantiqqa oid Hoshiya va Shamsiya darsliklari o‘qitilgan.

Bu davrda quyidagi ta’lim berish usullari qo‘llanilgan:

- va’z (ma’ruza);
- suhbat;
- kitobat (eshitganlarini yozib olish);
- sharh.

Va’z aytish bilan shug‘ullanuvchi shayxlar voiz deb nomlanib, ularni hurmatlab “mavlono” (“mavlo” arabcha - hoja, sohib ma’nosida) deb atashgan, islom ma’naviyati bilimdonlarini e’tiqodida sobit ilqli inson, xalqni haq yo‘lga yetaklovchi ma’naviy-ruhiy ustoz deb bilishgan. Voizlarning ma’ruzalari ochiq maydonda yoki masjid-madrasalarning katta o‘quv zalida amalga oshirilgan. Ochiq maydondagi ma’ruzalarda erkagu ayoldan iborat yuzlab

tinglovchilar ishtirok etishgan. Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning “Muin al-fuqaro” (“Tarixi Mullozoda” (Buxoro mozorlari zikrida) asarida keltirilishicha, Mavlono Jaloliddin bir kuni Balxda Hizr alayhissalom haqida va’z qilibdi. Mazkur va’z aytilgan vaqtida “ulug‘vor hissiyotlarni zaif taniga sig‘dira olmay, bir necha kishi jon beribdi. Valiy zot Buxoroda va’z qilganlarida o‘n ikki kishi va’z vaqtida qazo qilibdi. Shunda azizlardan biri: “Sen ustozingdan oliyroq manzil ochding. Hazrati payg‘ambarimiz salallohu vassalom va’zlarida kishining jon berishi haqida naql mavjud emas”, deb aytganlarida, mavlono Jaloliddin “hazrat dono tabib edilar, ammo men (faqir) nodon tabib ekanman” javobini qaytargan ekan[38,45].

Hadis ta’limi chuqur aqliy mehnat, xotirani tinimsiz mashq qildirish, notiqlik mahoratini talab etuvchi ilm sohasi hisoblanib, tolibi ilm ustozlar darajasiga etish uchun ovoz ohangi, talaffuzi, nutq ravonligi, ta’sirchanligi ustida ishlashi zarur bo‘lgan. IX-X asrdan boshlab oila boshliqlari farzandlarini mashhur hadis olimlaridan ilm o‘rganishi uchun hadis ta’limiga berishgan. Bolalar ochiq maydonda yoki maktab, madrasa binosida shayxlardan hadis o‘rganishgan. Shayxlar hadislarni yozdirish, yodlatish, hadis ma’nolarini suhbat va sharh orqali anglatish usulidan foydalanishgan.

Hadis o‘rganishning ikkinchi muhim bosqichi sahabalar yashagan yurtlarga borib, ulamolardan hadis o‘rganishni davom ettirish hisoblangan. Bunda ilm toliblariga ular eshitmagan, bilmagan hadislarni o‘rgatishga harakat qilingan.

Hadis ilmidan xabardor inson:

- hadis ilmi borasida bahslasha olishi,
- hadis o‘rganish talabida kelganlarni qaytarmasligi,
- aniq, dalil-isbotga ega fikrlarni ilgari surishi, har bir fikr va qarash mutloq isbot va dalillarga asoslanishi;
- o‘rgangan hadislari bevosita sahoba va tobeyinlarga tegishli bo‘lishi kerakligi kabilarni ta’kidlash mumkin

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Hozir ham ajdodlarimizning tinglovchilarga birdek kuchli ta'sir ko'rsatgan va'z ayta olish san'atini o'rganish, buning uchun pedagogika bilim yurtlari va malaka oshirish institutlarida notiqlik mahorati kurslari yoki pedagogik mahorat moduli asosida tegishli ko'nikma-malakalarini shakllantirish lozim.

Sharhlab o'qitish usuli madrasa, qisman maktab ta'limida ham eng uzoq qo'llanilgan usul hisoblanadi. Uning asosiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi (4-rasm):

Savol	Javob
<i>Qachondan qo'llanilgan ?</i>	IX asrdan XX asr boshlarigacha
<i>Sharhlab o'qish va o'qitish nima?</i>	Sharhlab o'qish o'quv fani mazmunini mavjud sharh kitoblar yordamida o'rganish Sharhlab o'qitishda mudarris sharh kitoblar yoki o'zi yozgan sharhlar asosida o'qitadi
<i>Sharhlab o'qish va o'qitishdan maqsad nima?</i>	Fanni talabaga tushunarli bo'lishini ta'minlash; Materialni soddalashtirish
<i>Sharh usuli qaysi fanlarda qo'llanilgan?</i>	mantiq, ilmi aruz, ilmi maoniy, ilmi bade' va b.
<i>Sharh yozgan (shorih) mualliflarning taniqlilari kimlar?</i>	Abu Nasr Forobiy, Husayn Voiz Koshifiy, Xoja Abulqosim Abulaysiy

4-rasm. Sharhlab o'qitish usuli tavsifnomasi

VIII-IX asr boshlarida xalifalikning markazi Bog'dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari (Platon (Aflatun), Aristotel (Arastu), Sokrat (Suqrot), Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus) kabilarning asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Xalifa Xorun ar-

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Rashid o‘limidan (813 y.) keyin uning o‘g‘li (Abdulloh) al-Ma’mun taxtni egallab, o‘zi hokimlik qilgan Marvdan ko‘plab O‘rta Osiyo olimlarini 819 yilda Bog‘dodga olib ketdi. U yerda ilmiy Markaz tashkil etib, aniq fan sohalarida katta kashfiyotlarni amalga oshirdi. Ushbu Ilmiy markaz (Bayt ul- Hikma) hozirda Ma’mun akademiyasi nomi bilan mashhurdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Muqaddas Qur’oni Karim va hadislardagi asosiy ta’lim usullari hamda didaktik qadriyatlar nimalardan iborat?
2. Hadis ilmini o‘rganish bosqichlari haqida so‘zlang
3. Sharhlab o‘qitish usuli mazmuni nimalardan iborat?

SHARQ UYG‘ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI. SHARQ UY‘ONISH DAVRIDA TA’LIMIY-AXLOQIY FIKRLAR RIVOJI

(Birinchi renessans davri (IX-XII asrlar)da ilgari surilgan didaktik qadriyatlar: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Abu Lays Samarqandiy, Roziy, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheraziylarning didaktik qarashlari)

IX-XII asr boshlari O‘rta Osiyo madaniy uyg‘onishining ilk asrlari sifatida olimlarimiz tomonidan e’tirof etilgan (M.M.Xayrullaev). Umuman, IX-XV asrlar Sharq tarixida oltin asr – Uyg‘onish davri deb ataladi. Ushbu davr ilm-fan va madaniyatning o‘rta asr sharoitida benihoyat rivojlangan davri hisoblanib, Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy singari ulkan shoirlar, Farobi, Beruniy, Ibn Sinodek allomalar yetishib chiqdi.

Didaktik qadriyatlarning Forobiy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Abuali Ahmad bin Ya’qub Roziy, Beruniy, Ulug‘bek asos solgan XX asr ma’rifatparvarlari rivojlantirgan hayotbaxsh g‘oyalarini chuqur o‘rganish va pedagogik ta’lim amaliyatiga tatbiq etish bugungi kunda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Xususan, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlarning risolalari darslik o‘rnida qo‘llanilib, madrasalarda matematik amallardan ikkilantirish, yarimlatish, so‘ngra, uchlantirish, to‘rtlantirish va h.k. o‘nlantirish va bularning teskarisi (uchga, to‘rtga, va h.k. o‘nga bo‘lish) usullari o‘rgatilgan. Madrasadagi darslik va mashq daftarlarida arifmetik amallarni qanday o‘rganish lozimligi ham ko‘rsatilgan, ya’ni talabalarning yaxshi o‘zlashtirishini hisobga olib, birinchi navbatda mufradni (bir xonali yoki birgina raqamdan boshlanib, bir yoki bir nechta nollar kiritilgan sonlar) mufradga qo‘sish va ayirish misollar vositasida tushuntiriladi. Shuningdek, madrasalarda ko‘paytirish amallarining o‘nga yaqin turlari

qo'llanilgan bo'lib, ular tikkalab ko'paytirish, devak shaklida ko'paytirish, nollar bilan ko'paytirish, jadvalda ko'paytirish, ravoq shaklida ko'paytirish, ko'paytuvchilarni ko'chirish bilan ko'paytirish, bir biriga to'g'rilab ko'paytirish, ko'paytuvchilarga ajratib ko'paytirish, bir biriga taqqoslab ko'paytirish kabi turlarga ajratilgan[41, 64].

IX-XII asrlar Sharq ta'lim-tarbiyasida o'ziga xos ilk uyg'onish davri hisoblandi. Bu davrda Markaziy Osiyo mutafakkirlari antik dunyo olimlari Suqrot, Aristotel, Aflatun va boshqalarning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari bilan tanishdilar. Ta'lim-tarbiyada insonparvarlik va shaxsni garmonik rivojlantirishga oid fikrlar ilgari surildi. Nasliy va atrof muhit ta'sirini e'tiborda tutgan holda, ta'lim-tarbiyaning mohiyati atroflicha o'rganildi.

X-XII asrlarda Buxoro va Samarqand shahrida ko'plab masjid-madrasaar barpo etildi. Hazora tumanidagi Deggaron masjidi, masjidi kalon (1127-yil), Dehqon dahasidagi nodir qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxona – “Dor-ul -fuqaro” (“Qashshoqlar uyi”) (Buxoro, XI-XII asr) ushbu davrda ta'lim-tarbiyaning rivojlanib borganini ko'rsatadi.

Bu davrda olimlar podshoh, sulton va amirlar saroyida to'planib, o'zaro muzokaralar qilishgan. Ayniqsa, xalifa Ma'mun hukmronlik qilgan 813-833 yillarda bu ajoyib an'ana avj olgan. U Marvda noiblik qilgan paytidayoq o'z atrofiga Xuroson, Xorazm, Mavarounnahr olimlarini to'plab, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirib turgan, 819-yilda esa o'zi bilan Bog'dodga olib ketgan hamda 200 yil faoliyat olib borgan “Baytul-hikma”ga asos solgan.

Ilm-fanning rivojlanishi natijasida yagona falsafa fanidan turli tabiiy va ijtimoiy fanlarning ajralib chiqishi tezlashdi. Natijada talaba va o'quvchilarga o'rjanadigan fanlar ko'lami kengaydi, ta'lim mazmuni boyidi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Ta’lim mazmunini boyitishda qadimgi Yunon mutafakkirlari Demokrit, Aflatun va ayniqsa Arastu asarlari muhim o‘rin tutadi. Ularning bevosita ta’sirida X-XI asrlarda Sharqda Abu Nasr Forobi, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va Ibn Sinolar tomonidan ilmlar tasnif etilib, yoshlar o‘rganadigan fanlar ko‘lami kengaydi.

Shuningdek, ushbu davrda Xorazmshoh Ali ibn Ma’mun va Ma’mun ibn Ma’munning ijtimoiy-iqtisodiy qo’llab-quvvatlashi orqali olim Abu Rayhon Beruniy rahbarligida Xorazm poytaxti Gurganj (Qadimiy Urganch)da Sharq ilm markazi “Dorul hikma va maorif” tashkil etildi. Unda Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masixiy, Abu Ali ibn Sino kabilar faoliyat olib borishdi.

“Dorul hikma va maorif” qisqa muddat davomida 1017-yilgacha amal qilgan bo‘lsa-da, matematika, kimyo, geodeziya, tibbiyot, mantiq, tarix, til-adabiyot kabi fanlar rivojlandi. Fanning amaliyot bilan aloqadorligi kuchayib, astronomik asboblar yasash. Yulduzlar koordinatsiyasini hisoblash, yulduzlar jadvalini tuzish bo‘yicha yutuqlarga erishildi.

Abu Abdulla Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)ning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” (Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) risolasi asrlar osha nafaqat Sharq, balki G‘arbda ham matematika va geometriyaga oid amaliy bilimlarni yoshlarga o‘rgatuvchi asosiy darslik vazifasini bajargan.

Bu davrda aniq bilimlar bilan birga, huquqiy bilimlar ham o‘rgatilgan bo‘lib, ta’limning maqsadi va vazifalari haqida ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Sharqda “al-muallim as-soniy” deb ulug‘langan **Abu Nasr Forobi** (873-950) “Fozil odamlar shahri” asarida maktab va madarasalarda yoshlarga huquqiy bilimlarni o‘rgatish va yoshlarni fuqarolik ruhida tarbiyalash, “Kattalarning aqli haqida kitob” (Kalom fi-aql al-Kabir), “Yoshlarning aqli haqida kitob” (“Kalom

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

fi-aql as-sag‘ir”) asarlarida aqlning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari g‘oyalarini ilgari suradi. U “ta’lim” va “tarbiya” atamalariga tavsif berib, nazariy bilimlar va amaliy tajribalar bilan aloqada talqin etadi. Uningcha, “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir” (16,284). Ya’ni, ta’limning negizida nazariya, tarbiyaning negizida amaliy malakalar yotadi. Narsa-hodisalarning mohiyatidan umumiyligida xulosa chiqarish, timsol va ramzlar ma’nosini anglash orqali bilimlarni o‘zlashtirish ilm egallashning samarali usulidir. Aql tabiiy-genetik asosga ega bo‘lib, madaniy muhit va ta’lim-tarbiya orqali rivojlanadi.

Forobiy yoshlarga qonunlarning mohiyati va afzalliklarini anglatish uchun mantiq fanini o‘qitish lozim deb hisoblaydi. Chunki “xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o‘rganishi zarur, keyinchalik bu xalqning o‘ziga foyda keltiradi”. Qonun ustuvorligi, unga amal qilish insonni oliyjanob qiladi, “oliyjanob badan o‘z go‘zalligi, kuchi, zaifligi, sog‘lomligi yoki semizligi uchun oliyjanob emas, balki qonunlarga mos hayot tarzi bo‘yicha ma’qul ko‘rilgan odatlarga rioya qilgani uchun oliyjanobdir”.

Forobiy iroda quvvatini yurakda bo‘ladigan asosiy quvvat deb hisoblab, aqliy va fikriy quvvatni inson mohiyatining asosi deb biladi. Uningcha, individual ta’lim berishning asosiy usuli ishontirish metodidir. Ustoz ilm oluvchiga rag‘batlantiruvchi so‘zlar aytishi va ilmga rag‘bat hosil qilishi zarur. Bunday so‘zlar ta’sir qilmasagina, uni qat’iy nazoratga olish, majburlash mumkin. Mutafakkir Arastu asarlariga yozgan sharhlari (“Falsafatu Arastutolis” (Arastu falsafasi) kitobi)da ilmu ul-yaqiyin (shak-

shubhasiz, rost ekaniga dalilga ehtiyoji yo‘q bilimlar)ning maqsadi, predmeti va bilimlarni o‘rgatish shakli borasida qator masalalarni ilgari suradi (16, 82) (bizningcha, didaktikani ham amaliy ilm sifatida ushbu tarkibga kiritish mumkin):

Ilm-ul yaqiynning maqsadi:
uni o‘rgatadiganlar qaysi
shakldan foydalanadilar?

O‘rgatish usullari: ilm-ul yaqiynni
o‘rganishning qanday shakllari mavjud?
Unda e’tiqod, ishontirish, tasavvur
usullaridan foydalaniladimi?

ilm-ul yaqiynni bilish, idrok etish san’ati deb atash mumkinmi?

5-rasm: Forobiy tomonidan ilm-ul yaqiynning mazmuni,
maqsadi, uni o‘rgatish usullari haqida ilgari surilgan masalalar

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Forobiy o‘rgatish va o‘qitish ilmini o‘ziga xos san’at deb bilib, motivatsiya, ishontirish kabi ta’lim usullari, ta’lim mazmuni hamda tafakkur psixologiyasi, o‘quvchi qobiliyatlarini shakllantirishda ta’limning o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Allomaning fikricha, “Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odatda ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida hosil qilinadi” (16, 285). Ilmga rag‘bati yo‘q o‘quvchilarga esa majburlash yo‘li bilan ilm-hunar o‘rgatiladi.

Uningcha, ta’lim-tarbiyadan maqsad – axloqli insonni voyaga yetkazishdir. Uningcha, axloq intellektual-aqliy rivojlanish bilan bilan yaxlit bir narsadir (6-rasmga qarang):

№	Forobiyning ideal insonga yuklagan axloqiy-ta'limiy talablari
1.	axloqli odam har tomonlama yetuk bo‘lishi, unda aqiliy taraqqiyot ustun darajada bo‘lishi, xotirasi va fahm-farosati kuchli, nutqi ravon, bilimga tashna bo‘lishi kerak;
2.	barcha a’zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu a’zolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin(16,286)
3.	barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;
4.	xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin;
5.	zehni shu darajada tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezdan bilib olsin;
6.	so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;
7.	bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin (16, 287)

6-rasm. Forobiyning ideal inson konsepsiysi

Ko‘rinadiki, Forobiy ishlab chiqqan ideal inson konsepsiyasining asosini yuksak tarbiya, bilimdonlik, oqillik tashkil etadi.

Shogirdga turli bilimlarni taqdim etishda ustozdan talab etiladigan ilk didaktik talab bilimlarni bayon etishda tahlil

(analitika)ga rioya etish, o‘z fikrlarini yetarli dalil va misollar bilan asoslashdan iborat.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) xuddi Forobiy kabi dunyonи kognitiv idrok etishda mantiqiy ratsional bilishga tayanadi. Uning fikricha, bilishda mantiqiylik, sabab, oqibat, dalil va isbot o‘zaro mutanosib bo‘lishi zarur: “Isbotlanuvchi narsa bilan isbot orasini birlashtiruvchi bir sabab bo‘lmasa, u dalil va misollar qabul qilinmaydi” (17,341). Abu Rayhon Beruniy nazmiy asarlarni badiiy-uslubiy go‘zal va yodlashga qulay deb bilib, ularni o‘qish o‘quvchiga rohat bag‘ishlaydi deb hisoblaydi: “Kishining ko‘ngli kelishgan va tartibli narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi” (18,15.) Chunki kitob tizma ravishda yozilsa. U tizma ichiga bir so‘z (yoki harf)qo‘shilsa yoki kamaytirilsa, tizma vazni buzilib, uni o‘zgartirilganligi darhol seziladi va ikkinchidan tizmani yodlash oson bo‘ladi (17, 33). Olim ilmlar istiqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi; odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmat qilishi o‘sha istiqbollilikning belgisidir deb uqtiradi (17,125).

U ta’limni o‘quvchilarning ruhiy xususiyatlariga monand tashkil etishni tavsiya etadi. Uning fikricha, ta’lim ilmiylik va izchillik prinsiplari asosida amalga oshirilishi zarur. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida didaktikaning ilmiylik prinsipini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishni tavsiya etadi:

- tafakkurni bekorchi fikr va hayollardan tozalash;
- amaliyotga asoslanish;
- bilishni mavjud narsalarning tarkibiy unsurlarini o‘rganishdan boshlash;
- narsalar mohiyatini o‘rganishda hissiy deduktiv uslubni qo‘llash;

- mantiq ilmini qo'llash: tahlil, isbot, dalilllash va umumlashtirish;
- kuzatish va solishtirish orqali haqiqatni aniqlash;
- eng to'g'ri va ravshan yo'l bilan yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga o'tish;
- uzoq o'tmishni bilish uchun predmetning, hodisaning tarixini va u xaqda boshqalarning bergan ma'lumotlarini o'rganish (17,114).

Uningcha, bilim va ma'lumotlarni taqdim etishda bir xillikdan qochish, fandan fanga o'tish yo'li bilan o'quvchini zeriktirmaslik zarur, chunki "bir xillik o'quvchini charchatadi va xotiraga malol keladi"(17, 115)

Alloma ilmiy bilishda **kuzatish va tajriba, natijalarni tekshirish, tahlil etish, umumlashtirish va qayta tajribadan o'tkazish** kabilarga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, faqat amaliyotgina erishilajak bilimlarning haqiqiyligini ta'minlaydi.

U matematik olim sifatida arifmetik amallarni bajarish usullari (birinchi navbatda mufrad (bir xonali yoki birgina raqamdan boshlanib, bir yoki bir nechta nollar kiritilgan sonlar)ni mufradga qo'shish va ayirishni misollar vositasida tushuntirish) hamda sonlarni oson yodda saqlash usullari[104,39] ni o'rgatadiki, bularni hozir ham ta'lim amaliyotga tatbiq etish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi.



Har bir narsani bilish - u narsalarning sabablari bo'lsa, shu sabablarni bilish orqali hosil bo'ladi va tugallanadi

Ibn Sino(980-1037) ta'lim jarayonini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirish lozim deb hisoblaydi. Avvalo bolalarni

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

birdaniga kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim; bolalar bilan o'tkaziladigan mashqlar bolaning layoqat va mayllariga mos bo'lishi zarur: mashqlar jamoaviy tarzda, jismoniy harakatlar vositasida tashkil etilishi lozim. Alloma "Tib qonunlari" asarining "Chaqaloqlarning bolalik yoshiga o'tgandagi tadbirlari to'g'risida" faslida "Bola olti yoshga yetgach, uni murabbiy va muallim ixtiyoriga topshiriladi. Ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi kerak; birdaniga uni kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim. Bola bu yoshga yetganda ovqat yeish oldidan ko'proq badantarbiya qilish buyuriladi"(56,90) deya tavsiyalar beradi. Uningcha, bola o'smirlik davrigacha Qur'oni Karim, arab tili, grammatika, she'r tuzish, odob-axloq yo'riqnomalari, jismoniy tarbiya, hunarmandchilik asoslarini o'rganishi lozim.




Guruhli o'qitish eng qulay va samarali ta'lim shakli

- bir-biridan ibrat-namuna olinadi, rag'batlantirish va musobaqalashish uchun sharoit yaratiladi.
- o'quv motivatsiyasi kuchayadi, o'zaro yaqinlik, do'stlik, xurmat tuyg'ularini tarkib toptiradi.



Aqliy rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirish

- munozara va muhokama, fikrni dalillar asosida isbotlash
- o'quv musobaqalaridan foydalanish



Yoshlarga ijtimoiy axloq qonun-qoidalarini anglatish

- guruhli o'qitish jarayonida axloq qoidalariga rioya qilish
- bir-biridan ibrat-namuna olinadi.

7-rasm. Ibn Sino ilgari surgan asosiy didaktik qadriyatlar


Alloma guruhli o'qitishni eng qulay va samarali ta'lim shakli deb biladi. Bunda tolibi ilmlar bir-biridan ibrat-namuna oladilar, rag'batlantirish va musobaqalashish uchun sharoit yaratiladi, ularda o'quv motivatsiyasi kuchayadi. Guruhli o'qitish yoshlar o'rtasida

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

o‘zaro yaqinlik, do‘slik, hurmat tuyg‘ularini tarkib toptiradi. Yoshlarni aqliy rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda munozara va muhokamaning o‘rnini, fikrni dalillar asosida isbotlash, ta’limning jamoaviy shakli va o‘quv musobaqalaridan foydalanish, o‘quv jarayonini do‘stona munosabat asosida kuchaytirish, yoshlarga ijtimoiy axloq qonun-qoidalarini anglatish kabilar Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan didaktik qadriyatlardir (7.-rasm).

Alloma mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat 4 qismdan tashkil topgan “Donishnoma” asarining “Mantiq” qismida fikrni dalillar asosida isbotlashning uch muhim komponentini ko‘rsatib beradi. Avvalo dalilning markazida tasdiq turadi. “Tasdiq esa qator asoslар orqali quvvatlantiriladi. Har bir asos esa dalillar bilan isbotlanadi. Sonli ma’lumotlar, matnlar va undan olingan iqtiboslar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan xulosalardan dalil sifatida foydalanish mumkin. Dalillash komponentlari – tasdiq, asos, isbot esa fikr(xulosa)ning to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi[23,92].

Shuningdek, ushbu asarda Ibn Sino mavjud ilmlarni tasniflash orqali ta’lim mazmuniga aniqlik kiritadi (8-rasm):



8-rasm. Ibn Sinoning “Donishnoma” asaridagi ilmlar tasnifi
Ibn Sino “Hayy ibn Yaqzon” falsafiy qissasida ijodiy-kreativ tafakkurning bilimlarni o‘zlashtirishdagi o‘rniga, farosat ilmini egallashning zaruriyatiga e’tibor qaratadi. Uningcha, inson farosat

yordamida o‘z-o‘zini nazorat qiladi, bilimi yuksaladi: “Farosat ilmi foydasi naqd bo‘lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o‘zlari yashirib yurgan fe’lu atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirishi natijasida o‘z bilging bilan unga boylanib qolarsan, yo undan yuz o‘girarsan. Farosat ilmi sening o‘zingni aslingda bor bo‘lgan instinctiv yaratilmalar, o‘zgartirilmagan tabiatlaringni ko‘z o‘ngingga keltirib qo‘yadi. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo‘li tegsa, sen juda o‘tkir bo‘lib ketasan. Agar seni bir aldoqchi yo‘ldan ozdirib, tuzog‘iga tushira olsa, aldanasan” (58).

Ibn Sino intellektual va axloqiy rivojlanishning uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilishi insonning baxtli bo‘lishining asosiy sharti deb hisoblaydi (23, 198).

Mashhur “Qobusnoma” muallifi **Unsur al-Maoliy Kaykovus** (1021—1098) aqlni 2 turli deb hisoblaydi: aziziy (tabiiy) va muktasib (kasbiy, ya’ni halol mehnat bilan topilgan aql. Aziziy aql allohning tuhfasi, ya’ni irsiy yo‘l bilan o‘tadi. Muktasib aqlga esa jiddu-jahd, harakat, mehnat, o‘z-o‘zini rivojlantirish bilan erishiladi(9-rasm).

Har ikkala aqlni rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya zarur. Shuningdek, “Qobusnoma”da, yoshlarga suxandonlik, ilm-fan (tabiiyot, astronomiya va musiqa, tib ilmi, handasa (geometriya)ni o‘rgatish orqali ta’limni amaliy jihatdan rivojlantirish g‘oyalari ham ilgari surilgan.



O‘z-o‘zida munozara va
suxandonlik qobiliyatini
rivojlantirish



fikrlarini ibratli misollar
bilan dalillashga
odatlanish



takrorlash va yodlash
yo‘li bilan ilmni
mustahkamlash

9-rasm. Kaykovusning o‘z-o‘zini rivojlantirish g‘oyasini tashkil etuvchi komponentlar

Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim **Abu Lays Samarqandiy** (taxm. 917-1003) madrasa toliblariga ustoz aytgan ma’lumotlarni yozib borishni tavsiya etadi. Munozara odobi tamoyillari sifatida: muoza qiluvchini hurmatlash, bahsda qizishib, baland so‘zlamaslik, lutf ko‘rsatish va odob saqlash; kamtarlik, maqtanchoqlik va kibrga berilmaslik kabilarni keltiradi. Uning fikricha, munozarada bu tamoyillarga rioya qilish lozim, chunki talaba “nohaq bahs qilsa va bu bilan faxrlanishni, kekkayishni xohlasa, bahs makruhdir”(15, 26-27).

Abu Lays Samarqandiy ilm olishda amal qilinishi zarur bo‘lgan talablarni ham keltiradi: ilmni takomillashtirish va targ‘ib qilish, ilm orqali xalqqa naf keltirish; ilm bilan amalni bir deb bilish, qalbi poklik va tilda aniqlik, to‘g‘rilikka rioya qilish, ilmni boylik orttirish va martabaga ko‘tarilish vositasi deb bilmaslik kabilar.



Ilimga rag'bat qilib, olimlar suhbatiga borgan kishi ta'lif oluvchilarning fazilatiga erishadi. Mazkur ishga jiddu jahd bilan g'ayrat qilsa, gunoh va xatolardan holi bo'ladi. Alloh rahmatiga sazovor bo'laveradi. Olimlar majlisini yaxshi ko'rishi ortadi: qalbi fosiq va nodonlar majlisidan soviydi, solihlar va ta'lif oluvchilar yo'liga kiradir.

Abu Lays Samarqandiy

Abu Ali Ahmad bin Ya'qub Roziy (933-1031) “Axloq takomili” nomli asarida o‘z davri nuqtai nazaridan bilimlarni egallashda ketma-ketlik, uzviylik, muayyan dasturga rioya etish g‘oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, kasal odamni davolash uchun tabib zarur bo‘lganiday, inson ruhi uchun ham ma’naviy tabib lozim. Roziy ilmlarni o‘rganishda deduktiv usslub hamda osondan qiyingga o‘tish tamoyillariga e’tibor qaratdi (15-rasm)

Birinchi bosqichda

tahlil usulini qo‘llashni o‘rganish uchun avval Arastuning “Nasihatlar” kitobini o‘rgatish kerak

Ikkinci bosqichda

Mantiq ilmi (barcha fanlarni o‘rganishning asosi sifatida mantiq fanini o‘rganish lozim)

Uchinchi bosqichda

diniy falsafa (“Ilohiyshunoslik” kitobi) ni o‘rganish

10-rasm. Roziy tomonidan taklif etilgan osondan qiyingga o‘tish orqali mavhum fikrlashga o‘rgatish bosqichlari[95,181]

Insonni aqliy rivojlantirish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirish zarur. Buni amalga oshiruvchi – ustozdir. Inson mavjud

olam(kull)ni yaxlitligicha anglay olsa, unga xos juz'larni ham (chunki juz'lar kull ichidadir) anglay biladi. Agar inson komillikning yuqori darajasiga yeta olsa, o‘zining ichki quvvat va qobiliyatini bilimiga muvofiqlashtirib, o‘zi bir olamga aylanadi, zero narsalarning surati uning mohiyatining bir qismi bo‘lib qoladi[95,78].

Yusuf Xos Hojib (1016-1070) “Qutadg‘u bilig” asarida yoshlarni ilm egallahsga undab, Qur’oni Karimda ilgari surilgan talim-tarbiyaning *eslatma, ibrat usullaridan* foydalangan. Asarning “Uquv qut beradi, bilim shon-sharaf”, “Bilimdan boshlanar donolik yo‘li”, “Xat chiroyli bo‘lsa, ko‘ngil ochilar”, “Olim ilmi elga bo‘ladi mash’al”, “So‘nggi o‘git” boblari yoshlarga bilim egallahning ahamiyatini anglatishga qaratilgan. Uquv (farosat) va zehn nasldan naslga o‘tsa ham, bilimlarni egallah uchun qunt bilan o‘qish va o‘rganish zarur. Mutafakkir “Bilimni biluvchilar uni qanday qilib bilib oladilar?” deb savol qo‘yadi va bu savolga bilimlarni kichiklikdan o‘rganish, bunda uzluksizlik tamoyiliga tayanish zarurligini uqtiradi. Ya’ni, inson bir umr o‘qishi, bilim egallashi lozim. Dunyoda haqiqiy kishi deb ataladigan ikkita toifa bor: ularning biri o‘rgatuvchi, bo‘lagi – o‘rganuvchi. Kishi bir narsani boshqalarga o‘rgatmasa, yohud o‘zi o‘zgalardan o‘rganmasa, uning hayvondan nima farqi qoladi?! Demak, muallimlik (o‘rgatuvchilik) va shogirdilk (o‘rganuvchilik) maqomi insonning bir umrlik yo‘ldoshi bo‘lishi kerak. Asarning ayrim boblari jumboqli savollarni yechish uslubiga asoslanadi. **Xuddi suqrotona savol-javob metodidagi** kabi bunda ham savollar tafakkurni faollashtirishni, mustaqil javob izlashni talab etadi. Masalan, “Jon va tan yetti andomga boqsa, ko‘riladiki, har bir a’zo o‘z ulushini talab qiladi. Ko‘ngil hamda ko‘zning totig‘i – muddaosi nima? Ular orqali jon nima ulush talab qiladi?”(116, 43) yoki “Xalqning orasida bilimli va bilimsiz, chig‘oy va boy, uquv-idrokli va zehnsiz, bechora va

gadoylar bor. Ularni yo‘lga boshlash uchun bek qanday bo‘lishi kerak?” (116, 44). Albatta, Yusuf Xos Hojib taqdim etgan ushbu metoddan ta’lim jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. U ma’qul ko‘rgan *ibrat-namuna usulida* ikki xil ma’naviy-axloqiy hodisa o‘zaro qiyoslanib, har biriga eslatma misol namunasi keltiriladi.

“Hujjat ul -islom” nomi bilan tarixda qolgan, “Mukoshafat-ul qulub” (Qalblar kashfiyoti), “Tavba kitobi”, “Ihyo ulumid-din” (“Din ilmlarini jonlantirish”) kabi ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlar muallifi, mudarris va voiz Imom **Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Abu Homid at-Tusiy al-G‘azzoliy (1058-1111)** g‘oyalari tasavvuf ta’limotiga xos ruhiy-akselogik, akmeologik yo‘nalishlarga tayanadi. Imom G‘azzoliy “Ihyou ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish) kitobining “Ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi odoblari haqida” deb nomlangan beshinchibobida madrasa talabalariga qo‘yiladigan talabalarni ishlab chiqqan. Ularni didaktik qadriyat sifatida hozirgi davrda ham qo‘llash mumkin:

Imom G‘azzoliyning madrasa talabasiga qo‘ygan talablari
Talaba avvalo qalbini jirkanch xulqlardan, mazmum – yomon sifatlardan poklab olishi kerak; (19,119).

Shogird ustozining tavsiyalariga qulq solmagunicha, qalbini ilm eshitish uchun hozirlamagunicha uni fahmlay olmaydi. Muallimning ko‘rsatmalarini go‘zal tarzda eshitishi, unga izzatli bo‘lishi, shukrini, hursandligini, minnatdorligini izhor etishi lozim

Talaba ustozga nisbatan yumshoq tuproqdek bo‘lishi kerak. Qachon yumshoq tuproqqa mo‘l yomg‘ir yog‘sа, darrov o‘ziga singdiradi. Xuddi shuning singari ustoz dars davomida biror narsa buyursa, o‘z fikridan voz kechib, so‘zsiz unga itoat etish talabaning burchidir. Zero, ustozning yanglish so‘zi uning o‘z nazdidagi to‘g‘ri so‘zidan foydaliroq. Manfaati katta bo‘lishi bilan

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

birga eshitilishi g‘aroyib sanalgan daqiq narsalar tajriba orqali bilinadi; (19, 123-b).

Tolibi ilm barchaga mahmud ilmlarni, ularning biron turini qoldirmasdan o‘rganmog‘i va oldiga qo‘ygan maqsadiga yetishmog‘i lozim. Ilmlarni o‘rganib bo‘lgach, umr sarmoyasi etsa, ularni chuqurlashtirishi kerak. Ilmlarning barchasini egallashning imkonи bo‘lmasa, eng muhimlari bilan shug‘ullanishi, ularni mukammallashtirishi lozim. Qolganlarining kerakli jihatlarini o‘rganish kifoya qiladi.

Ilmlar o‘zaro bog‘liq hamda bir-birining ko‘makchisidir. Hech bo‘lmasa, bilmaslik tufayli dushman bo‘lib qolmaslik uchun oz bo‘lsada, boshqa ilmlarni ham o‘rganish lozim. Chunki insonlar o‘zlari bilmaydigan narsalarning dushmanlaridir;

Ilm olishda shogird turli ilmlarga kirishib ketmasligi, barcha tartiblarga rioya qilishi va muhimrog‘idan boshlash lozim. Zero, inson umri barcha ilmlarni egallash uchun yetmaydi. Bas, shunday ekan, har bir ilmning chiroyli taraflarini o‘rganib, o‘sha ilmlarning o‘zi bilan kifoyalish kerak; (19,127-b)

Avvalgi fanni mukammal o‘rganmasdan turib, boshqasiga kirishmaslik. Chunki ilmlarning zaruriyatiga ko‘ra tartib-martabasi bor. Bir ilm ikkinchi ilmga yo‘l vazifasini o‘taydi. Demak, o‘sha tadrij va tartibga rioya qilgandagina muvaffaqiyat qozoniladi. ... Ya’ni, bir fanni ilmiy, amaliy o‘rganmaguncha, boshqasiga o‘tmaydilar. Demak, har bir ilmni mukammal o‘rganib bo‘lgach, ulardan yuqori darajadagi ilmga kirishmoq lozim; (19, 128-b).

Sharafli ilmlarga olib boradigan sabablarni ham bilish lozim. Sabablar deganda ikki narsa nazarda tutilyapti: birinchisi, natijaning sharafli bo‘lishi, bunga din va tib ilmlari misol bo‘ladi. Ikkinchisi, dalillarning quvvatli va ishonchli bo‘lishi, bunga hisob-kitob va nujum ilmlarini misol keltirish mumkin (19,129)

Tolibi ilm ilmlarning maqsadga yetkazuvchi nisbatini yaxshi bilishi lozim. Maqsadlarga yaqin va yuksak bo‘lgan ilmlar maqsadlardan uzoq bo‘lgan ilmlardan afzaldir. Muhim bo‘lgan ilmlar muhim bo‘lmagan ilmlardan muqaddamdir. Muhim bo‘lgan ilmlardan murod ahamiyatli bo‘lganlaridir. Sening dunyo va oxiratdagi holatingga bog‘liq bo‘lgan ilmlar ahamiyatli hisoblanadi (19, 131-b).

11-rasm. Imom G‘azzoliy talabanining ilm egallashiga qo‘ygan talablari

Imom G‘azzoliy ta’lim mazmuniga aniqlik kiritib, mavjud ilmlarni aniq fanlar (hisob, handasa, jo‘g‘rofiya kabilar), mantiq, tabiiy ilmlar, siyosiy ilmlar, axloqiy ilmlar, ilohiyotga oid ilmlar kabi turlarga bo‘ladi.


Olim ta’lim jarayonida she’rdan foydalanishni tavsiya etadi. Uning fikricha, she’rning nasihatga yaraydigan va hikmatlisini tanlab, so‘zni quvvatlash va e’tiborni jalg qilishda qo‘llash lozim. U o‘z fikrini payg‘ambarimizning “She’rda hikmat bor” deb aytgan so‘zлari bilan quvvatlantiradi, majlisda ta’lim oluvchilar sonining 10 nafar bo‘lishi lozimligi, ularning 20 taga yaqinlashib ketishi ko‘zlangan maqsadning hosil bo‘lishiga xalal yetkazishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bunga dalil qilib Junayd Bog‘dodiy tinglovchilar sonini 10 dan oshirmaganlari, ular ko‘payib ketsa, suhabatlarini to‘xtatganlarini yozadi (21, 90).

Olim ilm beruvchi nutqiga qo‘yiladigan birinchi talab – uning muayyan mazmun, ma’noga ega bo‘lishida ekanligini ta’kidlaydi. Nutq qanchalik go‘zal tashbeh va hayratli iboralarga boy bo‘lmisin, negizida ma’no bo‘lmasa, sog‘lom aqlning mevasi hisoblanmaydi: “Bunday so‘zlar so‘zlovchi tomonidan tushunmagan holatda aqlning qosirligi yoki eshitgan so‘zining ma’nosini tushunib yetishga ilmi noqisligi tufayli xayolidagi vasvasalardan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin” (21, 91). Qolaversa, aytilayotgan so‘z

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

tinglovchiga ham tushunarli bo‘lishi, ularda qiziqish, hayrat, ma’qullay olish yoki inkor etish imkoniyatini hosil qilishi lozim. Chunki “tinglovchi tushunmasa, so‘zlovchi tushunadigan so‘z bo‘lsa ham, uni gapirish durust emas ” (21, 92).

Shayx **Najmuddin Kubro** (1145-1221) ta’lim amaliyotini psixologik jihatdan boyitishga katta hissa qo‘shgan. U muroqaba (meditatsiya)ning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, shogird o‘zida ruhiy quvvat – latoif(latif quvvat)ni hosil qilmaguncha haqni to‘liq anglay olmaydi. Buning uchun ruhiy quvvatini oshirishi, butun fikru xayolini bir nuqta(dog‘)ga, doiraga jamlashi, alloh zikri bilan mashg‘ul bo‘lishi lozim. Bunda u yaratganning zikri bilan mashg‘ul bo‘lib, (*tazakkur*)(*eslash*), (*nazr-o‘rganish*), (*taamul*-meditatsiya muroqaba)),(*e’tibor*), (*tadabbur-o‘ylash*) va (*istibsar-tafakkur*) manzillaridan o‘tadi. Shunda uning haqni tanishga qaratilgan ruhiy quvvati ortadi (17-rasm):



12-rasm. N.Kubroning so‘fiylik qobiliyatini rivojlantirish nazariyasi

Allomaning «Al-usul ul-ashara» ("O‘n tamoyil") nomli kitobida islomiy ilmlar (alloh)ga erishish (sufiylik maqomlari)ning quyidagi

10 tamoyili ko'rsatiladi. Bular: 1. Tavba; 2. Voz kechish (**al-zuxd**); 3. Ishonch (**at-tavakkul**); 4. Qanoat (al-qonaa); 5. Xilvat (al-uzla); 6. Xotirlash, yodga olish (**mulazamat az-zikr**); 7. E'tiborini allohga qaratish (**at-tavajjux allah taollo**); 8. Sabr; 9. (Sezgirlik (al-muroqaba, meditatsiya); 10 Lazzat (**al-rido**).[124]

Najmiddin Kubro tasavvuf ilmini ta'lim mazmuning negizi deb bilib, talabalarni komil inson sifatida rivojlantirish uchun tasavvufning axloqiy poklikka asoslangan mazmunini ular ongiga singdirishga intildi:

Naqsh etsam - u toatimni parcha nonga,
Bersam uni itga — yotibon zindonga,
Kelgan esa -da ochligidan afg'onga,
Urmas tishini nomus etib ul nonga (80).

Ilk uyg'onish davrining allomalaridan "Ma'naviy-masnaviy", "Fiyhi ma fiyhi" (Ichindagi ichingdadir), «Mavoizi majolisi sab'a» (O'git va pand-nasihatlar) kabi bebaho asarlar muallifi Jaloliddin Rumi (1207-1273)ning asarlari ilk uyg'onish davridan boshlab nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham o'rganilgan. Jaloliddin Rumi hissiy-intuitiv bilishni tafakkurning oliy shakli sanab, o'z shogirdlarida tashbihli (badiiy tavsif va qiyoslashdan foydalanish orqali) tafakkur qobiliyatini o'stirishga harakat qilgan. Tashbihli, timsolli (misol va ibratga asoslangan) tafakkur esa san'at bilan uyg'un bo'lib, she'riyat bilan birlashib ketardi. Mutafakkirning o'zi komil ishonch bilan "Na burungi va na bo'lg'usi kitoblar uni botil qila olmaydi" (51,20). deb ta'riflagan "Ma'naviy-masnaviy" asari madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan, asrlar osha Sharq yoshlari uchun tarbiya darsligi vazifasini bajargan, ularni fikrlashga, ilm olishga undagan, ziyoli oilalar davrasida kunda mutolaa qilingan. Jaloliddin Rumi ilmni shunday bepoyon dengizga o'xshatadiki, uni qamrab olib bo'lmaydi. Lekin talabalar bamisoli g'avvos kabi ilm dengizidan gavhar terishlari shart:

Ilmu fan – dengiz ko‘rinmas unga had,
Tolib ilm unda g‘avvosdir faqat (68, 92).

Zero, ilmdan murod uni o‘rganish va o‘zlashtirishdir. Lekin ilmnii o‘rganish uchun jamiyat hurmatini qozongan ustozdan saboq olish lozim. Shogirdlikka qo‘yilgan talablar qanchalik og‘ir bo‘lmasin, uni ado etish, ustoz hurmatini o‘rniga qo‘yish kerak. Aks holda, shogird kamolotga erisha olmaydi:

Bo‘yla shogirdlikda senga bahra bor,
Ignas ersang gar, bo‘lursan zulfiqor.
Aylasang ustozga sarkashlik agar,
Bo‘lgay ul qobilling ham besamar (68, 110).

Shuningdek, Rumiy faol ta’lim tarafdori. U o‘quv jarayonida suhbatni, talabaning ustozga savollar bilan murojaat qilishini ma’qul ko‘radi:

Chun ilmning yarmi ermishdir savol,
Har kishi so‘rmoqqa topmaydir majol (50, 119).

Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (1203-1292) ning maktablarda (XIV asrdan XX asr boshlariga qadar) darslik o‘rnida o‘qitilgan “Guliston”(1257) va “Bo‘ston”(1258) asarlari hikmatlardan tashkil topgan. Bolalarga kichkinaligidan pand-nasihat va hikmatlarni singdirish ularning aqliy va axloqiy takomillashuvining negizi hisoblangan va bu hozir ham ta’lim tizimida amal qilinishi zarur bo‘lgan tarixiy didaktik qadriyat sanaladi. U ilgari surgan didaktik qadriyatlarda **nazariya va amaliyot birligi, axloqiy tarbiya va ta’limda ustaz nufuzi ustuvorligi, munozara va suhbatda dalil-isbotdan foydalanish** kabilarga urg‘u beriladi. Insonni o‘z-o‘zini rivojlantirishi zarurligi g‘oyasiga tayangan holda, Sa’diy aqliy rivojlanishni bilimlarni egallash, egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, aqliy qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat deb bildi. Uning xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan quyidagi baytlari ta’limda ustoz nufuzi tamoyilining qanchalik ahamiyatli bo‘lganini isbotlaydi:

Yubordi o‘g‘lini maktabga podsho,
Qilib qo‘yniga nuqta taxtacha jo.
Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:
“Ota mehidan afzal jabri ustod” (97,170).

Shayx Sa’diy ilm amali bilangina qadrli bo‘lishini, kitob o‘qib, unga rioya etmagan kishi bamisoli “ustiga kitob ortilgan eshak” kabi o‘qigan kitobidan hech bir naf ko‘rmasligini, shu sababdan ilmgaga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi:

Xarchand o‘qibsan — bilimdonsan,
Agar amal qilmading — nodonsan (97, 50).

Sa’diyning uqtirishicha, inson ilm egallagach, o‘z fikrini asoslashda dalil-isbotga tayanishi zarur. Shu sababli ustoz o‘z o‘quvchilariga fikrini dalillashni o‘rgatishi lozim:

So‘z demasang, senda kimning ishi bor,
Dedingmi, dalil ayt, isbotla takror (97,91).

Uning fikricha, “ustoz suhbatи jon ozig‘idir”. Lekin o‘qituvchi o‘ta muloyim bo‘lsa, o‘quvchilarni intizomda saqlay olmaydi, “muallim beozor bo‘lsa, bolalar sinfni bozor” qilib yuborishadi (97, 92).

Nasihat va ibrat ta’lim-tarbiyaning asosiy metodi sifatida diqqatga loyiq bo‘lsa-da, nasihatni kimga, qachon qilishni bilish kerak, chunki, qattiq dilli insonga nasihat kor qilmaydi:

Qora ko‘ngillarga o‘git foydasiz,
Toshga temir mixni qoqib bo‘lmaydi (97, 85).

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, ilk uyg‘onish davrida nazariya va amaliyat birligi va axloqiy tarbiyaning ustuvorligi, madaniyatga muvofiqlik prinsipi (Forobiy), individual ta’lim asosida bolaning layoqatlarini o‘stirish, aqlini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya birligi, ta’limda ustoz nufuzi ustuvorligi tamoyillari, eslatma, ibrat, pand-nasihat, suhbat, takrorlash, ma’ruzani yozib olish usuli yetakchilik qilgan; Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, masal,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

matal, hikmatli so‘zlar, dostonlar, matematika, astronomiya, geometriya, huquqiy bilimlar, musiqa, tib ilmi kabilalar ta’lim mazmunini tashkil etgan (al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Beruniy, Imom G‘azzoliy, Muslihiddin Sa’diy Sheroziy kabilarning didaktik qarashlari misolida).

IX-XII asrlarda mo‘g‘ul bosqini (1218-1221 y.y.)ga qadar Markaziy Osiyo ta’lim-tarbiya amaliyoti va ta’lim mazmuniga shu davrda vujudga kelgan ikki falsafiy oqim g‘oyalari kuchli ta’sir ko‘rsatdi (mazkur ta’sir to XX asrga qadar ham o‘z kuchini yo‘qotmaganini ta’kidlash joizdir). Bular: diniy aqidalarni aqliy-mantiqiy usulda o‘rganuvchi mutakallimlar hamda aqidalarni o‘rganishda hissiy-intuitiv bilishga tayanuvchi mutasavvuf (so‘fiy)lar. Biz ularni bir-biriga qarshi qo‘ymay, aksincha, bir-birini to‘ldirishgan, deb hisoblagan holda, hissiy-intuitiv bilim tarafdorlari (Imom G‘azzoliy, Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy va h.k.)ning ta’lim mazmuniga vahdati vujud (tajalli)nazariyasi¹ni kiritganlari hamda muroqaba (o‘z-o‘zini qat’iy cheklash) hamda musohaba (o‘z-o‘zini kuzatish) usullari vositasida ilmi-asrordan saboq bergenlarini didaktik qadriyat sifatida e’tirof etamiz. Sababi aynan shu saboqlar insoniyatga ko‘plab valiylarni taqdim etdi.

Imom G‘azzoliy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy kabi allomalar Markaziy Osiyoning turli hududlarida yashab ijod etishgan bo‘lsada, ularning merosi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya an’analarining shakllanishida birdek muhim ahamiyatga ega. **Imom G‘azzoliy** asli tuslik (mashhadlik) qashshoq hunarmand oilasida tug‘ilgan bo‘lsada, ilm zahmatiga chidab, boshqa zamondoshlari kabi xorijiy yurtlarda eng kuchli ustozlardan ilm olgan. U yashagan davrda ilm toliblari Sharq mamlakatlaridan

¹ (arab. – jismoniy yagonalik) — Allohnigina yagona mavjudlik deb hisoblovchi panteistik ta’limot. Unga ko‘ra, dunyo va undagi bor narsalar allohniki, uning aksi, ya’ni tajallisidir

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

o‘zlariga ma’qul ustozlarni topib istagan sohalari bo‘yicha ilm olishgan. U Jurjonda fiqx (Muhammad Razkoniy), Naysoburda fiqh, usul, xilof va jadal ilmini (Imom Xaramayn) egallagan. O‘sha davrda olimlar o‘z ilmini shoh, amir yoki vazir saroyida bilimdonlar ichida munozaralarda g‘olib chiqish bilan isbot etishgan. Imom G‘azzoliy ham Bag‘dodda vazir Nizomulmulk saroyida ilmiy munozarada g‘olib chiqib, “Nizomiya” madrasasining bosh mudarrisi lavozimiga erishgan; **Najmiddin Kubro** asli xorazmlik bo‘lib, boshqa zamondoshlari kabi Sharq ilm markazlarida, xususan, Misrda Sharq falsafasi, Nishopur, Tabriz, Makkai Mukarrama va Iskandariyada hadis ilmini (Abul Makkorim Lubon va Abu Jafar Samdloniy, Abu Mansur Xaft, Makkai Mukarramada Abu Muxammad Tabbex va Iskandariyada Abu Tohir Salafiy) o‘rganadi. Umrining 25 yildan ortig‘ini ilm egallahsga sarf etgan olim 40 yoshga yaqinlashganida yurti Xorazmga qaytadi. 1221-yilda 76 yoshda Vatan uchun ozodlik kurashida bosqinchi mo‘g‘illar tomonidan qatl etiladi; **Jaloliddin Rumiy** asli afg‘onistonlik bo‘lib, shayx Muhammad Bahouddin Valad xonardonida dunyoga kelgan. Uning oilasi ham Chingizxonning Markaziy Osiyodagi qonli yurishi tufayli Turkiya (avval Larende, Keyin Kunya)ga ko‘chib ketadi. Bu qonli yurish Markaziy Osiyodagi iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy, demak, ta’lim tizimining ham tanazzuli sababchisi sifatida Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davrining fojeali yakun topishiga olib keldi. Bu davrda ilm-fan va ma’rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo‘lmadi. Bosqinchilar to‘s-to‘poloni vaqtida Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta kutubxonalar yonib ketdi. Misol uchun Buxoroda “Mas’udiya” madrasasi va katta kutubxona yonib ketdi (74). Muarrixlar A.Vamberi (47), Rashid-ad-din (87), Ibn Botutta (59) kabilarning guvohlik berishicha, 1218-yil mo‘g‘ullar istilosi Markaziy Osiyoda qariyb 1 asrga cho‘zilgan ijtimoiy, ta’limiy-madaniy tanazzul davrining boshlab berdi. Ibn

Botutta qariyb 100 yildan so'ng Buxorodagi ilmiy-madaniy tanazzulni tavsiflab: "Bu shahar bir vaqtlar Jayhunning u sohilidagi shaharlarning eng ulug'i edi. La'nat mo'g'ul Tengiz (Chingiz) uni shu qadar xarob qilganki, masjidu madrasalar... bari vayron bo'lib yotibdi... (Odamlar) orasida ilm-fandan xabardor yo unga qiziquvchi biron kimsa yo'q"(59, 23) Mo'g'ullar inson uchun yaroqli jamiki narsalarni, jumladan, ilm o'choqlari va bilimdon ustozlarni yakson qildilar. Mo'g'ullar istilosi tufayli, Jaloliddin Rumi Balxda tug'ilib, Turkiyada voyaga yetdi. Ya'ni, bolaligida oilasi bilan ona yurtidan bosh olib ketishga majbur bo'ldi; Sa'diy Sheroziy Sherozda tug'ilib, Bag'dodda ("Nizomiya" va "Mustansiriya" madrasalarida) kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarfu nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib xamda boshqa tabiiy va aniq fanlar ta'lim oldi. Mo'g'ullar tasarrufidagi mamlakatlarda ta'lim olish uchun shart-sharoit yo'q bo'lsada, bilimlarini yanada oshirish uchun Sharqning barcha mashhur shaharlaridan ilm izladi. Oqibatda uning asarlari Markaziy Osiyoning deyarli barcha maktab-madrasalarida asosiy darslik sifatida o'qitildi.

Xulosa qilib aytganda, Imom G'azzoliy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumi, Sa'diy Sheroziylar tomonidan *axloqiy tarbiyaning ustuvorligi*, bilimlarni she'r orqali singdirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun ilm toliblari sonini chegaralash (10 tadan oshirmaslik), ta'limda tushunarilik tamoyili, o'qituvchi nutqining mazmunli, ma'noli bo'lishining zarurligi (*Imom G'azzoliy*), ta'limda meditatsiyadan foydalanish (*Najmiddin Kubro*), faol ta'lim (ustozga savollar bilan muojaat etish, *J.Rumi*), ilm va amaliyot birligi, ta'lim-tarbiyada ustozni ulug'lash, fikrni dalillash va isbotlash (*Sa'diy Sheroziy*) kabi didaktik qadriyatlar ilgari surildi.

**QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN
ILM-MA’RIFATNING RIVOJLANISHIDA
SHARQNING G‘ARBGA TA’SIRI²**

Arablar Ispaniyada arab va ispan tilida ta’lim beruvchi yuzlab maktablardan tashqari oliy o‘quv yurtlari ham ochdilar. Ularning dastlabkisi IX asrda Kordova tashkil etildi. IX—XIII asrlarda ilmga chanqoq ovrupolik yoshlar Ispaniyaga kelib avval til, madaniyatning umumiyligi elementlarini o‘zlashtirib so‘ngra madrasalarda ta’lim oladilar. Ispaniyadagi arab universitetlarini tamomlab vatanlariga qaytganlarni "mag" (ya’ni zardusht), hamma bilimlardan xabardor deb ataganlar. U davrdagi madrasalar bizning tushunchamizdagi oliy diniy o‘quv yurti bo‘lmay, haqiqiy universitetga yaqin turgan. Ta’lim maskanlarida ilm-fanning turli sohalariga doir eng so‘nggi yutuqlardan bilim berilgan. Kordova universitetidan keyin birin-ketin Sevilya, Toledo, Valensiya, Granada madrasalari tashkil etiladi. Ovrupodagi eng qadimiy ta’lim o‘choqlari Parijdagi Sorbonna, Angliyadagi Kembrij universitetlari esa XII asrda tashkil etilgan.

Arab raqamlari deb ataluvchi raqamlar (1, 2, 3, 4, va h.k.) Ovrupo mamlakatlarida Rim papasi Silvestr II (999—1003) buyrug‘i bilan joriy etilgan. Aslida bu raqamlarni Muhammad Muso Xorazmiy hind raqamlari asosida ishlab chiqqan edi. Silvestr II buyrug‘igacha Ovrupo mamlakatlarida o‘ta noqulay rim raqamlaridan foydalanganlar (Silvestr II yoshligida Ispaniyada ta’lim olgan, arab tilini bilgan. U fanlarning turli sohalaridan yaxshigina xabardor odam bo‘lgan).

Ispaniya yoki Sitsiliya arablari bilan uchrashmaguncha Ovrupo mamlakatlarida hech qanday ilmiy meditsina bo‘lgan emas. Fikrimizning dalili sifatida ispaniyalik arab tarixchisi Husam ibn

² Material F.Sulaymonovning “Sharq va g‘arb (Qadimgi davrlar va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). Monografiyasiga asosida tayyorlandi (T.: O‘zbekiston, 1997. – 415 b.) – 260-261-betlar.

Munqis asaridan olingan quyidagi parchani keltiramiz: "Salb yurishlari kezlari fransuz koroli Andalus xalifasiga chopar yuborib, tajribali shifokor yuborishni iltimos qilgan. Xalifa qo'shni mamlakat koroli iltimosini bajo keltirib, o'zining shaxsiy shifokorlaridan birini yuboradi. Korol shifokorga bir ritsar va bir xonimni davolashni buyuradi. Ritsarning bir oyog'i yallig'lab shishib ketgan, qorasonga aylanish xavfi bor edi. Tabib uni sharqona usul bilan davolab, xavfning oldini oladi. Xonim esa oshqozon-ichak kasal- 260 ligiga duchor bo'lib, ahvoli nochor edi. Tabib unga dori-darmon berib, parhez tayinlaydi, kasal ancha yengil tortadi. Ammo muolaja tugamay, qirol fransuz tabibini chaqirtirib, bemorlarni davolashni topshiradi. Tabib ritsarga "Ikki oyoq bilan o'lishni istaysanmi yoki bir oyoq bilan yashashni istaysanmi?" degan savol beradi va yashashni istashi haqida javob oladi. Shunda u to'nka keltirib bolta bilan ritsar oyogini chopadi. Mo'ljaldagi joy chopilmagach, ikkinchi marta bolta uradi va tizza suyagini chilparchin qiladi. Yigit til tortmay o'ladi. Ayolni ko'rib "buning ichiga shayton kirib olgan, uni haydash kerak" deydi. Sarimsoq piyoz bilan gorchitsa yediradi. Xonimning ahvoli yanada og'irlashadi. Shaytonni boshqa yo'l bilan chiqarmoqchi bo'lib sochini qirdiradi. Miya usti terisini kesib, ochilgan joyiga sarimsoq piyoz bilan tuz ishqalaydi. Bunday muolajadan xonim ham to'ppa-to'g'ri narigi dunyoga ravona bo'ladi. Xalifa shifokori Ispaniyaga qaytadi". Ibn Munqis bundan boshqa bir qancha misollarni ham keltiradi.

X asrda Italiyannig Salerno shahrida meditsina maktabi tashkil etilib, unda Doinolo ismli yahudiy Sharq meditsinasidan o'rta boshlang'ich ma'lumot bergen. Faqat XII asrda Toledoda Ibn Sinoning "al-Qonuni" olim vafotidan 56 yil keyin Italiyalik Herardo tomonidan qisqartirilib, osonlashtirilib tarjima qilingan va shundan so'ng olim ta'limoti asrlar osha sekin-asta tarqaladi. 1279-yil Rimda yahudiy Natan ta Meati tomonidan "Qonun" to'liq holatda yahudiy

tiliga ag‘darilgan. Bizning tushunchamizdagi kasalxonalar Ovrupoda faqat 1500 yillardagina tashkil topadi. Unda Ibn Sino bilan bir qatorda ar-Roziy asarlaridan ham foydalanadilar. Ibn Sino "Qonuni" esa 1500-yilgacha 16 marta chop etiladi. To XVIII asrgacha Ovrupo meditsinasi faqat Sharq tabobati asosida ish olib borgan. Ovrupoda matematika fanining bilimdoni yuqorida tilga olingan papa Silvestr II bo‘lib, uning faoliyatini davom ettiruvchilar bo‘lmadi. Ilmi falakiyotdan ham birorta ish qilgan ovrupolik olimni tilga ololmaymiz. Silvestrning buyrug‘i bilan qabul qilingan arab raqamlari ham XIII asrgacha amalda qo‘llanmadi. 1202-yil pizalik Leonardo Fibonachcho Jazoir — Piza o‘rtasida savdogarlik qilar va arablardan o‘nlik raqamlarni o‘rganib, uning afzalligi haqida risolacha yozadi, 261 o‘g‘illarini Jazoirda Sharq matematikasiga o‘qitadi. Leonardonning kitobchasi tufayli Ovrupoliklar arab raqamlarining afzalligini anglaganlaridan so‘ng sekin-asta hayotga tadbiq etadilar. Raqamlar bilan birga Ovrupoga yangi so‘zlar ham kirib keladi — fransuzcha, nemischa, inglizcha, ruscha "цифра" so‘zleri arabcha "sifr" - "bo‘shliq" degan so‘zdan olingan. XII asrga kelib Ovrupo mamlakatlarida ilmi nujumga ham qiziqish boshlanadi. Yuqorida nomi keltirilgan isaviya diniga o‘tgan yahudiy Pedro Alfons arab tili, sharq ilm-fani bilan yaxshigina tanish, ayniqsa, astronomiya bilan uncha-muncha shug‘ullangan edi. Alfons 1110 yil Angliyada korol Genrix I ning shifokori sifatida xizmat qiladi va fanlarning boshqa sohalaridagi bilimlarini ham tarqatadi. Alfonsning Angliya va Fransiyada Sharq astronomiyasini tarqatishdagi roli katta. Uning ta’siri ostida Angliyada astronomiya shakllanadi va rivojlanadi (Uolcher, batlik Adelyard, Robert Grosseteste). Ayniqsa, Grosseteste (vafoti 1253 yil) tabiat hodisalarini izchil kuzatib borib, borliqning asosini matematik prinsiplar tashkil etadi, degan xulosaga keladi. XII asrgacha Ovrupoda din arboblari tomonidan mantiq va falsafa fanlari,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Aristotel va Platonning ba'zi asarlari isaviylashtirilib, lotin tiliga ag'darilgan bo'lsa-da, faqat Sharq falsafasi ta'siri ostida bu fanlarga qiziqish uyg'onadi. Ispaniyalik Gundisalvo (XII asr) tarjimon sifatida Sharq falsafasi bilan yaxshigina tanish edi. U "Inson ruhining manguligi", "Falsafaning bo'linishi" asarlarida Allohn "harakatsiz harakatlantiruvchi" sifatida talqin etib, Ibn Sinoning "Kitob ash-shifo" va al-Gazzoliyning "Maqosid al-falsafa" asarlarining ta'siri ostida din ilmiga fizikani olib kiradi. Aristotel asarlari Boetsiy amalga oshirgan lotincha tarjimalari orqali ilk o'rta asrda ma'lum bo'lsa ham, buyuk faylasuf ta'limoti Forobiy, Ibn Sino asarlary, ayniqsa, Ibn Ro'shd sharhlari orqali keng tarqaldi. Buyuk Albert (1206—1280) va Akvinolik Foma Aristotel ta'limotini xristian diniga xizmat qildirishda Sharq aristotelchiligidan keng foydalanganlar.

IX—XI asrlarga kelib Ispaniyada ham Eron, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, adabiyotiga qiziqish jarayoni boshlanadi. Movarounnahrdan chiqqan olim, faylasuflar asarlarini axtarib topish, ularni o'rganish, sharhlar yozish keng ko'lama olib boriladi. Bu borada, ayniqsa, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino asarlariga qiziqish katta bo'lган. Adabiyotda ham fors tilidagi adabiyot, ayniqsa, odob mavzuidagi kitoblar va she'riyat an'analarini, forscha iboralarni ispan-arab she'riyatiga olib kirish hollarini uchratamiz (Ibn Abu ar-Rabbihiy — "Al-Iqd al-Farid"). Kordova aslzodalari orasida forsiy hayot tarzi, rasm-rusumlariga rioya qilish moda hisoblangan.

Abdurahmon Soniyning taklifi bilan Bag'dodlik bastakor va ashulachi Ziryabning Kordova ga kelishi Andalus madaniy hayotida katta voqeа bo'ldi va Sharq xalqlari madaniyatiga qiziqishni yanada kuchaytirdi. Ziryabning asli ismi Abul Hasan Ali ibn Nafi bo'lib, Eron madaniyati vakili edi. San'atkor Ispaniyaga bir qancha sharqona yangiliklarni — hayot tarzi, rasm-rusm, taomlar, kiyinish, urf-odat, san'atda Sharq mamlakatlariga xos moda olib keldi. U

Kordova go‘zallik korxonasi ham ochdi. Ziryab amalga oshirgan ishlarning yana biri Kordova musiqa, ashula va raqs matabining ochilishi edi. San’atkorning bu faoliyati faqat arablar Ispaniyasi uchungina emas, balki unga chegaradosh boshqa mamlakatlar adabiyoti va umuman madaniy hayoti uchun ahamiyatli edi.

Abdurahmon Soniy davrida, uning an’anasini davom ettirgan ispan amirlari islom yurtlari va qo‘shni xristian mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Ayniqsa, dengiz savdo yo‘llari keng rivoj topdi, O‘rta yer dengizidagi kemalarning ko‘pchilik qismi ispan arablari qo‘lida bo‘lgan. Ispaniyada tayyorlangan zebu-ziynat, gilam, mo‘yna, mato, charm, qog‘oz, oltin, kumush idishlar dengiz savdogarlari tufayli jahonga tarqaldi. Bu davrda Ispaniyada Qur’on, Muhammad al-Buxoriyning hadislar to‘plami kabi diniy asarlar qayta-qayta ko‘chirilib, Qur’onga tafsirlar yoziladi, arab tili gramatikasi (Ibn Malik, "Alfiya"), lug‘atlar tuziladi (Ibn Sidaning 17 jildlik "al-Muxassas" lug‘ati), adabdan ham qator asarlar yaratiladi (bular orasida eng ahamiyatlisi Ibn Abu ar-Rabbihiyning "Al-Iqd" risolasi). Abu Bakr at-Turtushiyning mashhur "Siroj al-muluk" risolasi, Haririyning "Maqomalar"i ham shu davrda Ispaniyada yaratilgan edi. Umuman arab adabiyoti, falsafasi, fanining taraqqiyotida arab ispaniyasi ijodkorlarining hissasi katta bo‘lgan.

Birinchi renessans davrida keng qo‘llanilgan yodlash usuli haqida ayrim ma’lumotlar:

O‘tmishda mantiqiy yodlash usulida o‘quvchilarga ma’lum bir manba yod olish uchun topshirilar ekan, avvalo uning ichki (botiniy) ma’nosи ona tilida tushuntirib berilgan, ya’ni sharhlangan; o‘quvchi o‘zi yod olgan matnning xoh u fors tilida bo‘lsin, xoh arab tilida avvalo ma’nosini, so‘ngra esa matnning o‘zini so‘zlab bergen;

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

o‘quvchilarga topshiriladigan va yodlash talab etiladigan matnlarning ko‘proq qofiyali tarzda bo‘lishiga e’tibor berilgan.

Yodlash xotirani chiniqtirishi isbot talab etmaydigan haqiqat. Masalan, Imom Buxoriy 15 yoshigacha 70 mingga yaqin hadisni yoddan bilganlar, Abul Azhar dedi: “Samarqandda 400 ta hadis toliblari 7 kun davomida to‘planib, Muhammad ibn Ismoilni xatoga tushirmoqchi bo‘ladilar. Ular Shom isnodi³ni Iroq isnodiga, Yaman isnodini Haromayn(Makka va Madina) isnodiga aralashtirib, matnlarni ham chalkashtirib yuboradilar. Muhammad ibn Ismoil barcha hadislarni isnodlari bilan joy-joyiga qo‘yib aytib beradi”(87)

Yod olish 20 asrning boshlarigacha bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy usuli hisoblangan. Beruniyning “Hindiston” asarida matnlarni yod olishda ichki qofiyali matnlardan foylanish tavsiya etiladi. Yevropada ham o‘rta asrlarda bilimlarni o‘zlashtirishga ta’lim berish tilining ona tilida bo‘lmasligi to‘sqinlik qilar edi. O‘rta Osiyoda esa XX asrning boshlariga qadar ta’lim ona tilida emas, arab yoki tojik tilida berilgan. Arab tili muqaddas til hisoblanib, matnlar arab tilida yod oldirilar edi.

IX-X asrlarda shayxlar ota-onalarning istagiga ko‘ra, havasmand, iqtidorli bolalarni guruhga to‘plib, ularga hadis o‘rgatishgan. Ya’ni, ular ustozlarining aytgan hadislarini yozib olishgan va yodlashgan, bunga o‘sha davrda diniy bilimlarni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan eng muhim tamoyillardan biri - islom aqidalarini shunchaki ongli bilish emas, ularni aynan so‘zma-so‘z yoddan bilish zarur hisoblangan, ayni vaqtda, bunda islomiy aqidalarini bilib-bilmay tuzatishdan saqlanish, islomiy g‘oyalarga daxl qilmaslik tamoyiliga rioya qilingan.

³ Isnod – muayyan bir hadisni aytgan hadischilar ketma-ketligini belgilash. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo‘lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to‘plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko‘rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi.

IMOM G‘AZZOLIY E’TIROFI:

G‘azzoliy yoshlida ona yurtida Ahmad ibn Muhammad Rozkoniydan fiqh ilmini o‘rgandi. So‘ngra Jurjonga safar qilib imom Abu Nasr Ismoilining huzurida ta’lim oldi va ko‘plab narsalarni yozib oldi. Yozib olingan narsalar o‘sha vaqt tilida «ta’liqa» deb nomlanar edi. Keyin G‘azzoliy ona yurti Tusga qaytdi. Yo‘lda ajoyib hodisa yuz berdi. U haqda G‘azzoliyning o‘zi quyidagilarni aytadi: «Yo‘l to‘sarlar yo‘limizni to‘sdlilar va ular mening boru budurimni olib qo‘ydilar. Ketayotganlarida ortlaridan ergashdim. Shunda ularning boshlig‘i menga qarab: «Orqangga qayt! Sho‘ring qursin! Bo‘lmasa, halok bo‘lasan!» dedi. «Sen Undan salomatlikni tilaydigan zot nomi bilan so‘rayman, faqat ta’liyqalarimni qaytarib ber. Baribir sizlarga ularidan foyda yo‘q», dedim. «Ta’liyqang nima?» dedi u. «Anavi xaltadagi kitoblar. Men ana o‘shalarni eshitaman, yozib olaman va ichidagi ilmni olaman deb hijrat qilganman», dedim. U kulib yubordi-da: «Qandoq qilib sen ulardagi ilmni bilibsan!? Biz ularni sendan tortib oldikku! Sen ulardan judo bo‘lding! Ilmingdan ajrab qolding!» dedi. So‘ngra u odamlaridan birga amr qilgan edi, u xaltani menga qaytarib berdi. O‘sha odamning tili bilan Alloh taolo meni to‘g‘ri yo‘lga irshod qilishni iroda qilgan bo‘lsa ajab emas. Tusga yetib borganimda keyin uch yil harakat qilib barcha ta’liyqalarni yod olib yo‘lto‘sarlar ilmimni tortib ololmaydigan bo‘lib oldim.

USTOZ-SHOGIRD

(Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” asaridan olingan bu parcha(83,139-142)da mutafakkirning o‘z ustozи Said Burhoniddindan valiylik sabog‘ini olish jarayoni badiiy usulda yoritilgan”)

Darvesh Jaloliddinga naycha qilib o‘ralgan maktubni shu yerda, Qoratog‘ yaylovidagi zilol chashma bo‘yida topshirdi. Biroz

shoshilib yozilgan, zero zabarsiz, yirik-yirik harflardan unga allaqanday qadrdon, ammo allaqachon unutilgan bir nafas ufurdi. Nahotki o’sha besabr Said Burhoniddin yozibdi? Bu husnixatni ko‘rmaganiga o’n yildan oshdi... Maktub mo‘g‘ullar allaqachon bosib olgan Termizdan dunyoning bu chekkasiga nechuk yetib kelmish? Said Burhoniddin tirikmikin yoki bu so‘ngan yulduz shu’lasimi? Said Burhoniddin yozardi: ustoz Sulotonul Ulamoning vafotini Termizda eshitib, u zor-zor yig‘lab, ko‘z yoshi to‘kibdi, Qur’on o‘qib, marhumning ruhiga bag‘ishlabdi, tunlari uxlamay, qirq kun motam tutib, elga osh beribdi. Sultonul Ulamoning o‘g‘li, uning shogirdi va suyukli talabasi yakka qolmish — alhol Said Burhoniddin unga ota o‘rnini bosmog‘i lozim, zero, ustoz uni xalifa — o‘ribbosar deb atamishdi. Qandoq bo‘lmasin, u Jaloliddinni topmog‘i, haqiqatning xatarli va mashaqqatli yo‘llarida u holdan toygan daqiqalarda suyanchiq bo‘lmog‘i darkor. Lekin u sahro, daryo va tog‘lar oshib, Ko‘nyoga yetib kelguncha, oradan bir yil o‘tibdi. Mana, endi Said o‘z shogirdi va shayxzodasini sulton poytaxtida, Sinjari masjidining bir burchagini kanora tutib, kutib o‘ltiribdi. Jaloliddin maktubni avval ko‘ziga, so‘ng manglayiga bosdi. Uning ustozini Sirdon deb bejiz aytishmagan. Jaloliddin o‘zi hali g‘ira-shira ilg‘agan yashirin ehtiyojni u nechuk sezib, nechuk anglabdi? Shu yorug‘ olamda u huzurida qalbini to‘kib, qalbiga quvvat oladigan kishisi — yolg‘iz shu Said edi. Jaloliddin maktub keltirgan darvish izidan darhol Larendega jo‘nadi. Otlar shay edi, ular shu tundayoq Qo‘nyoga qarab shoshilinch yo‘l olishdi. Said unga masjiddan peshvoz chiqib keldi. Ular quchoqlashib, bir-birlarini bag‘irlariga bosib, uzoq turib qolishdi: yosh, ma'yus, xushsuvrat ulamo va keksaygan, janda-chopon kiygan so‘fiy. Jaloliddin to‘n ustidan ham ustozining cho‘p-ustixon bo‘lib qolganini sezdi. Yuziga tikildi: eti suyagiga yopishgan. Qirra burni yanada ingichka tortib, jag‘-jag‘idan o‘tib ketibdi, og‘zida tish

qolmabdi. Ammo chuqur botgan ko ‘zlari hurpaygan oppoq qoshlari ostida yanada shiddatkor va shijoatkor yonadi. U Saidni otasidek izzat-ikrom qilib, Gavhartosh madrasasiga boshladi, unga o‘z hujrasini bo ‘shatib berdi. Said shu ondayoq javobni qo ‘yib, savolga o ‘tdi; shariat qonunlari, hadis talqinlari, ilmi nujum va ilmi tibga doir muammolarni birpasda qalashtirib tashladi. Ilmi tibda u yuksak poyaga yetgan, zero, Abu Ali ibn Sino shogirdlaridan saboq olgan edi. Jaloliddin hech qachon bundoq og ‘ir imtihondan o ‘tmagan edi. Shogirdi javob berarkan, so ‘fiyning chehrasi yorisha bordi. Nihoyat, u sakrab oyoqqa turdi-da, yosh ulamo boshiga engashib, oshiqib-toshiqib dedi:

— *Ilmi iymon va ilmi zohiriyyda otangdin ham zuljalolsen. Lekin padari buzrukvorning sohibi ilmi asror ham erdilar. Men ul zoti sharifning sharofatlari tufayli ana shu ilmga noil bo ‘ldim, umid ulkim, emdi seni shu yo ‘lga boshlagaymen, toki ilmi asrorda ham otangga voris, balki barobar bo ‘lgaysen.*

Jaloliddin quvonch va qat’iyat ila tiz cho ‘kib, tavba qildi, kamolot yo ‘lidan boshlasin, deb o ‘zini ustoz qo ‘liga topshirdi. Uning o ‘z-o ‘zi tomon yo ‘li ana shundoq boshlandi...

Hikoyani davom ettirishdan oldin, so ‘fiylar ilmi asror, deganda nimani ko ‘zda tutishgan, ustozি Said Burhoniddin Sirdon yosh Jaloliddinni qaysi yo ‘ldan boshlagan edi, degan nuqtalarni izohlash lozim.

Tasavvuf o ‘z-o ‘zini idrok etish va o ‘z-o ‘zini kamolga yetkazish yo ‘lini uch asosiy bosqichga bo ‘lardi. Birinchi bosqich— shariat, ya ’ni, Qur ’on va Muhammad payg ‘ambar haqidagi rivoyatlarda aks etgan qonun-qoidalarni bajarish davri, aniqrog ‘i, tayyorgarlik bosqichi. Lekin bu hali yo ‘lga kirish degan gap emas,. zero, ularni bajarish har bir musulmon uchun farz. So ‘fiylar uchun ham shundoq; faqat islom qonun-qoidalalarini o ‘zlashtirgan taqdirdagina, yana olg ‘a yurish, ikkinchi bosqich — tariqatga o ‘tish mumkin.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Birinchi tayyorgarlik bosqichi — shariat so‘fiylarda mantiqiy bilimlarga to‘g‘ri kelar, ilmi zohiriyligi deb atalardi. So‘fiylar mantiqiy bilimlarning ahamiyatini rad etmagan holda, uni mahdud — cheklangan deb qarashar, zero, u faqat alomatlar, xossalari, xususiyatlarni ilg‘ar, ularning ta‘biricha, javhari zotga emas, sifatga boqar, binobarin, uning mahsuli «haqiqat emas, bilhaqiqat» edi. Mantiqiy bilim butunni bo‘laklarga bo‘lish — tahlil va sanjob qilish ila ro‘yobga chiqadi. Ilohiy haqiqat esa o‘z mohiyatining mutlaq bo‘lishi e’tibori bilan tahlil va sanjobga yo‘l qo‘ymaydi, bas, uni mantiqiy yo‘sinda idrok etish mumkin emas. So‘fiylar aqliy mushohada ortida tag‘in bir mushohada bor, deb hisoblashar, uni ilmi g‘ayb deb atashardi. Faqat ilmi g‘ayb vositasida asror ochilar, shu yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsa ilmi asror deb atalardi. Tashqi tuyg‘ular vositasida mantiqiy qonunlarni bilib bo‘lmag‘anidek, ilmi g‘ayb ochadigan narsalarni mantiq ocholmasdi. Sovet olimlari, ayniqsa, atoqli eronshunos E. E. Bertels tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, so‘fiy-shayxlar aslida eksperimental psixologiya bilan shug‘ullanishgan. O‘z-o‘zini qat’iy cheklash — muroqaba va o‘z-o‘zini kuzatish — muhosaba yo‘li bilan maqsadga muntazam intilish orqali ular o‘zlarida bukilmas iroda, o‘limga ham tik kulib boquvchi jasorat kabi sifatlarni, boshqalarning «o‘y-hayolini o‘qiy olish», o‘zida va o‘zgalarda gipnotik holatlarni yuzaga keltirish malakasini tarbiyalashgan. Shubhasiz, bu narsalar o‘sha davr kishilari nazdida g‘ayritabiyy va g‘aroyib bo‘lib ko‘ringan va shayx-so‘fiylarning mo‘jizakorlik shuhratini el orasida keng yoygan edi. So‘fiylarning tasavvurida idrokdan xorij, ya’ni, ong ustida hodisasi bo‘lib ko‘ringan narsa aslida idrok doirasidagi, ya’ni, ong ostida hodisasi edi. Tariqat shu yo‘sinda so‘fiylarni hozirgi zamondagi ilmiy iborasi bilan aytganda, psixoanaliz metodikasi bilan qurollantirib, o‘zida va o‘zgalarda kechadigan g‘ayrishiuriy jarayonlarni boshqarishga yordam

bergan. Yosh Jaloliddinni uning ustozи ana shu yo'ldan boshlagan edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Birinchi renessans davridagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Abu Rayhon Beruniy rahbarligida Xorazm poytaxti Gurganj (Qadimiy Urganch)da tashkil etilgan Sharq ilm markazi "Dorul hikma va maorif" haqida nimalarni bilasiz? U ta'lim mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
3. Forobiy ilmi yaqiniyning maqsad va vazifalarini nimalardan iborat deb biladi? Ularda hozirgi zamон ta'limining qaysi maqsad va vazifalariga yaqin jihatlar mavjud deb hisoblaysiz?
4. Forobiyning ideal inson konsepsiysi asosida xulosa chiqaring.
5. Beruniy nima uchun bilim va ma'lumotlar berishda tizmalardan foydalanishni tavsiya etgan?
6. Beruniyning ilmiylik tamoyili nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Ibn Sino va Kaykovus taqdim etgan didaktik qadriyatlarni sanab bering.
8. Sizningcha, birinchi renessans davrida keng qo'llanilgan yodlash usuli didaktik qadriyat sifatida qanchalik qimmatga ega., ta'lim metod va usullari tasnifidan o'rин olishga u qay darajada haqli? Fikringizni asoslash uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. Fikringizni qog'ozga yozib, aytib bering.
9. Siz istiqboldagi ish tajribangizda yodlashdan qanday foydalanasiz? Qiziqarli va hayotiy misol keltiring. Yodlash tamoyillarini ishlab chiqing.
10. Rumiy va uning ustozи o'rtasidagi munosabat timsolida Sharqda ustoz obrazining qanchalik ulug'langanini tavsiflang.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

11. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumi-din (Birinchi kitob. – T.: Yoshlar matbuoti bosmaxonasi, 2003. – 231 b. – 142-b.) va “Tafakkur kitobi” nomli asarlaridan keltirilgan ushbu fikrlarni davom ettiring.

Amaliy mashg‘ulot yo‘nalishlari:


1. Forobiyning fozillar shahri aholisi hamda jaholatdagi shaharlar aholisining fikrlash usullarini topib ajratib yozing hamda qiyoslang.
 - A) Moddiylikdan tashqarida mavjud bo‘lgan sifatlarni bilish
 - B) Samoviy hilqatlarni va ularning har birining sifatlarini bilish
 - D) Yuz berayotgan barcha hodisalarning mukammalligini anglash bu hodisalarda hech bir nuqson,adolatsizlik yo‘qligini bilish
 - E) Shaharning rahbari o‘z o‘rnini bosa oladigan insonlarni bilishi lozim
 - F) Fuqarolarning yaxshi yashashi uchun sharoit yaratishi lozim.
 - G) Eng kuchli hamda g‘olib kelganlar boshqalarga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo‘ladi.
 - H) Shaxsiy manfaat uchun kurashish lozim.
 - I) Baxt- saodatga erishish uchun nimalardan saqlanish lozimligini bilish lozim
 - J) Odamzod qanday yaralgani va ruhning xususiyatlarini bilishi lozim

Fozillar shahri aholisining fazilatlari	Jaholatdagi shaharlar aholisining fikrlash usullari

2. Forobiy qayd etgan fozil shahar fuqarosiga xos qaysi jihatlarni hozirgi kun o‘quvchisida tarbiyalash zarur deb bilasiz, fikringizni hayotiy misol va dalillar bilan isbotlang. Bugungi kun

o‘quvchisida yana qanday fazilatlarni tarbiyalash zarur? Fikrlariningizni yozma izohlang.

3. Venn diagrammasidan foydalangan holda fozil odamlar shahri fazilatlarini A doiraga, jaholatdagi shahar aholisi fikrlarini B doiraga yozing. O‘z fikrlaringizni umumlashtirgan holda doiralar kesishmasiga hozirgi davr odamlarida mavjud bo‘lgan o‘xshash xislatlarni keltiring.



4. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy ilgari surgan didaktik qadriyatlarni ajrating

5. Quyidagi jadval asosida uch alloma rasmi va nomi ostiga ularga tegishli didaktik qadriyatlarni ajratib yozing hamda nima sababdan shunday ajratganingizni dalillar asosida isbotlang. (Ular yozgan asarlarning nomini ayting. Iqtiboslar keltiring).

Abu Rayhon Beruniy



Abu Nasr Forobiy



Ibn Sino



PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

6. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining “Farzand parvarish qilmoq zikrida” bobidan olingan ushbu jumlalar yakunini toping.

a) Ammo farzand beadab bo’lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o‘z qo‘ling bila urmag‘il, muallimlarning tayog‘i bila qo‘rqtg‘il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki.....

b) uning ko’ziga oz’ingni haybatlig’ ko’rguzg‘il,to.....

d) u bir narsani orzu qilsa qudrating yetguncha undan ayamag‘il, to.....

e) boshqa qabiladin xotin olg’il toki.....

Yakuni:

1) sendin o‘g’lingning ko‘nglida gina qolmasin.

2) seni xor tutmasin va sendin hamisha qo‘rqib yursin.

3) tanga havasi birla seni o‘limingni tilamasin.

4) bir quvvating ikki bo‘lg’ay, ikki tarafdin madading va ko‘magine ko‘payg’ay.

7. Quyida “Muroqaba” usulida berilgan matnni o‘zbek mumtoz musiqasi ohangida ovoz chiqarib o‘qing. Matnda berilgan so‘zlarga e’tibor bering:

Tasavvur qiling: Turli yoshdagi ilm toliblari o‘rtalash sharqona uslubida qurilgan xonaqohning shinam va ozoda xonasida ta’lim olishmoqda. Bu chorsi xonaning to‘rt tomonidagi atrofi naqsh bilan bezalgan darichalaridan quyosh nurlari tushib turibdi. Uning ilm toliblari bemalol kirib chiqishlari uchun Xorazmshohning shaxsan o‘zi maxsus farmoni bilan qurdirgan bir necha eshiklari mavjud bo‘lib, eshiklarning naqshlari bir qarashda oddiyroq ko‘rinsada, lekin did bilan o‘z davrining usta naqqoshlari tomonidan ishlangan. Tasavvur qiling, siz ham shu davr kishisi, ilm tolibisiz. Najmiddin Kubrodek mashhur insondan ta’lim olish orzusidasiz. Bugun ilk bor xonaqohga baland peshtoqli eshik orqali kirib keldingiz. Xonaqoh devorlariga amaliy bezak bilan ishlov berilgan. Unda o’nlab turli yoshdagi muridlar, ilm toliblari jamlangan, siz ham o’sha muridlar

qatorida o’tiribsiz. Barcha muridlar xonaqoh to’rida oppoq,uzun soqolli salobatli, haybatli kishining birdan jo’shib , o’zga kayfiyatga kirib, ko‘zлari o‘tday yonib, diniy ma’ruza o’qiyotganini diqqat va hayrat nazari bilan kuzatishmoqda. U barcha muridlarga muhabbat va ixlos bilan nazar tashlab, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar qilib barchani hayratga solmoqda.

U yonginangizdagи yigitchaga murojaat qilib, yumshоq va mayin ovoz bilan “Bo‘tam, qalbing rangini qanday tusda ko‘ryapsan?” deya savol berdi.. Yigit “Oq rangda, ustod” deb qo‘llarini ko‘ksiga quyib mayin jilmaydi. Siz ham Najmuddin Kubro menga murojaat qilib, shunday savol bersalar, nima deb javob beraman, deb hayrat barmog‘ingizni tishlab qoldingiz.

Siz tasavvuringizga asoslanib meditatsiya holatiga kirdingiz, endi esa “Muroqaba, Najmuddin Kubro va meditatsiya tayanch so‘zlaridan foydalanib, internet materiallari bilan tanishib chiqing hamda zamonaviy muroqabani hozirgi kunda qay tarzda qo‘llash mumkinligi haqida takliflaringizni yozing.

Test topshiriqlarini bajaring:

6. “Muallim ilmiga amal qiluvchi bo‘lmog‘i lozimki, ...” (Abu Homid G‘azzoliy)

- a) fe’li so‘zini yolg‘onga chiqarmasin
- b) yolg‘onchi bo‘lmasin
- d) yolg‘on ish qilmasin.

7. “Agar ilmdan boshqa bir ilm hosil bo‘lsa, o‘z navbatida bu ham boshqa bir ilm bilan moslashsa, bundan tag‘in boshqa natija yuzaga chiqadi. Shu tariqa, ...”

- a) ilmdan boshqa ilm hosil bo‘laveradi
- b) natija, ilm va fikr cheksiz davom etaveradi
- d) oqibat natijasiz tugaydi.

8. Tazakkur (yodlamoq)ning foydasi qalbda o‘rnashib qolishi va o‘chib ketmasligi uchun ilmlarni takrorlashdan iborat.
- a) yo‘q, chunki darhol yana yoddan ko‘tariladi
 - b) qalbda o‘rnashib qolishi va o‘chib ketmasligi uchun ilmlarni takrorlashdan iborat
 - d) shundaki, irodani chiniqtiradi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. – T.: “O‘qituvchi”, 1992. – 39 b.
2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. - Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – T.: Yangi asr avlod, 2016. – 320 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Men anglagan dunyo / Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi: E.Ochilov.. – T.: Sharq, 2012. – 272 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan Asarlar (arabchadan a.rasulev, yu xakimjonov va G‘.Jalolov tarjimasi. Muhammarrir: G‘ Jalolov, A.Irisov). T.2. – T.: Fan, 1965. – 538 B.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga boshlovchi bilim) /Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘z boshi muallifi Boqijon To‘xliev. – T.: Yulduzcha, 1990. – 192 b.
6. Homidov H. Qirq besh alloma hikoyati. – T.: Fan, 1996.- 176 b.
7. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar sultanati. Tarixiy ocherk. – T.: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1996. – 129 b.
8. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumi-din. Birinchi kitob. – T.: Yoshlar matbuoti bosmaxonasi, 2003. – 231 b.- 119-b.
9. Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. – T.: O‘zbekiston, 2013. – 246 b.


PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

10. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy-biografik roman./ Ruschadan Jamol Kamol tarjimasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986 y. -- 270 b.
11. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi muhsiniy. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 326 b.

**XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA
MOVARAUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA
PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI**

(Ikkinchi renessans davrida ta'lif. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Xoja Ubaydulloh Ahror, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiyarning ta'limi rivojlantirishga oid yondashuvlari)

Ikkinchi renessans davrini muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday tavsiflaydi: “O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi” (9).




13-rasm. Uyg'onish davrida (XIV-XV asrlar) o'rganilgan o'quv predmetlari

Uyg'onish davrida (XV-XVI asrlarda) ham madrasalarda arab tili olimi Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar al-Hojib (1175-1249)ning “al Kofiya-nahv” (sintaksis) va “ash-Shofia-sarf” (“Morfologiya”) darsliklari o'qitilgan. Ta'lif mazmuni asosini quyidagi o'quv predmetlari tashkil etgan (8-rasmga qarang).

Madrasalarda farz (fiqh, tafsir, usul, qiroat, matematika va arab tili) va mandub (geometriya, tib va ijtimoiy fanlar) ilmlar o'qitilgan. Talabalar mantiqqa oid “Shamsiya” hamda “Hoshiya”

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

(“Shamsiya” sharhi)dan bilim olishgan. Falsafaga oid “Hikmatulayn” kitobi ikki yildan 4 yilgacha o‘qitilib, tahsil kalom ilmiga oid “Mullajalol” darsligini 2 yil davomida o‘qish bilan nihoyasiga yetkazilgan. Shuningdek, irfoniy ilmlar (Qur’on tafsiri, Hadisi sharif, fiqh huquq ilmlari) talabaning xohishi bo‘yicha mustaqil o‘qitilgan (rasmga qarang).



14-rasm. Madrasa o‘quv kursi

Mazkur o‘quv kursi bir necha asr davomida (XX asr boshlarigacha) deyarli o‘zgarishsiz saqlangan.

O‘qitilgan fanlar mazmuni va ta’lim usullaridan kelib chiqib aytish mumkinki, madrasa ta’limi nihoyatda murakkab bo‘lib, talabadan sabrli va tirishqoq bo‘lishni talab etgan.

Savol-javob va munozara usullari madrasalarda qo'llanilgan asosiy usullardan bo'lganligi sababli, olimlar ilmiy munozaralarda ulardan foydalanish kompetentligiga ega bo'la olganlar. Xususan, manbalarda Ali Qushchi va Mavlono Abdurahmon Jomiy o'rtaida bo'lib o'tgan munozara keltirilgan: "*Bir kuni Hirotda Mavlono Ali Qushchi ... taqriban necha bag'oyat mushkil shubhalarni fanni hay'at daqoyiqilaridin ilqo ettilar. Badihatani har biriga (Mavlono Jomiy birin-ketin) javobi shofiy berdilar. Ondog'kim, Mavlono Ali sukut etib, mutahayyir bo'ldi va olor (ya'ni, Jomiy) bir sabili mutoyaba oytdilarkim:* "Mavlono chamtoningizda mundin yaxshiroq nimarsa yo'q erkon" (103, 184).

Ispan sayyohi Klavixoning guvohlik berishicha, Temurbek ulkan hududni boshqargan paytda Buxoro, Samarqand va uning atrofidagi shahar-qishloqlar o'ta boy bo'lib, "hatto Iskandariya sultanatiga olib borilmaydigan har xil narsalar Samarqandga keltirilar edi"(88,200). Mamlakat hududida adolatli qonun ustuvorligiga amal qilinib, davlat muhrida qayd etilgan "Rosti-rusti" (Kuch adolatdadir) tamoyili negizida "muayyan shaxsga taqdim etilgan hujjatdagi podshoh muhri va mirzolar muhrini ko'rsatish bilan har qanday ish shu kuni, shu soatdayoq zudlik bilan bajo keltirilar edi"(88, 205).

Bu davr Islom madaniyatining oltin asri, ta'lim rivojlangan davr sanaladi (15-rasm).

Amir Temur rahbarligida Samarqandda Bibixonim, Muhammad Sulton va Go'r-Amir madrasasi (58 talaba tahsil olgan), Hirotda Gavharshod begin madrasasi va ular qoshida kutubxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi, kitobat san'ati⁴ rivojlandi.

⁴ Qo'lyozma asarlarini ko'chirib yozish (hattotlik), musavvirlik, lavvoqlik (lavha chizish) va saxxoflik (muqovasozlik)ni uyg'unlashtirgan o'ziga xos san'at turi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

BOSHLANG' ICH O' G' IL BOLALAR MAK TABI (3-5 yil). ta'lif beruvchi: so'fi, xususiy maktabdomla

- asosiy fanlar: boshlang'ich savodxonlik, o'qish, yozish, qissaxonlik, haftiyak (Qur'onning 7 dan 1 qismi)
- O'quv jarayoni xususiyati: yakka tartibda kichik va katta guruhlarga bo'lib o'qitilgan

BOSHLANG'ICH QIZLAR MAK TABI (3-5 YIL) Ta'lif beruvchi: oltinbibi

- asosiy fanlar : savodxonlik assoslari, o'qish, yozish, qissaxonlik, haftiyak (Qur'onning 7 dan 1 qismi)
- ro'zg'or tutish va ayollilik (rafiqalik va onalik) odobi
- kompetentlik: oila bekasi hamda boshlang'ich savodxonlik

MADRASA(7-14 yil); ta'lif beruvchi: mudarris, domla

- asosiy o'quv predmetlar: ilohiyot, huquq (fiqh), mantiq, matematika (riyoziyot), handasa (geometriya), astronomiya, tibbiyat, tarix, jo'g'rofiya, adabiyot, ilmi aruz, arab tili (arab filologiyasi mashg'ulotini talabalar 3 yil o'rgangan). Grammatik tayyorlovdan so'ng logikani o'zlashtirgan)
- o'quv bosqichlari : O'rta va oliy
- xizmat doirasi: diniy bilim yurti va muassasalari xodimi, dunyoviy soha mutaxassis (mudarris, domla, tabib, qozi, mirzo, mirzoboshi, kotib, sarkotib, dorug'a , shaqovul (mehmon va elchilarni kutib oluvchi amaldor), qushbegi (moliya va soliq ishlari venfsaddisi), parvonachii (farmonlarning bajarilishini nazorat etuvchi), yasovulboshi (qo'mondon) va h.k.

15-rasm. Amir Temur davrida ta'lif muassasalari tizimi
Kitobat san'ati mahsullari (qo'lyozma asarlar) madrasalarda o'qitildi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi (1429-yili qurib ishga tushirilgan)da nufuzli ustozlar rahbarligida yosh olimlar falakiyot va matematika sohasida ilmiy-tadqiqot olib borishgan, Samarqandda 50 hujrali 100 dan ziyod talabaga mo'ljallangan o'rta va oliy ta'lif o'quv yurti – Ulug'bekning "Mirzo Shoxruh" madrasasi (1425 yilda

ishga tushirilgan) faoliyat olib borgan (unda Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy kabilar dars berishgan). 1536-yilda Ubaydulloxon tomonidan qurilgan Mir-Arab madrasasida 50ta hujra mavjud bo‘lib, unda yagona o‘quv tizimida islom asoslari hamda dunyoviy bilimlar negizida 100dan ortiq talabalar bilim olishgan. Buxoroda 1558-yilda Mir muftiy tarafidan muhtasham kutubxona qurilib ishga tushirilgan [38, 230]. Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida 450dan ziyod olim, shoir, adib, tarixchi, davlat arboblari haqida ma’lumotlarning keltirilgani, Navoiy tomonidan “Ixlosiya” madrasasi, “Xalosiya” xonaqohi, Shifoya, Nizomiya, Xusraviya madrasalarini qurdirilgani va faoliyat olib borgani Amir Temur asos solgan davlatda ilm-fan va ta’limning qanchalik taraqqiy etganidan darak beradi.

Amir Temur (1336-1405) shijoatli, davlat ishiga mohir sarkarda bo‘lishi bilan birga, “ilm fanning matematika-riyoziyot, geometriya-handasa, arxitektura-me’morchilik, axtarshunoslik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarini rivojlantirishga ayniqsa katta e’tibor bergen” [75,14], yoshlarga geografik bilimlar berishni talab qilgan. Xarbiy maqsadda kartografiya va jo‘g‘rofiyani o‘rgangan, sohibqironning “tushunchalar xazinasida barcha mamlakatlarning rasmlari (geografik kartasi) ayon edi”(52,45). U yoshlarda aql-idrok, xotira va tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan: “Fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvai hofizasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulodlarni oson qilish yo‘lini topa oladi” (30, 59) deya kishilarni o‘z tafakkuri va xotirasini rivojlantirishga undagan.

Shayx Shamsiddin Parrandadan fizionomika -“ilmi qiyofa” - inson qiyofasiga qarab baho berish va oldindan taqdirni bashorat etish ilmini mukammal egallagan (30,55). Uning davrida islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqh dan dars bersinlar deb, har bir shaharga

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

olimlar va mudarrislar tayin qilingan, shahar-qishloqlarda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilingan (30,38).

Amir Temur oilasida farzandlarga bilim berishga katta e'tibor berilgan, shahzoda va malikalar qissaxon ustozidan 4-5 yoshdan diniy va dunyoviy qissalar tinglab, savod chiqarishgan. Masalan, Ibn Al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix» (“Mukammal tarix”) kitobi shahzoda Mironshoh mirzo uchun maxsus tarjima qilingan. Saroy qoshida shahzoda va bekzodalar uchun maxsus o‘quv dargohlarida o‘rta va oliy ta’lim olishgan (31). Ularga maxsus “Suluk-ul Muluk” (podsholar qo‘llanmasi) o‘rgatilgan. Shu tarzda davlatni idora qilish: odamlarni lavozimlarga tayinlash, diplomatik ishlar, moliya ishlari haqida bilimlarni egallashgan.


Shoh, olim va ustoz Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394-1449) ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, bunyodkorlik va me’morlikka e’tibor berishda bobosining munosib izdoshi bo‘ldi. G‘iyosiddin Jamshid Koshiy otasiga yozgan maktubida Ulug‘bekni astronomiya ilmida nihoyatda nodir qobiliyatga ega ekanligi, “Tazkira” va “Tuhfa”fanidan mahorat bilan dars o‘tishi, u bergen ma’lumotlarga qo‘sishimcha qilishga hech qanday hojat qolmasligini yozadi (43, 21). Ulug‘bek shogirdlariga mehribon ustoz bo‘lib, Alouddin Ali qushchini “ma’naviy o‘g‘lim” deb atagan (36,128).



darslarda disput
(munozara-bahs-)usulidan
foydanildi



rasadxonada talabalar
ishtirokida ilmiy
tadqiqotlar o‘tkazildi



Bosh mudarris va o‘qituvchilar
sinov asosida ishga olindi, mashhur
olimlar ta’limga jalb etildi

16-rasm. Mirzo Ulug‘bekning ta’lim islohoti

Ulug‘bek qurdirgan ta’lim maskanlari (Ko‘k gumbaz masjidi, Mirzo Shohrux madrasasi, rasadxona) Sharq me’morchilik

san'atining durdonasi hisoblanadi. Mirzo Shohrux madrasasi(1424-25 yilda)ni “Samariya” risolasining muallifi Abu Tohirhoja (XIX asr) shunday tasvirlaydi: “madrasa shahar o‘rtasida (arki oliyga yaqin bir o‘rindadir). Madrasaning tog‘ shukuhli hay’ati ustuxonband mustahkamligidan falak binosidan tinchlikni olgan, yuksaklik jihat bo‘lmish azamatnishin peshtoqi og‘irligidan yerga zilzila keltirgan, uning oliy darajali kunguralarini qudrat ustasi falak ayvoning muqarnaskorlari bilan bir xidja yasagan...” (36,128). Ushbu ta’lim muassasalarida Ulug‘bek rahbarligida muayyan ta’lim islohotlari amalga oshirilgan. Xususan, Mirzo Ulug‘bek madrasa bosh mudarrisligi lavozimi va mudarris (o‘qituvchi)likka maxsus Ulamolar hay’ati nazorati orqali ishga olishni yo‘lga qo‘ygan (16-rasm).

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi munozara, nazariy bilimlarni amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, aniq fanlardan erishilgan natijalarni amaliyotga joriy etishda muhim o‘rin tutib, uning kutubxona fondida 15 ming jılddan ziyodroq nodir qo‘lyozmalar saqlangan. **Munozara** vaqtida shogirddan bilimlari va fikrini erkin aytish so‘ralar, diniy bilimlarni yashirish yoki noto‘g‘ri talqin etish ayb sanalardi.

Ulug‘bek tashkil etgan ilmiy munozara va mushoiralarda zamonasining peshqadam olimlari Xondamir, Muhammad Olim, Sadriddin Raddos va shayx Orif Ozariy ishtirok etib, ilmiy mavzularda munozara qilishgan.

Ushbu davrda Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490) tomonidan yangi bosqichga ko‘tarilgan suhbat metodi yetakchi metod **sifatida ta’lim-tarbiyada alohida qadrlanib ilm egallahni amaliyot bilan aloqada amalga oshirish talab etilgan**: “Badbaxt uldurki, anga ilm bersalar, amal bermaslar” (118,328).

Alisher Navoiy (1441-1503) “Mahbub ul qulub” asarida ta’lim samarasini ta’minlashda o‘qituvchi shaxsiga e’tibor qaratadi. U o‘qituvchi odobiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- bolaning ijtimoiy kelib chiqishi(boy yoki qashshoq oiladan ekani)ga qarab muomala qilmaslik;

- manmanlik, ta’magirlik kabi illatlardan yiroq bo‘lish;

- muallim yaramas ishlardan, nopoliklikdan yiroq yurshi kerak.

Allomaning fikricha, ilm egallahsga kuchli rag‘bat bilan kirishish kerak, erinchoq talaba bilimsizligi sababli xijolatga qoladi:

Kishi ta’limda topsa malolat,

Topar ilm ahli olinda hijolat [29,29].

O‘qituvchi esa bolalarga mehribon, ayni paytda talabchan bo‘lishi lozim:

Lutfu karam garchi erur dilpazir,

Qahru siyosat ham erur noguzir [29, 115].

Uning pedagogika oid “Munshaot” asarida 104 ta maktub mavjud bo‘lib, ularni mavzusiga ko‘ra taxminan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) tabiatni tasvirlashga qaratilgan matnlar; 2) shoh Husayn Bayqaroga davlat ishlarida ko‘maklashish maqsadida bitilgan matnlar; 3) o‘z ijodiy faoliyati haqida H.Bayqaroni xabardor etib turish; 4) pand-nasihat va tarbiyaviy mazmundagi matnlar. “Munshaot”da Alisher Navoiy mamlakat shohini kitob o‘qishga, maktablar bino qilishga, aniq va tartibli yozishga, yozgan va aytgan so‘zlarining izohli, ma’noli bo‘lishiga diqqat qilishni so‘raydi. Navoiy bolalarni 5-7 yoshidan maktabda o‘qitish zarurligini uqtiradi: “masjid imomiga tayinlansaki, masjid joylashgan mahalla ahlining o‘g‘il va yosh bolalariga maktab ochib o‘qitsalar”(26, 57), deya iltimos qiladi. U o‘zi qurdirgan “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, muallim uchun maosh ajratadi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Shuningdek, Alisher Navoiy “Vaqfiya” asarida madrasalardagi adno - quyi, avsat - o’rta, a’lo – yuqori o‘quv bosqichlari bo‘yicha talabalarga beriladigan stipendiyalar miqdorini yoritib, talabalar intizomiga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni ishlab chiqdi (17-rasm), ularni o‘zi qurdirgan Ixlosiya, Shifoziya, Nizomiya madrasalari va Xisraviya xonaqohida joriy ettirdi:



17-rasm. Alisher Navoiyning talaba intizomiga yuklagan talablari

Taniqli pedagog (mudarris)lardan Xusayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) 40 bobdan iborat “Axloqi Muxsiniy”(1495) asarida davlat ta’lim siyosati yo‘riqnomasini ishlab chiqib, unda “baland toqili” madrasalar qurdirish bilan birga, o‘quv dargohlarini kuchli bilim bera oladigan (“ma’no mahbubini ibo pardasidan chiqarib yaxshi takrir qiladigan”) mudarrislari, mavhum so‘zlarni ta’lim sharoitiga moslab o‘quvchilarga yetkazib bera oladigan o‘qituvchilar bilan ta’minlashning zaruriyatini ta’kidlaydi (63,82). Uningcha, mamlakat shohi ta’limning moddiy asoslari va o‘quv jarayoni sifatini ta’minlashga mas’ul shaxs sifatida munosib ta’lim siyosati yuritishi zarur.

Ushbu davrda madrasa va ilmiy majlislarda jozibador, tinglovchini o‘ziga ohangrabodek tortadigan, nazariy fikr dalillar va manbalardan keltirilgan hayotiy misollar asosida isbotlangan,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

mazmunan boy ma’ruzalardan keng foydalanilgan. Hozirgi kunda xuddi o’tmishda bo’lganidek, ma’ruzaning ta’sirchan bo‘lishiga erishish har bir professor-o‘qituvchining maqsadi bo‘lishi lozim. Ma’ruza ilmiy-nazariy jihatdan puxta va ishonarli, ilmiy ommabop bo‘lishi, unda ta’limni hayot bilan bog‘lashga, nutqning jozibadorligiga e’tibor berish zarur.

Pedagog olim sifatida Koshifiy nutqning ohangdorligi va jozibasiga alohida e’tibor beradi: “Ovozning baland va yo‘g‘onligi shijoat nishonasidur, mo‘tadil ovoz tadbiru har ishg‘a yaxshi saranjam bermakning nishonasidur, ohistalik bilan so‘zlamak xubluk nishonidur” (“34. Farosat bayoni”) [66,64].

Husayn Voiz Koshifiy o‘z davrida ta’lim-tarbiyaning eng faol usuli hisoblangan nasihatga qo‘yiladigan talablarni ham ishlab chiqadi (18-rasm).

Nasihatga qo‘yilgan talablar	Yaxshi so‘zlar bilan nasihat qilish
	nasihatni shirin so‘z va muloyimlik bilan ibtido qilish (yakunlash), bunda ovozning mayinligi va ochiq chehrali bo‘lishga intilish
	ko‘p so‘zlamaslik

18-rasm. Husayn Voiz Koshifiyning nasihatga qo‘ygan talablari

Xusayn Voiz Koshifiyning farzandi Faxruddin Ali Safiy (1463-) o‘zining “Rashahot” (Obi-hayot tomchilari) ta’rixiy-ma’rifiy asarida Xo‘ja Ahrori valiy, Mavlono Faxriddin Lorustoniy, Xoja Shamsiddin Muhammad Ko‘suiy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniq qo’llagan quyidagi ta’lim usullariga alohida e’tibor qaratadi:

- 1) ilm berishda suhbatdan foydalana bilish;
- 2) savod o‘rgatishda harflarni havoga yozdirib mashq qildirish;
- 3) ustoz nutqning keng ma’noli va jozibali bo‘lishi zarurligi;
- 4) ustozning har bir so‘zni o‘rnida ishlatishi, o‘z nutqi ko‘magida shogirdlar qalbini zabit etishi kerakligi;

- 5) o‘z-o‘zini tarbiyalash, aqliy-axloqiy rivojlantirish;
- 6) vaqt bilan toliblarning yozma savodxonligini tekshirib borish va zaruriyat bo‘lsa ularga qo‘sishimcha mashqlar topshirish (asarlarni ko‘chirtirib yozdirish).

Shuningdek, Faxriddin Ali Safiy ilm toliblariga bilim o‘rgatishda ularning salohiyatini hisobga olish, “qobiliyatları va iste’dodlarining tavofuti andozasinch” qilish zarurligini uqtiradi (108, 54).

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi renessans davrida Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiylar tomonidan ta’lim islohotlari amalga oshirildi. Diniy va dunyoviy bilimlar negizida boshlang‘ich, o‘rta va yuqori bosqichdan iborat ta’lim tizimi shakllandi va rivojlandi.

Mirzo Ulug‘bek ilgari surgan oliy ta’limga o‘qituvchilarни ulamolar kengashi sinovidan o‘tkazib qabul qilish, darsni munozara vositasida o‘tish, iqtidorli yosh olimlarni ilmiy faoliyatiga jalb etishga oid didaktik qadriyatlar hozir ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shuningdek, Alisher Navoiy tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv muassasasida amal qilinishi kerak bo‘lgan tartib-intizom qoidalari, shubhasiz, didaktik qadriyat sifatida ahamiyatli hisoblanib, uni modernizatsiyalashgan shaklini hozirgi davr oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etish joizdir. Xususan, 2 marta ogohlantirish olgan talabalarni 3-ogohlantirishdan so‘ng o‘qishdan chetlashtirish talabi, shubhasiz, ta’lim muassasasida intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklarning ta’limni rivojlantirishga qo‘sishgan hissalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Suhbat metodining didaktik qadriyat sifatidagi ahamiyatini izohlang.

3. Alisher Navoiyning ta’lim islohoti o‘z ichiga nimalarni qamrab olgan edi? Hozir ulardan qaysilarni ta’lim tizimiga tatbiq etish mumkin deb hisoblaysiz?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. -T.: Fan, 1993.- 56 b.
2. Amir Temur o‘gitlari. -T.: Navro‘z, 1992.-64 b.
3. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. /Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahriiddiy Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.Adolat, 2004. - 385 b.
4. Alisher Navoiy . Munshaot (Maktublar) . Izohli bayon muallifi, nashrga tayyorlovchi Yusuf Tursunov. – T.: Ma’naviyat, 2001. – 152 b.
5. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2006 y. – 224 b.

XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.

(*Xonliklar davrida ta’lim. So ‘fi Ollohyor, Jahon Otin Uvaysiy, Anbar Otin, Ahmad Donish tomonidan ilgari surilgan didaktik qadriyatlar*)

Buxoro amirligi, Xorazm va Qo‘qon xonligi (XVI asrdan XIX boshlarigacha hukm surgan)dan tashkil topgan **xonliklar davri** (XVI-XVIII asrlar)da xonlarning o‘zaro kurashi tufayli ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-ma’naviy tanazzulning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda Buxoroda yetishtiriladigan xom ipak Eron va Turkiya orqali Germaniya bozorlarigacha kirib borgan, Qo‘qonda paxta va ipakdan mashhur atlas va adres matolar to‘qilib, Buxoro orqali Rossiya bozorlariga yetib borgan bo‘lsa-da, xonliklar o‘rtasidagi urushlar hamda ichki va tashqi siyosatning oqilona olib borilmagani sababli xalq hayot darajasi va maorif quyi darajada bo‘lib, tarixchi Mirzo Olim Mahdum hojining ta’kidlashicha “Ilmu maorifda Turkistonda o‘tgan Ibn Sino, Forobiy, Ulug‘bek, Ali Qushchi o‘rniga o‘lturg‘on olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikka tadbil bo‘lib, jahl balosig‘a mubtalo bo‘lg‘an edilar” (74,40). Mashhur qrim-tatar pedagogi Ismoilbek Gasprinskiy ham xonliklar davrini “butun Movarounnahr bir xonaqoyi parishon va diyori darveshon bo‘lmish edi. Ilm hilm, maorif, izzat-nafs va haysiyat (hurmat-e’tibor) riyokorlikka aylangan edi” (60,38) deb tavsiflaydi. Shuningdek, u xonlarni madrasalarni isloh qilishga undab: “Buxoroyi sharifda va Xivada hozirgi paytda biror “dorilfunun tashkil etilishi..., unda tarix, jo‘g‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli ijomayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa zarur fanlar forsiy, turkiy, rusiy va fransuz tillarida o‘qitilish kerak”(60, 110) – deb yozadi.

Tarixiy, ijtimoiy-ma’naviy va ta’lim sohasidagi bu xil tanazzulga qaramay, ayrim ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatiladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Xususan, bu davrdagi ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, maktablarda ona tilidagi asarlar, she’rlardan foydalanishga e’tibor ortdi. Masalan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari o‘zbek tilida yozildi, mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» tarixiy asari, Ulug‘bekka bag‘ishlangan “Muntahabi jome va tavorixi shohiy” degan asarlari o‘zbek tiliga o‘girildi. “Yusuf va Ahmad”, “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro” kabi xalq dostonlari yaratildi; Mirzo Hiromiy tomonidan hind va fors adabiyotining mashhur “Chor darvesh” va “To‘tinoma” asarlari o‘zbek tiliga tarjima etildi. Qiziqchilik va qo‘g‘irchoqbozlik san’ati uyg‘unlashtirilib, shahar maydonlarida ijtimoiy-siyosiy va maishiy muammolarga oid satirik-yumoristik tomoshalar ko‘rsatildi (71) (19-rasm).

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <input type="checkbox"/> Maktablarda ona tilidagi asarlar, she’rlardan foydalanishga e’tibor ortdi. | <input type="checkbox"/> Ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar |
| <hr/> | |
| <input type="checkbox"/> Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari o‘zbek tilida yozildi. | <input type="checkbox"/> ochiq maydonda satirik-yumoristik sahna asarlari qo‘yildi. |
| <input type="checkbox"/> Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ulug‘bek haqida "Muntahabi Jomiy va tavorixi shohiy" asarlari o‘zbek tiliga o‘girildi. | <input type="checkbox"/> ta’lim islohotiga oid ilk g‘oyalalar kirib kela boshladи. (Marjoniy, I.Gaspirinskiy g‘oyalari) |
| <input type="checkbox"/> "Yusuf va Ahmad", "Yusuf va Zulayho" kabi xalq dostonlari vujudga kelib, maktablarda o‘rganila boshlandi, Anbar otin o‘zbek tilidagi she’rlari asosida savodga o‘rgatdi. | <input type="checkbox"/> yangicha ta’lim muassasalariga qiziqish paydo bo‘ldi. (Fitrat "Munozara" asari) |

19-rasm. Xonliklar davrida ijobiy ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar

Bularning barchasi, yoshlар tafakkurida tanqidiy yondashuvning vujudga kelishiga, ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilikning ortishiga, o‘qish darslarida she’riyat va xalq dostonlaridan samarali foydalanishga olib keldi. Ushbu davrda madrasalar soni ko‘p bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘quv kursida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmadi.

Buxoro amirligidagi yirik shaharlarda 150 ga yaqin madrasa mavjud bo‘lib(106,33)., Abdullaxon II (1557—1598) tomonidan Qo‘sh-Madrasa: Madalixon va Abdullaxon madrasalari qurdirilgan. Xivada esa 20ga yaqin madrasalar faoliyat ko‘rsatgan, ulardan ayrimlari hozir ham tarixiy yodgorlik sifatida shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi (20-rasm).

Marg‘ilon viloyatidagi 57 ta madrasada 838 ta talaba, 433 ta maktabxonalarda esa 7340 ta o‘quvchi tahsil oldi. 21 ta qorixonada 395 ilm tolibi bilim oldi [72,179-181]. Marg‘ilondagi madrasalarda o‘qish 8-10 yilni tashkil qilgan. o‘qitish uslubi Buxoro, Samarqand, Qo‘qon madrasalaridan bir oz farq qilib, Marg‘ilonda yuridik bilimlarga e’tibor berilgan. Talabalarga turli imtiyozlar, mudarrislarga oylik, maosh berilgan, madrasa binosi ta’mirlangan. Bu madrasalar ba’zida masjid-madrasa deb ham nomlangan.

Xivadagi mavjud madrasalar ular faoliyati boshlangan sana)

- Xo‘jamberdibiy yoki xurjun madrasasi** - 1688 yilda Ichandal'ning qal'a devorlari yonida qad ko‘targan.
- Muhammad Aminxon madrasasi** - Ichandal'aga 1851-1855 yillarda ichida qurilgan.
- Muhammad Rahimxon madrasasi** - Ichandal'ning Ko‘hna Ark hovlisiga 1871 yil qurilgan.
- Sherg‘ozixon madrasasi** - Ichandal'aga 1718 yil Eron asirlari tiklashgan.
- Qutlug‘murod inoq madrasasi** - U 1804-1812 yillarda Ollaqulixonning tog‘asi tomonidan qurdirilgan.
- Olloqulixon madrasasi** - 1834 - 1835 yillarda qurilgan. Madrasa uch tomonidan Olloqulixon timi binolari bilan qurshab olingan maydonda joylashgan.
- Abdullaxon madrasasi** - Qutlug‘murod Inoqning Turkistondagi yurishi chog‘ida 1855-yilda o‘n yetti yoshda halok bo‘lgan o‘g‘liga atab uning onasi tomondan barpo etilgan.
- Muhammad amin inoq madrasasi** - 1785- yilda qurilgan.
- Islomxo‘ja madrasasi** - inshoot 1908-1910 yillarda Isfandiyorxonning vaziri Islomxo‘ja tomonidan qurdirilgan.
- Qozi Kalon madrasasi** - Xivadagi eng so‘nggi madrasalardan (1905) bo‘lib, xon Qozi Kalon Salim Oxun tomonidan qurdirilgan.

20-rasm. Xivada tarixiy yodgorlik sifatida saqlangan mashhur madrasalar

Fikrimizcha, birinchi va ikkinchi renessans davrida qurilgan madrasalarning naqshli-bezak uslubi (binolar bezashda mayda

o'simlik-naqshli parchinlar ishlatish, xalq me'morchiligi an'analaridan foydalanish)ni zamonaviy ta'lim muassasalari binolari qurilishiga tatbiq etilsa, ularning milliy qiyofasi sharqona jozibaga ega bo'lardi.

Ushbu davrda diniy ilmlar (ilmi hol – tasavvuf ilmi) bilan birga, dunyoviy ilmlar (“ilmi qol”- isbotlash mumkin bo‘lgan ilmlar) ham e’tirof etilib, o‘z ilmini ulamolar munozarasida himoya qila bilgan olimlar umume’tirofiga sazovor bo‘lishgan. Abu Tohirxoja Samarqandiyning “Samariya” (Samarqand mozorlari zikri) asarida keltirilishcha, Buxoro amiri Amir Haydar o‘z saroyiga Samarqanddan “ilmi qol”da tengsiz olimlarni chaqirtirib, saroyidagi ulamolar bilan munozara qildirar, shu yo‘l bilan buxorolik olimlarning dunyoviy ilmdagi salohiyatlarini tekshirar edi [38, 159].


O‘qitish uslubining eskichaligiga qaramay, **XX asr boshlariga qadar** O‘zbekistondagi madrasalar Rossiya musulmonlari (tatar va boshqirdlar) orasida, shuningdek, Misr va Arabistonda birdek mashhur o‘quv markazi hisoblanib, “sharif” (“ulug”) unvoniga sazovor bo‘lgan. Buxoro madrasalarida dars bergan domlalar katta olim sanalgan, Sadriddin Ayniyning ta’kidlashicha, ularning “din to‘g‘risidagi so‘zi hatto Misr va Arabistonda o‘qiganlarning so‘zlaridan ham mo‘tabarroq va oldin turardi” [24, 165]. Fikrimizcha, buning asosiy sababi madrasa talabalarini munozara metodi asosida o‘z diniy bilimlarini manbalarga tayanib, dalillash va isbotlashga o‘rgatilishida edi.

Ahmad Donishning “Navodirul vaqoe” asari⁵da madrasa domlalarining kechalari bedor kitob o‘qishlari, kunduzlari munozaralar uyushtirishlari va qattiq ishlash natijasida hatto salomatliklariga zarar yetkazishlari haqidagi ma’lumotlar ham o‘sha davrda madrasa mudarrislari va darslarga yetarlicha qat’iy talablar

⁵ Ахмад Дониш. Редкостные события (Наводирул-ваоэ). В назидание детям о пользе ремесел и занятий. - <https://www.google.com/url>


PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

qo‘yilganidan dalolat beradi. Madrasalarda munozara asosiy usul hisoblangan:



21-rasm. Munozara o‘tkazilish tartibi.

Bayon avvalgi fikrni rad etish asosiga qurilgani sababli qizg‘in munozara muhitiga asos yaratgan. Munozarada barcha talabalar faol ishtirok etib, nutqi ravon, fikrini dalillay oladigan talaba g‘olib chiqqan. Ushbu davrda allomalar hamda temuriylar asos solgan ana’analar asosida madrasalarda o‘qitishning quyidagi tamoyillariga rioya qilingan (22-rasm):



22.-rasm. Madrasalarda amal qilingan ta’lim tamoyillari

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Xonliklar davrida ta’lim amaliyotida So‘fi Ollohyor (1644 - 1721), Jahon otin Uvaysiy (1779-1845.), Anbar otin (1879-1906) kabi ilg‘or ustozlar qo‘llagan didaktik qadriyatlar ayniqsa e’tiborga loyiq hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, insoniyat dahosiga molik ulkan iqtidor sohiblaridan Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda “Sharq Gegeli” Mirzo Abdulqodir Bedil, Muhammad Sharif Buxoriy (1609-1697, Buxoro), So‘fi Ollohyor (1644-1721, Samarqand), Boborahim Mashrab (1653-1711, Namangan) kabilar xonliklar davrining ilk bosqichlarida yashab ijod qilganlar.

Ta’lim tarixini o‘rganishda So‘fi Ollohyor (1644 -1721) hayoti va ijodi ayniqsa e’tiborga loyiq. Chunki uning ijod mahsuli hisoblangan “Sabot ul-ojiziyn” (Ojizlar saboti) kitobi “Haftiyak”, “Chorkitob” kabi asarlar qatorida XVIII asrdan boshlab eski maktablarda darslik sifatida o‘qitib kelingan, ajdodlarimizning ta’limiy kamolotida muhim negiz vazifasini o‘tagan. Unda yassaviya-jahriya tariqati g‘oyalari targ‘ib etilib, o‘quvchini komillikka erishishga da’vat etilgan.

“Sabotul ojiziyn” (“Ojizlar saboti”) asarida kalom ilmi asoslari tushunarli tilda she’riy yo‘l bilan bayon etilgan. Uning 84 qismidan iborat bo‘lgan mundarijasida Olloh taoloning sifatlari, tavhid, iymon bayoni, farishtalar, kitoblar, me’roj, payg‘ambarimiz va sahabalar ta’rifi, ajal, qiyomat kuni, taruzu, pulsirot, tolib va pirning vazifalari, piri komil tanlashga qo‘yiladigan talablar, darveshlik shartlari, zohidning shirin tilli bo‘lishi zarurligi, mo‘min bandaning axloqiga qo‘yiladigan talablar, nafs muammolari tavsiflanadi.

So‘fi Ollohyorning fikricha, ilm yo‘lida zahmat chekish o‘ziga pir tanlashdan boshlanadi. Bu yo‘l zahmatlarga to‘la:

**Ajab yo‘ldir – tamomi mehnatu ranj,
Va lekin har qarishda bir nihon ganj.**

Hamonki, ilm egallashning eng xalqchil usuli bu nasihat tinglash ekan, nasihat tinglay bilmagan shogirdning tafakkuri yorishmaydi, qalbi ilmga moyil bo‘lmaydi:

**Nasihat tinglamas dil saxti mahjub,
Ko‘karmas - tosha yomg‘ir yog‘sa ham ko‘b (100,7).**

Ustoz (pir)ga yuklangan talablar	Shogirdga yuklangan talablar
tariqat ilmining bilimdoni bo‘lish (o‘shal piriki, ernen eri bo‘lg‘ay, tariqat peshasining sheri bo‘lg‘ay)	Qur’oni Karimni o‘rganishga ishtiyoq bilan kirishishi lozim, zero, Qur’onni to‘g‘ri o‘qiy olmaydigan kishi uning sharhi va izohini ham to‘g‘ri anglay olmaydi (“O‘qiy bilmasa zohir lafzi Qur’on, nechuk tafsirini bilgay ul inson?”)
haromdan hazar qilish (agar to‘ldursalar yerning yuzini qizil tilloga solmas ko‘zini)	Olloh rizoligi yo‘lida ilm o‘rganishi, hayo va muloyimlikni odat qilishi
ishi bilan so‘zi bir, chin e’tiqodli, tariqat ahkomlariga qat’iy rioya etuvchi komil inson bo‘lish	tolib shirin til sohibi, ochiqqo‘l, samimiyo bo‘lishi kerak (“Ochiq qo‘llik, kushoda yuzli bo‘lgil, muruvvatlik, muloyim so‘zli bo‘lgil”)
sohib karomatli bo‘lish, ya’ni qazo bilan qadarni, bu dunyo bilan u dunyoni, bugun bilan kelajakni, tolibning xatti-harakatlarida o‘ziga xoslikni uyg‘unlikda ko‘ra bilish xususiyatlari mavjud bo‘lishi,	ustozi (pir)ning har bir o‘gitiga amal qilishi (Pirning farmonidan qilsang taxalluf, taassufdir, taassufdir, taassuf)

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

nihoyatda kuchli ruhshunos bo‘lish	
xokisor va kamtar bo‘lish	darvish va zohid zimmasidagi vazifalarni ham bilishi kerak

23-rasm. So‘fi Ollohyorning pir va murshidga yuklagan talablar

Jahon otin Uvaysiy (1779-1845), Anbar otin (1670-1906) va Dilshod Barno (1800-1905)lar o‘z xonadonlarida ochgan xususiy qizlar maktabida qizlarning adabiy layoqatlarini o‘sirish, aqliy rivojlantirish maqsadida **chiston, muammo, badiiy asarlarni sharhlash, izohlash** metodlaridan foydalandilar.

O‘quvchi qizlarga avval arab yoki fors tilidagi matnning ma’nosini tushuntirilib, so‘ng uni yodlash, ma’nosini sharhlab (izohlab) berish vazifasi topshirilgan.

Xususan, Anbar otin o‘quvchilarga alifboni o‘rgatishda o‘tilayotgan harf-tovush ishtirokidagi qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan she’rlardan foydalangan. Albatta, bu o‘quvchilar xotirasida harf shaklining saqlanib qolishiga yordam bergan hamda ular savodining tezroq chiqishini ta’minlagan. Masalan:

Jim (Ҷ)

**Xarobat elda sultonlar olur boj,
Adolat ilkida yakson o‘lur toj.
Kimki el g‘amidadur suxansanj,
Aning har so‘zi dunyoda ulug‘ ganj (34).**

«Tarbiyai axloqiya»

Uy tutish, kiyinish,
xulq-odob
me'yorlari, ovqat
tayyorlash, qo'l
hunarlarli,
mehmondorchilik
odobi, oilaviy
hayotga tayyorlash,
gigiena, muomala
odobi o'rgatilgan

“Xifzi sihat” ilmi

salomatlikni saqlash
yo'llari, kasalliklar
omillari,
kasalliklarni
davolash usullari
kasalliklarni oldimi
olishda ayol
kishining burchi va
vazifalari

Ta'lim usullari

qofiyali matnlardan
foydalanish

mantiqiy yodlash

mustaqil takrorlash
va yodda saqlash

pand-nasihat, ibrat,
suhbat, munozara

24-rasm. Jahon otin, Dilshod Barno, Anbar otin qizlar maktabi didaktik qadriyatları

Shuningdek, harf shaklini yodda saqlanishini ta'minlash uchun
harflar ta'rifidan foydalanishga harakat qilgan:

U “mim” (Մ) harfiga ta'rif berib:

Bosh egib turgay hamisha harfi mim,

O'ylamang ta'zimda bor deb zarbu bim.

Odamiylik xislatidur har salom,

Ham bahoyim etmas odamdek kalom(34).

U ta'lim-tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilgan holda, qizlarning
ilm egallashini “tarbiyai axloqiya” asosida amalga oshirgan.



Ey bolam, Xayrulloxon, maktab
ochibdur, boringiz,

Albatta, shu yangi maktabda
o'qingiz, boringiz.

Yerda o'Iturmay xorrakda o'Itururmish bolalar,
Toza turgay ust-boshu jomayi dastoringiz.
O'rgatarmish turk tilida har ilmdin borini,
Kelgusida shu bilimlar birla bo'lg'ay koringiz.
Har o'qushning ma'nisig'a tez tushunsangiz agar,
Yaxshi mullolar kabi olis borar raftoringiz.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Jahon otin Uvaysiy ta’lim jarayonida muammo metodini qo’llashda chistonlardan samarali foydalangan. O‘zi to‘qigan chistonlar vositasida o‘quvchi qizlarda topqirlik mahoratini, badiiy sezgirlik va didni tarbiyalagan:

Ul nadurkim, sabz to‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,

Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.

Barcha qushlarning so‘ngoki ichida,

Ul na qushdurkim, so‘ngoki toshida. (Yong‘oq)(121).

Jahon otin Qo‘qon xoni Umarxon saroyidagi kanizaklargagina emas, balki Qo‘qon malikasi, shoira Nodira (Mohlar oyim)ga ham ustozlik qilgan. Uning maktabida adabiyotdan tashqari arab tili grammatikasi, Talhis*-(forscha sharhlar bilan), Muxtasar*, Tahzib,* Hadisu Sharif,* “Tibbi Yusufi”,* “Ma’lumot – Afoq”*¹ kabi o‘quv fanlari o‘tilgan.

Bu maktabning otini bo‘lmish Jahon otin musiqa san’atidan yaxshi xabardor bo‘lganligi uchun ham o‘z shogirdlariga musiqa sirlaridan ham saboq bergen.

Ahmad Donish (1827 — 1897) madrasada dars berish bilan birga, “Navodir ul vaqoe” asarida maktab-madrasalarni isloh qilish, bunda maktab-madrasa tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ta’lim-tarbiya usullarini isloh qilish, ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritish, texnik fanlarni o‘qitish, xorijiy tillardan saboq berish kabi dolzarb masalalarni ilgari suradi. Uningcha, o‘qituvchi o‘z ustida ko‘p ishlashi, kasbiy mahoratini o‘sirishi, go‘zal axloqli bo‘lishi zarur. Olim ta’limda ilmiylik tamoyilini ilgari surib: "Yoshlar fikri va bilimining haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi, bevosita kuzatish yo‘li bilan ongli ravishda bilim egallashi, bunda hodisa mohiyatini anglashi, eng zarur masalaga e’tibor berishi, ikkinchi darajalilariga

* Talhis-Qur’on suralarining botiniy ma’nosini o‘rgatuvchi fan.

* Muxtasar – Islom qonunlarining qisqacha bayoni.

* Tahzib – diniy mantiq.

esa e'tibor bermasligi kerak. Har bir odam bilimni shunday egallashi zarurki, har qanday qarshilik va e'tirozlar uning bilimiga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqara olmasin, fikri haqiqatan to'g'ri bo'lsa, odamlarning kelisha olmasligidan xafa bo'lmasin" (37), - deb uqtiradi.



Yoshlar bilimlarni bevosita kuzatish yo'li bilan ongli ravishda egallashi, o'z fikri va bilimining haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi kerak: o'r ganadigan hodisaning mohiyatini bilib olib, eng asosiy masalaga e'tibor berib, ikkinchi darajalilarini chiqarib tashlamog'i lozim. Har bir odam bilimni shunday egallashi kerakkii, har qanday qarshilik va e'tirozlar uning bilimiga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqara olmasin, fikri haqiqatan to'g'ri bo'lsa, odamlarning kelisha olmasligidan xafa bo'lmasin.

Ahmad Donish. Navodirul vaqoe. -T.: Fan, 1964. - 280 b.

Ahmad Donish, shuningdek, zamonaviy jihozlar bilan ziynatlangan maktab, madrasalar qurish, ularda turli tillar va tabiiy fanlarni o'r ganishga ham jiddiy e'tibor berish, muallim va mudarrislarning mas'uliyatini oshirish masalalarini ilgari surgan.

Umuman, xonliklar davrida quyidagi didaktik qadriyatlar mavjud bo'lgan:

Ushbu davrda ko'p qo'llanilgan mantiqiy yodlash usulida o'quvchilarga ma'lum bir manba yod olish uchun topshirilar ekan, avvalo uning ichki (botiniy) ma'nosi ona tilida tushuntirib berilgan, ya'ni sharhlangan. Bu o'z davri uchun progressiv holat bo'lib, fors yoki arab tilidagi matnlar mazmunini (ayniqsa, aksariyat ishqiy mazmunda yozilgan kabi taassurot qoldiradigan o'zbek tildagi she'rlarning botiniy asl ma'nolarini) izohlab berish o'quvchining tafakkurini o'stirishga xizmat qilgan.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

- | | |
|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Xonliklar davrida tayanilgan ta'lim tamoyillari | <ol style="list-style-type: none">1. Ustoz tanlashda erkinlik2. Ta'lim-tarbiya birligi3. Islomiy tarbiya va ilmlar ustuvorligi4. Osongan qiyinga o'tish <hr/> <ol style="list-style-type: none">5. Ilm berishda xolislik va qanoat tamoyili6. Yodlashga beriladigan materiallarning ichki qofiyali bo'lishi7. Munozara orqali mushohada yuritish |
|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

25-rasm. Xonliklar davrida ta'limda tayanilgan tamoyillar

Xulosa qilib aytganda, xonliklar davrida o'quv jarayonida keskin o'zgarishlar bo'lmagan bo'lsada, ta'limga tanqidiy yondashuv kuchaydi, chuqur ta'lim islohotining zaruriyati borasida Ahmad Donish tomonidan ilg'or fikrlar olg'a surildi.

Anbar otin, Dilshodi Barno, Uvaysiy kabi shoira-pedagoglar qizlarga bilim berishda chiston, muammo, badiiy asarni sharhlatish va izohlatish kabilarni qo'lladilar. Xususan, ularni savodga o'rgatishda harf shakllarini she'r orqali yodda saqlatish, badiiy asar mazmunini o'quvchilarga sharhlatish va izohlatishga oid didaktik qadriyatlaridan boshlang'ich ta'lim amaliyotida foydalanish zarur.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga qaramay, xonliklar davrida Buxorodagi madrasalar Yaqin Sharq mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya tarkibida bo'lgan Tatariston va Boshqirdistonda ham mashhur bo'lgan?
2. So'fi Ollohyor ilm toliblariga qanday talablar qo'ygan?

3. Nasihat usuliga o‘z munosabatingizni izohlab bering. Nima uchun nasihatdan foydalanish zarur (yoki unchalik zarurmas) deb hisoblaysiz?
4. Anbar otining o‘zaro qofiyadosh so‘zlardan foydalanish borasidagi tajribalaridan hozirgi kunda qanday foydalanish mumkin?
5. Jahon otin va Anbar otinlar tomonidan qanday didaktik qadriyatlar ilgari surilgan?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. So‘fi Olloyor. Sabotul ojiziyn: muharrir: A’zam O’ktam; nashrga tayyorlovchi: Rashid Zohid. –T.: “Cho‘lpon”, 1991. – 121 b.
2. Anbar Otin - www.ziyouz.uz
3. Ахмад Дониш. Редкостные события (Наводиул-вақоे). В назидание детям о пользе ремесел и занятий. - <https://www.google.com/url>

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMI –XX ASRNING
BIRINCHI CHORAGIDA TURKISTON O'LKASIDA
TARBIYA,MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR**

(Jadid pedagoglari yaratgan darsliklar va ilmiy-metodik adabiyotlarda ilgari surilgan didaktik qadriyatlar)

Xonliklar davrida ichki nizolarning avj olishi oxir-oqibat mamlakatning rus zabitlari tomonidan osongina bosib olinishiga olib keldi va 130 yillik rus istibdodini boshlab berdi.

Necha asrlik islomiy qadriyatlar va milliy an'analar ruhida tarbiya topgan xalq ichidan yangi kolonial tuzumni yoqlamaydigan, yurt ozodligi va taraqqiyoti uchun oshkora va yashirin kurash olib boradigan taraqqiyparvar kuchlarning vujudga kelishi tabiiy va qonuniy jarayon edi. O'zbekistonda bu harakatning nomi jadidchilik harakati deb ataldi. Ushbu harakatning shakllanishiga quyidagi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qrim-tatar pedagogi Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan ilgari surilgan ta'lim islohoti g'oyalarining ta'siri;

2. Yagona turk va yagona islom g'oyalari ostida birlashish orqali ozodlikka va ilg'or ta'lim-tarbiyaga erishishga qaratib xorijiy davlatlar, xususan, Turkiya bilan olib borilgan aloqalar ta'siri.

Jadidlarning ta'lim islohotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillar

3. Chor Rossiyasi tomonidan madrasalar uchun ajratiladigan vaqf mulkining musodara etilishi hamda maktabxonalarining qat'iy nazorat ostiga olinishi sababli noroziliklarning kuchayishi

4. "Usuli qadim" tarafdarlarining xalq bolalarini yangi – "usuli savtiya" maktablarida o'qishlariga qarshi chiqib, jadidlarni xalq orasida obro'sizlantirishga intilishi kabilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning e'tirofiga ko'ra, 3-4 asr ilgari islom olamida muhtasham dorilfununlar, falsafa maktablari,

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

rasadxonalar bo‘lib, ularda fransuzlarning ota-bobolari ta’lim olishgan, lekin ilmu urfonga bee’tiborlik oqibatida bunday ta’lim dargohlari tanazzulga yuz tutgan: “Qachondagi musulmonlar dorilfunundan va ilmi hikmatdan sovidilar. Kundan kun tanazzul va keyin ketmoqg‘a yuz tutib, bu kungi holati parishonga yetishdilar” (42, 24). Shuning uchun o‘lkani iqtisodiy-madaniy rivojlantirishni avvalo maktab va madrasa islohotidan boshlash zarur.

Jadidlarning ta’lim jarayonini ilmiy-metodik ta’minlash; zaifalar (qizlar) ta’limi sifatini ko‘tarish; milliy ta’lim muassasalarining moddiy bazasini kuchaytirish, ta’limda jahondagi ilg‘or mamlakatlar tajribasidan foydalanish kabi yo‘nalishlarda ta’limni isloh qilish g‘oyasining negizini quyidagilar tashkil etdi:

№	Jadidlarning didaktik qadriyatlarni yangilash borasidagi islohotlari yo‘nalishlari
1.	usuli jadid maktablarini ko‘paytirish, majburiy boshlang‘ich ta’limni yo‘lga qo‘yish orqali maorifni yuksaltirish, chunki “sanoe’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas” (Mahmudxo‘ja Behbudiyl) [73,117];
2.	ta’lim mazmunini yangilash, imlo, xusnixat, ilmi hol, hisob, tarixi islom, jo‘g‘rofiya, handasa kabi o‘quv predmetlaridan bilim berish;
3.	ayollarning yoppasiga savodli, o‘qimishli bo‘lishlariga erishish, “bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir, ularning o‘zlari tarbiya ko‘rmagan bo‘lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo‘lamiz” (Abdurauf Fitrat) (13, 59);
4.	darslarni yagona o‘quv dasturi, dars rejasi, o‘quv darsligi asosida tashkil etish;

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

5.	yagona ta'lim mavsumi, dars soatlari, o'quv tanaffuslari, gigienik va o'quv talablariga mos sinf xonalarini joriy etish;
6.	ta'limni tushunarllilik, o'quv materialining o'quvchi yoshi va bilim darajasiga mos bo'lishi tamoyillari asosida tashkil etish; zero, "Voqean, o'z ona tilini durust bilmag'on, emdigina harflarni bir-biridan ayirg'onbir yosh bolaning qo'liga "Chahor kitob" berib: Ibtido mekunam banomi xudo" yoki "Sabotul ojizin" berib: "Sano lil-xoliqi g'abrovu aflok" yoki Fuzuliy berib : "Qad anoral-ishq-lil ushshoq minhojil-hudo yoki Xo'ja Hofiz berib: Alo yo ayyuxas –soqiy, adar ka'san va novilho" va soyiralar kabi forsiy, arabiylarida yozilmish eng adabiy va hikmatlik jumlalarni o'qumak ila .

26-rasm. Jadidlar qadriyat darajasiga ko'targan ta'limiy-islohiy yo'nalishlar

1. Fikr aytish (hukm)

2. Isbot qilish (hukmnинг to'g'ri bo'lishi, bexatoligiga dalil keltirish)

3. Istiqomat (hukmnинг barqarorligi)

4. Sur'at(hukmnинг to'xtovsiz, tezlik bilan tartib berilish)

27-rasm. Fitrat ishlab chiqqan munozara strategiyasi

Fitrat ta'limni ilmiy negizda rivojlantirishga qaratilgan "Munozara" asarida o'z fikri (hukmi)ni dalillar keltirish orqali isbotlashning yo'llarini ko'rsatib berildi:




O'quv matnblari bayonida fors, arab va turk tillarining aralashtirib berilishi bola zehnini ochmay, balki fikrining yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi.

"Kitobatul-atfol" (1908-y.) asaridan

Mahmudxo'ja Behbudiy "Kitob ul-atfol" (1908 y.) darsligida tushunarlik, o'quvchining yoshi va fikrlash darajasini hisobga olish tamoyiliga tayanadi, darsda "bola zehnini ochmay, balki fikrini yo'q bo'lishiga sabab bo'ladigan o'quv materiallaridan foydalanmaslik lozimligini uqtiradi"[73, 216]. Uning xat va maktub bitishni o'rgatish orqali o'quvchi va talabalarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan maxsus didaktik qoidalarida ta'limning tushunarlik tamoyiliga ustuvor o'rinn berilgan(1.3.18-rasmga qarang):

- xat yozuvchi yozayotgan so'zlari, voqeа-hodisalarni avvalo o'zi yaxshi tushungan bo'lishi lozim;
- "xat borib tegadurgon odamni mulohaza qilib, oning fahm va bilimiga muvofiq" yozish lozim;
- "unutilgan eski forsiy kalimalarni qasddan yozib, o'quvchilar zehnini tashvishga solmaslik", "xatni kamso'z va serma'no yozish" zarur kabi(70,217).



28-rasm. M.Behbudiyning yozuv mazmuniga qo‘ygan talablari

Shuningdek, u chet tilidan kirgan so‘zlarga izoh berish, maktubda “haqoratli, ta’na, hazil, fisq va gunohga taalluqli” so‘zlarni ishlatmaslik lozimligini uqtiradi. Darslikda xatlarning turlari (rasmiy arizalar hamda xususiy maktublar (yodnama, tashakkurnoma va xabarnoma)ning namunalari berilgan.

Abdulla Avloniy fikricha, dars oluvchi- biluvchi, tarbiya oluvchi- amal qiluvchi demakdir. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zlari ilmlariga omil bo‘lub, shogirdlariga ham bergen darslarini amal ila chog‘ushturub o‘rgatmklari lozimdir. Bu ravish ta’lim ila berilgan dars va ma’lumot shogirdlarning diliga tez ta’sir qilub, mulloyi boamal bo‘urlar (11, 24).



Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lismiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur

"Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan

Munavvar Qori jadid maktablarida qo'llanilgan usuli savtiya metodining mohiyatini izohlab, "...usuli savtiya bolalarga harflarning ovozlari ila tanitmoq, o'qulg'on so'zlarni yozdirib, ma'nosini bildirmak, Bedil, Xo'ja Hofiz kabi forsiy va mushkul kitoblarning badaliga e'tiqod, imlo, xusnixat, ilmi hol, hisob, tarixi islom, jo'g'rofiya, handasa, hay'at va shoirlar kabi diniy va dunyoviy ilmlarni har kimning o'z tilida yozilmish kitoblardan o'qitib bildirmakdan iborat" deya ta'kidlaydi [76, 147].

Bu fikrlar jadid pedagoglarining didaktik qadriyatlarni yangi asosda, ya'ni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiqan rivojlantirishga intilganlaridan darak beradi.

O'zbekistonda "darslik" nomi bilan chop etilgan va amalda qo'llanilgan nashrlarning ilk mualliflari jadid pedagoglaridir. Jadidlarning aksariyati (Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Rustambek ibn Yusufbek hoji, Saidrasul Saidaziziy, Hasanali kabilar) ilk darslik mualliflari hisoblanadi. Ularning alifbe darsliklari ilk sahifalarida o'qituvchilarga qisqacha metodik tavsiyalar berilgan bo'lib, ta'limda osondan qiyinga, oddiydan murakkabga o'tish borasidagi didaktik qarashlari o'z aksini topgan.


Ularning alifbe darsliklaridagi [12. 75, 92, 94, 110] didaktik materiallarda qissadan hissa tarzida g‘oyaviy-mantiqiy xulosalarning keltirilganligi, butun so‘zlar (amriqo) usuli (103), usuli savtiya-tovush usuli (75,12), uyadosh so‘zlar turkumlaridan foydalanilganligi(12. 75, 92, 94, 110); pand-nasihat, ibrat va eslatma usulidan foydalanilganligi, harf shakllarini narsa-buyumlar tasviri orqali berish usulidan foydalanilganligi, ilk bor rasmlar kiritilib, ta’limning ko‘rgazmalilik tamoyiliga tayanilganligi (94, 110), qayd etilgan barcha darsliklarda milliy kolorit va milliy tarbiyaning ustuvorligi tamoyiliga tayanilgani didaktik qadriyat sifatida e’tiborga loyiqidir.

A.Avloniy, Saidrasul Saidaziziy, Munavvar Qori, Rustambek ibn Yusufbek hoji, Hasan Ali kabi jadid pedagoglarining darsliklarini o‘rganish ularda ilgari surilgan didaktik qadriyatlarning quyidagi kengqamrovli doirasini belgilash imkonini beradi (rasmga qarang):

- 1.darslikning xalq tiliga yaqin tilda yozilgani, uyadosh so‘zlar, maqol va matallardan foydalanish, naqsh elementlarini qo‘llash orqali darslikda milliylikning ta’minlangani;
- 2.Bolalarning yoshiga mos sodda til va uslubda yozilgani, darslik tilining osonligini ta’minalash orqali ta’limning tushunarligi tamoyiliga amal qilingani;
- 3.Ohangdosh so‘z va bo‘g‘inlardan foydalanish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirishga hamda savod o‘rgatishda osandan qiyinga o‘tish tamoyilini amalga oshirilgani;
- 4.Darsliklarda suqrotona savol-javob usulidan foydalanish orqali o‘quvchilar tafakkuri rivojlantirilgani;
- 5.Darslikning metodik tavsiyalar bilan boyitilgani, ya’ni ayrim mavzularni o‘qitishda qo‘llash zarur bo‘lgan metodik yo‘l-yo‘riqlarning darslik ichida keltirilgani;

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

6. Chet el tajribalaridan ijodiy foydalanish va kreativlikning ta'minlangani kabilar Masalan, Hasan Alining "Til ochg'ich" alifbe darsligida amriqo usuli qo'llanilib, butun so'zlar rasmlar yordamida o'rgatilgan.



29-rasm. Jadid darsliklaridagi didaktik qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari

Ushbu darsliklarda, shuningdek, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, onglilik va faollik, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, o'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili kabilarga amal qilingan.

QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN XONLARGA XITOB(57, 110)

(*Qrim-tatar pedagogi Ismoilbek Gasprinskiy 1890 yillardanoq Buxoro amiri Abdulahadxon, keyinchalik valiahd Sayyid Olimxon bilan ma'rifat tarqatish maqsadida yaqin munosabatda bo'lgan⁶. Uning "Tarjimon" gazetasi 1906-yil 11-avgust sonida Buxoro va Xiva xonlariga murojaat etilib bosilgan ushbu maqolasida madrasalar islohoti haqida muhim fikrlar ilgari surilgan*)

⁶ Bu haqida o'qing: Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. – T.: Ma'naviyat, 2006. – 318 b. – 40-41-b.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

...Siz, davlatli xonlardan aholiga ehson qilinadigan bir narsa ma’rifat tarqatuvchi, bilim va kamolotga yetaklovchi oliy darajali maorif maktablaridir. Buxoroyi sharifda va Xivada hozirgi paytda biror dorilfunun islomiya ta’sis qilinishi kerak.

Bu dorilfununlarda... tarix, jo‘g‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa zarur fanlar forsiy, turkiy, rusiy va fransuz tillarida o‘qitilishi kerak.

Ushbu dorilfununlarga muallif va mudarris bo‘ladigan ahli kamol bordir. Da’vat qilinsalar, bularan mol uchun, non uchun emas, millat yuksalishi uchun xursandlik ila xizmat qiladiganlari topiladi.

Ey davlatlilar, Kechmish zamon g‘aflat bilan Movarounnahr maydoni siyosatda mag‘lub bo‘lib, istiqlolini yo‘qotdi. Bu zamonda g‘aflatda bo‘linsa, maydoni iqtisod va maishatda millat mag‘lub bo‘lib, bunga sabab bo‘lganlar dunyo turguncha mas’ul hisoblanadilar. Janobi Haq hayrli ishlarga tuyassar aylasin.

Manba: “Tunjim” gazetasi, 1906 y., 89-son

*Zamonaviy ta’lim amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan
innovatsion texnologiyalar:*

FITRATNING “MUHOKAMA” INTERAKTIV TEXNOLOGIYASI

Mazkur texnologiyani oliy pedagogik ta’lim amaliyotida qo‘llash uchun talabalar mashg‘ulotga oldindan tayyorlanib keladilar. O‘qituvchi talabalarga 3ta muammoli masala (hukmlar)ni havola qiladi. Masalan,

Muhokama uchun namunaviy hukmlar:

- 1.Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida pand-nasihat eskirgan usullardan biridir.
- 2.Ta’limda ustoz nufuzi talaba nufuzidan ustunroq bo‘lishi lozim.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

3.O‘qituvchi mavzuni to‘liq o‘zlashtirganidan keyin baholash hozirgi zamonaviy ta’lim vaqt taqsimotiga to‘g‘ri kelmaydi.

O‘qituvchi havola etilgan hukmlarni ma’qul yoki noma’qul ekanini isbotlash uchun zarur adabiyotlar va internet materiallari bilan tanishish va fikrini ular asosida isbotlashni so‘raydi.

Mashg‘ulot boshlangach:

Talabalar 4 kishidan 3 guruhga bo‘linadilar.

Har bir guruh doira shaklida joylashadi.

Guruh sardorlari oldindan tayyorlangan sandiqcha ichidagi hukmlardan birini tanlab oladi.

Guruhlar Fitrat texnologiyasiga asoslangan muhokama sxemasi bilan tanishtiriladi. (hukm – isbot –dalil – xulosa)


Hukm muhokamasi uchun har bir guruhga 10 daqiqadan vaqt beriladi. Guruhdagi 2 talaba hukm ijrochisi sifatida qolganlarni manbalardan yig‘ilgan ma’lumotlar bilan tanishtiradilar, 2 talaba isbotlovchilar bo‘lib, keltirilgan manbalardan isbot va dalillarni tanlab saralaydilar, xulosani aytuvchi talaba guruh xulosasini shakllantiradi va taqdim etadi (zaruriyat bo‘lsa, isbotlovchi talabalar ham jarayonda chiqish qilishlari mumkin).

Har bir guruh o‘z hukmi yuzasidan fikrlarini bildirgach, o‘qituvchi isbot, dalil va xulosalarning asosliligi, ishonarlilikiga qarab guruhlarni baholaydi. Guruhlar hukmlari bilan tanishilgach, bildirilgan fikrlar asosida muhokama davom ettirilishi ham mumkin. Bunda fikrlar xilma-xilligi va bir hukm doirasida turli guruhlarning fikrlari bilan o‘rtoqlashish imkonи tug‘iladi.

ABDULLA AVLONIYNING “FIKR TARBIYASI” TA’LIM TEXNOLOGIYASI

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Abdulla Avloniyning “Fikr tarbiyasi” ta’lim texnologiyasini yangi sharoitda qo’llashga qaratilgan mashg‘ulotimiz talabalarning pedagogik hodisani refleksiv anglashida juda qo‘l keladi. Bunda muayyan ta’lim hodisasi haqida muammo ilgari surilgach, talabalarning guruhlararo innovatsion faoliyati amalga oshiriladi. Bunda ular quyidagi (30-rasm) kabi pastdan-yuqoriga qarab qadamlı algoritm asosida faoliyat olib boradilar:



30-rasm A.Avloniyning fikr tarbiyasi texnologiyasi

Yuqoridagi tartibda talaba avval o‘zi alohida qo‘yilgan muammo yuzasidan fikrini qog‘ozga yozib shakllantiradi (1,2,3-qadamlar), so‘ng guruh tarkibida faoliyat olib boradi (4-qadam), keyin yana alohida mustaqil ishlaydi (5-qadam). Mashg‘ulot so‘ngida qur'a tashlash yo‘li bilan guruhlar tarkibidagi ayrim talabalarning javoblari tinglanadi va muhokama qilinadi. O‘qituvchi fikrlarni xulosalab, to‘ldiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda jadid ta’lim islohoti harakatining shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi?
2. Jadid pedagoglari ta’lim islohotiga qanday omillar mone’lik qildi?
3. Jadid pedagoglari ishlab chiqqan ta’lim islohotining asosiy yo‘nalishlarini sanab bering.
4. Ilk darsliklarda qanday ta’lim tamoyillariga tayanildi?
5. Jadid ma’rifatparvarlari ilgari surgan didaktik qadriyatlardan qaysilarini zamonaviy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish mumkin?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to‘ldirilgan 3-nashri . – T.: Ma’naviyat, 2006. – 280 b.
2. Fitrat. Najot yo‘li (Rahbari najot); Mas’ul muharrir Z.Choriev, tarj. Sh.Vohidova. – T.: Sharq, 2001. - 176
3. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va ma’mot masalasi. – T.: Ma’naviyat, 2006. – 318 b.
4. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 2003. -304 b.
5. B.Qosimov. Milliy Uyg‘onish. - T.: Ma’naviyat, 2002. – 397 b.

**1924-1991 YILLARDA OZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI
PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI**

(Sobiq sovet hokimiyati davrida ilgari surilgan asosiy didaktik qadriyatlar mazmuni va xususiyatlari)

Sovet homiyatchiligining ilk yillarida qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlar sovet maktabining o'qitish prinsiplari, tuzilishi, mafkuraviy yo'nalishini belgilab berdi. Xusan, 1918 yil (yanvar)da maktablarni diniy muassasalardan ajratish haqida dekret qabul qilindi. Shu yili yagona mehnat maktabi haqida Nizom qabul qilindi. O'tgan asrning 20-yillarida Sobiq Ittifoq Davlat ilmiy kengashi (GUS) tomonidan ishlab chiqilgan "Yagona mehnat maktabi haqidagi Deklaratsiya" da ta'limga sinf-dars (tizimi) shakli keskin tanqid ostiga olinib, loyiha metodi asosida o'qitishning brigada-laboratoriya shakliga asoslangan yagona mehnat maktablari tizimiga o'tishning zarurligi uqtirildi. Shu tariqa amerikalik pedagog Elen Perkxarst taklif etgan alternativ ta'lim texnologiyasining «Mehnat maktabi», «Dalton-plan», o'qitishning brigada-laboratoriya shakli va loyiha metodi nomlari bilan rus pedagoglari tomonidan taqdim etilgan o'zgacha shakli ta'lim amaliyotiga kirib keldi. mehnat maktabi g'oyasining asoschisi Elen Perkxarst (1887-1973) avval boshlang'ich mактабда sakkiz yil davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanib, bir necha yil davomida M.Montessori bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan. U Dalton (AQSh) shahrida o'zining xususiy maktabini ochdi. 1919-yilda o'g'il va qiz bolalar uchun Oliy maktab tashkil etib, 1942- yilgacha uni muvaffaqiyat bilan boshqardi. O'zining "Dalton-rejasi asosida o'qitish" (London, 1923) nomli ishida o'z maktabining nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlarini yoritib berdi. Uning maktab ishlariga oid asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat edi:

- o'quvchining axloqiy javobgarlik erkinligi;

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

- o‘quvchida ijtimoiy-demokratik tafakkurni shakllantirishda hamkorlik va birgalikda ishlashga alohida e’tibor berish;
- o‘quvchining o‘z mustaqil faoliyati orqali shaxsiy tajribaga ega bo‘lishi.

Mehnat maktabi g‘oyasining O‘zbekistonda haqiqiy ma’nodagi namoyondalari mavjud bo‘lmay, Sh.Rahimiy va Elbek tomonidan ayrim ishlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularda O‘zbekistonda maktablarning shakllanishi va rivojlanishining tashqi jihatlarini o‘rganishga ko‘proq e’tibor berildi.

Sobiq sovet hokimiyatining ilk yillarida **Elbek, Sh.Rahimiy, O.Sharafiddinov** kabi o‘zbek pedagog-ma’rifatparvarlari darsliklar yaratib, O‘zbekistonda darslik nazariyasini amaliy asosda yo‘lga qo‘yish bilan didaktik qadriyatlarning rivojlanishiga muayyan darajada hissa qo‘shdilar.

Sobiq sovet hokimiyati davrida yurtimizda didaktik qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga hamdo‘stlik davlatlari, birinchi navbatda Rossiyada shakllangan didaktik qadriyatlarning katta ta’sir ko‘rsatganini hisobga olgan holda, shu o‘rinda pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilgan didaktik tizimlarni keltirib o‘tamiz. Rus pedagogi A.V.Xutorskiy sobiq sovet hokimiyati davrida taqdim etilgan va didaktik qadriyat sifatida e’tirof etish mumkin bo‘lgan o‘qitishning yetakchi yondashuvlari va ularning namoyondalarini quyidagicha guruuhlaydi[120]

1) **o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi.** Ta’lim subyektlarining o‘zaro munosabati o‘quvchi-talabada o‘zlikni to‘liqroq namoyon etishga rag‘batlantirishga qaratildi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’limda bola imkoniyatlari va qobiliyatini rag‘batlantirish (Sh.A.Amonashvili), umumiy o‘rta ta’lim jarayonida adabiyot darslarida chin insonni tarbiyalash (E.N.Ilin) g‘oyalari asosida amalga oshirildi;

2) **o‘qitishning tabiatga muvofiqlik yondashuvi** shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga nihoyatda yaqin bo‘lib, ta’lim oluvchi subyekti ichki dunyosining birlamchigi g‘oyalariga ko‘ra A.M.Kushnirning savodga o‘rgatish tizimi, A.V.Xutorskiyning erkin rivojlanish maktabi tajribalari kabilar misolida amaliyatga tatbiq etildi (uning asoschilari Ya.A.Komenskiy, J.J. Russo, L.N.Tolstoy kabilardir);

3) **madaniyatga muvofiqlik maktabi** – u yoki bu madaniyat nuqtai nazaridan madaniy insonni tarbiyalash tizimini ifodalab, I.F.Goncharovning “Rus maktabi”, I.E.Berlyand va S.Yu.Kurganovlarning “Madaniyatlar dialogi maktabi” timsolida faoliyat olib bordi;

4) **o‘qitishning kreativ yondashuvi.** O‘quv materialidagi ilmiy muammolar yechimini izlash va hal etish, o‘quvchida intellektual va ijodiy layoqatlarni o‘sirish, ularni predmet olimpiadalari, ilmiy konferensiyalarga tayyorlash kabilarni o‘z ichiga olib, o‘z-o‘ziga ta’lim berishning yaxlit tizimi evristik o‘qitish prinsiplariga tayanadi (A.V.Xutorskiy va b.).

5) **o‘qitishning tashkiliy faoliyat yondashuvi.** Ushbu yondashuvga o‘qitishning metodologik yo‘naltirilgan tizimlari, rivojlantiruvchi ta’limning birmuncha ommalashgan turli tiplarini kiritish mumkin. Bunda ta’limni tashkil etishning guruhli, jamoaviy, juftlikda o‘qitish kabi turlari asosida faol o‘quv muloqotiga sharoit yaratish g‘oyasi ilgari surildi (namoyondalari: S.L.Vigotskiy, V.V. Davidov, L.V. Zankov va b.);

6) **o‘qitishning intensiv yondashuvi.** Ushbu yondashuvda pedagog ta’lim jarayonini tizimlashtirish, intensivlashtirishga qaratilgan ijtimoiy vazifalarni hal etishning samarali usullarini qo‘llab, o‘quvchi-talabalarning qulay ta’lim muhitida bir vaqtning o‘zida katta hajmdagi materiallarni o‘zlashtirishiga erishadi. Ushbu yondashuv namoyondalari - V.F.Shatalov (1979), S.N.Lisenkova

(1988)kabilardir. Ushbu metodikalarning asosiy maqsadi – “qisqa vaqt ichida iloji boricha ko‘proq bilim berishdan iborat”. Bu metodikalarda pedagogning bilimi, obro‘sni, irodasiga bo‘ysinish uchun o‘quvchida ichki ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan maxsus usullar qo‘llanildi. S.N.Lisenkova metodikasiga ko‘ra, o‘quvchilar o‘qituvchi taqdim etgan algoritm, bosqich, ko‘rsatmalar asosida ish bajardilar. V.F.Shatalov o‘quvchilarning bilish faoliyatini assotsiatsiyalarga tayanib, bosqichma-bosqich boshqarib bordi;

7) hunarmandchilikni o‘rgatishga asoslangan yondashuvlar. Bu yondashuv namoyondalari novator o‘qituvchilar bo‘lib, ular o‘zlarining yuksak kasbiy iqtidorlari, o‘quv predmetini va unga o‘quvchilar e’tiborini jalb etishni a’lo darajada bilishlari sababli yutuqlarga erishishdi (115, 51-52).

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida metodika va texnologiyalarni yangilash, ta’limning amaliy ta’sirini oshirish zaruriyati yuzaga kelib, yaxlit ravishda innovatsion texnologiyalar tushunchasi shakllandi.

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan ishlar, shubhasiz, qator yutuqlarga ega bo‘lishi bilan birga, ularning o‘ziga xos kamchiligi shunda ediki, mazkur ishlarning konseptual negizida o‘quvchilarga birdek yondashish, iste’dodli o‘quvchilar imkoniyatini yetarli darajada rag‘batlantirmaslik, ta’limning o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga mo‘ljallanishi yotar edi. Masalan, sobiq sovet hokimiyati davrida yetakchi pozitsiyasini egallagan **o‘qitishning tashkiliy faoliyat yondashuvi** tarkibidagi rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini ko‘rib chiqaylik:

**O‘qitishning tashkiliy faoliyat yondashuvi:
Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining tayanch tushuncha
va g‘oyalari**

Asoschilari: S.L.Vigotskiy, V.V.Davidov, L.V.Zankov va b.

Kamchiliklari	Yutuqlari
<p>Rivojlantiruvchi ta’lim mavjud ta’lim yondashuvini tubdan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘ymaydi</p>	<p>Rivojlantiruvchi ta’lim o‘quvchilarning materialini jarayonida bilimlarini o‘quvchini har rivojlantirishni tutadi.</p>

Rivojlantiruvchi ta’limda o‘quvchilar ma’lumot sifatida taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Ya’ni, unda ta’limning an’anaviy yondashuvi o‘zgarishsiz takrorlanadi.

Sinfdan tashqari ishlar sifatining oshirilishi mifikta’limi samaradorligini ta’minlashda birmuncha muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi tarkibida ta’lim prinsiplari va metodlariga oid empirik tadqiqotlarga alohida ahamiyat beriladi.

31-rasm. Rivojlantiruvchi ta’limning yutuqlari va kamchiliklari

Albatta, ushbu ta’lim yondashuvlari ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar orqali O‘zbekistonda didaktik qadriyatlarning

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bunda quyidagi omillarning ijobiy ta'sir qilganini ta'kidlash joizdir:

- O'zbekistonda SSSR hududidagi ta'lim yutuqlari o'rganildi va tatbiq etildi. O'zaro mushtarak va yagona madaniy-ta'limiy muhit mavjud bo'lgani sababli o'zbekistonlik olimlar rus pedagoglarining ilmiy amaliy tadqiqotlaridan xabardor bo'lganliklari;
- 70-80-yillarda ilg'or o'qituvchilar ish tajribaisni yoritishning an'naviy tus ola boshlaganligi. Fikrimizcha, ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini keng yoritishga qaratilgan to'plamlarni nashr ettirish an'anasi davom ettirish zarur. Pedagogika ilmi shu ilm bilan shug'ullanuvchi oz sonli kishilarning ishi bo'lib qolmay, balki o'z doirasiga aynan amaliyatchi o'qituvchilarni jalb qila olsagina, muayyan amaliy natijalarga erishish mumkin;
- pedagogika sohasida ilmiy-pedagogik kadrlar salmog'ining o'sganligi va b.

Sobiq sovet hokimiyati davrida ta'limning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan kuchli omillardan biri - sovet jamiyatining "yopiq ta'lim siyosati"ga amal qilganidir. Ya'ni, bu davrda xorijiy ta'lim nazariyalari keskin tanqid ostiga olindi. Sobiq sovet hokimiyati ta'lim tizimi ideallashtirildi. Vaholanki, jahon umumbashariy tafakkuri integrativ va differensial ta'limning tarmoqlarini izlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amaliyatda qo'llash muammolarini ustida tadqiqotlar olib borayotgan, aksariyat hollarda uning ijobiy yechimlari topilayotgan, amaliyatda qator yutuqlarga erishishga sabab bo'layotgan edi.

Ayni vaqtida, sovet hokimiyatchiligi davrida O'zbekistonning Rossiya tarkibida bo'lishining didaktik qadriyatlarning shakllanishiga salbiy ta'siri ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

- 1) Sobiq Sovet hokimiyati ta'lim tizimi ideallashtirildi;

2) Milliy ta’lim-tarbiyaga e’tibor berilmadi. o’tmishda yaratilgan milliy didaktik qadriyatlarning nazardan chetda qoldi; O’zbekistonda jadidlar tomonidan taqdim etilgan milliy ta’lim g‘oyasining amalga oshmaganligi, bunga rus pedagogikasi, ta’lim tizimi, o’qitish g‘oyalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan qoliplash siyosati halal berdi;

3) Rossiya maorif vazirligi tasdiqlab, chop etilgan va o‘zbek tiliga o‘girilgan dastur va darsliklar asosida o‘qitildi, ayrim ta’limiy hodisalar anglab etilmay, zo‘rma-zo‘raki qabul qilindi, hattoki darsliklar yaratishda ham rus qolipidan chiqilmadi;

4) “Yopiq ta’lim siyosati”ga amal qilindi. Ilg‘or xorijiy davlatlar ta’lim muhitining haqiqiy holati haqida chalkash tasavvurga ega bo‘lindi;

5) Oliy ta’lim tizimida o‘qitishning ma’ruza usuli yagona usul bo‘lib, talabalarning ruhiy-fiziologik xususiyatlari nazardan chetda qoldi kabilar.

Sobiq sovet hokimiyati davrida asoslangan o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan va kreativ yondashuvlari didaktik qadriyat sifatida hozirga qadar tadqiq etilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Biz ularni innovatsion qadriyat sifatida e’tirof etish mumkin deb hisoblaymiz.

Innovatsion didaktik qadriyatlar o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan modernizatsiyalashgan ta’lim usullari, shakl va vositalari demakdir. Bunda innovatsiya – yangi, yangilik; qadriyat esa qadrli so‘zi bilan bog‘liq , chuqur mazmun hamda samaradorlikka ega ta’lim shart-sharoitlari bilan aloqador tushunchadir. O‘zPFITI pedagog olimlari tomonidan tuzilgan “Pedagogik atamalar lug‘ati”da mazkur tushuncha va u bilan bevosita assotsiativ bog‘langan atamalarga, jumladan, “innovatsiya”ga “yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar” deb izoh berilgan (79, 40).

XX asrning 80-yillarida ta’limni insonparvarlashtirish, muammoli ta’lim, o‘qitishni optimallashtirish, aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi va o‘sishi kabi ta’lim nazariyalari rivojlandi. *Pedagogik ijodkorlik, innovatorlik tushunchalari yetakchi pozitsiyaga o‘tib, didaktik qadriyat darajasiga ko‘tarildi* (93). Lekin ta’lim amaliyotida o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyani qo’llashga yetarlicha tayyor emasligi, moddiy bazaning shakllanmaganligi innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishiga katta to‘siq bo‘ldi. O‘tgan asrning 80-yillarida N.P. Guzik (93, 101), E.N. Ilin (93, 176), S.N. Lisenkova (93, 47), V.F. Shatalov (93, 75) va boshqalar tomonidan ta’lim amaliyotiga mualliflik texnologiyalarining joriy etilishi didaktik innovatsiyalar rivojidagi o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Bu **mualliflik metodikasiga** yo‘naltirilgan didaktik qadriyatlar taraqqiyotining namoyon bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning kamchiligi vaziyatli empirik xususiyatga ega bo‘lganligi, ilmiy-nazariy asoslanmaganligi, umumiyligiga emas, xususiy xarakter kasb etganligida ko‘rinadi. Shunga qaramay, u innovatorlikning jamoaviy xususiyatiga ega innovatsion didaktik majmualar yaratish tendensiyasiga o‘tishga, Rossiyada “Yangi maktab”, “Evrika” kabi innovatsion jamoaviy majmualar yaratilishiga asos bo‘ldi.

Innovatsion qadriyatlarning asosiy xususiyati o‘quv jarayonini ijtimoiy tashkil etishning tarixan shakllangan va yangilangan tipi sifatida zamonaviy jamiyat madaniy rivojiga mos kelishi, innovatsion o‘qitish jarayonida shaxsni rivojlantirishning zarur shart-sharoitlari yaratilishi, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy ijodiy ulush qo‘sish, tashabbuskorlik o‘z-o‘zini rivojlantirish huquqi e’tirof etilishidir. Bunda, eng asosiysi, ta’lim subyektlari o‘rtasida teng huquqlilik, hamkorlik, demokratik munosabatlar ustuvor bo‘lishi zarur. Shu sababli, innovatsion qadriyatlar bilim olishni ta’lim oluvchi shaxsi uchun quvonch, aqliy-

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

emotsional va axloqiy taraqqiyot manbaiga aylantiradi. Masalan, o‘yin texgologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari, ta’limning tabaqlashtirilgan shakllari, adaptiv ta’lim kabilar shunday innovatsion didaktik qadriyatlar hisoblanadi.

Ular o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab keng o‘rganila boshlangan (R. Djuraev, Sh. Abdullaeva, G. Maxmutova, A. Almetov kabilar). Ayniqsa, mustaqillikka erishilgach, boshlang‘ich sinf darsliklariga o‘yin texnologiyalari faol tatbiq etilib (“Alifbe”, “Ona tili”, “O‘qish” darsliklari), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘yicha didakt olimlarimiz tomonidan ayrim ishlar e’lon qilindi (Roziqov O.R., Og‘aev S.Yu., Mahmudova M.M., Adizov B.R., Safarova R. va b), Mardonov Sh, Xodjaev B., Almamatova A. kabilar.

Innovatsion didaktik qadriyatlarni qo‘llash uchun avvalo:

- ta’lim subyektlarida innovatsion didaktik qadriyatlarni qo‘llashga oid bilimlar mavjud bo‘lishi kerak. Demak, o‘qituvchi qo‘llaniladigan innovatsion didaktik qadriyatlarning mazmuni haqida bat afsil ma’lumot berishi, ilmiy-metodik manbalar tavsiya etishi lozim;

- innovatsion didaktik qadriyatlarni qo‘llash o‘qituvchidan o‘z fanining bilimdoni bo‘lishni, qo‘yilgan maqsadni aniq tasavvur etishni, ta’lim oluvchilar bildiradigan fikrlarni ayrim va umumiyy izohlashni talab etadi.

Innovatsion didaktik qadriyatlarga:

- aqliy hujum, ajurli arra, rolli o‘yinlar, bahs-munozara kabi interfaol metodlar;

- bir vaqtning o‘zida ham zamonaviy, ham tarixiy xarakterga ega bo‘lgan ilg‘or o‘qitish yondashuvlari kiradi (fikrimizcha, stixiyali tarixiy shakllanganligi sababli har qanday o‘qitish yondashuvi o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi).

Masalan, adaptiv o‘qitish yondashuvi didaktik qadriyat sifatida tabiiy iste’dod nishonalari va qobiliyatlariga mos ravishda har bir

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

o‘quvchiga aqliy rivojlanishning optimal (eng munosib) darajasiga erishishga yordam beruvchi ta’lim yondashuvi hisoblanadi. “Adaptatsiya” lot. adaptatio - moslashish, muvofiqlashish, ko‘nikish ma’nolarini anglatib, shaxs yoki ijtimoiy guruhning ijtimoiy ta’lim muhiti bilan o‘zaro ta’sirini ifodalaydi.

Adaptiv ta’lim yondashuviga asoslangan adaptiv maktablarda har bir o‘quvchining shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari asosida uni intellektual, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy va jismoniy rivojlantirish maqsadi ko‘zlanadi.

Bizningcha, ushbu innovatsion didaktik qadriyatli o‘qitish yondashuvi haqiqatan samarali yondashuvdir.

Adaptiv ta’lim maqsadi: U o‘quvchini aqliy, jismoniy, madaniy rivojlanishning nisbatan yuqori turiga uzlusiz ravishda ko‘tarishni nazarda tutadi.

Adaptiv ta’lim komponentlari (tarkibiy qismlari)ning moslashtiruvchi mexanizmlari	Dars metodlari	Mazmuni: Adaptiv o‘quv mashg‘ulotlari – bu odatdagি darslar. Ammo bu darslarda bola aql-idrokini rivojlantiruvchi metod qo‘llanadi. Rivojlantiruvchi metodning maqsadi – har bir mashg‘ulotda bolani aqliy jihatdan rivojlantirishdir.
1. Adaptiv o‘quv mashg‘ulotlari (o‘tkazish jadvallariga ko‘ra bo‘ladigan darslar). O‘quvchini o‘quv dasturlari talablariga moslashtirishning, ya’ni dastu-riy bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga ko‘niktirish-ning asosiy	rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi metod	

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

vositasi bo‘lib xizmat qiladi.		
2.Individual adaptatsiyalash (alohida moslashtirish) bo‘yicha mashg‘ulotlar. Bu holatda maq-sadga erishish uchun bolaning fikrlash faoliyatini harakatga kelishi, o‘zgarishi va rivojlanishini ta’minlovchi individual mashg‘ulotlar metodikasi qo‘llaniladi.	Rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi metodning tarkibiy qismlari va mazmuni ijtimoiy ta’sirlashuvni yo‘lga qo‘yish: a) o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida kommunikativ aloqalar o‘rnatish; b) ijtimoiy o‘zaro ta’sirlashuvda konfliktni kiritish (ya’ni, har xil nuqta nazarlarning to‘qnashuvini yuzaga keltirish. Natijada bolalarda noqulaylik hislari, o‘z-o‘zidan ko‘ngil to‘lmaslik paydo bo‘lib, konflik ichki rivojlanishni harakatga keltiruvchi mexanizm, rivojlanishning kanalizatori bo‘lib xizmat qiladi (A.N.Perri-Klermon).	Ijtimoiy ta’sirla shuvda bolaning tafakkuri ijtimoiy lashtirilib, xulq-atvori tarbiyala nadi. Konflikt (nizo) bolaning fikrini muvozanat holati dan chiqarishga yordam beradi. Nizo natijasida paydo bo‘ladigan qanoatlanmaslik hislari bolada ichki , ixtiyoriy fikrlash jarayon larini keltirib chiqaradi); O‘zlikni namo yon qilish ehtiyo ji o‘quvchini ixti yorsiz ravishda, muvaffaqiyat qozonishga, o‘zini ifoda
3. Umumsomatik (somatos – tana) va sensomator rivojlan-tirish bo‘yicha mashg‘ulotlar. Bu mashg‘ulotlarning asosida o‘quvchilarning salomatligini mustahkamlash va bola retseptorlarining sezgirlingi-ni oshirishga qaratilgan mazmun yotadi.		
4. Ijtimoiy-axloqiy adaptatsiya	-	

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

<p>(moslashtirish) bo'yicha mashg'ulotlar, bu mashg'ulotlar uchun individual refleksiv tarbiya texnologiyasi va metodikasi ishlab chiqilgan.</p>	<p>v) o'zaro ta'sir jarayonida bola faoliyatini motivatsiyalash (inson faoliyati ning asosiy motivatsiyasi, unga ichki turtki bo'ladigan bosh narsa – bu insonning boshqalar tomonidan tan olinishga, o'zini ko'rsatishga, namo yon qilishga ehtiyoji dir.</p>	<p>etishga, birinchi bo'lishga undaydi. Kuchli o'quvchilar kuchsizlar bilan muloqotda o'zlarini namo yon qilish orqali rivojlansalar, pastroq daraja dagi o'quvchilar o'qishdagi kichki na bo'lsa-da muvaffaqiyatlari bilan olg'a siljiy dilar.</p>
<p>5.Madaniyatshunoslik, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha mashg'ulotlar. Bu mashg'ulotlar o'quv-tarbiya jarayonining barcha shakllari, jumladan, alohida rivojlantiruvchi kunlarda maxsus dastur bo'yicha o'tkaziladi.</p>	<p>g)o'zaro ta'sirlashuv ishtirokchilarini joylapshtirish (ya'ni, ijtimoyi o'zaro ta'sirlashuv jarayon lariga rivojlanish dara jalariga ko'ra har xil bo'lgan o'quvchilar jalb etilishi kerak.</p>	<p>o'z ruhiy hola tini tahlil qilish, ya'ni o'quvchilar o'z aqliy faoliyati va uning natijalarini o'z-o'zini tahlil qilish asosida o'z-o'zlarini baholaydilar.</p>
<p>6.Demokratik hayot tarziga moslashtirish, o'quvchilarni maktab o'z-o'zini boshqarish tizimiga jalb etish jarayonida amalga oshiriladi.</p>	<p>d) darsning har bir bosqichidagi refleksiya</p>	

32-rasm. Adaptiv ta'lim yondashuvi mazmuni⁷

⁷ Chizma qozog'istonlik pedagog olim N. Almetov yondashuvi asosida ishlab chiqildi. Qarang: Н.Алметов Нозирги замон таълим технологиялари: ўқитувчилар учун кўлланма. – Шимкент, Алмати узлуксиз таълим университети, 2002. – 68 б. .

U o‘quvchini aqliy, jimoniy, madaniy rivojlanishning nisbatan yuqori turiga uzluksiz ravishda ko‘tarishni nazarda tutadi.

Adaptiv o‘qitish yondashuvining negizida individual ta’lim yotadi. Individual o‘quv mashg‘ulotlari bolalarni bilish, ruhiyati, ijtimoiy-jismoniy sog‘lomlashtirishda quyi darajadan nisbatan yuqoriroq darajaga ko‘tarishga mo‘ljallangan. Masalan, biron predmetga ko‘proq qiziqadigan bolalar bilan, ularning shu sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida alohida mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Boshqa o‘quvchilar bu paytda logoped bilan (agar shunday yordam kerak bo‘lsa), psixolog, shifokor, tibbiyot hamshirasi yoki jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bilan individual holda shug‘ullanadilar. Qoloq o‘quvchilar esa mos fanlar o‘qituvchilaridan yordam oladilar. Bu adaptiv mакtabda individual rivojlantirish darslari hisoblanadi.

Umumsomatik va sensomotor rivojlantirish mashg‘ulotlari qisman mакtabda va qisman qo‘srimcha ta’lim (mакtabdan tashqari) muassasalarda o‘tkaziladi. Masalan, kundalik mashg‘ulotlarning bir qismini Madaniyat Saroyida o‘tkazish mumkin. Yoki haftada 3-4 marta mashg‘ulotlar har kuni 3 soatdan mакtabda, 3 soat esa musiqa va sport mакtablarida o‘tkaziladi. Mакtabdagи va qo‘srimcha ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus 1,5-2 soatni tashkil etadi. Bu mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun majburiy, 5-8 sinf o‘quvchilari esa mashg‘ulotlarga majburiy qatnovdan ozod qilinib, bu davrda guruhlar o‘quvchilarning qiziqishlari va xohishlariga ko‘ra tuziladi. Yuqori sinf o‘quvchilariga ularning kasbiy tanlovlari qarab individual mashg‘ulotlar uyushtiriladi. Ijtimiy-axloqiy adaptatsiya bo‘yicha mashg‘ulotlar ijtimoiy muhim me’yorlar bilan solishtirishning “Men-pozitsiyalar” metodikasi asosida amalga oshirladi. Ya’ni mashg‘ulotlarda individual-refleksiya tarbiya texnologiyasi va metodikasidan foydalaniladi.

Madaniyatshunoslik, o'lkashunoslik, ekologiyaga doir mashg'ulotlar insonnnig tabiatga, jamiyatga, insoniyatning ma'naviy va moddiy madaniyatiga va nihoyat o'z-o'ziga munosabatining adaptatsion mexanizmlarini va qarashlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mashg'ulotlarning bir qismi mакtabda, ta'limning bu komponentlariga taalluqli o'quv predmetlari bo'yicha darslarda yoki jahon badiiy madaniyati, o'lkashunoslik, fuqaroshunoslik abi maxsus kurslarda o'tkaziladi. O'quv yili davomida har bir sinfda maktabdan tashqari mashg'ulotlar – ekskursiyalar, madaniyat markazlariga tashriflar, sayohatlar, maxsus dasturlar bo'yicha ekspeditsiyalar uyushtirilib, ularning aosiy o'quv mashg'ulotlariga xalal bermasligi uchun shanba va ta'til vaqtlarida ularga aniq kunlar ajratiladi (29, 36-38).

Axborot texnologiyalarida turli axborot vositalari (televidenie, video va boshqalar) qo'llanaladi. *O'qitishning kompyuterli qadriyatli yondashuvi* ham axborot texnologiyalarning bir turi hisoblanadi. Kompyuterli o'qitishda quyidagilarga tayanish zarur: individual o'qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o'tkazish; o'quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Sh. Mardonov, B.Xodjayev, A. Almamatovlar ta'limning bazali qadriyatlari sifatida: ta'limning hozirgi zamon metodologiyasi, milliy va umuminsoniy madaniyat, sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, xalq pedagogikasi g'oyalari, milliy va jahon pedagogikasi, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika fani, pedagogik jarayon psixologiyasi kabilarni qayd etadilar. Ular innovatsion pedagogik texnologiyalarga ta'limiy qadriyatlar sifatida qarab, ta'lim subyektida ijodiy fikrlash, analitik qobiliyatlar, oldindan ko'ra bilish va tahlil qilish, muqobil fikrlash, o'z faoliyatiga nisbatan ishonch, keng dunyoqarashni, ijtimoiy ahamiyatli qarorlarni qabul qilish, mas'uliyatni his etish kabilarni tarkib toptiradi deb

hisoblaydilar (67,84)

Sobiq sovet hokimiyati davrida didaktik qadriyat sifatida olg‘a surilgan shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim innovatsion didaktik qadriyat sifatida katta istiqbolga ega bo‘lib, rus metodist olimlaridan prof. L.V.Alekseevning haqli ravishda uqtirishicha, hozirgi axborotlashgan jamiyatning obyektiv ehtiyojlari o‘quv jarayonlariga rivojlantiruvchi va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni faol joriy etishni talab etadi (25, 34).

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yangi paradigmاسини pedagog olima R.Safarova va uning shogirdlari quyidagicha izohlaydilar: “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi pedagogik jamoa va har bir o‘qituvchining faoliyatida o‘z aksini topishi kerak. XXI asrga kelib ta’lim tizimi oldiga yangicha shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchi, ya’ni *favqulodda talantli* shaxs)ni shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Chunki o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan alohida shaxs sifatida ishlashi talab etiladi. Bunda o‘quv jarayoni sinfdagi har bir o‘quvchi shaxsining imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak” (95,82).

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim garchi hamon tadqiq etilayotgan va ta’limni modernizatsiyalashning negizi sifatida qaralayotgan bo‘lsa-da, o‘tgan asrning 70-80 yillaridan ta’lim amaliyotiga kirib kelgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nima? Quyida ushbu masalaga to‘xtalamiz:

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab texnokratik ta’lim keskin tanqid qilinib, “erkin shaxs”ni tarbiyalash, “shaxsning o‘z-o‘zini namoyon (realizatsiya) qilishi”, ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish, “ta’lim-tarbiya emansipatsiyasi”, “antiavtoritar tarbiya” g‘oyalari keng yoyildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga ko‘ra, hozirgi zamon pedagogikasi shaxsni, uning qobiliyatlarini, uning intellektual

tuzilmasini, uning qiziqish va mayllari hamda istaklarini qadrlaydi. Shu ma'noda u asosiy e'tiborni guruhli hamda individual tarbiyaga qaratadi. Shu nuqtai nazardan o'qituvchi, qanchalik katta rol o'ynamasin, endi yagona faol shaxs emas.

Shu yillarda Amerikaning Zollengen shahrida Zollengen maktabi modeli ishlab chiqildi. Unga ko'ra, mavjud maktab tizimiga alternativ tarzida ishchilar bolalari uchun maktab loyihasi – maktab kooperativi ishlab chiqildi (loyiha 1972-yilda “Sinf to'siqlarisiz maktab” sarlavhasi ostida e'lon qilindi), unda maktab va hayot o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa o'rnatish; o'qish jarayonini axborot va ma'lumot berish vositasidan ijtimoiylashtirish jarayoniga aylantirish, qat'iy o'quv rejalarini dasturlarini bekor qilish, nazariya va amaliyat, maktab va ishlab chiqarish o'rtasidagi doimiy aloqani ta'minlaydigan o'quv loyihalarini ishlab chiqish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, ota-onalar va jamoatchilikni maktab ishlariga faol jalb etish, to'liq o'quv kuni joriy qilish, ta'lim-tarbiyani shaxsga yo'naltirib tashkil etish tavsiya etildi. O'quvchilarga kelgusi faoliyatni tanlash erkinligini berish, buning uchun ta'limning turli usul va shakllaridan foydalanish, o'qitishning shaxsiylashtirilishi (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) xorijiy ilg'or davlatlar ta'limining muhim jihatiga aylandi. “Tanlash erkinligi” va shaxsiylashtirish eng progressiv g'oya sifatida e'tirof etildi.

O'quv rejalarini tanlashda va o'zgartirishda maktabning erkinligi Amerika ta'limida ayniqsa yaqqol ifodalanadi, har bir maktab o'quv strukturasi, o'quv reja va dasturlarini tanlashda erkin hisoblanadi. Yuqori sinflarda o'qitilishi shart bo'lgan fanlar ro'yxatiga: ingliz tili, adabiyot, tabiiy fanlar (algebra, geometriya, trigonomateriya), ijtimoiy fanlar (tarix, jamiyatshunoslik), chet tili, jismoniy tarbiya va shaxsiy gigiena kiradi. Ko'pgina shahar maktablarida turli dasturlar bo'yicha parallel o'qitish orqali ularni

kasbiy tayyorlash amalga oshiriladi. Majburiy o'qitiladigan fanlardan tashqari o'quvchining o'zi tanlab o'qitiladigan o'quv rejalarining mavjudligi ularning turli variantli va xilma-xil bo'lishiga olib keldi.

Barcha ilg'or mamlakatlar ta'limida o'quvchilarni toifalab o'qitish va kasbga yo'naltirishga katta e'tibor beriladi.

Yuqoridagi barcha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning negizida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish, bu orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning individual, axloqiy estetik rivojlanishini bevosita mayli, qiziqishlari, intilishlari, intellektual, psixologik va jismoniy imkoniyatlariga asoslanib amalga oshirish g'oyasi, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yotadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sobiq sovet hokimiyati davrida taqdim etilgan o'qitishning yetakchi yondashuvlarini sanab bering.
2. Sovet hokimiyatchiligi davrida O'zbekistonning Rossiya tarkibida bo'lishining didaktik qadriyatlarning shakllanishiga salbiy ta'siri nimlardan iborat?
3. Rivojlantiruvchi ta'limning yutuq va kamchiliklari nimada?
4. Innovatsion didaktik qadriyatlar nima?
5. Nima innovatorlikning jamoaviy xususiyatiga ega innovatsion didaktik majmualar yaratish tendentsiyasiga o'tishga asos yaratdi?
6. Innovatsion dilaktik qadriyatlarning eng muhim xususiyati nimada?
7. Adaptiv o'qitish texnologiyasini didaktik qadriyat sifatida izohlang.
8. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning qadriyat sifatidagi jihatlarini sanab bering.

Qo‘shimcha o‘qish uchun

**SHOKIRJON RAHIMIY TUHFА ETGAN
DIDAKTIK QADRIYATLAR**

Sh.Rahimiyl 1896-yilda Toshkentda dehqon oilasida dunyoga keldi. 20-asr boshlarida u boshlang‘ich ta’lim taraqqiyotiga o‘zining “Sovg‘a”alifbe darsligi, “Savod” alifbesi uchun metod kitobi, Turkiston boshlang‘ich ta’lim taraqqiyotiga oid “O‘zbek maorifining o‘tgandagi va hozirgi ahvoli” kabi ilmiy-pedagogik asari, boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolariga oid 50 ga yaqin maqolalari bilan salmoqli hissa qo‘shdi.

Sh.Rahimiyning ijodiy-pedagogik faoliyati Oktyabr buhronidan oldin boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Haftiyak” darsligini yozishdan boshlangan. 1919 yilda esa Sh.Rahimiyning “Sovg‘a”alifbe darsligi Turkiston bolalariga savod o‘rgatishning ilk kitobi sifatida ommaviy suratda nashr qilindi.

“Sovg‘a” kitobi 1919-yildan boshlab besh qayta nashr etildi. Uning 1921-yilda Turkiston davlat nashriyotida, litografiya usulida, ja’mi 20 000 nusxada chop etilgan rasmlik nashri 64 sahifadan iborat bo‘lib, muallifning “Birinchi so‘zi”, “Kitobning tuzilishi” sarlavhasi ostida izohlar, alfavit tartibi, tovush belgilari hamda tovush belgilarini o‘zlashtirib olishga yordam beruvchi so‘zlar, so‘z birikmalari, tugal mazmunga ega bo‘lgan matnlardan iborat.

“Birinchi so‘z” sarlavhasi ostida Sh.Rahimiyl “Sovg‘a” kitobining yaratilishi tarixi va uni chop ettirilishi bilan bog‘liq muammolar haqida fikr yuritadi. Xususan, 1917-yilgi inqilobdan so‘ng bo‘lib o‘tgan birinchi musulmon maorif qurultoyida o‘zbek yozuvidagi arab grafikasini isloh qilishga oid chiqarilgan qarorning “Sovg‘a”ni tuzishga ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlab, Sh.Rahimiyl Birinchi musulmon qurultoyida berilgan qaror yuzasidan “alifbo” da

yangilik davriga odum otuvda birinchi ushbu “Sovg‘a” miz oldi” dedi.

“Sovg‘a”da kitobning tuzilishiga oid 8 banddan iborat izohda muallif “Sovg‘a”ning imlo bilan bog‘liq jihatlarini tushuntirib beradi.

“Sovg‘a” (savtiya) tovush usulida yozilgan bo‘lib, unda muallif qayd etganidek, “ta’limning “engildan og‘irga ko‘chuvli” mezoniga asoslanilgan.

Bu narsa quyidagilarda yaqqol aks etadi:

1) o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan “yot” tovush belgilari “Sovg‘a”alifbosiga kiritilmagan;

2) arabcha vov harfi uch xil tovush (u, v, o‘)ni ifodalagani sababli v tovushini ajratib ko‘rsatish uchun vov tovush belgisi ustiga 3 ta nuqta qo‘yilgan.

3) Boshqa alifbelardan farqli holda, bolalarga yanada osonroq bo‘lishi uchun harf belgilar katta va kichik shaklda (bosh shakli berilmagan) taqdim etilgan.

Kitobning 6-7 betidagi 17 ta harf shaklinng har biriga unga shakl tomonidan o‘xhash bolalarga tanish narsa-buyum tasviri berilgan. Masalan, “alif” harfi yonida bolta rasmi, “Be” harfi yoniga chana rasmi berilgan. Bular bolalarning obrazli fikrlashiga mutanosib bo‘lib, savod chiqarishida juda qo‘l kelgan.

Alifboden keyingi davrda bolalarni to‘g‘ri va ravon o‘qishiga o‘rgatish uchun masala va hikoyatlar, uyadosh so‘zlar (qanday narsa-hodisani ifodalashiga ko‘ra bir guruhga mansub so‘zlar, masalan, “Mevalar”, “Idishlar” va h.k.), topishmoq va maqollar berilgan.

Kitobdan bolalarni to‘g‘riso‘z, ziyrak, ilm egallahsha intiluvchan, mehnatsevar, odobli bo‘lishga undaydigan masal va hikoyatlar o‘rin olgan.

Shokirjon Rahimiyning “Sovg‘a” alifbe darsligining o‘z davrida naqadar katta ahamiyatga ega bo‘lganini yaxshiroq anglash uchun darslik yaratilgan va chop etilgan davrda maorifga munosabat qanday bo‘lganini bilish kerak. Zero, 19 asr oxirlaridan shakllana boshlagan 1916 yillarga kelib o‘zining milliy darsligi, o‘quv reja va dasturiga ega bo‘lgan jadid maktablari va ularda qo‘llanilgan o‘quv rejalar, darsliklar sobiq sovet hokimiyati o‘rnatilgach, butkul rad etildi. Natijada bolalar savod o‘rgatishga yo‘llaydigan darsliklardan foydalana olmadilar. Shokirjon Rahimiyy “Sovg‘a” darsligi va o‘qish kitoblarida ana shu muammoni hal etdi.

Ushbu darslik o‘zbek didaktikasini ilmiy asosda hal etishda tashlangan dastlabki odimlardan hisoblanib, unda o‘qituvchilar uchun yo‘riqnomalar – metodik tavsiyalar berilgan. 20 asr boshlarida bu juda katta hodisa, didaktikani shakllantirishga qo‘yilgan mustahkam poydevor edi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Хуторский А. В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: изд. МГУ. – 416 с.
2. Полувековой путь народного образования Узбекской ССР. Т.: Узбекский научно исследовательский институт педагогических наук им. Т.Н.Кары Ниязова. Под отв.ред. И.К.Кадырова., 1974. 222
3. Roziqov O., Og‘aev S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. – Т.:”Fan”, 1997 у. – 257 б.
4. Ривес С.М. Принципы советской дидактики // Сов. педагогика, 1940, №1, стр. 39-40.
5. Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – 288 с.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

6. Sh.Mardonov, B..Xodjayev,A. Almamatov . O'qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatli yo'nalishlari: strategiya, taktika, va kafolatlangan natija.//T:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2014y. – 84 bet

**MUSTAQIL O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI.
MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR
RIVOJI**

(*Oliy pedagogik ta'lism jarayonida talabalarni istiqbolga qaratilgan innovatsion didaktik qadriyatlarni yaratishga o'rgatish imkoniyatlari*)

Didaktik qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u zamonaviy-novatorlik texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishda muayyan darajada ahamiyatga ega bo'lib, ta'limga hozirgi kundagi dolzarb muammolari: hayot davomida uzlusiz ta'limga olish g'oyasini amalga oshirish, mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantirishga ko'maklashadi.

Istiqlolga qaratilgan didaktik qadriyatlarni ta'limga amaliyotiga modernizatsiyalashgan ta'limga tushunchasi bilan birgalikda kirib kelib, afsuski, hozirga qadar bu yo'nalishdagi ta'limga jarayonlari stixiyali tarzda amalga oshirilmoqda, uning takomillashuvi uchun o'qitishda tarixiy va innovatsion didaktik qadriyatlardan foydalanish uchun yetarli moddiy-texnik, ilmiy-metodik baza yaratilishi zarur.

Shunga ko'ra, tarixiy, innovatsion hamda zamonaviy didaktik qadriyatlardan oliy pedagogik ta'limga amaliyotida foydalanishda mavjud didaktik qadriyatlarni ichki belgilariga ko'ra: didaktik qadriyatli yo'nalishlar(mo'ljallar), qo'llanilgan ta'limga texnologiyalariga ko'ra tarixiy, innovatsion hamda zamonaviy (istiqlolga qaratilgan) didaktik texnologik qadriyatlarni kabi uch turga bo'lib, ularni tasniflashda a) didaktik qadriyatlarning juz'iy va umumiyligi belgilarini ajratib olishga; b) juz'iy va umumiyligi xususiyatlar asosida bir turkumga mansub hodisalarini ajratishga harakat qildik.

Didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashda ta'limga tizimlarini isloh etishning tarixiy-pedagogik determinatsiyasi konseptual tamoyiliga tayanildi. Ya'ni, ilgari qo'llanilgan didaktik qadriyatlarni

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

“butkul rad etish va buzish emas”, balki ular negizida yangi innovatsion ishlanmalar yaratish lozim. Bizningcha,, ushbu jarayonga talabalarni faol jalb etish, bu orqali ularda ijodkorlik, o‘z milliy ta’lim tajribalarini yaxshroq o‘rganishga ishtiyoyq va intilishni qaror toptirish zarur.

A.M.Bulininning fikriga ko‘ra, kasbiy ta’lim olishga erishish, ilmiylik, amaliy yo‘naltirilganlik, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, ma’naviyat, axloqiylik, ijodiylilik, olingan bilimlarning universalligi kabi oliy ta’limga xos qadriyatlar tizimini egallashni taqozo etadi. Olim oliy pedagogik ta’limga xos qadriyatlar genezisini o‘rganib, uning evolyutsion rivojlanishidagi etakchi tendentsiyalarni ko‘rsatadi. Uning uqtirishicha, XXI asr o‘qituvchisiga xos eng muhim qadriyatlar ma’naviyatlilik, gumanizm, axloqiylik, kasbiy mahorat, diniy qadriyatlar (sobornost) kabilardir (42,13).

Sh.Tayanova talabalarda qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish nuqtai nazaridan pedagogik faoliyatning mazmuni va o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda, qadriyatlar tizimi komponentlarini: ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, intellektual, ta’limiy, tarbiyaviy, badiiy-estetik turlarga ajratib, ta’limiy qadriyatlar tizimi komponentlarini: insonparvarlik, o‘qitish jarayoni, o‘quvchi shaxsi va o‘qituvchilik kasbiga aksiologik munosabat; tarbiyaviy qadriyatlarni: axloqiy ideal, profilaktik faoliyat, pedagogik madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, namuna ko‘rsatish kabi komponentlarga ajratadi (99, 44).

Biz esa didaktik qadriyatlarning komponentlari deganda Sharq va G‘arbda ishlab chiqilgan ilg‘or ta’lim nazariyalari, ta’lim konsepsiyalari, Sharq allomalarining barhayot didaktik qarashlari, optimal didaktik metod, usul va vositalarni tushunamiz hamda didaktik qadriyatlarni belgilashda tarixiylik, milliylik, milliy-tarixiy tajribaga tayanish kabi prinsiplarga asoslanamiz. Shuningdek, ta’lim

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

nazariyasini milliy asosda rivojlantirish hamda maktablarga milliy mentalitetimizga mos zamonaviy ta’lim innovatsiyalarini kiritishni birlamchi ahamiyatga molik hodisa sifatida e’tirof etamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbilari to‘g‘risida”gi qarorida “pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyatga joriy etish” (3) vazifasi ilgari surildi. Biz innovatsion ta’lim resurslarini xorijiy didaktik tajribalar va didaktik merosimiz negizida takomillashtirishga harakat qildik.

Bizningcha, oliy pedagogik ta’limda o‘rganilishi zarur bo‘lgan didaktik qadriyatlar juda katta arsenalga ega: bu, ta’lim mazmuni (bunda allomalarning didaktik qadriyatlarga qo‘sghan hissalarini ta’kidlab ko‘rsatishga urg‘u beriladi), ta’limga oid konseptual nazariyalar (ushbu nazariyalarning qaysilarining qanday jihatlari hozir qo‘llanilishi zarur degan masala atrofida talabalar fikri o‘rganiladi, ulfrda o‘z metodikalarini yaratishda tayanishlari zarur bo‘lgan ta’lim nazariyalarini belgilab olishga oid akseologik yondashuv shakllantiriladi), ta’lim metodlari, vositalari va shakllari tarixiylik, zamonaviylik va vorisyilik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Bunda milliylikka urg‘u berish bilan birga, xorijiy tajribalarni ham hisobga olish, milliy va zamonaviylikning uyg‘unligi prinsipini qo‘llash lozim.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari va jadid pedagoglari tomonidan ilgari surilib, gumanizm g‘oyalariga asoslangan ta’limiy qadriyatlar hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Ta’lim subyektlari (inson) shaxsini oliy qadriyat deb bilish, nekbin ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish - jadidlar pedagogik kontseptsiyasining mohiyatini belgilab beradi. Tarixiy va zamonaviy gumanistik

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

aksiologik nazariyalar o‘zaro aloqadorligiga asoslanib, gumanizm g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan didaktik qadriyatlarning modernizatsiyalashuviga erishish mumkin.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv materiallariga didaktik qadriyatlarni singdirishda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

1. • O‘quv materiali mazmunida tarixiy-ilmiy materiallar, ilmiy konsepsiylar, farazlar, tushunchalar va atamalar qo‘llanilishi zarur;
2. • ta’lim mazmuni tipologik yondashuv asosida ishlab chiqilishi, ya’ni, bilimlarning eng zarurlari, tipologik xarakterga egalari saralanib olinishi va taqdim etilishi, bunda zamonaviylik tendensiyasi yetakchilik qilishi lozim;
3. • Talabalarda didaktik qadriyatlarga mos bilim, ko‘nikma, malakalar hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirilishi lozim;
4. • didaktik qadriyatlар singdirilgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchini mustaqil bilim egallahsha yo‘naltirishi kerak; innovatsion ishlanmalarga didaktik qadriyatlarni singdirish tahlil-tarkib orqali amalga oshiriladi.
5. • tanlangan innovatsiyalarni tarixiy retro-didaktik qadriyatlар bilan uyg‘unlashtirishda individual yoki differensial (tabaqlashgan) yondashuv yetakchilik qilishi, bunday yondashuv matnga ham, o‘quv materiallariga ham tegishli bo‘lishi zarur. Bunda o‘quv topshiriqlari orqali talabalarda mustaqil ishlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirib borilishi lozim.
6. • o‘quv materialini ishlab chiqishda uning muammoli taqdim etilishiga e’tibor beriladi.

33-rasm. Oliy pedagogik ta’limda o‘quv materiallariga didaktik qadriyatlarni singdirishga qo‘yiladigan talablar

Yuqoridagi rasmda qayd etilgan 4-talab bo‘yicha didaktik qadriyatlar singdirilgan o‘quv materiallari orqali talabalarni mustaqil bilim egallahsga yo‘naltirishda innovatsion ishlanmalarga didaktik qadriyatlarni singdirish tahlil-tarkib orqali amalga oshirilib, avval ishlanma ta’lim hodisasi sifatida tarkibiy qismlarga ajratiladi. Uyg‘unlashtirish jarayonida esa uning tarkibiy qismlari mexanik tarzda birlashtirilmay, tarixiy didaktik qadriyatga xos yangi mazmun bilan boyitiladi, natijada u mazmun va shakl tomonidan muayyan o‘zgarishga uchraydi. Masalan, ushbu talab asosida ishlab chiqilgan Abdulla Avloniyning “Fikr tarbiyasi” ta’lim texnologiyasini yangi sharoitda qo‘llashga qaratilgan mashg‘ulotimiz talabalarning pedagogik hodisani refleksiv anglashida juda qo‘l keladi. Bunda muayyan ta’lim hodisasi haqida muammo ilgari surilgach, talabalarning guruhlararo innovatsion faoliyati amalga oshiriladi. Bunda ular qadamli algoritm asosida faoliyat olib boradilar (A.Avloniyning fikr tarbiyasi texnologiyasi bunga misol bo‘la oladi).

Bunda talaba avval o‘zi alohida qo‘yilgan muammo yuzasidan fikrini qog‘ozga yozib shakllantiradi (1,2,3-qadamlar), so‘ng guruh tarkibida faoliyat olib boradi (4-qadam), keyin yana alohida mustaqil ishlaydi (5-qadam). Mashg‘ulot so‘ngida qur’a tashlash yo‘li bilan guruhlar tarkibidagi ayrim talabalarning javoblari tinglanadi va muhokama qilinadi. O‘qituvchi fikrlarni xulosalab, to‘ldiradi.

5-talabga ko‘ra, tanlangan innovatsiyalarni tarixiy retro-didaktik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishda 4 xil asosga tayaniladi:

- 1) asos (ta’limning milliy-madaniy asoslariga tayanishi);
- 2) ta’lim ehtiyojlariga tayanish, bunda hududiy, xalq xo‘jaligi hamda har bir ta’lim subyektining o‘quv ehtiyojlari nazarda tutiladi;

3) kompetentlik asosi (ta’lim oluvchida muayyan shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutiladi);

4) individual ta’limga yo‘naltirilgan asas, ya’ni ta’lim oluvchida individual qobiliyat, layoqatlarni o‘stirish kabilar. Bunda o‘quv materialini muammoli taqdim etishda o‘quv topshirig‘ining didaktik qadriyatli muammoli shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Masalan, Avestoning “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyilini anglash uchun talabalar ushbu tamoyilni bugungi kunga qanday qo‘llash mumkinligi haqida mulohaza yuritadilar. Shuningdek, ilk uyg‘onish davrida amal qilgan didaktik qadriyatlarni o‘rganish bo‘yicha “Yod olish usulini didakik qadriyat sifatida o‘rgatish”ga qaratilgan mashg‘ulot ishlanmasini tayyorlashda ham 5-talabda qayd etilgan asoslarga tayaniladi. Bunda talabalar guruhlarga bo‘linib qo‘yidagi topshiriqlar asosida ishlaydilar.

Topshiriqlar:

1. Sizningcha, yodlash usuli didaktik qadriyat sifatida qanchalik qimmatga ega., ta’lim metod va usullari tasnididan o‘rin olishga u qay darajada haqli? Fikringizni asoslash uchun 10 daqiqa vaqt beriladi? Bemalol qog‘ozga yozib, o‘qib berishingiz ham mumkin.

2. *Siz istiqboldagi ish tajribangizda yodlashdan qanday foydalanasiz? Qiziqarli va hayotiy misol keltiring.*

3. Yodlash tamoyillarini ishlab chiqing.

Talabalar topshiriqlarni guruhlarga bo‘linib hal etadilar va taqdimot qiladilar:

1-guruuh taqdimoti:

Yod olish XX asrning boshlarigacha bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy usuli hisoblangan. Beruniyning “Hindiston” asarida matnlarni yod olishda ichki qofiyali matnlardan foylanish tavsiya etiladi. Yevropada ham o‘rta asrlarda bilimlarni o‘zlashtirishga

ta’lim berish tilining ona tilida bo‘lmasligi to‘sqinlik qilar edi. O‘rta Osiyoda esa XX asrning boshlariga qadar ta’lim ona tilida emas, arab yoki tojik tilida berilgan. Arab tili muqaddas til hisoblanib, matnlar arab tilida yod oldirilar edi.

Xulosa: Xotira esa insonning asliyatini belgilab beradi. Bolalar shunday murakkab tili bilan yozilgan mumtoz adabiyotni o‘rganar ekanlar, ularda nutq, tafakkur va xotira rivojlanadi. Ular so‘z, klassiklar tomonidan qo‘llanilgan ibora konstruksiyasi, uslub va fikrlarni o‘zlashtirib oladilar.

2-guruh taqdimoti:

Yodlash xotirani chiniqtirishi isbot talab etmaydigan haqiqat. Masalan, Imom Buxoriy 15 yoshigacha 70 mingga yaqin hadisni yoddan bilganlar, Abul Azhar dedi: “Samarqandda 400 ta hadis toliblari 7 kun davomida to‘planib, Muhammad ibn Ismoilni xatoga tushirmoqchi bo‘ladilar. Ular Shom isnodi⁸ni Iroq isnodiga, Yaman isnodini Haromayn(Makka va Madina) isnodiga aralashtirib, matnlarni ham chalkashtirib yuboradilar. Muhammad ibn Ismoil barcha hadislarni isnodlari bilan joy-joyiga qo‘yib aytib beradi”(90.)

O‘tmishda mantiqiy yodlash usulida o‘quvchilarga ma’lum bir manba yod olish uchun topshirilar ekan, avvalo uning ichki (botiniy) ma’nosи ona tilida tushuntirib berilgan, ya’ni sharhlangan; o‘quvchi o‘zi yod olgan matnning xoh u fors tilida bo‘lsin, xoh arab tilida avvalo ma’nosini, so‘ngra esa matnning o‘zini so‘zlab bergen; o‘quvchilarga topshiriladigan va yodlash talab etiladigan matnlarning ko‘proq qofiyali tarzda bo‘lishiga e’tibor berilgan

Demak, tarix, jamiyatshunoslik kabi o‘quv predmetlarida o‘quvchilarga matnni o‘qib o‘rganishda murakkab so‘zlarni ularga oxangdosh sodda, ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar yordamida tez yodda

⁸ Isnod – muayyan bir hadisni aytgan hadischilar ketma-ketligini belgilash. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo‘lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to‘plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko‘rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi.

saqlab qolishni tavsiya etish mumkin. Masalan, prinsip – ip, integral – intil,

Yil raqamlarini eslab qolish uchun

Masalan 1077 raqamini obrazli tarzda eslab qolish uchun 1 soni mixga, o baraban, kulcha non, to‘lin oy, laganga, 7 esa toychoqqa o‘xshatiladi. Agar raqamlar she’r yordamida eslab qolinsa aslo esdan chiqmaydi. Xotira ham mustahkamlanadi:

Eslab qoling yaxshisi,

1 raqamning yaxshisi,

O o‘xshar to‘lin oyga

7 o‘xshaydi toyga.

Ikkita bo‘lsa netaman

Ikkita toyda ketaman.

♦♦♦

1088

Eslab qoling yaxshisi,

1 raqamning yaxshisi,

O o‘xshar to‘lin oyga

8 o‘xshaydi soyga.

Ikkita bo‘lsa netaman

Ikki soyda oqaman.

♦♦♦

Sakkiz, sakkiz, sakkizjon,

Kapalakka o‘xshaysan,

Ikkita ilgak qo‘shaman,

Ko‘zoynakni taqaman.

3-guruh taqdimoti:

Biz yodlashning quyidagi tamoyillarini ishlab chiqdik:

1. Yodlash insonning irodaviy sohasi bilan aloqador jarayon.

U sabr va chidam talab qiladi. Demak, iroda va xotirani chiniqtirish uchun eng zarur deb bilgan bilimlarni doimiy ravishda takrorlab

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

turishni odat qilish lozim. Demak, bunda uzviylik va doimiylikka rioya qilish zarur

2. Yodlashda muhit va sharoit e'tiborga olinishi lozim. Ya'ni, tinch joy va diqqat barqarorligi ikkinchi muhim tamoyil hisoblanadi.

3. Takrorlash va yod olishning psixologik omillarini nazarda tutish. Inson ongining imkoniyatlari juda katta. Psixolog olimlar bu borada ilmiy asoslangan, nekbin omillar va usullarni taklif etishadi. Demak, ushbu ilmiy-amaliy konsepsiyalarni o'rganish va kundalik o'quv-biluv faoliyatimizga tatbiq etishimiz lozim.

Talabalarda qadriyatli orientatsiyalarni shakllantirish – birqadar murakkab jarayon sanalib, u quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- 1) insonga qadriyatning taqdim etilishi;
- 2) shaxsning qadriyatni anglab yetishi;
- 3) shaxs tomonidan qadriyatning qabul qilinishi;
- 4) qadriyatli orientatsiyani o'z faoliyatiga, kishilar bilan muloqotga nisbatan hamda xulq-atvorning shakllanishi va rivojlanishiga tatbiq etilishi;
- 5) qadriyatning shaxsiy sifatlar tarkibidan mustahkam o'rin egallashi; 7) qadriyatning hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishi.

Qadriyatli orientatsiyaning tatbiq etilishida quyidagi pedagogik-psixologik prinsiplarga tayaniladi: gumanizm prinsipi (g'amxo'rlik, qiyin vaziyatlardayordam berishga intilish); jamoa, guruhda shaxsiy yondashuv(shaxsning guruhga mansubligi, uning asosiy qadriyatlarini qabul qilishi), yetakchi faoliyat prinsipi, tizimli yondashuv prinsipi, tashabbus va ijtimoiy faollik prinsipi (tashabbuskorlik, o'z-o'zni boshqarish), yaxlitlik va kompleks yondashuv prinsipi(umumfuqarolik, mehnat va axloqiy tarbiya birligi) .

Ta'lif jarayonini takomillashtirishning eng muhim tamoyili uning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligi, o'quv faoliyati ta'lif subyekti imkoniyatlarini rivojlantirishga

qaratilganligi, ta’lim oluvchining individualligi va o‘z-o‘zini namoyon eta olishiga asoslanganligidir .

Didaktik tamoyillarning birqadar keng qo‘llaniladigan turlari: ilmiylik, tizimlilik, izchillik, onglilik, tushunarilik, ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi kabilar hisoblanadi.

Didaktik qadriyatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular ta’lim jarayonida tarixiylik va zamonaviylikning uyg‘unlashuvini ta’minlab, bu uyg‘unlik ijtimoiy-madaniy, ta’limiy qiymatni saqlashni nazarda tutadi. Binobarin, didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashdaga asos bo‘ladigan prinsiplarni belgilashda ularning ushbu xususiyatini hisobga olish lozim. Biz didaktik qadriyatlarni aniqlash va pedagogik ta’limga tatbiq etish hamda ta’lim jarayanini takomillashtirishda yuqorida qayd etilgan umumiy didaktik tamoyillarga tayanishga e’tibor qaratdik. Unutilgan yoki kam qo‘llanilayotgan (yohud yetarlicha samarali qo‘llanilmayotgan) didaktik qadriyatlarni oliy pedagogik ta’limga tatbiq etishda mavjud metodik tizimni qisman yoki butunlay yangilash (modernizatsiyalash) uchun quyidagi maxsus tamoyillarga ham tayanish zarur deb hisoblaymiz. Shunga ko‘ra biz, oliy pedagogik ta’lim jarayonida foydalilaniladigan didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashda quyidagi prinsiplarga tayandik:

1) oliy pedagogik ta’limga aksiologik yondashuv prinsipi. Bunda talabaning didaktik qadriyatni e’tirof etishi hamda uni qo‘llash zarurligini anglashi nazarda tutilmoqda.

2) tarixiy-pedagogik determinatsiya konseptual prinsipi; Determinatsiya (lot. determinatio chegaralash, ta’rif-tavsif) ijtimoiy-falsafiy, psixologik-pedagogik kategoriya bo‘lib, muayyan bir narsa, bizning ishimizda ta’limiy hodisaning ilgaridan mavjud bo‘lib, rivojlanish jarayonida takomillashib borganligini anglatadi. Bunda muayyan ta’lim hodisasi avvaldan mavjud bo‘lib, zamonaviy talablarga ko‘ra boyitilgani, shu bilan birga, asliyati saqlanib

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

qolganiga e'tibor qaratiladi. Masalan, "Umumiy pedagogika" fanidan ("Pedagogika tarixi" moduli bo'yicha), Najmuddin Kubro taqdim etgan didaktik qadriyatlar o'rganilganda uning muroqaba (meditatsiya) usuli haqida zarur ma'lumotlarni muammoli taqdim etish, Imom G'azzoliyning didaktik qadriyatları o'rganilganda allomaning ustoz-shogird munosabatlariga oid merosi yoki o'qituvchiga qo'yan talablarini ma'ruza-suhbat vositasida "Nima uchun" grafikli organayzerlar (fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish) yoki "Fikrning asliyatini top" o'yin-jumbog'i orqali anlatishga erishish o'quv faoliyati samarasini oshiradi

3) tarixiylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi prinsipi. Masalan, hozirgi kunda ko'rgazmali ta'limning didaktik qadriyatlar bilan vobasta shakllaridan, xususan, harflarni rasmlarga qiyoslab taqdim etish, darsliklarda milliy naqshlar ichida topshiriqlar berishdan foydalanilmoqda (M.Inoyatovaning "Alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ilova qismida tegishli didaktik materiallar taqdim etilgan, shuningdek, R.Safarova va M.Inoyatovalarning "Alifbe" darsligi 2004-2018 yilgi nashrlarida maqol va hikmatli so'zlar milliy naqshlar ichida berilgan, shu yo'l bilan tarixiylik va zamonaviylik prinsipiga tayanilgan);

4) xorijiy tajribalardan foydalanishda ularga kreativ-ijodiy yondashuv prinsipi; masalan, bunga suqrot metodini suhbali ma'ruza jarayonida qo'llash texnologiyasi yaqqol misol bo'la oladi.

5) tarixiylik, milliylik, milliy-tarixiy tajribaga tayanish hamda kreativ-ijodiy yondashish prinsiplari. Ushbu prinsipga tayangan holda, "Umumiy pedagogika" o'quv fanining "Pedagogika tarixi" moduli bo'yicha jadidchilik harakati davri pedagoglari faoliyati o'rganilganda biz Fitratning "Muhokama interaktiv texnologiyasi"ni chuqurroq o'rganish zarur deb bilamiz. Ushbu metodning innovatsion ishlanmasini tayyorlash uchun talabalar mashhg'ulotga

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

oldindan tayyorgarlik ko‘rib keladilar. Professor-o’qituvchi talabalarga 3ta muammoli masala (hukmlar)ni havola qiladi va ularni milliy-tarixiy tajriba (ya’ni, Fitratning o‘quv jarayonida muhokamani amalga oshirishga qaratilgan merosi) asosida kreativ-ijodiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lagan innovatsion texnologiyalarga misollar:

Suqrotona savol-javob metodidan foydalanish

Suqrotona savol-javob metodida “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani mavzulari yoki mustaqil ish uchun ajratilgan mavzulardagi bahsli, aktual masala, nazariya yoki qarashlar tanlab olinishiga ahamiyat qaratilishi zarur.

Suqrotona savol turlari	Namunalar
Fikrni aniqlashtiruvchi savollar	Jadidlar davridagi ta’lim islohotlari qanday yo‘nalishlarda aks etadi? O‘scha davrdagi ayollar ta’limi muammolari deganda nimalar nazarda tutiladi, hozir-chi? Muroqaba metodini zamonaviy ta’lim sharoitida qanday qo‘llash mumkin deb o‘ylaysiz? Bu usulni amaliyotga qanday tatbiq eta olasiz? Sizningcha, xonliklar davri didaktik qadriyatlarida asosiy

	<p>yo‘nalishlar nima? Bunga misol keltira olasizmi?</p> <p>Xronologik davriy didaktik qadriyatlar mazmuni bo‘yicha fikringizni to‘liqroq bayon eta olasizmi?</p>
<p style="text-align: center;">Dastlabki savol yoki muammo bo‘yicha savollar</p>	<p>Nima uchun jadid pedagoglari mavjud ta’lim tizimidan norozi edilar?</p> <p>Sharq va g‘arb didaktik qarashlarini qiyosiy tahlili borasidagi fikringiz qanday?</p> <p>Nima uchun didaktik qadriyatlarni davriy-xronologik tartibda o‘rganish zarur deb hisoblaysiz?</p> <p>Bu savol boshqa bir muhim masalaga taalluqlimasmi, sizda yana qandaydir savollar tug‘ilmadimi?</p> <p>Jadid pedagoglari ilgari surgan didaktik qadriyatlar o’sha davrdagi ijtimoiy vaziyatga qay darajada bog‘liq? Davr ijtimoiy –siyosiy vaziyatini baholang.</p>
<p style="text-align: center;">Aytilgan taxmin (mulohaza)larga oid savollar</p>	<p>Nega shunday deb o‘ylayapsiz?</p> <p>Buning o‘rniga nimani taxmin qilishimiz mumkin?</p>

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

	<p>Balki demoqchidirsiz? _____</p> <p>Men sizni to‘g‘ri tushunyapmanmi?</p>
<p>Sabab va dalillarga oid savollar</p>	<p>Xonliklar davrida ilgari surilgan didaktik qadriyatlarga qanday asosli misollar keltira olasiz?</p> <p>I renessans davri didaktik qadriytlari misolida fikringizni qanday ma'lumotlar bilan asoslay olasiz?</p> <p>Sababini bizga asoslab bera olasizmi?</p> <p>Qanday qilib shunday xulosaga keldingiz?</p> <p>Bu dalillarga shubha qilishga asos bormi?</p>
<p>Fikrlarning kelib chiqishi - manbai haqida savollar</p>	<p>Bu sizning o‘z fikringizmi yoki boshqa birovdan eshitgansizmi? Aytilgan didaktik qadriyatlarni manbasi bilan keltiring.</p> <p>Muhokamadan so‘ng fikringi o‘zgardimi yoki oldi ham shu fikrda edingizmi?</p> <p>Sizning fikringizga biror narsa yoki kimdir ta'sir qildimi?</p> <p>Bu fikrni qayerdan oldingiz? Manbasini keltira olasizmi?</p>

	Bunday fikr bildirishingizga nima sabab bo‘ldi?
Natija va oqibatlarga oid savollar	<p>Jadidchilik harakati davridagi ta’lim islohotlariga to’sqinlik bo’lmasganda qanday oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin edi?</p> <p>Natijaning shunday bo‘lishiga ishonasizmi? Nega ishonch bildiryapsiz?</p> <p>Muqobil variant nima? Bu bilan nimani nazarda tutyapsiz?</p> <p>Agar xonliklar davri tanazzulga yuz tutmaganda ta’limda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan bo’lar edi. Nega?</p>
Nuqtai nazarni aniqlash uchun savollar	<p>Siz _____ bildiriladigan e’tirozga qanday javob bera olasiz?</p> <p>_____ boshqa muqobil fikrni yoqlagan inson qanday dalillar keltira olishi mumkin deb o‘ylaysiz?</p> <p>Muqobil variant sifatida nimani ko‘rsata olasiz?</p> <p>Komenskiy va Abu Homid G‘azzoliyning fikrlari nimasi bilan siznikiga o‘xshaydi? Ularning farqli tomonlari haqida fikringiz?</p>

“Nima uchun” grafikli organayzerdan foydalanish texnologiyasi

Masalan, shogirdning ustoz oldidagi burchi haqidagi didaktik qadriyatlarni o‘rganishda “Nima uchun”grafikli organayzerlar (fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish)dan foydalanish⁹ imkoniyati mavjud

Ustoz dars davomida biror narsa buyursa, unga so‘zsiz bo‘ysunish talabaning talabaning burchidir.

Nima uchun?

Ustozning yanglish
fikri uning nazdidagi
to‘g‘ri fikrdan
foydaliroqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashda ta’lim tizimlarini isloh etishning tarixiy-pedagogik determinatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashda tayaniladigan prinsiplarni sanab bering.
3. Tarixiylik, milliylik, milliy-tarixiy tajribaga tayanish hamda kreativ-ijodiy yondashish prinsipini Fitratning “Muhokama interaktiv texnologiyasi” asosida izohlab bering.

⁹ Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumi-din. Birinchi kitob. – T.: Yoshlar matbuoti bosmaxonasi, 2003. – 231 b.- 119;- 131-b.

4. Qanday qilib Suqrot metodini suhbatli ma’ruza jarayonida qo’llash mumkin?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tayanova Sh.Z. Talabalarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish yo‘nalishlari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011. – 56 b.
2. Tayanova Sh. The use of training exercises in forming the system of valuable views in students. // Avicenna. – Freiburg, 2011. – P.103-106.
3. Temirova N.E. Talaba yoshlarning ma’naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi Falsafa fanlari nomzodi ... diss.... - T: 2007. 150 bet.
4. А.М.Булынин. Эволюция ценностей высшего педагогического образования: историко-теоретический аспект. – 13.00.01. Дис. на соиск. уч степ. доктор пед. наук., Москва, 1998 г. – 333 с.

QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

(*Sharq va g‘arb pedagoglari ilgari surgan didaktik qadriyatlarining o‘zaro qiyosiy tahlili*)

Sharqda ta’lim-tarbiyaning maqsadi G‘arbnikidan farqli ravishda komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Ota-bobolarimiz va onalarimiz necha asrlar davomida farzandarini odobli qilib tarbiyalashni G‘arb kishilarining maqsad-muddaosi bo‘lgan omadli, muvaffaqiyatli lider qilib tarbiyalashdan ustun qo‘yganlar. Bizda omad va muvaffaqiyatning kaliti avvalo odobda ekanligi e’tirof etilgan, inson boy-badavlat, martabali bo‘lmasa ham, avvalo yon-atrofidagilarni hurmat qiladigan, go‘zal muloqot va so‘z odobiga ega bo‘lgan, kamtarin, mehnatkash, kamsuqum, xokisor (islomiy odob sohibi) bo‘lishi zarurligi uqtirilgan. Ushbu g‘oya hamdo‘stlik davlatlari pedagoglari e’tiborini jalb etib, A.N.Djurinskiy va G.M.Kodjapirovaning “Pedagogika tarixi” o‘quv qo‘llanmasi orqali rossiyalik talabalar Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Kaykovus kabilarning pedagogik merosini o‘rganayotganlari e’tiborga molikdir (45).

Sharqda didaktikaning markaziy muammosi – nimani o‘qitish va qanday o‘qitish masalasi san’at bilan tenglashtirilib, uni muayyan qonun-qoidalar bilan asoslash mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi deb hisoblandi. Shu sababli ta’lim berish san’ati haqida ilmiy-metodik asarlar yozilmadi. Lekin G‘arbdan (didaktikaning asoschisi Ya.A.Komenskiy hamda tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili asoschisi Distervegdan) VIII asr oldin Sharq allomalari ta’limning ilmiylik, ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, izchillik, mantiqiylik (isbotlash va dalillash), kuzatish va takrorlash, tushunarlilik (yaqindan uzoqqa, osondan qiyingga o‘tish kabi didaktik tamoyillariga oid g‘oyalarni falsafiy bayon etishgan.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Olimlarning ta'kidlashicha, Oksford universiteti professori Rodjer Bekon (XIII asr) Al Forobiy va Ibn Sinolarning xulosalarini chuqurlashtirib, o‘zining “katta”, “o‘rtacha” yoki “kichik” qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar XV-XVI asrlarda Ovropa pedagogikasida pansofifik harakatga turtki beradi. Uning asoschilaridan biri chet el pedagogi Yan Amos Komenskiy edi (99, 46).

Ispaniya arablar tomonidan istilo etilgach, G‘arbda ta’lim-tarbiya 8 asr davomida Sharq ilm-fani ta’sirida shakllandı. Ibn Sino, Forobiy, Ibn Ro’shd, Imom G‘azzoliy asarlari qator nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘qitildi. Ayniqsa, 1312-yildan Vena sobori qaroriga ko‘ra, Parij, Rim, Oksford, Bolonya, Salomansk oliy o‘quv dargohlarida Sharqshunoslik kafedralari faoliyat yurita boshlaydi. Shu tariqa Sharq G‘arbga madaniyat tashuvchi asos vazifasini o‘tadi¹⁰.

Qiyosiy tahlil orqali didaktik qadriyatlar mohiyati kengroq ochilishini nazarda tutib, biz ham ushbu o‘rinda Sharq va G‘arb didaktik qadriyatlarini qiyosiy o‘rganishga harakat qilamiz.

Mil. avv. VII-VI asrlarda qadim Xorazm tuprog‘ida yashagan “Avesto” otashparastlik dini asoschisi Zardusht jamiyatni Gumata (Gumata-ezgu fikr), Gukta (Gukta-ezgu so‘z), Gvarshta (Gvarshta-ezgu amal) bosh tamoyillari asosida tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi. Zardusht ham, Rim faylasufi Areostel (mil avv 384-322 yillar) ham bu borada o‘xshash g‘oyalarni ilgari surishgan bo‘lib, Areostel “Axloqi kabir” asarida “Bilim odatlanish tufayli tajribaga aylanadi. Tajriba bilan boyigan bilim esa ilmiga aylanadi” (36, 156) deb ta’kidlaydi. Shuningdek, “Nikomax etikasi”, “Endim etikasi”

¹⁰ 711 yili Shimoliy Afrika arablari Gibraltardan o‘tib, Ispaniyaga (Ispaniya Sharqda Mashriq, Andalus nomi bilan atalgan) bostirib kirdilar va uch yil davomida janubiy va Markaziy viloyatlarni egalladilar. Ispaniyaning arablar tomonidan zabt etilishi ispan arabi Ahmad ibn Muhammad ar-Roziy (vafotи 955 yil) tomonidan yozib qoldirilgan. (Bu haqida batafsil ma’lumotlar olish uchun qarang: F.Sulaymonova. Sharq va G‘arb (Qadimgi davrlar va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). Monografiya. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 415 b.)

asarlarida jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani uzviy birlikda amalga oshirish g‘oyasini asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, avval tana haqida g‘amxo‘rlik, so‘ng esa tarbiyalanuvchining ruhi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozim [52, 56].

Komil insonni tarbiyalash konsepsiysi Qur’oni Karim, hadisi sharif, allomalar merosi va jadid pedagogikasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, muqaddas kitoblarda axloqiy me’yorlar dastlab ikki turga – harom-halolga ajratilib, farz bajarilishi qat’iy, majburiy; manbud (sunnat) – majburiy bo‘lmagan, ma’qul; muboh – ixtiyoriy; makruh – harom, ta’qiqlangan axloqiy me’yorlarga ajratiladi. Ilk oyati “O‘qi” so‘zi bilan boshlangan Qur’oni karimda ilm, muloqot odobi, poklik ulug‘lanadi. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom: “Kimgaki Olloh taolo yaxshilikni ravo ko‘rgaydir, uni din ilmidan bahramand qilg‘aydir, ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilg‘aydir” [25,32] -deya uqtiradilar. Muhammad alayhissalom tomonidan ilm o‘rgatish borasida muhim tavsiyalar beriladi: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, qiziqtiringiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)” [25,33]. Hadislarda qo‘llangan ta’kidlash (tayanch jumla yoki so‘zni bir necha marta takrorlash) usuli some’ (eshituvchi) tafakkurini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rasullullohning fikr bayon etish usullari haqida so‘zlab, Anas ibn Molik (r.a.) bir so‘zni tushunarli bo‘lsin uchun uch bor takrorlaganlarini ta’kidlaydi [25, 25]. Shuningdek, aytganlarini yaxshiroq anglatish uchun qo‘l barmoqlari juftlab yoki biror narsaning sonini ko‘rsatib so‘zlaganlari haqida ham hadislар mavjud [25, 48; 26, 61-64]. Demak, hadislarda ta’limning tushunarлilik va ko‘rsatmalilik tamoyiliga ham e’tibor berilgan.

Sharqda birinchi renessans davri didaktik qadriyatları Qadimgi Rim faylasuflarining ta’lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or g‘oya va qarashlari ta’sirida shakllangan. Platon (Aflatun) (e.a. 427-347)ning

davlatning istiqboli uning tarbiyaga qilayotgan g‘amxo‘rligiga to‘g‘ri mutanosibligi haqidagi fikri G‘arb va Sharq zamonaviy pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu fikr XVII asr oxiri - XIX asr boshida G‘arbiy Ovrupani uyg‘otib, XX asrda esa nochor Yaponiyani jahonning oliy taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanligini e’tirof etish lozim. Hozirgi kunda ham ta’limning yetakchi mavqeini mustahkamlash haqida fikr yuritilganda barcha davlatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham Platonning ushbu konsepsiyasiga murojaat etiladi [115,5].

Abu Nasr Forobiy(873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) va Ibn Sino(980-1037)ning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlariga qadimgi yunon (Rim) faylasuflarining qarashlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Ular Qadimgi Rim mutafakkirlari pedagogik qarashlarini yaxshi o‘rganib, ular bilan hamfikr bo‘lganlar. Beruniy Ibn Sino bilan yozishmalarida Arrestotelning aql va his-tuyg‘u yordamida xulosa chiqarish haqidagi konsepsiyasiga o‘zining kuzatish va tajribaga asoslanib xulosa chiqarish konsepsiyasini qarshi qo‘yadi. Ya’ni, u bilimlarning amaliy isbotlanishini talab etadi (17,8). Bundan Beruniyning bilish nazariyasiga modernistik yondashganini ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda ham, Beruniy aytgan kuzatish va tajriba tabiiy-matematik bilimlarni o‘zlashtirishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Ibn Sino esa yuqoridagi masalada Arrestotelning yondashuvini ma’qul topgan. Ta’kidlash joizki, Ibn Sino “Isog‘uji” (Aristotelning mantiq ilmiga oid asari kirish qismi), “Ulidus kitobi” (Evklid asari), “Al-Majastiy” (Ptolemeyning “Almagest” asari), “Moba’d ut-tabiat” (Aristotelning “Metafizika” asari) bo‘yicha maxsus ta’lim ham olgan [57, 24-28].

Al-muallim as-soniy (“ikkinch muallim”, “Sharq Arastusi”) sifati bilan mashhur Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida Platon (mil avv. 428/427 yoki 424/423 – 348/347) g‘oyalariga xamohang huquqiy ta’lim-tarbiya ustuvorligi tamoyili

ilgari suriladi. Platon Forobiy kabi ta’limning funksiyasi qonunga bo‘ysinadigan ideal davlat fuqarosini tarbiyalash deb hisoblab, o‘zi asos solgan oliy dorilfunun - “Akademiya” (mil. avv. 387-yilda ochgan)da iqtidorli davlat maslahatchilarini tayyorlaydi.

G‘arbda tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili asoschisi sifatida e’tirof etilgan Adolf Disterveg(1790- 1866) uning mohiyati “tarbiyada zamonaviy madaniy muhit, Vatan madaniyatining maxsus xususiyatlarini nazarda tutish, o‘quvchini muayyan ijtimoiytarixiy hayot sharoitlari va ularga mos insoniy madaniyatni nazarda tutgan holda tarbiyalash lozim” (46) ligida deb biladi. Abu Nasr Forobiy ham “Fozil odamlar shahri” asarida oqil insonning jamiyatdagi mavjud madaniyatga mos xulq-atvorga ega bo‘lishi zarur deb hisoblaydi. Har ikki olim g‘oyalarida analogik tendensiya mavjud bo‘lib, Forobiy Distervegdan qariyb 9 asr avval ta’lim-tarbiyada madaniyatga muvofiqlik g‘oyalariga asos solgan.

E’tirof etish joizki, o‘rta asrlarda didaktik qadriyatlar nuqtai nazaridan G‘arbning ustun jihatiga – ularda o‘qituvchi-o‘quv materiali – o‘quvchi uchligida o‘quv shart-sharoitlari ilmiy-amaliy o‘rganilib, o‘quv materiali mazmuni ta’lim oluvchi yoshiga, fikrlash darajasiga mos bo‘lishining zarurligi, o‘qitishda ko‘rgazmalilik, onglilik, izchillik, tushunarlik kabi umumdidaktik prinsiplarni ilmiy-metodik va amaliy asoslashga e’tibor qaratilganidir. Didaktikaning asoschisi sifatida tan olingan, buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) didaktikaning bahs mavzusini “o‘qituvchi – o‘quv materiali – o‘quvchi” tizimida olib qaraydi. O‘quv materiali o‘quvchi bilan o‘qituvchini bog‘laydigan bo‘g‘in sanalib, yaxshi o‘qituvchi va tarbiyachi o‘quvchilar, puxta o‘ylab tanlangan o‘quv materiali o‘quvchi bilimini kengaytiradi. Ta’limda “o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchi o‘zaro munosabatda bo‘ladi”[89,55].

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Bizda esa ta’lim-tarbiya muammolari o‘qituvchi-o‘quvchi, murshid-shogird, ustoz-talaba ikkiligidagi o‘rganilib, o‘quv materiali ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining istagiga ko‘ra tanlangan va aksariyat ularni metodik asoslashga e’tibor berilmagan bo‘lsada, lekin ta’lim-tarbiya, o‘qituvchi va o‘quvchiga yuklangan talablarda G‘arb ta’limi bilan qator mushtaraklik mavjud:

№	Al-G‘azzoliy “Ihyou ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish) “Murshid – muallimning vazifalari bayoni”bobi [19; 128, 136] asosida	Ya.A.Komenskiy “Buyuk didaktika”, “Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari” (Законы хорошо организованной школы") asarlari asosida (64, 342-343)
1.	Muallim ta’lim oluvchilarga nisbatan shafqatli bo‘lishi va ularga o‘z bolalari kabi muomala qilishi kerak.	O‘qituvchi o‘z ishini juda yaxshi ko‘rishi, o‘quvchilariga xuddi ularning o‘z otasi kabi munosabatda bo‘lishi, ularda bilimlarga qiziqish uyg‘ota olishi zarur
2.	Muallimning haqqi ota-onanikidan ustundir. Chunki muallim uxroviy (abadiy) hayotning bunyodkoridir	U o‘quvchilariga xudoni tanituvchi din targ‘ibotchisi bo‘lishi lozim
3.	Muallim ilm o‘rgatish uchun haq talab etmaydi, biror mukofot olishni yoki tashakkur eshitishni ham maqsad qilmaydi. Balki alloh taoloning roziligini istab va unga yaqin	O‘qituvchilik kasb bo‘lmay, balki taqdirga xudoning o‘zi bitgan qismatdir. Shu sababli muallim shaxsiy ta’minoti haqida bosh qotirmasligi, balki bu jamiyat tomonidan amalga oshirilishi kerak [64]

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

	bo‘lishni xohlab ta’lim beradi [19, 138]	
4.	Talabaga qilinishi kerak bo‘lgan nasihatlarning hech birini qoldirmaslik. Masalan, ochiq-ravshan ilmlarni tugatmasdan turib, maxfiy ilmlar bilan mashg‘ul bo‘lishdan qaytarishi kerak [19,139]	muallim o‘z o‘quvchilari uchun ovqatlanish va kiyinishda oddiylik namunasi bo‘lishi, faoliyati orqali mehnatsevarlik va serg‘ayratlikda ibrat bo‘lishi, xulq-atvori bilan kamtarinlik hamda xushxulqlikda namuna bo‘lishi, nutqi bilan so‘zlashish va sukut saqlash san’atini ko‘rsatishi lozim;
5.	Ilmlarning ba’zilarini o‘rganayotgan talabaga boshqa ilmlarni yomon ko‘rsatmaslik lozim. Mana shu narsa muallimlar uchun eng yomon axloqdir, undan saqlanish lozim (19,135-141)	Metodlarni qo‘llab o‘quvchilarda qobiliyatlarni uyg‘otish uchun metodni jonlantirish, yoqimli qilish, qanchalik jiddiy mavzu bo‘lmisin uni yengillashtirib, suhbat, musobaqa, topishmoq yechish, rivoyat yoki masallar aytish yo‘li bilan do‘stona tarzda o‘rgatish lozim.

34-rasm. Imom G‘azzoliy va Ya.A.Komenskiyning o‘quvvchiga qo‘ygan kasbiy talablaridagi o‘xshash jihatlar

Imom G‘azzoliy “Murshid – muallimning vazifalari bayoni”bobida “*Kim ilm olsa, unga amal qilsa va boshqalarga o‘rgatsa, u kishi osmonlarda ulug‘ inson deb chaqiriladi. U odam quyosh kabidirki, boshqalar uchun ziyo tarqatadi va o‘zi ham ziyolidir yoki o‘zi ham xushbo‘ydir*”(19, 136) deb ta’kidlaydi. Imom G‘azzoliyning ta’limga oid qarashlari ko‘p jihatdan buyuk chek pedagogi Ya.A.Komenskiyniki bilan bilan hamohang. Ya’ni, har ikkala yondashuvda ham ta’lim jarayonining markaziga bilim

beruvchi shaxsi qo‘yilib, ta’limning sifatli amalga oshishida o‘qituvchi oldiga muayyan vazifalar yuklanadi.

Ya.A.Komenskiyning o‘qituvchiga qo‘ygan talablari Imom G‘azzoliyning talablariga juda o‘xshash. Ya’ni, har ikkisi ham o‘qituvchilikni taqdirning in’omi deb biladilar. O‘qituvchi yaratganning marhamatiga sazovor bo‘lishi uchun moddiy manfaatni ta’lim-tarbiya manfaatidan ustun qo‘ymasligi, shogirdlarini xuddi o‘z farzandidek sevishi kerak deb hisoblaydilar. Ma’lum bo‘ladiki, Yan Amos Komenskiy bilan Imom G‘azzoliy g‘oyalarini birlashtiruvchi ilk asos har ikkovining ta’limga oid qarashlari negizida diniy asos birlamchi o‘rinda turishi, ularning didaktik qarashlari bevosita pedagogik falsafaga asoslanganida, biri islomiy, ikkinchisi xristian axloqini tarbiyalash orqali insonni bo‘lajak jannatdagi adabiy hayotga tayyorlashni maqsad qilib qo‘yishganidadir. Imom G‘azzoliyning “Bizning oxirat ilmiga ortiqcha yuqori baho berganimizga qarab, boshqa ilmlarni keraksiz deb o‘ylama! Ilmning qaysi turi bo‘lmisin, agar Alloh uchun ta’lim olinsa, shubhasiz, uning foydasi bo‘ladi” [19, 131] deb aytgan fikrini Ya.A.Komenskiy ham to‘lig‘icha ma’qullagan bo‘lar edi.

Ya.A.Komenskiyning Forobiy va Ibn Sino bilan yaqinlashtiruvchi jihat har uch allomaning antik davr Rim faylasuflari merosini yaxshi bilishgani hamda ularning izdoshi sifatida mакtab o‘quvchi tabiiy qobiliyat va layoqatini o‘stirishga xizmat qilishi kerakligini birdek e’tirof etishganida ko‘rinadi. Ya.A.Komenskiy maktabning birlamchi vazifasi o‘quvchini atrof-olam bilan tanishtirishdan, kuzatish va fikrlashga o‘rgatishdan iborat deb biladi. Imom G‘azzoliy ham inson ko‘rganlarini fikrlabgina farosatli bo‘lishga erishadi deb hisoblaydi. G‘azzoliy o‘qish o‘rganishning kuzatish, fikrlash, tadbir izlash, kengashish kabi usullarini yetakchi usullar sifatida ilgari suradi: **“Kuzatish va fikrlash farosatni ochib yuboradi.** Hikmat ahli bilan gaplashmoq

nafsga sabot beradi, ko‘rvuchanlikni kuchaytiradi. Bir qarorga kelishdan oldin o‘yla, hujumga o‘tishdan oldin **tadbir** ol, har narsani avvalida bir **kengash et**”[20,291].

Mavjud manbalar tahliliga ko‘ra, G‘arbda ham Sharqda ham klassik davr didaktik qadriyatlar ta’limni rivojlantirish (Forobiy, Imom G‘azzoliy, I. G. Pestalossi, jadid ma’rifatparvarlari), yosh avlodni yaxshi an’analar asosida tarbiyalash (Yusuf xos Hojib, Ibn Sino, Ya.A.Komenskiy, I. F. Gerbart va b.), shuningdek, tabiatga (Ibn Sino, Imom G‘azzoliy, Ya.A. Komenskiy, farqi Ibn Sino va imom G‘azzoliy ko‘proq bolaning tug‘ma tabiati, temperamenti, mijozini nazarda tutgan bo‘lsa, Ya.A.Komenskiy shu bilan birga, tarbiyani atrof-tabiat hodisalariga hamohang bo‘lishi lozim deb bilgan) va madaniyatga moslab o‘qitish(Forobiy, A. Disterveg) kabi g‘oyalarga asoslanadi.

G‘arbda XIV-XVI asrlardan boshlab pedagogikaning ilmiy zaminda rivojana boshlaganligi, o‘qitishda sinf-dars tizimiga amal qilinganligi, didaktikaning ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilganligini kuzatish mumkin. G‘arbdan farqli o‘laroq Sharqda ta’lim-tarbiya birligi g‘oyasi yetakchilik qilgan, tarbiyada ota va ustoz nufuzi muhim o‘rin tutgan, ota va ustoz hamkorligi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Mudarris-tolib muloqoti ustoz-shogird munosabatlariga asoslanib, ustoz shaxsi nihoyatda ulug‘langan. *Ustoz shogirdiga nisbatan ancha talabchan bo‘lib*, shogirddan maxsus odob talablariga, pokizalik, o‘qish vaqtida chalg‘imaslik, egri va noma’qul ishlarga yaqin yo‘lamaslik talab etilgan. XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning Samarqand va Buxoro kabi yirik shaharlari islomiy ta’lim-tarbiya markazlari hisoblanib, Ixlosiya, Shifoiya, Nizomiya, Xusraviya madrasalari va Xalosiya xonaqohida eronlik, iroqlik, xitoylik talabalar bilim olishgan. G‘iyosiddin Xondamirning “Makorim ul axloq” asarida shu davr madrasa mudarrislari: Amir Burhoniddin Ataulloh Nishopuriy, Qozi

Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy, Amir Murtoz, Mavlono fasih ul-millat va d-din Muhammad Nizomiy kabilarning o‘qituvchilik salohiyati va ta’limiy faoliyatiga yuqori baho beriladi [119].

Jadidlar Yevropadagi fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or ta’lim tuzilmasi, usullari hamda shart-sharoitlarini ibrat-namuna sifatida e’tirof etib, yoshlarni xorijiy davlatlarda o‘qitishga, shu yo‘l bilan xalqimizni iqtisodiy-siyosiy, madaniy rivojlantirishga intilishgan. Bu haqida adabiyotshunos olim N.Karimov shunday deydi: “Ularning XX asr boshlаридан 20-yillarning o‘rtalariga qadar bo‘lgan davrda yoshlarni nafaqat Yaqin Sharq mamlakatlari, balki birinchi navbatda, Germaniya, Fransiya, Angliya, Polsha singari mamlakatlarga o‘qishga yuborgani tasodifiy emas. Ular kelajakda Yevropa tipidagi dunyoviy davlatni barpo etish g‘oyasi bilan yashaganlar, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi” (14, 205).

Rus ma’rifatparvari K.D.Ushinskiy xuddi o‘zbek ma’rifatparvar jadidlari kabi ta’limda xorijiy tajribalaridan keng foydalanishga intilib, Germaniya, Shveysariya, Prussiya kabi qator xorijiy davlatlarning ta’limga oid ilg‘or tajribalarini Rossiya maktablariga tatbiq etdi.

V.Okon [81], A.V.Xutorskiy [120], A.V.Kamenskix va D.V.Kamenskix [63], G.Richardson [88] kabilarning ishlariga tayangan holda, ta’kidlash mumkinki, ta’lim jarayoni sifati hozirga qadar 3 xil didaktik konsepsiylar negizida amalga oshirilgan bo‘lib, ular an’anaviy, pedotsentrik va zamonaviy ta’lim konsepsiylari hisoblanadi. **An’anaviy didaktik konsepsiya**da o‘qituvchining boshqaruvchilik pozitsiyasi va sinf-dars tizimi etakchi o‘rin egallaydi. Uning asosiy namoyondalari: Ya.A. Komenskiy(1592-1670), I.G.Pestalossi(1746-1827), I.Gerbart(1776-1841) [61, s. 85-97; 138-151; 225-227] dir. An’anaviy didaktik konsepsiya tarbiyalovchi ta’lim prinsipiga tayanib, o‘qituvchi yangi materialni bayon qiladi, o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘magi va rahnamoligida

ta’lim mazmunini o’zlashtiradilar. Ushbu konsepsiya namoyondalari ilgari surgan umrboqiy ta’lim prinsipi hisoblanuvchi tarbiyalovchi ta’lim tamoyili axloqan etuk shaxsni tarbiyalashga qaratiladi. Sharq allomalarining ta’lim konsepsiyalari aynan an’anaviy didaktik konsepsiyaga mos kelib, unda komil insonni tarbiyalashga urg‘u beriladi.

Pedotsentrik didaktik konsepsiya negizida ta’lim oluvchining ijodiy imkoniyatlariga tayanish g‘oyasi yotadi. Uning asosiy namoyondalari D.Dyui (1859-1952), G.Kershenshteyner (1854-1932), V.Lay(1862-1926)lar [61, s. 325-331] bo‘lib, mazkur konsepsiya ta’lim jarayoni sifatini ta’minlashda erkin tarbiya nazariyasi mezonlariga tayanib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalarining negizlarini aks ettiradi.

Zamonaviy didaktik konsepsiyalar: dasturlashtirilgan, muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim asoschilari aksariyat sobiq sovet davri pedagogikasi namoyondalari: P.Galperin, L.Zankov, V.Davidov; gumanistik psixologiya asoschisi: K.Rodjers, kognitiv psixologiya asoschisi Dj.Bruner, shaxsga yo‘naltirilgan mualliflik maktabi o‘qituvchi-novatorlari bo‘lib, XX asrda sobiq ittifoq ta’limi, jumladan, O‘zbekistonda ta’limining shakllanishi va rivojlanishiga ularning qarashlari bevosita yoki bilvosita kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Dasturlashtirilgan ta’lim ta’limga ko‘ra, o‘qituvchi rahbarligida oldindan tayyorlangan dastur asosida o‘quvchilarga bosqichma-bosqich harakat algoritmi beriladi. Bunda:

- 1) o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda barcha elementlari bilan o‘rganiladi;
- 2) muayyan ko‘lamda bilim berilganidan so‘ng uning o‘zlashtirilganlik darajasi tekshiriladi;
- 3) ta’lim oluvchiga ko‘maklashish maqsadida algoritm vazifasini bajaruvchi yozma ko‘rsatmalar qo‘llanadi;
- 4) tafakkur nazorat qilinadi.

O‘zbekistonlik olimlar dasturlashtirilgan ta’limga o‘qitishning mavjud tizim va metodlarining takomillashuvi natijasi sifatida yondashgan bo‘lsalar-da, unda faol qo‘llanilgan tanlanma javob usulida to‘g‘ri javoblar bilan birga, ko‘pincha ataylab noto‘g‘ri javoblar taklif etilishi, bu esa o‘quvchining noto‘g‘ri qoidalarni passiv o‘zlashtirishi va eslab qolishiga sabab bo‘layotgani, pedagogik tajriba aynan shuni ko‘rsatayotganligini ta’kidlash mumkin. Xususan, A.Umronxodjaev shu yillarda chop qilingan ishlarida dasturli ta’limga munosabat bildirib shunday deb yozadi: “O‘quvchilarning ma’lum darajada passiv bo‘lishi ham tayyor javoblar tanlash usulining kamchiligidir. Bunda odam ancha kam mustaqil fikr yuritadigan bo‘lib qoladi. O‘quvchining qanday javob tuzish ustida o‘ylashiga hojat qolmaydi, u kimlardir oldindan tayyorlab qo‘ygan to‘g‘ri javobni tanlab bersa bas. Bu, fikr yuritishda ma’lum darajada “qaram” bo‘lishga olib keladi. Bundan tashqari, tayyor javoblarni tanlash uchun bilim chuqur bo‘lmasa ham ba’zan kifoya qilaveradi”[105,92]. Garchi dasturli ta’lim muammosi ittifoqdosh respublikalarda katta qiziqish bilan o‘rganilgan bo‘lsada, O‘zbekistonda ushbu muammoni tadqiq etishga qaratilgan ishlar etarlicha amalga oshirilmadi. Umuman, dasturli ta’limning kengqamrovli vazifalarini talab darajasida amaliyotga tatbiq etib bo‘limganligi sababli dasturli ta’lim g‘oyasi sovet didaktikasida muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bunga ko‘p jihatdan nazariy va metodik yondashuvlardagi tarqoqlik, pedagogik atamalarni turlichalish tushunish va talqin etish kabilalar sabab bo‘ldi (35-rasm).

Dasturlashtirilgan ta’lim g‘oyasi asoschisi – amerikalik pedagog olim – Skinner		
1.	o‘qitishni individuallashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ta’lim oluvchi faolligini rag‘batlan tiradi	Dasturli ta’lim nazariyasini ishlab chiqish tadqiqotchilar oldiga qator murakkab masalalarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi, lekin ulrani hal etish uchun yetarlicha ilmiy va moddiy baza yo‘q edi
2.	Ta’lim oluvchini ilmiy-amaliy bilimlar bilan maksimal darajada qurollantirish imkonini beradi	chuqur asoslangan nazariy poydevorning mavjud bo‘limganligi
3.	Mustaqil fikrlashni amalga oshiradi.	nazariy va metodik konsepsiyalardagi tarqoqlik. O‘quv topshirig‘idan so‘ng tayyor javob variantlarining berilganligi Dasturli ta’limda keng qo‘llanilgan “tanlama javob” usuli o‘quvchitarabalarining sust fikrlashlariga sabab bo‘lib; ularni oldindan belgilangan javoblarining tayyor iste’molchisiga aylantirib qo‘yadi.

35-rasm. Dasturlashtirilgan ta’limning yutuq va kamchiliklari

Rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiysi (namoyondalari: V.V.Davidov-D.B.Elkoninlar)da ilgari surgan didaktik prinsiplar quyidagilardan iborat:

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

1) ilmiy-nazariy tushunchalar tizimi ta’lim mazmunining asosiy komponentlarini tashkil etadi. Ular asosida o‘quvchi muayyan turdagи masalalarni yechishning umumiy prinsiplarini o‘zlashtiradi;

2) boshlang‘ich sinfda o‘quvchining o‘quv faoliyati empirik tafakkur va hissiy kuzatishga asoslanadi. Bilimlarni o‘zlashtirish tushunchalar mazmunining kelib chiqishini anglash asosida umumiydan xususiyga tomon rivojlanib boradi;

3) nazariy bilimlar o‘quv faoliyati mazmunini tashkil etadi, ularni o‘zlashtirish asosida bolalarda nazariy tafakkur va ong o‘sadi, shuningdek, ijodiy-shaxsiy darajaning amaliy jihatdan ortishi kuzatiladi;

4) o‘quvchining abstrakt fikrlashi aniq fikrlashga tomon o‘sib boradi. U o‘qituvchi ko‘magida o‘quv materiali mazmunini tahlil qiladi, undagi asosiy munosabatlarni ajratib oladi, ularning umumiy jihatlarini belgilar shaklida tasavvur etadi, shu tarzda o‘quv materiali mazmunini yaratadi (96, 155).

Sobiq sovet ittifoqi, jumladan O‘zbekistonda ham o‘quv dasturlari va darsliklarida rivojlantiruvchi ta’lim prinsiplariga asoslanildi. Ta’lim mazmuni akademik tus olib, amaliyotdan uzilib qoldi. Rus pedagogi Selevkoning fikricha, ushbu ta’lim nazariyasida *ta’lim oluvchi hayotiy faoliyatiga xos shaxsiy tajribalarga asoslanishga* e’tibor berilmagan [96,208].



Bixevoirizm
yondashuvi

- Takrorlash, rag'bat, jazo va motivatsiyadan foydalanib talabalarga ilm o'rgatishdir.
- O'quvchining dars materilaini o'zlashtirishga intilishi, ijobiy pedagogik axloq normalarini shakllantirilishi takroriy muhit orqali amalga oshiriladi deb qaralgan. O'quvchilarning individual xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan.



Kognitiv
yondashuv

- Kognitiv nazariya har bir shaxsga individual kognitiv xususiyatlariga va turli darajada tushunish qobiliyatiga ega bo'lgan alohida shaxs sifatida qaraydi. o'z-o'zini aks ettirish va yodlash bilan bog'liq tadbirlar ham talabalarning o'quv salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.
- Talabalarga mavzuni tushuntirishda ularga amaliy masalalar va interfaol baxs-munozaralardan foydalilanadi.




Konstruktiv
yondashuv

- Konstruktivizm nazariyasi birinchi navbatda bilimni faqat ongda mavjud bo'lgan jarayon sifatida ko'rib chiqishga qaratilgan bo'lib, motivatsiyani asosiy omilga aylantiradi. Fikrlar ko'lamenti kengaytirish maqsadida talabalar guruh oldida o'z mulohazalari bilan chiqish qiladilar.
- Guruhli ishlar orqali tomonlarni qoniqtiradigan xulosa yoki qarorlarni shakllantirishga imkon beriladi. O'rganilayotgan masalalar realistik kontekstda namoyish etiladi.

36-rasm. G'arbda ilgari surilgan ta'limga xos nazariyalar

O'tgan asrning 50-80 yillarida G'arb olimlari tomonidan didaktikaning ta'limga o'quv materiali-o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari to'rtligi hamda ta'limga falsafasi negizida bixevoirizm, kognitiv, konstruktiv ta'limga nazariyalarini va ularga mos texnologiyalar ilgari surilgan (36-rasm). So'fizm ta'limgotidagi diniy bilimlarni o'rgatish tizimi asosan takrorlashga asoslanadi, bu esa rag'bat (motivatsiya), jazo kabilarni o'z ichiga olgan holda bixevoirizm g'oyalariga yaqindir. XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat

o‘zining “Rahbari najot” asarida AQSh pedagoglari tomonidan taklif etilgan kognitiv yondashuviga yaqin g‘oyalarni ilgari suradi. Xususan, Fitrat juz’iy (kichik) masalalar tahlili asosida umumlashma xulosalar chiqarishga o‘rgatishni ta’lim jarayonida amalga oshirilishi zarur deb hisoblaydi. Chunki aqliy tarbiyada muhokama va munozara muhim o‘rin tutadi. Zero, muhokama hukm va xulosaga tayanadi. Uning asosida muayyan narsa, hodisalar haqida hukm chiqarish va unga ko‘ra o‘z xulosasiga ega bo‘lish yotadi.



37-rasm. Abdurauf Fitratning muhokamani amalga oshirish texnologiyasi

Ta’limga gumanistik yondashuv ham G‘arbda ayni shu davrlarda ilgari surilgan bo‘lib, hozirgi kunda O‘zbekistonda gumanistik yondashuv ustuvor o‘rin egallamoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, didaktika nazariyasini o‘zbek milliy pedagogikasi hamda rus va jahon pedagoglari ilgari surgan g‘oya va qarashlarni ijodiy o‘rganish asosida rivojlantirildi. O‘zbekistonlik olimlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasini didaktik qadriyat sifatida e’tirof etib, uning g‘oyalari “o‘tmishda Arastu, Suqrot, Platon, Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Shayx Najmiddik Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek kabilarning qarashlarida o‘z aksini topganligi, ushbu nazariyaning zamonaviy talqini esa N.A.Alekseyev, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Klesnikova, I.G.Pestalossi, I.S. Yakimanskaya, J.G‘.Yo‘ldoshev, R.G.Safarova, S.Nishonova, B.Adizov, Sh.Qurbanov, F.Yuzlikaev, N.Jumayeva, G.Akramova kabilarning ishlarida bayon etilgan”ligini ta’kidlaydilar [98,83].

Savol va topshiriqlar:

1. Sharq va G‘arb olimlari ilgari surgan didaktik qadriyatlardan qaysilarini bilib oldingiz? O‘zingiz mustaqil ravishda biror didaktik qadriyatlarning kimlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lishi mumkinligini ayta olasizmi?
2. Sharq bilan G‘arbda ta’lim-tarbiyaning maqsadlari nimasi bilan farq qiladi?
3. G‘arbda ta’limning 8 asr davomida Sharq ta’lim-tarbiyasi g‘oyalari ta’sirida rivojlanganining tarixiy shart-sharoitlarini izohlab bering.
4. Sharqda birinchi renessans davrida ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari Qadimgi Rim allomalari ta’sirida shakllanganligi borasida nimalarni bilasiz? Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari misolida ularning Arrestotelning aql va his-tuyg‘u yordamida xulosa chiqarish haqidagi konsepsiysi bilan o‘xshashlik va farqini izohlang.
5. Adolf Disterveg bilan Forobiyning, Y.A.Komenskiy bilan Imom G‘azzoliyning didaktik qarashlarini o‘zaro solishtiring. Jadval yordamida o‘xshashlik va farqini ko‘rsating.
6. Sharq va G‘arb olimlari ilgari surilgan didaktik qadriyatlarning qaysilarini o‘rganish zarurroq deb hisoblaysiz?

Abdurauf Fitratning muhokamani amalga oshirish texnologiyasi bilan G‘arbda ilgari surilgan ta’limga kognitiv yondashuv o‘rtasidagi o‘xhashlikni tushuntiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: “Yangi asr avlodi, 2011. – 352 b.”
2. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimgi davrlar va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). Monografiya. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 415 b.
3. История Образования и педагогической мысли за рубежом и в России. Учеб. Пособия для студентов высш. Пед. Заведений. / Под ред. З.И.Василевой. – М.: Академия, 2001. – 416 с.
4. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах. Т.1. – М.: Педагогика, 1982. – 656.
5. Коменский о работе учителя. - <https://www.google.com/url>
6. Дистервег, Адольф. Руководство к образованию немецких учителей. – <https://WWW.googl.com/>
7. Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumi-din. Birinchi kitob. – T.: Yoshlar matbuoti bosmaxonasi, 2003. – 231 b.

XULOSA

Didaktik qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u zamonaviy-novatorlik texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishda muayyan darajada ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limning hozirgi kundagi dolzarb muammolari: hayot davomida uzlusiz ta’lim olish g‘oyasini amalga oshirish, mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbilari to‘g‘risida”gi qarorida “pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish”[6] vazifasi ilgari surildi.

Oliy pedagogik ta’lim ta’lim jarayonida didaktik qadriyatlardan foydalanishda mavjud ta’limiy qadriyatlar tizimini aniq belgilab olish, unutilgan yoki ta’kidlab ko‘rsatilmayotgan ta’limiy qadriyatlarni aniq innovatsion ishlanmalarga transformatsiyalash talabada ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishi bilan birga, ta’lim nazariyasi va amaliyotini milliy-tarixiy tajribalar asosida boyitish imkonini beradi. Ta’limga oid innovatsiyalarda milliylikni ta’minalashga, talabaning milliy ta’lim-tarbiya sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi innovatsion sharoitga ko‘chirishga, shu bilan birga, innovatsion hodisalarga pedagogik omillarni singdirishga asos bo‘ladi.

Fikrimizcha, oliy pedagogik ta’limda o‘rganilishi zarur bo‘lgan didaktik qadriyatlар juda katta arsenalga ega: bu, ta’lim mazmuni (bunda allomalar ilgari surgan didaktik qadriyatlар nazarda tutiladi), ta’limga oid konseptual nazariyalar (ushbu nazariyalarning qaysilarining qanday jihatlari hozir qo‘llanilishi zarur? degan masala atrofida talabalar fikri o‘rganiladi, ularda o‘z metodikalarini

yaratishda tayanishlari zarur bo‘lgan ta’lim nazariyalarini belgilab olishga oid akseologik yondashuv shakllantiriladi), ta’lim metodlari, vositalari va shakllari tarixiylik, zamonaviylik va vorisiylik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Bunda milliylikka urg‘u berish bilan birga, xorijiy tajribalarni ham hisobga olish, milliy va zamonaviylikning uyg‘unligi prinsipini qo‘llash lozim.

Bizningcha, didaktik qadriyatlarning muhim komponentlarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) Sharq va G‘arbda ishlab chiqilgan ilg‘or ta’lim nazariyaları, ta’lim konsepsiyaları,
- 2) Sharq allomalarining barhayot didaktik qarashlari, optimal didaktik metod, usul va vositalar
- 3) Didaktik qadriyatlarni belgilashda tarixiylik, milliylik, milliy-tarixiy tajribaga tayanish kabi prinsiplarga asoslanish.
- 4) Shuningdek, ta’lim nazariyasini milliy asosda rivojlantirish hamda maktablarga milliy mentalitetimizga mas zamonaviy ta’lim innovatsiyalarini kiritishni birlamchi ahamiyatga molik hodisa sifatida e’tirof etish.

Didaktik qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u zamonaviy texnologiyalarini yaratish va amaliyatga tatbiq etishda muayyan darajada ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limning hozirgi kundagi dolzarb muammolari: hayot davomida uzlusiz ta’lim olish g‘oyasini amalga oshirish, mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish, talabada didaktik kompetenlikni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Didaktik qadriyatlarning Forobiy, Ibn Sino, Najmuddin Kubro, Abuali Ahmad bin Ya’qub Roziy, Beruniy, Ulug‘bek asos solgan XX asr ma’rifatparvarlari rivojlantirgan hayotbaxsh g‘oyalarini chuqur o‘rganish va pedagogik ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

XVII-XIX asrlarda O‘rta Osiyo, jumladan, Turkiston zaminida ilg‘or davlatlar pedagogik tajribalari yetarlicha o‘rganilmaganligi va ta’limning shakl, usul va vositalari umumjahon pedagogik tajribalari asosida rivojlantirilmaganligi Turkistondagi ta’lim tizimining taraqqiyotdan orta qolishiga sabab bo‘ldi. Shu sababli XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma’rifatparvar pedagoglar ta’lim islohoti g‘oyasi bilan chiqdilar hamda milliy didaktikaning ilmiy negizdarini shakllantirdilar.

Biz ilgari surayotgan O‘zbekiston pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida didaktik qadriyatlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishni nazarda tutuvchi didaktik mexanizm o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Talabalarning didaktik qadriyatlarni o‘zlashtirishi va ularni o‘z pedagogik faoliyatlarida qo‘llashlari hamda uning rivoji. Har ikkala jarayon ham o‘zaro munosabatlarda amal qiladi. Mazkur munosabat algoritmi ikki xil namoyon bolishi lozim: Didaktik qadriyatlarni o‘zlashtirish faoliyati bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyasi rivojlanishi esa ularning qadriyatlarni o‘zlashtirish va qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyatlarini jarayonida amalga oshadi.

Professor o‘qituvchilar o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini tashkil etishda ularda kasbiy kompetentlikning rivojlanish darajasi hisobga olinishi kerak.

Mazkur maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning ikkinchi bosqichida talabalarda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik qadriyatlar bazasini shakllantirish va taqdim etish nazarda tutiladi. O‘quv-biluv faoliyati asosiy turlarida muayyan usullardan foydalanish mazkur faoliyatni qadriyatlarni o‘zlashtirish maqsadiga yo‘naltirish uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bu

bosqichning asosiy maqsadi talabalar tomonidan didaktik qadriyatlarning negizini o‘zlashtirish va natijada ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik qadriyatlarni amaliyotda qo‘llash tajribasini tarkib toptirishdir.

Oliy pedagogik ta’limda foydalilaniladigan didaktik qadriyatlarni tanlash va tasniflashda ta’lim tizimlarini isloh etishning tarixiy-pedagogik determinatsiyasi konseptual tamoyiliga tayaniladi. Ya’ni, ilgari qo‘llanilgan didaktik qadriyatlarni “butkul rad etish va buzish emas”, balki ular negizida yangi innovatsion ishlanmalar yaratish, bu jarayonga talabalarni jalg etish, bu orqali ularda ijodkorlik, o‘z milliy ta’lim tajribalarini yaxshiroq o‘rganishga ishtiyoq va intilishni qaror toptirish zarur.

Oliy pedagogik ta’limda o‘rganilishi zarur bo‘lgan didaktik qadriyatlar juda katta arsenalga ega: bu, ta’lim mazmuni (bunda allomalarning didaktik qadriyatlarga qo‘sghan hissalarini ta’kidlab ko‘rsatishga urg‘u beriladi), ta’limga oid konseptual nazariyalar (ushbu nazariyalarning qaysilarining qanday jihatlari hozir qo‘llanilishi zarur degan masala) atrofida talabalar fikri o‘rganiladi, ularda o‘z metodikalarini yaratishda tayanishlari zarur bo‘lgan ta’lim nazariyalarini belgilab olishga oid akseologik yondashuv shakllantiriladi), ta’lim metodlari, vositalari va shakllari tarxiylik, zamonaviylik va vorisiylik nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Talabalarning didaktik qadriyatlarni qo‘llashga tayyorligini belgilaydigan va ta’minlaydigan eng muhim pedagogik shart-sharoitlarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- didaktik qadriyatlar, ularni ta’lim amaliyotida qo‘llashning ahamiyati haqida bilimga ega bo‘lish;
- talabalarning o‘quv faoliyatini rejalashtirish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- retrospektiv metod. Bunda didaktik qadriyatlarni tarixiy individuallashtirish orqali o‘rganishga e’tibor qaratiladi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Didaktik qadriyatlardan foydalanishga oid kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishda talabada o‘quv faoliyatiga nisbatan quyidagi yondashuvlar mavjud bo‘lishi zarur deb hisoblaymiz:

- shaxsiy-faoliyatli yondashuv, bunda talabaning kasbiy faoliyati va insoniy fazilatlariga milliy-ma’naviy qadriyatlarning ta’siri nazarda tutiladi. Talaba bo‘lajak o‘qituvchilik kasbini egallayotgan mutaxassis sifatida didaktik qadriyatlarni bilishi bilan birga, shaxs sifatida ma’naviy qadriyatlarni ham o‘ziga singdirib olishi zarur;

- funksional-faoliyatli yondashuv, talabaning istiqbolagi o‘qituvchilik faoliyatida tarixiy, innovatsion va zamonaviy didaktik qadriyatlarni qo‘llash orqali sifatli ta’lim berishga erishishida namoyon bo‘ladi. Bu talabaga o‘quv faolligi, ijodkorlik, o‘z pedagogik mahorati va o‘qituvchilik qobiliyati kurtaklarini ko‘rsata bilishi, “hayot davomida o‘qib-o‘rganish” mezoni asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash va pedagogik mahoratini shakllantirishiga imkon beradi.

Talabaning didaktik qadriyatni egallaganligining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- 1) talabanining didaktik qadriyat tushunchasini bilishi va to‘g‘ri qo‘llashi;
- 2) istiqbolda o‘z fani doirasida didaktik qadriyatlardan foydalana bilishi;
- 3) didaktik qadriyatni yangi o‘quv sharotiga moslab yangiliklar bilan boyita olishi (novatorlik darajasida).

Testlar:

1. Didaktik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini izohlang:

A. Didaktik qadriyatlar hozirga qadar pedagogik merosimizda yaratilgan ta’lim amaliyoti uchun samarali, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan o‘qitishning ilg‘or shakl, usul va vositalari.

B. Didaktik qadriyatlar o‘tmish allomalarimiz tomonidan yaratilgan tarbiyaviy mazmundagi pand-nasihatlar.

D. Didaktik qadriyatlar o‘tmishda yaratilib, hozirda ta’lim amaliyotiga uchun zarur bo‘lmagan ta’limga oid merosimizdir.

2. Ta’limning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo’shgan alloma pedagoglar tomonidan ilgari surilgan didaktik qadriyatlarni aniqlang:

№	Allomalar	Javobingiz	Alloma pedagoglar tomonidan ilgari surilgan didaktik qadriyatlar	
1	Abu Nasr Forobiy		A	O‘quv muassasasida qat’iy tartib-intizom qoidalari ustuvorligi; o‘quvchining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab muomala qilmaslik;ilm egallahga kuchli rag‘bat bilan kirishish; ta’lim muassasasida husni xulqqa rioya qilish; sababsiz madrasa hududini tark etmaslik; axloq qoidalariini buzgan talabalarga qat’iy choralar qo’llash.
2	Abu Ali Ibn Sino		B	Oliy ta’limni isloh qilish orqali rivojlantirish; mudarrislarni ulamolar

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

				kengashi sinovidan o‘tkazib qabul qilish; darsni munozara vositasida o‘tish; iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatiga jalb etish; nazariy bilimlarni amaliy jihatdan chuqur o‘rganish; ilmiy munozara va mushoiralar o‘tkazish.
3	Ulug‘bek	D		Darslarni yagona o‘quv dasturi, dars rejasi asosida tashkil etish; ta’limning tushunarllilik, o‘quv materialining o‘quvchi yoshi va bilim darajasiga mos bo‘lishi tamoyillari asosida tashkil etish.
4	Navoiy	E		Ayollarning yoppasiga savodli, o‘qimishli bo‘lishlariga erishish; ta’lim tarbiyada oilaning ustuvorligi; onaning tarbiyadagi yetakchiligi; fikr(hukmni) dalillarga tayanib isbotlash, munozara strategiyasini qo‘llash.
5	Abdulla Avloniy	F		Mantiqiy fikrlashga tayangan holda o‘quv materiallarini yodlash (yodlangan o‘quv materialining avval mazmunini aytib berib, keyin

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

				yoddan aytib berish); yodlashga beriladigan materiallarning ichki qofiyali bo‘lishi; savod o‘rgatishda chistonlardan(she’riy topishmoqlar) foydalanish;
6	Fitrat	G		Madrasa ta’lim-tarbiya usullarini isloh qilish; texnikaga oid fanlarni o‘qitish; ta’limda ilmiylik tamoyiliga rioya qilish; maktab va madrasalarni didaktik talablar asosida jihozlash; ularda turli xorijiy tillar va tabiiy fanlarni o‘rgatish;
7	Jahon Otin Uvaysiy	H		Guruhlarga bo‘lib o‘qitish; fikrni dalillar asosida isbotlash; mantiq ilmidan foydalanish.
8	Ahmad Donish	I		madaniyatga muvofiqlik prinsipi; amaliy ish va tajriba orqali tarbiya olish; so‘z va o‘rgatish orqali ta’lim olish; nazariya va amaliyot birligi; aqlning madaniy muhit va ta’lim-tarbiya orqali rivojlanishi.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

3.. O‘zbekistonda hozirga qadar amal qilgan didaktik qadriyatlarni (davrlar bo‘yicha) qiyosiy tahlil qiling:

<i>Nº</i>	<i>Davrlar</i>	<i>variant</i>	<i>Didaktik qadriyatlar</i>
1	<i>Eng qadimgi davr</i>	<i>a</i>	nazariya va amaliyot birligi va axloqiy tarbiyaning ustuvorligi, madaniyatga muvofiqlik prinsipi, ta’vil, tafsir, sharh, ta’lim-tarbiya birligi, ta’limda ustozi nufuzi ustuvorligi tamoyillari, eslatma ibrat, pand-nasihat, suhbat, takrorlash, ma’ruzani yozib olish usuli, evristik topshiriqlardan foydalanish metodi, aqliy tarbiyaning ustuvorligi prinsipi
2	I renessans davri	<i>B</i>	tarbiyaning ustuvorligi, pand-nasihat, istiqbolni ko’rsatib tarbiyalash, ibrat va eslatma usullari
3	II renessans davri	<i>D</i>	ustozi tanlashda erkinlik, ta’lim -tarbiya birligi, islomiy tarbiya va ilmlar ustuvorligi, osondan qiyinda o’tish, ilm berishda xolislik va qanoat tamoyili, yodlashga beriladigan materiallarning ichki qofiyali bo’lishi, munozara orqali mushohada yuritish
4	<i>Xonliklar davri</i>	<i>E</i>	mudarrislarni ulamolar kengashi sinovidan o’tkazib qabul qilish, darsni munozara

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

			metodiasosida tashkil etish, iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatiga jalb etish; o‘quv muassasasida qat’iy tartib-intizom qoidalari ustuvorligi, aqliy tarbiyaning ustuvorligi prinsipi
5	Jadidchilik davri	F	Uyadosh so‘z , maqol, matallardan foydalanilganish, suqrotona savol-javob metodiga ustuvorlik berish, harflarni rasmlarga qiyoslab o‘rgatish, so‘zlarni rasmlar orqali ifodalash ta’limning tushunarlilik tamoyili, o‘qitishning amaliy xarakterga ega bo‘lishi, o‘qituvchi nutqining qisqa va muxtasar bo‘lishi kerakligi, ta’limda milliylikning ustuvorligi
6	Sobiq sovet hokimiyati davri	G	O‘qitishning shaxsga yo‘naltilrilgan va kreativ yondashuvlari, o‘qitishning tashkiliy faoliyatli yondashuvi o‘qitishning intensiv yondashuvi , madaniyatga muvo-fiqlik yondashuvi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdan qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF-4947-son. 2017 y. 7 fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbilari to‘g‘risida. 2020 y. 27 fevral, PQ-4623-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmoni. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847. 2019 y. 8 oktyabr
5. O‘zbekiston Respublika Prezidenti qarori. 2017-2021 yillarda Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017-y. 20-aprel.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 07/22/241/0408-son. 12.05.2022 y.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimiga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 508 b.
8. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 488 b.
9. Mirziyoyev Sh.. «Markaziy Osiyo – jahon sivilizasiyalari chorrahasida» xalqaro forumi ishtirokchilariga tabrik nutqi. Xabar.uz, 15.09.2021.
10. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, ибратлар. – Т.: Маънавият, 1998. -272 б. – 80-б.
11. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar.- T: Ma’naviyat, 2006 y. -214 б.

12. А.Авлоний. Биринчи муаллим. Муаллими аввал. Дарслик.- Т.: Илин тошбосмахонаси, 1913 й. - 44 б. (эски ўзб. ёзувида)
13. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 б.
14. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Илмий асарлар. - Т.: Маънавият, 2000. – 208 б.
15. Абу Лайс Самарқандий. Бўстонул орифийн (арабчадан таржима. Таржимонлар: Бекназар Муҳаммадшукур ва Масъудхон Маҳдиҳон). – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – 240 б.
16. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Таржимонлар Абдусодик Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.
17. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар (арабчадан А.Расулов таржимаси. Изоҳлар муаллифи: И.Абдуллаев, И.Расулов. Масъул муҳаррирлар: И.Абдуллаев, О.Файзуллаев). Т.1. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия) – Т.: Фан, 1968. – 488 б.
18. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар (арабчадан А.Расулов, Ю.Хакимжонов ва F. Жалолов таржимаси. Муҳаррир: F. Жалолов, А.Ирисов). Т.2. – Т.: Фан, 1965. – 538 б.
19. Абу Ҳомид Муҳаммад ал-Ғаззолий. Иҳёу улуми-дин. Биринчи китоб.–Т.: Ёшлар матбуоти босмахонаси, 2003.– 231 б.
20. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-ул қулуб 1-китоб. (Қалблар кашфиёти) Тўлдирилган ва тўғриланган қайта нашр. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 315 б. – 291-б.
21. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тафаккур китоби. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. - 140 б.

22. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Т.: Шарқ, 2001. – 384 б.- 369-б. – 81-б.
23. Авиценна. Книга знания: сборник. / Перевод Богоутдинова А., Диноршоев М., Марданов Т., Рахматуллаев Н. и др. – М.: ОЗОН РУ., 1999. – с. 23-222 с.-
24. Айний С. Эсдаликлар. Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1953. – 310 б.
25. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил. Ал жомиъ ас сахиҳ 1-жилд. Арабчадан З. Исмоил тарж. –Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. -378 б.
26. Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4-жилд. Ал-Жомиъ ас-Саҳиҳ: (Ишонарлы тўплам). Арабчадан З.Исмоил тарж. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – 560 б.
27. Алексеев Л.В. Школьное обществознание: история, теория и проблемы методики обучения.- Нижневартовск, 2000. – 54 с.
28. Алишер Навоий . Муншашт (Мактублар) . Изоҳли баён муаллифи, нашрга тайёрловчи Юсуф Турсунов. – Т.: Маънавият, 2001. – 152 б. – 57-б.
29. Алишер Навоий. Никматлар. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2006 й. – 224 б.
30. Алияров А.Д. Олий таълим муассасалари талабаларида маънавий қадриятларни ривожлантириш. 13.00.01. – Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий дисс... дисс. – Т.: 2020 й. – 134 б.
31. Алметов Н. Нозирги замон таълим технологиялари: ўқитувчилар учун қўлланма. – Шимкент, Алмати узлуксиз таълим университети, 2002. – 68 б. .
32. Амир Темур ўгитлари.(тўплам) . Тузувчилар: Б.Аҳмедов, А.Аминов. . -Т.: Наврӯз, 1992.-64 б.

33. Амир Темур - меценат науки и творчества-
<https://dunyo.info/ru/site/inner>
34. Анбар Отин (1870-1906) - www.ziyouz.uz
35. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. - М.: Мысл, 2009. — 178 с. - С. 40.
36. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2011. – 352 б.
37. Ахмад Доңиш. Редкостные события (Наводирул-вақоे). В назидание детям о полze ремесел и занятий. - <https://www.google.com/url>
38. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи муллозода (Бухоро мозорлари зикри), Абу Тоҳирхожа Самарфандий. Самария (Самарақанд мозорлари зикри) – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 207 б.
39. Аҳмедов Б.. Тарихдан сабоқлар. Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 б.
40. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001 й. – 351 б.
41. Аҳмедов С.А., Аҳмедова Н.С. Ўрта Осиёда арифметика тараққиёти ва унинг ўқитилиш тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 284 б.
42. Бехбудий М. Танланган асарлар.- Т.: Маънавият, 1997. - 232 б.
43. Блакар Р.М. О дидактической ценности вопросно-ответного изложения: част из книг. Язык как инструмент социальной власти - с. 37-67. – 67 с.
44. Большая Российская энциклопедия. Электронная. - <https://bigenc.ru/philosophy/text/2159042>
45. Булынин А.М. Эволюция ценностей высшего педагогического образования: историко-теоретический аспект.

– 13.00.01. Дис. на соиск. уч степ. доктор пед. наук., Москва, 1998 г. – 333 с. - с. 6.

46. Буюк сиймолар, алломалар (Марказий Осиёдаги машҳур мутафаккир ва донишмандлар). 2-қитоб – 118 б.

47. Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. - 46 б.

48. Джуринский А.Н., Коджаспирова Г.М. Истории педагогики: Учеб. Посб. Для студентов педвузов. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 2000. – 432 с.;

49. Дистервег, Адолф. Руководство к образованию немецких учителей. – <https://WWW.googl.com/url>

50. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 246 б.

51. Жалолиддин Румий. Маънавий маснавий. Куллиёт. Биринчи жилд. Биринчи китоб (Таржима шарҳи билан). Таржимон Асқар Маҳкам, Шарҳ муаллифлари: Обиджон Пошшо, Карим Замоний, Асқар Маҳкам. Масъул мухаррир Т. Маҳмудов.- Т.: Шарқ, 1999. – 368 б.

52. Jo‘rayev R., Inoyatova M. Tarbiya va ma’naviyat: tarix, tadrij, istiqbol. O’quv qo’llanma. – Т.: Nodirabegim nashriyoti, 2021 у. – 210 б.

53. Жўраева Н.О. Бағрикенглик –тарихий меросимиз. // Глобаллашув, модернизация ва толерантлик: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар (тўплам) / ЎзР ФА И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Бухоро озиқ-овқат ва енгил саноат технологияси ин-ти “Ижтимоий фанлар” кафедраси; масъул мухаррир Э.Р.Қодирова; таҳририят: Э.Р.Қодирова ва бошқ. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009. -232 б.

54. Зиёмуҳаммедов Б., Абдуллаева Ш. Педагогика. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2000. – 126 б.

55. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-маҳдур фи навоиб Таймур. (Амир Темур тарихи). -Т.: Меҳнат, 2-китоб. 1992.-191 б.
56. Ибн Сино, Абу Али. Тиб қонунлари, (Уч жилдлик сайланма). (Тузувчилар: У. Каримов, Н. Ҳикматуллаев). Ж . 1.-Т.; А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.— 304 б.
57. Ибн Сино Мен англаган дунё. / Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Э.Очилов.. – Т.: Шарқ, 2012. – 272 б.
58. Ибн Сино Фалсафий қиссалар. Абдусодик Ирисов таржимаси – www.ziyouz.com кутубхонаси
59. Иброҳимов Н. Ибн Ботутта ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Т.: Шарқ баёзи, 1993. – 123 б.
60. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва маъмот масаласи. – Т.: Маънавият, 2006. – 318 б.
61. История Образования и педагогической мысли за рубежом и в России. Учеб. пособия для студентов высш. пед. заведений. / Под ред. З.И.Василевой. – М.: Академия, 2001. – 416 с.
62. Казанов Х.М. О главных ценностях. Налчик, 1991. 300 с.- с. 5
63. Каменских А.В., Каменских Д.В. Сравнительный анализ трех основных дидактических концепций в образовательном процессе. // ж. Молодой учёный. -2021. - №18 (360). – с. 335-336.
64. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах. Т.1. – М.: Педагогика, 1982. – 656.
65. Коменский о работе учителя. - <https://www.google.com>
66. Кошифий Ҳусайн Воиз. Ахлоқи муҳсиний (“Яхши хулқлар”. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 664 б.

67. Кравченко А.И. Социология. Деловая книга – Екатеринбург: “Логос”, 1999- 168 с.
68. Мавлоно Жалолиддин Румий. Най ноласи. Ҳикматлар. Насрий матн муаллифи Хайрулло Қосим. – Т.: Юрист-медиа маркази, 2011. – 119 б.
69. Макарова Т.В. Дидактические ценности игры. - <https://nsportal.ru>
70. Mardanov, B..Xodjayev,A. Almamatov . O‘qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatli yo‘nalishlari: strategiya, taktika, va kafolatlangan natija//T:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2014y. – 84 b.
71. Марказий Осиё маданиятига Рус ва дунё маданиятининг таъсири- <https://elib.buxdu.uz>
72. “Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси” мавзусидаги республика илмий семинари материаллари. - Фарғона давлат университети, Марғилон шаҳар ҳокимлиги, “Экосан” халқаро ташкилотининг вилоят филиали, Фарғона давлат политехника институти, Қўқон давлат педагогика институти, Вилоят фан ва техника маркази, вилоят оила маркази. / Ў.Эшонбобоев, Т.Усмонов, .О.Эргашев, Ф.Юлдашев – ФарДУ. Марғилон уламолар шаҳри - Фарғона - 2007. - 192 б.
73. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган З-нашри . – Т.: Маънавият, 2006. – 280 б.
74. Мирзо Олим Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 241 б.
75. Мунаввар Қори ибн Абдурашидхон. Адиби аввал. Дарслик. Биринчи табоқ.. – Т.: Ғулом Насан Орифжонов тошбосмахонаси, 1917.- 43 б.(эски ўзб. ёзуvida)
76. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. Т.: Маънавият, 2003. -304 б.

77. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Т.: Ўқитувчи, 1996. -190.
78. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: Фан, 1993.- 56 б.
79. Мўғул босқини ва унинг оқибатлари- -e-tarix.uz
80. Нажмиддин Кубро рубоийлари. – www.ziyouz.com кутубхонаси
81. Окон В. Введения в общую дидактику. – М.: Высшая школа, 1990. – 381 с.
82. Педагогик атамалар лугати: тузувчи-муаллифлар- Р.Жўраев, Ў.Голипов, Х.Тўракулов, Р.Сафарова, М.Иноярова, М.Диванова. – Т. Фан, - 1998. – 198 б.
83. “Pedagogika fani konsepsiysi”// Ҳалқ таълими, №5, 2004. -8-33-б.
84. Педагогика/ Энциклопедия/ Масъул муҳаррир Р.Сафарова. I жилд(А-Ё). - Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, 2015. - 265-266 б.
85. Педагогика энциклопедия.III жилд.- Р.Ф. Сафарова,Р.Н.Жўраев. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти: Тошкент- 2017 йил. - 385- бет
86. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий-биографик роман./ Русчадан Жамол Камол таржимаси. – Т.: .Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 й. -- 270 б.
87. Рашид-ад-дин Фазлуллоҳ. Джами ат—таворих. Сборник летописей. Т.1., кн.1. – М-Л., 1952. –206 с.
88. Ричардсон Г. Образование для свободы: Проект школьного человекоцентрированного направления . – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 1997. – 211 с.
89. Розиқов О.Р., Оғаев С.Ю., Маҳмудова М.М., Адизов Б.Р. Дидактика.- Т.: “Фан” нашриёти,1997 й. – Б.55

90. Rokeach M. The role of values in public opinion research// The public opinion quarterly. Vol.32.No.4.- P 547-559.
91. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. Масъул муҳаррир Муҳаммад Али; тарж, О.Тоғаев – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
92. Рустамбек ибн Юсуфбек ҳожи. Таълими аввал. – Т.: Ғулом Ҳасан Орифжонов тошбосмахонаси, 1914. -44 б. (эски ўзб. ёзувида)
93. Рўзалиев Б. Имом ал-Бухорий илмий меросининг ҳадисшуносликда тутган ўрни <https://www.google.com>.
94. Сайдрасул Саидазизий. Устоди аввал. – Т.: Ғулом Ҳасан Орифжонов тошбосмахонаси , 1907 й. – 47 б.
95. Сайид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. Форс тилидан И.Қодирзода таржимаси. - Т.: “Минҳож” нашр., 2003.— 288 б.
96. Селевко Г.К.. Современные образовательные технологии: учебное пособие для педагогических Вузов и институтов повышения квалификаций. – М.: «Народное образование», 1998. – 603 с.
97. Саъдий Шерозий. Гулистон. Форсчадан шеърларни Ғ.Ғулом билан Шоислом Шомуҳамедов, насрый матнларни Рустам Комилов таржима қилган. – Т. Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 181 б.
98. Сафарова Р., Мусаев У., Иноятова М., Мусаев Ж., Акрамова Г., Нуржанова Р., Бақоева Л., Юсупова Ф., Мирзаева М., Ҳасанова Г., Нематов Ш., Маъмурев Б., Маҳмудова Д. Умумий ўрта таълим мазмунини модернизациялашнинг дидактик параметрлари. - Т.: Фан, 2008. – 228 б.
99. Сулаймонова Ф. “Шарқ ва Ғарб (Қадимги даврлар ва ўрта асрлар маданий алоқалари). Монография - Т.: Ўзбекистон, 1997. – 415 б.

100.Сўфи Оллоёр. Саботул ожизийн: мухаррир: Аъзам Ўқтам; нашрга тайёрловчи: Рашид Зоҳид. –Т.: “Чўлпон”, 1991. – 121 б.

101.Темирова Н.Е. Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси. 09.00.01. Фалсафа фанлари номзоди ... дисс....- Т: 2007. - 150 бет.

102.Тайланова Ш.З. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида қадриятлар тизимини ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш. 13.00.01.- Самарқанд: 2019 йил. Пед... фан... фалсафа доктори дисс....- 254 б.

103.Турсунов И.Й., У.Нишоналиев. Дидактика курси. Дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1997. – 232 б.

104.Тўрақулов Э., Раҳимов С.. Абу Райҳон Беруний руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992. – 84 б.

105.Умронходжаев А. Чизмачилик ўқитишда проблемали вазият яратиш...: “Таълим жараёнини такомиллаштириш (иш тажрибасидан). Т: Т.Н Қори Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ, 1978. – 92 б. (83- 91 -б)

106.Усмон Турон. Туркий халқар мафкураси. – Т.: Чўлпон, 1995. -104 б.- 47-б.

107.Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат.– Т.: Шарқ, 2004.–372 б.

108.Фахруддин Али Сафий. “Рашаҳот” (Оби-ҳаёт томчилари): таърихий-маърифий асар(Гадбил ва сўнгсўз муаллифи М.Ҳасаний; луғат, сўнг сўз муаллифи ва масъул мухаррир Б.Умрзок). – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 536 б.. – 54-б.

109.Hans-Georg Gadamer. Im Gespäch, hrsg. Von C Dutt. Heidelberg, 1993. c.66

110.Ҳасан Али. Тил очқич. Дарслик. – Бухоро, Бехбудий тошбосмахонаси, 1922. - 205 б. (эски ўзб. ёзувида)

111.Хошимхонов Мўмин. Машраби мўътабар ўзум. Иккинчи китоб. Машраб ва Мовароуннахрда ижтимоий таназзулнинг социологик таҳлили (XVII-XVIII асрлар). – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 203 б.

112.Шмигирилова И.Б. Дидактическая ценность задачи и пути её повышения // ж. Наука и школа. – 2018. – № 6. – с. 130-132.

113.Қосимова Д.Х. Ўқувчиларда маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжини шакллантириш технологияси.- 13.00.02 Пед-ка фанлари бўйича фалсафа док-ри илмий даражасини олиш учун... Наманган: 2019. - 148 б.

114.Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Шарқ нашриёт матбаа концерни, 1992. – 493 б.

115.Қуронов М.. Истиқлол ва тараққиёт йўлининг педагогик кафолатлари // Халқ таълими, 1993, № 4-5. - 4-7-б.

116.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг “Саодатга бошловчи билим”. Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Б. Тўхлиев. – Т.: Юлдузча нашриёти, 1990. – 192 б.

117.Юлдашева Д. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. Пед. фан. номзоди ил. Даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Бухоро, 2007.- 153 б.

118.Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табарруқ рисолалар. /Нашрға тайёрловчилар: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳридин Умрзок, Ҳамидуллоҳ Амин. – Т.Адолат, 2004. - 385 б.

119.Хондамир. Макоримул ахлоқ. Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1948 йил – 82 б.

120.Хуторский А.В. Современная дидактика. – СПб Питер, 2001. – 536 с.

121.<https://tafakkur.net/yongoq-chistoni/jahon-otin-uvaysiy.uz>

122.<https://www.kostyor.ru/archives/9-13/museum.html>

123.<https://www.google.com/url>


124.Cyrus Ali Zargar. The Ten Principles: Theoretical Implications of Volitional Death in Najm al-Dīn Kubra's al-Usūl al-Ashara (A Study and Translation) Augustana College,2013 Hartford Seminary.Published by Blackwell Publishing Ltd., 9600 Garsington Road, Oxford, OX4 2DQ, UK and 350 Main Street, Malden, MA 02148USA.DOI: 10.1111/j.1478-1913.2012.01420.x 107

Didaktik materiallar

Eng qadimgi davrlardan mustaqillik davriga qadar didaktik qadriyatlarning davriy xronologik jadvali

Eng qadimgi davrlardan I rennesans davrigacha  <p>Ta'limning amaliy bilim olishga yo'naltirilishi, tarbiyaning ustuvorligi tamoyillari; savolvajob metodi ("Avesto"da ilohiy bilimlar savolvajob metodi asosida izohlangan), ilmga undovchi pandnasihat, istiqbolni ko'rsatib tarbiyalash, ibrat va eslatma usullari</p>	I rennessans davri  <p>Nazariya va amaliyot birligi, ta'limda ustoz nufuzi ustuvorligi axloqiy tarbiyaning ustuvorligi tamoyillari, induksiya, deduksiya, sinov-kuzatish metodi (Abu Abdulloh al-Xorazmiy), madaniyatga muvofiqlik prinsipi (qonun ustuvorligini anglash asosida -Forobiy), ta'vil (matn ichki ma'nosini izohlash), tafsir (matn tashqi ma'nosini izohlash), misol keltirish, sharh, tahlil, isbot, dalilllash va umumlashtirish, eslatma, ilmga undovchi ibrat, pand-nasihat, suhbat, takrorlash, ma'ruzani yozib olish usuli, muammoli savollar usuli (Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asari)ba 6.</p>	II rennessans davri  <p>O'qituvchilarni ulamolar kengashi sinovidan o'tkazib qabul qilish, darsni munozara vositasida o'tish, iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish O'quv muassasasida qat'iy tartib-intizom qoidalari ustuvorligi va b.</p>
Xonliklar davri  <p>Ustoz tanlashda erkinlik, Ilm berishda xolislik va qanoat Osondon qiyingga o'tish tamoyillari , Mantiqiy yodlash (yodlangan o'quv materialining avval mazmunini aytib berib, so'ng yoddan o'qib berish), Yodlashga beriladigan materialarning ichki qofigiali bo'lishi Munozara orqali mushohada yuritish</p>	Jadidchilik harakati davri  <p>ta'limning tushunararlilik tamoyili, Ta'limda milliylikning ustuvorligi uyadosh so'z , maqol, matallardan foydalanish Suqrotona savolvajob Harflarni ularga o'xshash narsa-buyumlarga qiyoslangan rasmlardan foydalanish So'zlarni rasmlar orqali ifodalash, A.Avloniiyning fikr tarbiysi, A, Fitratning muhokamani amalga oshirish texnologiyasi</p>	Sobiq sovet hokimiyati davri  <p>O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi O'qitishning kreativ yondashuvi O'qitishning tashkiliy faoliyatli yondashuvi O'qitishning intensiv yondashuvi Madaniyatga muvofiqlik yondashuvi. o'qitishning pedagogik texnologiyalari</p>

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI



Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim haqida

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab texnokratik ta’lim keskin tanqid qilinib, “erkin shaxs”ni tarbiyalash, “shaxsning o‘z-o‘zini namoyon (realizatsiya) qilishi”, ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish, “ta’lim-tarbiya emansipatsiyasi”, “antiavtoritar tarbiya” g‘oyalari keng yoyildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga ko‘ra, hozirgi zamon pedagogikasi shaxsni, uning qobiliyatlarini, uning intellektual tuzilmasini, uning qiziqish va mayllari hamda istaklarini qadrlaydi. Shu ma’noda u asosiy e’tiborni guruhli hamda individual tarbiyaga qaratadi. Shu nuqtai nazardan o‘qituvchi, u qanchalik katta rol o‘ynamasin, endi yagona faol shaxs emas.


Shu yillarda Zollengen shahrida Zollengen maktabi modeli ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, mavjud maktab tizimiga alternativ tarzida ishchilar bolalari uchun maktab loyihasi – maktab kooperativi ishlab chiqildi (loyiha 1972 yilda “Sinf to‘siqlarisiz maktab” sarlavhasi ostida e’lon qilindi), unda maktab va hayot o‘rtasida o‘zaro mustahkam aloqa o‘rnatish; o‘qish jarayonini axborot va ma’lumot berish vositasidan ijtimiylashtirish jarayoniga aylantirish, qat’iy o‘quv rejalarini va dasturlarini bekor qilish, nazariya va amaliyot, maktab va ishlab chiqarish o‘rtasidagi doimiy aloqani ta’minlaydigan, ishchi-xizmatchilar manfaatini ifodalaydigan o‘quv loyihalarini ishlab chiqish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, ota-onalar va jamoatchilikni maktab ishlariga faol jalb etish, to‘liq o‘quv kuni joriy qilish, ta’lim-tarbiyani shaxsga yo‘naltirib tashkil etish tavsiya etildi. O‘quvchilarga kelgusi faoliyatni tanlash erkinligini berish, buning uchun ta’limning turli usul va shakllaridan foydalanish, o‘qitishning shaxsiylashtirilishi (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim) xorijiy ilg‘or davlatlar ta’limining muhim jihatiga aylandi. “Tanlash

erkinligi” va shaxsiylashtirish eng progressiv g‘oya sifatida e’tirof etildi.

O‘quv rejalarini tanlashda va o‘zgartirishda maktabning erkinligi Amerika ta’limida ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Har bir maktab o‘quv strukturasi, o‘quv reja va dasturlarini tanlashda erkin hisoblanadi. Yuqori sinflarda o‘qitilishi shart bo‘lgan fanlar ro‘yxatiga : ingliz tili, adabiyot, tabiiy fanlar (algebra, geometriya, trigonomateriya), ijtimoiy fanlar (tarix, jamiyatshunoslik), chet tili, jismoniy tarbiya va shaxsiy gigiena kiradi. Ko‘pgina shahar maktablarida turli dasturlar bo‘yicha parallel o‘qitish orqali ularni kasbiy tayyorlash amalga oshiriladi. Majburiy o‘qitiladigan fanlardan tashqari o‘quvchining o‘zi tanlab o‘qitiladigan o‘quv rejalarining mavjudligi ularning turli variantli va xilma-xil bo‘lishiga olib keldi.


Barcha ilg‘or mamlakatlar ta’limida o‘quvchilarni toifalab o‘qitish va kasbga yo‘naltirishga katta e’tibor beriladi.

“Avesto”da ustoz-shogird munosabatlari



Imom G‘azzoliy munozara madaniyati haqida


Munozara –bu mashvarat, maslahatdir



Sharh metodiga xos asosiy tamoyillar

Fiki Khoirul Mala, Agus Rifai, Imam Sujoko, Ahmad Fudhaili, Hamka Hasan, Amany Lubislarning yondashuvi asosida ishlab chiqilgan.

Manba: The Development of Sharh al-Hadith and Its Impact on the Understanding of Hadith in Andalusia., Syarif Hidayatullah State Islamic University of Jakarta, Indonesia: Conference material: 20th–21st Oct 2020.)



Forobiyning ideal inson (davlat amaldori) konsepsiysi

№	Forobiyning ideal insonga yuklagan aloqiy-ta'limiylablari
1.	axloqli odam har tomonlama yetuk bo'lishi, unda aqliy taraqqiyot ustun darajada bo'lishi, xotirasi va fahm-farosati kuchli, nutqi ravon, bilimga tashna bo'lishi kerak
2.	barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin
3.	barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin
4.	xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladgan bo'lsin

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

5.	zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezdan bilib olsin
6.	so'zları aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin
7.	bilish va o'qishga muhabbatı bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin” ¹¹

Temuriylar davridagi didaktik qadriyatlar

Madrasa talimi

<p>Asosiy tamoyillar:</p> <p>o'qituvchilarни ulamolar kengashida sinovdan o'tkazish;</p> <p>O'quv muassasasida qatiy tartib intizom-qoidalariga boysunish;</p> <p>o'z -o'zini tarbiyalash orqali ilm egallash ;</p> <p>Osondon qiyingga o'tish tamoyili (o'quv materiali talaba iqtidoriga qarab tartiblangan)</p>	<p>Asosiy ta'lim usullari:</p> <p>bahs-munozara</p> <p>Suhbat;</p> <p>Sharh (izoh) usuli</p>	<p>E'tirof etilgan ustozlar (Xondamirning "Makorim ul axloq" asari) va b. manbalarda keltirilgan tarixiy shaxslar misolida):</p> <p>Mirzo Ulug'bek;</p> <p>Qozizoda Rumiy,</p> <p>Mavlono G'iyosiddin Jamshid,</p> <p>Fayzulloh Abdullaysiy Muhammad Havofiy,</p> <p>G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi</p> <p>Amir Burhoniddin Ataullohh Nishopuriy, Qozi Ixtiyoriddin Hasan Turbatiy, Amir Murtoz, Mavlono fasih ul- millat va d-din Muhammad Nizomiy va b.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

¹¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Таржимонлар Абдусодик Ирисов, Махкам Махмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. 286-287-б.

Xonliklar davridagi didaktik qadriyatlar

Xonliklar davrida amal qilingan didaktik tamoyillar va o'qitish usullari


Asosiy tamoyillar:

- oqitishda osondan qiyinga otish tamoyiliga tayanishning davom ettirilganligi;
- ishonch va e'tiqodga asoslangan qarash va yondashuvlar (aqoidga amal qilishning davom ettirilganligi;
- arab va fors-tojik tili orgatish;
- ta'lif-tarbiya birligi tamoyili;
- ustozni erkin tanlash davom ettirilganligi;
- munozara orqali mushohada etish;
- talabaning bilimlarni erkin tanlash huquqini e'tirof etish;
- ta'lif-tarbiya birligi, tarbiyaning yetakchiligi;
- islomi bilimlar ustuvorligi.

Oqitish usullari:

- «Tarbiyai axloqiya» usuli;
- oquvchilarga topshriladigan va yodlash talab etiladigan matnlarning koproq qofiyali tarzda bolishi;
- islom aqidalarini aynan yod olish;
- mantiqiy yodlash, ya'ni yodlangan oquv materialining avval mazmunini aytib berib, song uni yoddan oqib berish

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI



**XIX ASR SO'NGIDA VUJUDGA KELGAN XORIJIY
PEDAGOGIK YO'NALISHLAR**

Pozitivistlar (lotincha positivus - ijobiy so'zidan olingan) O.Kant, St.Mill, G.Spenser), pozitivistlar tomonidan obyektiv borliqni aks ettirmaydigan sub'ektiv sezgi yoki tasavvurlarning bir yig'indisi deb tushunilgan tajribaning "ijobiy" (pozitiv) ma'lumotlariga asoslangan falsafiy oqim. ... Pedagogika nuqtai nazaridan pozitivism va neopozitivism sinfiy garmoniyaga intiladi, maktabda birinchi navbatda o'rganiladigan obyekt va tabiiy fanlarning mantiqiy strukturasi bo'lishi kerak deb hisoblaydi, pedagogik hodisalarni baholashga subyektiv, yuzaki empirik yondashuvlari burjua pedagogikasining plyuralistik nazariyasining gullab yashnashiga olib keldi bu nazariya hatto pedagogik jarayon va hodisalarning bevosita qarama qarshi interpretatsiyalarning ham bir vaqtda mavjud bo'lishiga yo'l qo'yadi.

Plyuralizm (lot. pluralis - ko'plik so'zidan olingan) mavjudlik huquqiga ega bo'lган ko'pgina alohida ma'naviy g'oyalarning bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin deb hisoblash.) sotsial pedagogik jarayonni baholashga ilmiy yondashishni inkor etadi. Burjua pedagogikasi ideologlarining ta'kidlashicha, plyuralizm go'yo aholining barcha gruppalarining qiziqishlarini ifodalaydi.

Pozitivistlarning eng yirik namoyondalaridan biri faylasuf, sotsiolog va pedagog Gerbart Spenserdir (1820 -1903). U real dunyoni va ilmiy bilimlar sistemasini ilmiy bilish mumkinligini inkor etadi..... Spenser o'z pedagogik g'oyalarini quyidagicha ifodalaydi: maktabdagagi ta'llim ilmiy bilimlar sistemasiga asoslana olmaydi; maktab asosiy o'quvchilar ommasiga utilitar (lot. utilitar foyda, naf so'zidan) amaliy foydali; o'quvchilarning faqat amaliy faoliyatlarida kerak bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarnigina egallahsga yo'llangan o'qitishning tashkil etilishi pedagogikada shunday nomlanadi.) amaliy tayyorgarlik berishi kerak; maktabning

asosiy maqsadi insonni mavjud sharoitga moslashtirish uchun tarbiyalashdir.

19-asrning oxirigi choragida paydo bo‘lgan Amerikacha progressiv pedagogika taxminan Gerbart Spenser ta’limoti bilan bir xil bo‘lgan g‘oyaviy pozitsiyada rivojlandi, biroq u tarbiyada “xususiy tashabbuskorlikni” va “erkin tadbirkorlik”ni rivojlantirsh ruhini ancha kuchaytirdi. Pedagog “progressivist”lar fikricha, tarbiyaning vazifasi bolalarning individual imkoniyatlar ini rivojlantirshga har tomonlama yordam berishdan iboart. Kishining hayotga individual moslashuvi haqidagi g‘oya ham G.Spenser ta’limotidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, u avvalo AQSh va Angliyada pedagogik tafakkurning hamda pedosentrizm (grek “pedo” bolakay va “sent” markaz so‘zlaridan olingan) burjua psixologiyasi va pedagogikasining prinsiplaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra, pedagogik jarayon bolalarning o‘z “spontan” qiziqish va istak va mayllaridan kelib chiqishi kerak) o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatdi va pedosentrizm prinsipining shakllnishiga asos bo‘ldi.

Burjua pedagogikasining rivojlanishidagi keyingi bosqich pragmatizm (grek. harakat, praktika, foyda) burjua pedagogikasiga katta ta’sir ko‘rsaigan sub’ektiv idealistik falsafa ...Maktabda sistemali ilmiy o‘qitishni inkor etishga va o‘qitish jarayonlariga “bolaning shaxsiy tajribasini tiklash” qarash fikriga olib keladi) pedagogikasining vujudga kelishi bo‘lib, uning nazariyasi va amaliyotini mashg‘ur faylasuf pragmatist J.Dyui (1859 – 1952) birmuncha bat afsil ishlab chiqdi. Dyui pedosentrizmning ta’lim sohasidagi prinsipial pozitsiyasini kuchaytirdi va instrumental pedagogika deb atalgan nazariyaga asos soldi. ... Bunda o‘qitish bolaning o‘yin va mehnat faoliyatları bilan almashtiriladi, unda bolaning har bir harakati kashfiyot instrumentiga hamda navbatdagi haqiqatni bilib olish usuliga aylandi.. Tarbiya. Dyui fikricha, “bolaning tajribasini tiklash yoki qayta tashkil etish”dir,

bolalarning to‘plagan tajribalarini boyitishklarga muntazam bilim berishdan ko‘ra muhimroq vazifa hisoblanadi.

Shaxsning tug‘ma xususiyatlar, bolaning spontan qiziqishi va shaxsiy tajribasi haqidagi nazariyaga asoslangan o‘qitishni tashkil etish g‘oyasi to‘liq kuchini saqlab qoldi: barcha bolalarga yagona ilmiy umumiy ma’lumot tayyorgarligi berish mumkin emasligi va kerak ham emasligi haqidagi asosiy fikr avvalgidek saqlangan. Pragmatik pedagogikaning o‘zgargan sharoitga moslashuvi faqat terminologiyadagi ayrim o‘zgarishlargagina taalluqlidir: mas., “pedosentrizm” termini, garchi o‘qitish amaliyotining konkret formalarida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa- da, deyarli ishlatilmaydi.

Dj. Dyui

Dj. Dyui (1859-1952) – amerikalik pedagog. U o‘z pedagogik faoliyatida pedosentrizm(bola hissiyoti va qiziqishlariga asoslangan o‘qitish tizimi)ga asoslangan. U mashhur asarlari: “Maktab va jamiyat”, “Kelajak maktabi”, “tarbiya falsafasiga kirish”, “Maktab va bola”, tafakkur pedagogikasi va psixologiyasi” kabi asrlarida bola tajribasiga asoslanish g‘oyasini targ‘ib qildi. U bolani quyoshga o‘xshatadi. Barcha barcha tarbiyaviy va ta’limiy vositalar uning atrofida aylanishi lozim. O‘qitish jarayoni bolaning 4 ta instinktiga asoslanishi zarur: bo‘lish inst., ijtimoiy instinkt, tadqiqotchilik instinkti, badiiy instinkt. U o‘qitishning asosiga mehnat, ijod, tadqiqot va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni qo‘ydi. Dyuining fikricha, maktab – ustaxona, musiqa xonasi, muzey va kutubxona majmui bo‘lib, unda universitet bilan doimiy hamkorlik o‘rnatalishi lozim. Bu bolani tashqi ijtimoiy hayot bilan bog‘laydi.

A.V.Lay (1862-1926)-amerikalik pedagog. U ham pedosentrizm tarafidori bo‘lib, uni yangi yo‘nalishda rivojlantirdi.

EKSPERIMENTAL PEDAGOGIKA

XIX asr oxirlarida Germaniyada vujudga kelgan eksperimental pedagogika bolalarni eksperimental metodlar: anketa, kuzatish, yosh testlari (Bine testlari) ularning o‘quv vaziyatlarida o‘zini tutishlari va qobiliyatlarining namoyon bo‘lishini o‘rganishga qaratiladi. Uning asosiy namoyondalari nemis pedagoglari **Avgust Lay** (1852-1926), **Ernst Meyman** (1862-1015)lardir. Ular eksperimental metodlarni ta’limni ilmiy asosda tashkil etish va psixologik –pedagogik me’yorlar bilan boyitish imkonini berishi g‘oyasini ilgari surdilar. Bolaning rivojlanishida bilogik omil (nasliy imkoniyatlar) ni o‘rganishga katta e’tibor berilgan. Ushbu metod **Edvard Torndayk** (1872-1949), **Uilyam Kippatrik** (1871-1965) (AQSh) lar tomonidan o‘quvchilar intellektual qobiliyatlarini o‘rganishda testlardan keng foydalanishga qaratilgan pedagogik tadqiqotlariga negiz bo‘lib xizmat qildi. Eksperimental pedagogikaning tadqiqot metodlari pedalogiya, bixevoirizm (ingliz. Behavior axloq so‘zidan) – psixologik-pedagogik yo‘nalish. Insonning turli vaziyatlarda tashqi ta’sirga javob sifatida yuzaga keluvchi xatti-harakatlarini o‘rganish, xulqning tashqi ta’sirlar bilan aloqasini asoslashga qaratilgan pedagogik-psixologik, falsafiy yo‘nalish) E.Torndayk - bixevoirizm (axloq nazariyasi) asoschisi hisoblanadi. U bolalarni aqliy o‘sish koeffitsientini o‘lchash tizimini ishlab chiqdi. Bixevoirizm nazariyasi hozir ham xorijiy davlat ta’lim-tarbiya tizimiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jerom Bruner


XX asr boshlari (1915 yilda) amerikalik pedagog *Jerom Bruner* tomonidan bolalarni ilk yoshidan fan g‘oyalari va qonunlari bilan tanishtirish, buning uchun problemali o‘qitish metodikasidan foydalanish, o‘qitish jarayonini spiral tarzda qurish (uning har bir o‘rovida bolalarga fanning strukturali elementlarini chuqurlashtirib

borish) g‘oyasi ilgari surildi. U pragmatizm va bixevoirizm oqimlarini tanqid qilib, barcha bolalar fan negizlarini o‘rgana oladilar deb hisobladi.

Yagona sanoatlashgan jamiyat nazariyasi

XX asrning 60-yillarida vujudga kelib, ta’limda texnokratik yondashuvning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Maktabda ularni yirik sanoat ishlab chiqarishga, bolalarni “texnokratik shaxs”ga aylantirish g‘oyasi ilgari surildi. “O‘qitish texnologiyasi”, o‘quv jarayonini eng yangi texnika vositalari yordamida ratsionalizatsiya qilish nazariyasi ishlab chiqildi.

Didaktik qadriyatlarni o‘rganishning shakl va usullari



ATAMALAR IZOHI

“Abjadxonlik” - "abjad" so‘zi arab alifbosidagi ilk to‘rt harf-tovush ("alif", "ba", "jim" va "dol")dan hosil bo‘lgan. Qadimdan arab alifbosidagi har bir harf-tovush muayyan son bilan belgilangan bo‘lib, abjadxonlik orqali sonlar ortidagi harf-tovush (yoki aksincha)ni qo‘sish yo‘li bilan muyyan narsa-hodisaning yashirin ma’nosи o‘rganilgan.

Amaliy mashg‘ulotlar maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shaklidir.

Aqida (kalom) ilmi – kalom ilmiga qarang.

Vahdati vujud (tajalli)nazariyasi - (arab. – jismoniy yagonalik) —Allohnigina yagona mavjudlik deb hisoblovchi panteistik ta’limot. Unga ko‘ra, dunyo va undagi bor narsalar allohniki uning aksi, ya’ni tajallisidir.

Va’z (ma’ruza) - Shayxlar va’z va suhbatlar yordamida shogirdlarni odob-axloq va islomiy e’tiqodga da’vat etganlar. Va’zning qiymati shu qadar baland bo‘lganki, ularni tinglashga butun xaloyiq, erkagu ayol yig‘ilib kelgan. Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning “Muin al-fuqaro” (“Tarixi Mullozoda” (Buxoro mozorlari zikrida) asarida keltirilishicha, Mavlono Jaloliddin bir kuni Balxda Hizr alayhissalom haqida va’z qiladilar. Mazkur va’zda ulug‘vor hissiyotlarni zaif taniga sig‘dira olmay, bir necha kishi jon beradi. Shuningdek, mazkur Valiy zot Buxoroda va’z qilganlarida o‘n ikki kishi va’z vaqtida qazo qiladi. Shunda azizlardan biri: “Sen ustozingdan oliyroq manzil ochding. Hazrati payg‘ambarimiz salallohu vassalom va’zlarida kishining jon berishi haqida naql mavjud emas”, deb aytganlarida, mavlono Jaloliddin “hazrat dono

tabib edilar, ammo men (faqir) nodon tabib ekanman” javobini qaytargan ekan¹².

Manbalarda valiy va shayxlarning so‘zlari ta’sirini tavsiflovchi bu kabi misollar ko‘plab uchraydi. Albatta, so‘zning nihoyatda kuchli ta’sirga ega bo‘lishi uning egasidan ruhan pok bo‘lish, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik, pokdomonlik, chuqur e’tiqod sohibi bo‘lish, insonlarga faqat yaxshilik tilash, shaxsiy manfaatni ko‘zlamaslik va boshqa go‘zal fazilatlar egasi bo‘lishni talab etgan. Shuning uchun manbalarda va’z (ma’ruza)ga juda katta talablar qo‘yilgan.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, ritorika (bayoniylit, voizlik) paydo bo‘lishi va san’at darajasiga ko‘tarilishi bilan ma’ruza o‘qish jarayonida tushunchalarni anglatish uchun misol va tamsillardan foydalana boshlangan. Ya’ni, ta’limning o‘ta muhim shakli bo‘lgan tahlil bevosita bayoniylit, voizlik zamirida vujudga kelgan, ularning birini ikkinchisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shogirdga turli bilimlarni taqdim etishda ustozdan talab etiladigan ilk didaktik talab bilimlarni bayon etishda tahlil (analitika)ga rioya etish, o‘z fikrlarini yetarli dalil va misollar bilan asoslashdan iborat.

Germenevtik suhbat - germenevtik (yunoncha so‘z bo‘lib, hermeneutikos – “tushuntiruvchi, talqin qiluvchi” ma’nolarini anglatadi) – matnlarni sharhlash san’ati. Germenevtik suhbatdan maqsad o‘rganilayotgan matnni, tomosha qilinayotgan rasmni, eksperiment va sayohat natijalarining asl ma’nosini, mazmunini tushuntirish va izohlash. Mas., badiiy asar tahlilida umumiyyadan xususiyga o‘tish yoki aksincha xususiyidan umumiyyaga o‘tish orqali, badiiy asarni o‘quvchi tomonidan ijtimoiy-tarixiy mazmunini san’at asari sifatida anglab etilishiga erishish Germenevtik suhbat

¹² Ахмад ибн Маҳмуд Бухорий. “Муин ал-фуқаро” “Тарихи Муллозода” (Бухоро мозорлари зикрида). Абу Тоҳирхожа Самарқандий “Самария”. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 206. – 45-б.

mobaynida talaba (o‘quvchi)da o‘rganilayotgan materialni to‘g‘ri, atroficha tushunish va mustaqil baho bera olish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Germenevtik suhbatlar ilk bor Yevropada injilni talqin qilishda qo‘llanilgan.

Davlat ta’lim standarti (DTS) - Standart-qolip, o‘zgarmas andoza degan ma’noni anglatadi. Umumiyo o‘rta ta’lim ta’limning Davlat standarti tahsil oluvchi (tahsil oluvchilar) umumta’lim tayyorgarligi va saviyasiga quyiladigan majburiy, minimal talablar darajasini belgilab beradi.

DTS ta’lim mazmunini, shakl, vosita va usullari hamda uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darslik, qo‘llanma, nizom va boshqa me’yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘ladi.

DTS talablarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunishdan qat’iy nazar barcha ta’lim muassalari uchun majburiydir.

Dars – mantiqiy tugallangan, yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi. U o‘quv tarbiyaviy jarayonning asosiy elementlari: maqsadi, mazmuni, vositasi va metodlarini o‘z ichiga oladi. Darsning sifati har bir dars komponentlarining to‘g‘ri aniqlanganligi ularning ratsional uyg‘unlashuviga bog‘liq. Dars bu ta’limning tashkiliy shakli bo‘lib, unda o‘qituvchi aniq belgilangan vaqt davomida maxsus ajratilgan tahsil oluvchilar doimiy guruhi(sinfi)ning jamoaviy, yakka tartibdagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayoniga rahbarlik qiladi.

Dasturlashtirilgan ta’lim - oldindan tayyorlangan dasturga ko‘ra, o‘quvchilarga bosqichma-bosqich harakat algoritmi berishga asoslangan ta’lim turi. Bunda: 1) o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganiladi; 2) muayyan ko‘lamda bilim berilganidan so‘ng uning o‘zlashtirilganlik darajasi tekshiriladi; 3) ta’lim oluvchiga

ko‘maklashish maqsadida algoritm vazifasini bajaruvchi yozma ko‘rsatmalar qo‘llanadi; 4) tafakkur nazorat qilinadi.

«**Devorsiz muktab**» (ta’lim teatr, muzey, sud zali, ko‘rgazma, laboratoriya hamda ishlab chiqarish ustaxonalarida tashkil etiladi, bilimlarni nazorat qilish esa ta’lim muassasasida amalga oshiriladi).

Didaktika - “Didaktika [yun. Didaktikos – ibratli, o‘rgatuvchi, ta’lim beruvchi] pedagogikaning ta’lim va o‘qitish nazariyasi (maqsadi, mazmuni, qonuniyatları va tamoyilları), umumiy metod va shakllari haqidagi bo‘limi”¹³. Oliy o‘quv yurtlarining an’anaviy tajribasiga ko‘ra, didaktika pedagogika fani tarkibida o‘rganiladi. Unda didaktikaning tadqiqot predmeti, ayrim tushunchalar tavsifi, ilmiy tekshirish metodlari, ma’lumot mazmuni, ta’lim prinsiplari, usullari, tashkiliy shakllari xususida juda siqiq bilimlar berish ko‘zda tutilgan. Pedagogika kursi doirasida o‘zlashtiriladigan didaktik bilimlar bo‘lajak o‘qituvchi kadrlarda hozirgi zamon ta’limi, xilma-xil didaktik qarashlar to‘g‘risida atroflicha tasavvur hosil qilish, shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish talablariga javob bera olmaydi¹⁴. Aslida didaktika alohida fan bo‘lib, uning o‘z tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari mavjud. Aksariyat olimlar didaktikaning tadqiqot predmeti ta’lim va bilim orasidagi o‘zaro mutanosiblikni belgilashdan iborat deb hisoblaydilar (Sh. P. Ganslin)¹⁵. Ular didaktikaning predmeti yosh avlod egallashi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuni va o‘quv mazmunini egallash jarayonini tashkil etishdan iborat deb biladilar.

Didaktika ta’lim falsafasi, o‘qitish nazariyasi va ta’lim texnologiyalarini o‘zida birlashtiruvchi, ta’lim muammolarining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fandir.

¹³ Ўзбек тилининг изохли лугати. 5 жилдли. 1- жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 607-б.

¹⁴ О.Розиков, С.Оғаев, М.Махмудова, Б.Адизов. Дидактика. – Т.:”Фан”, 1997 й. – 367 . – 12 б.

¹⁵ O’sha kitob - 14 b.

Didaktik qadriyatlar - o‘quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan milliy-umuminsoniy ta’lim paradigmalari, ta’limning samarali usul, vosita va metodlaridan iborat bo‘lib, o‘qituvchi-o‘quvchi va o‘qitish vositalariga oid davr talabi va ijtimoiy munosabatlar (davlat-jamiyat-ta’lim) ta’sirida yangilanib boradigan maqsadli munosabatlarni o‘zida jamlaydi. *Didaktik qadriyatlar – ta’limga xos tushuncha sifatida eng qadimgi davlardanoq mavjud bo‘lib*, vorisiylik — mazmun — shakl —usul — aloqadorlik kabi falsafiy tushunchalar, *tizim—tuzilma —tarixiylik—zamonaviylik kategoriyalari* *tavsifiga ega*, *uning asosiy xususiyati ta’lim subyektlari tomonidan qadrlanishi* va *ta’lim sifatini ta’minlay olishidir*. Didaktik qadriyatlar ham o‘ziga xos madaniy hodisa, tushuncha, bilim va malakalardir. Ularni o‘rganish va qo‘llash ta’lim taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib beradi hamda ta’limni milliy va umuminsoniy asosda rivojlantirish imkonini yaratadi.

«Jamiyati xayriya» - xayriya jamiyati, mablag‘i bor kishilar tomonidan hadya (ehson) qilingan iqtisodiy mablag‘ni to‘plab, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarni rivojlantirish maqsadida ishlatalishiga bosh-qosh bo‘ladigan ijtimoiy birlashma. 1909-yilda Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar tomonidan «Jamiyati xayriya» tashkil qilindi, jamiyat Istanbulda o‘z sho‘basini ochib, 1911-yilda o‘qish uchun u erga o‘n beshta, 1912 yili 30 ta talabani yubordi¹⁶.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar - ta’limiy qadriyatlar hisoblanib, ta’lim sub’ektida ijodiy fikrlash, analitik qobiliyatlar, oldindan ko‘ra bilish va tahlil qilish, muqobil fikrlash, o‘z faoliyatiga nisbatan ishonch, keng dunyoqarashni, ijtimoiy

¹⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида / Тузувчилар: Q.Содиков, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов ва бошк.; Тахрир ҳайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошк. – Т.: Шарқ, 2000. – 464 б.- 271-272-б.

ahamiyatli qarorlarni qabul qilish, mas’uliyatni his etish kabilarni tarkib toptiradi deb hisoblaydi.¹⁷

“Innovatsiya” - (lotincha inovatis – yangilik, yangi tartib-qoida, o‘zgarish), biror yangi narsa, tartib-qoidaning kiritilishi. U (innovatsiya) pedagogik kategoriya sifatida ta’limga yangilik kiritishni ifodalaydi. Yangilik ko‘pincha yangi metod, usul, vosita, yangi konsepsiya, dastur kabilarning kiritish hamda qo‘llashga xosdir.

Isnod – muayyan bir hadisni aytgan hadischilar ketma-ketligini belgilash. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo‘lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to‘plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko‘rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi

Kompetentlik – favqulodda holatga mos muloqot usulini topa bilish, yangi usullarni yangicha sharoitga moslab qo‘llash, zarur ma’lumotdan o‘z o‘rnida foydalanish, o‘z ustida uzluksiz ishlash, o‘zidagi BKM tizimini izchil ravishda rivojlantirib borish

Ko‘nikma – ma’lum darajada o‘ylab bajariladigan harakatlar majmui; qandaydir harakatni yangi sharoitlarda bajarish usuli. Insonning murakkab tizimli psixik va amaliy harakatlarga ega bo‘lishi unda ko‘nikmalarning rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Kalom (islom ilohiyoti) ilmi- islom diniy ta’limoti asoslanib,. Mezon, Sirot, Havz, Hisob, Shafoat haqida turli diniy firqalar tomonidan qilingan noo‘rin da’volarga zarur tuzatishlar kiritgan holda, islom asoslarini o‘zgartirishdan himoya qilishga qaratilgan ilm. Kalom ilmi tarafdarları “mutakallimlar” deb ataladi. Kalomning vujudga kelishiga turli diniy-siyosiy guruhlar: xorijiyalar, qadariylar, jabariylar, murji’ylarning paydo bo‘lishi va ular o‘rtasidagi bahsmunozaralar bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Mo‘tazilalar qur’on va

¹⁷ Sh.Mardanov, B.Xodjayev, T. Almamatov “O’qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatl yo’nalishlari: strategiya, taktika, va kafolatlangan natija./T:T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zPFITI, 2014y84bet

sunnatni tan olgan holda, aqlni bilim egallashning yagona vositasi deb bilishgan.

Imom G‘azzoliy kalom ilmining vujudga kelishi haqida “U bir ilm bo‘lib, uning maqsadi ahli sunnaning aqidasini ahli bid’atning tashvishidan muhofaza qilish va qo‘riqlashdir. Alloh Taolo o‘z bandalariga o‘z payg‘ambari tilida haq aqidani berdi. Unda ularning dini va dunyosining manfaati bordir. Shuningdek, u haqida Qur’on va xabarlar nutq qildi. So‘ngra shaytonlar o‘z vasvasalari ila bid’atchilarga sunnatga xilof ishlarni ko‘rsatdi. Ular o‘sha ishlarni gapirdilar va ahli haqning aqidasini buzmoqchi bo‘ldilar. Bas, Alloh bir toifa mutakallimlarni paydo qildi, ularning himmatini tartibga solingan islom ila sunnatning nusrati yo‘lida harakatga soldi. Shu orqali ahli bid’atning sunnatga xilof ravishda chiqargan aldamchiliklari fosh qilindi. Ana shunda ilmi kalom paydo bo‘ldi” deb yozgan¹⁸ [?; 110].

“Magnit maktab” - ta’lim sanoat korxonalari va oliy texnika ta’lim muassasalari hamkorligida, belgilangan mutaxassisliklar bo‘yicha tashkil etilishiga asoslangan o‘rta ta’lim muassasasi.

Mazmum (qoralangan) ilmlar - sehr, tilsimot, ko‘z bog‘lash kabi inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ilmlar kiradi. Bunday ilmlar bilan shug‘ullanish katta gunoh sanalib, ular islomiy axloq ahkomlariga zid hisoblanadi.

«Maktab ichida maktab» (asosiy o‘quv yuklamasining ma’lum qismi hisobidan tashkil etilgan kichik yoki yo‘ldosh maktablar).

“Maktab ichida maktab” (asosiy o‘quv yuklamasining ma’lum qismi hisobidan tashkil etilgan kichik yoki yo‘ldosh maktablar).

Malaka – yuqori o‘zlashtirilganlik darajasiga ega bo‘lgan harakatlar yig‘indisidir; mashqlar natijasida mustahkamlangan harakat usulidir; u bilim va ko‘nikmalar zaminida shakllanadi».

¹⁸ Алимов Усмонхон. IX- XI асрларда Самарқандда калом илмининг ривожланиши. – Т.: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 192 б.

Mantiq-(lot.logos- fikr, aql, so‘z)- fikrlash konuniyatlarini, shakllari, mantiqiy bilish konuniyatlarini o‘rganuvchi ta’limot.

Mahmud ilmlar – “mahmud” so‘zi arabcha “maqtalgan” demakdir. Shunga ko‘ra, mahmud maqtovga loyiq ilmlar, ya’ni, islom ma’naviyati va ma’rifati, fiqh, ibodat va iymon shartlariga oid shar’iy ilmlar, shuningdek, dunyoviy muhim ehtiyojlarni qondirishda kerak bo‘ladigan hisob-kitob, tibbiyot kabi ilmlardir, ularni o‘rganish farzi kifoya va fazilat sanaladi.

“Ma’rifat” - “arafa” fe’lidan olingan bo‘lib, “bilimdonlik”.

Ma’naviyat —“ma’no” so‘zining jam’i bo‘lib, inson aqliy-emotsional dunyosi bilan aloqador nomoddiy substansiyanı anglatuvchi tushunchadir. Ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy, huquqiy, ijodiy tasavvurlar inson aqliy-emotsional dunyosini tashkil etadi. Inson hissiyotlari – emotSIONAL olami uning yashashdan maqsadi, tafakkur yuritishi, orzu-intilishlari, pozitiv va negativ histuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. M. insonga emotSIONAL ozuqa va quvvat bag‘ishlaydi. U ma’rifat va madaniyat tushunchalari bilan yaqindan bog‘liq bo‘lib, o‘qish-o‘rganish, ijtimoiy tajriba, o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali erishiladi. Jamiyat va millat ravnaqi ma’naviyatning rivojlanishini taqozo etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik,adolat, sog‘lom fikr, vijdon, rostgo‘ylik, haqiqat, ornomus, halol-harom tushunchalari mag‘zini anglash, yaxshilik qilishga intilish kabilarga ma’naviyatli bo‘lish orqali erishiladi. O‘zbekistonda ma’naviyatni ommalashtirish, targ‘ib qilish va rivojlantirish maqsadida "Ma’naviyat va ma’rifat" markazi tashkil etilgan. Maktablarda "Tarbiya" fani o‘qitiladi, ma’naviyatni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari amalga oshiriladi.

Ma’ruza – bir soatlik mashg‘ulot davomida o‘rganilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan g‘oyalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish va ularni umumlashtirish asosida bilimlarni muayyan izchilllikda bayon etishdir.

Meditatsiya (*lot. Meditatio* — «tafakkur», fikrlash so‘zidan olingan bo‘lib, ruhiy-diniy yoki sog‘lomlashtirish amaliyotida qo‘llaniladigan psixik mashqlar, ushbu mashqlar (yoki boshqa bir sabablar) tafayli vujudga keladigan alohida ruhiy holatdir. Meditatsiya (murokaba) yordamida fikr yuritish asosan miyaning o‘ng yarim sharida amalga oshirilib, bunda miya go‘yo ob’ektiv borliq to‘lqinini his qilgandek bo‘ladi. Bunday tafakkur orqali inson tasavvur qila oladi, hissiyotga beriladi, niyat va ijod qiladi, zavqlanadi, badiiy adabiyotlarni o‘qiydi, ilm bilan shug‘ullanadi. Bu turdagи tafakkur yordamida inson ob’ektiv borliqni bir butunlik – majmu (ushbu o‘rinda tizim, sistema nazarda tutiladi) sifatida his qilib, shu butunlikni tashkil qiluvchi orasidagi zaruriy aloqadorlikni his qila oladi. Bunda insonning mantiqiy tafakkuri bilan birga abstrakt tasavvuri ham faol qatnashib, unda his qilgan bilimlarini boshqalarga ham ma’lum qilish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham tasavvufda bunday bilimlar ilmiy bilimlar, bu bosqich ma’rifat bosqichi deyiladi.

Metod - grekcha so‘z bo‘lib, “tadqiq qilish yoki tafakkur yuritishi usuli, yo‘li» ma’nosini anglatadi. Biror vazifa yoki belgilangan maqsadni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tizimli harakatlar. Ilmiy-amaliy maktablar, guruh yoki yakka shaxs tomonidan ishlab chiqiladi. Mas., Ya.A.Komenskiyning ko‘rgazmali ta’lim metodi, muammoli ta’lim metodi kabi.

Mehnat maktabi – sobiq sovet hokimiyatining ilk yillarida o‘qitishning sinf-dars tizimidan qat’iyan voz kechilib, loyiha metodi asosida o‘qitishning brigada-laboratoriya shakliga asoslanilgan maktablar.

Mehnat maktablari 2 bosqichdan iborat bo‘lib, 1) 8 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun besh yillik kurslar; 2) 13 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 4 yillik kurslar faoliyat yuritdi. Yagona mehnat maktabi haqidagi Deklaratsiyada yoritilgan o‘quv-

tarbiya jarayonining mazmuniga ko‘ra, ijtimoiy-jamoa tarbiyasi; internatsional tarbiya; faol o‘quvchini tarbiyalash; o‘qituvchilarning tashkilotlari va maktab to‘garaklarini yaratishga ahamiyat berilishi lozim edi. Lekin, afsuski, sovet pedagoglari kiritgan o‘zgarishlar amalda Dalton-plandagi mavjud hayotbaxsh g‘oyalarning so‘nishiga olib keldi. Bu sohada davlat buyurtmasi asosida avvalo Rossiyada, qolaversa O‘zbekistonda o‘quv dasturi va hatto darsliklar ishlab chiqilib, amaliyotda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ular aniq ilmiy-nazariy va metodik xususiyatga ega bo‘lmay, amalda hech qanday ahamiyatga molik bo‘lmadi. Chunki unga o‘zgartirish kiritgan va ommaga tavsiya etgan mualliflarning aksariyati bu g‘oyaning asl mazmunini tushunishmas, mehnat maktabi amalda proletariat diktaturasi kabi abstrakt, mavhum mazmunga va yasama mafkuraviy negizlarga, o‘zbek xalq pedagogikasi uchun butkul yot g‘oyalarga asoslangan edi. Hatto rus olimlarining o‘zi ham uning asl mohiyatiga etib borishgan emas. Mazkur ta’lim texnologiyasi shunchaki navbatdagi samarasiz ta’lim tajribasi vazifasini bajargan, xolos.

Misollar asosida ta’lim berish – tahlil qilish va muhokama qilish uchun foydalilaniladigan (gipotetik, taxminiy) vaziyatning yozma ravishda ta’riflash. **Uning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Talaba (yoki o‘quvchi) larni misol bilan tanishtirish.
2. Misol bilan tanishishlari uchun talaba (yoki o‘quvchi)larga vaqt berish.
3. Munozara yuritish (yoki muammoni hal etish) uchun savollar taqdim etish.
4. Muammoni hal etish uchun talaba (yoki o‘quvchi)larga vaqt berish.
5. muammoni hal qilish (yoki o‘z javoblarining taqdimotini o‘tkazishlari) uchun talaba (yoki o‘quvchi)larga imkon berish.

6. Barcha taxminiy echimlarni, javoblarni muhokama qilish.
7. Talaba (yoki o‘quvchi)lardan misol bilan ishlash jarayonida nimalarni o‘rganganliklarini aytib berishlarini so‘rash.
8. Mashg‘ulot haqida fikr bildirish.

Modul texnologiyasining mohiyati ta’lim jarayonini modullar (o‘quv predmeti va uning bo‘limlari mazmunini tartibga solish, ta’limning muayyan bosqichidan boshlab bo‘linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish) asosida loyihalashtirishdan iboratdir. So‘ngra ajratilgan har bir modul bo‘yicha shu modulning o‘zigagina taalluqli bo‘lgan faoliyat mazmuni va ta’siri doirasi belgilanadi. Modul texnologiyasi maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakat (qo‘yilayotgan qadam) o‘quv elementi sifatida qaraladi.

Muammoli ta’lim - muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va muammo mazmunini anglash, o‘qituvchining rahbarligida ta’lim oluvchilarining yuqori mustaqilligi asosida o‘zlashtirilayotgan o‘quv mavzusiga oid muammoni hal qilish. Boshqa ta’lim turlaridan farqli ravishda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni amalga oshirishga qaratiladi. Uning yana bir muhim maqsadi o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishdir

Muammoli savol - oddiy savoldan farqli ravishda xotira, o‘zlashtirgan bilimlarga shunchaki murojaat etilmay, o‘quvchini faol fikrlashga, jumboqning javobini topishga yo‘llaydi. Masaslan “Alfavitda qaysi harf keyin keladi?” deyilsa, bu – oddiy savol. “Nima uchun “a” alfavitda birinchi o‘rinda keladi?” yoki “alfavit qanday qilib paydo bo‘lgan?” deyilsa, ularning javobi oldindan aytib qo‘yilmagan bo‘lsa, bu - muammoli savol.

Muammoli mashq – o‘quvchilardan ularga hozirga qadar noma’lum bo‘lgan bilimlarni talab qiluvchi o‘quv materiallaridan

foydalanish. Bu o‘quvchilardan faol fikrlashni talab qiladi. Ular faktlarni tahlil etadilar, ob’ektlarning kelib chiqishini o‘rganadilar. Muammoli topshiriqni hal qilish og‘zaki mulohaza yuritish, matematik hisob, laboratoriya ishlari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli topshiriq. O‘quvchilarni mustaqil ijodiy izlanishga yo‘llash. Masalan, insho, referat, biror narsa ixtiro qilish, eksperimentdan o‘tkazish kabilar. O‘quvchilardan faol fikrlashni talab etadi, ular faktlarni tahlil qiladilar, ob’ektlarning kelib chiqishini o‘rganadilar. Muammoli topshiriqlarni hal etish, og‘zaki mulohaza yuritish, matematik hisob, laboratoriya ishlari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli vaziyat. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni faol fikrlash jarayoniga tortish maqsadida vaziyat yaratish.

Uning quyidagi turlari mavjud:

1) o‘quvchilar mashqni bajarish yo‘lini bilishmaydi. Ularda buning uchun bilimlar mavjud emas;

2) mashqni yechishning yangi holati, ular o‘zlaridagi bor bilimlarga asoslanishlari mumkin.

3) o‘quvchilar muammoni yechishning nazariy jihatini bilishadi, lekin amaliy jihatlarini bilishmaydi;

4) o‘quvchilar amaliy erishilgan natijalar bilan, bilimlar etishmasligi muammosiga to‘qnash keladi.

Muboh ilmlar - mubolag‘asiz yozilgan she’rlarni bilish, qadim tarix bilan shug‘ullanish kabilar kiradi.

Muxtasar – islom qonunlarining qisqacha bayoni.

«Ochiq maktab» (ta’lim metodikasiga shaklsiz yondashuv, o‘quv materiallarining xilma xilligi, qiziqishiga qarab darslarni tanlash).

«Ochiq universitet» (Angliyada 1969-yilda katta yoshdagilar uchun bakalavr darajasini berish maqsadida tashkil etilgan, ularda yoshi 21 dan katta bo‘lgan shaxslar ta’lim oladilar).

Og‘zaki bayon qilish metodi mактаб та’лим тизимда eng ko‘p qо‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, mazkur metoddan barcha o‘quv predmetlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Ushbu metod bayon qilinayotgan ma’lumotlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiyalanadi va ana shu xususiyatiga ko‘ra ta’limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Pedagogik tizim (*V.P. Bespalko fikricha*) - tizim ishtirokchilari maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari metod, vositalari va natijalardan iborat juda mustahkam va barqaror elementlar birligidir. Bu elementlarning o‘zgarishini ham boshqa kichik tashkil etuvchilarga bo‘lish va variatsiyalash mumkin.

Selektiv (lot. Selection-saralash so‘zidan) – maktablarni ijtimoiy saralashga asoslangan prinsip

Seminar - o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning faol ishtirokida tashkil etiluvchi ta’lim shakllaridan biri bo‘lib, uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad tahsil oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma’lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko‘nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

So‘fizm ta’limoti – diniy e’tiqod, tavba, qanoat, sabr kabilar orqali alloh roziligi va jamoliga erishish. Najmiddin Kubroning «Al-usul ul-ashara» ("O‘n tamoyil") nomli kitobida islomiy ilmlar (alloh)ga erishish (sufiylik maqomlari)ning quyidagi 10 tamoyili ko‘rsatiladi. Bular: 1. Tavba; 2. Voz kechish (**al-zuxd**); 3. Ishonch (**at-tavakkul**); 4. Qanoat (al-qonaa); 5. Xilvat (al-uzla); 6. Xotirlash, yodga olish (**mulazamat az-zikr**); 7. E’tiborini allohga qaratish (**at-**

tavajjux allah taollo); 8. Sabr; 9. (Sezgirlik (al-muroqaba, meditatsiya); 10 Lazzat (al-rido)¹⁹.

Islomiy bilimlarni o‘rgatish tizimi asosan takrorlashga asoslanadi, bu esa rag‘bat (motivatsiya), jazo kabilarni ham o‘z ichiga oladi.

Tavhid – ishlarning barchasini, sabab va vositalariga qaramagan holda, faqat Alloh taolodan deb bilish.

Ta’vil – matnning botiniy mazmunini izohlash

Tafsir – matnning tashqi mazmunini izohlash

Tazakkur (yod olish) usuli - Tazakkur o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlash. IX-X asrlardan shayxlar ota-onalarning istagiga ko‘ra, havasmand, iqtidorli bolalarni guruhga to‘plib, ularga hadis o‘rgatishgan. Ya’ni, ular ustozlarining aytgan hadislarini yozib olishgan va yodlashgan, bunga o‘sha davrda diniy bilimlarni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan eng muhim tamoyillardan biri - islom aqidalarini shunchaki ongli bilish emas, ularni aynan so‘zma-so‘z yoddan bilish, uni o‘zicha tuzatishdan saqlanish, islomiy g‘oyalarga daxl qilmaslik tamoyili sabab bo‘lgan. Shunga ko‘ra, hadis o‘rganishda kitoblardan yod olish usuli keng qo‘llanilgan.

Talhis - Qur’on suralarining botiniy ma’nosini o‘rgatuvchi ilm.

“Tarjimon” gazetasi - Boqchasaroyda Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chop etilgan gazeta. 1-soni 1883-yil 10-aprelda chiqqan. O‘zbek ma’rifatparvarlar dunyoqarashining o‘sishida matbuotning ta’siri katta bo‘lib, I.Gasprinskiyning «Tarjimon» gazetasida M.Behbudiy «Faryodi Turkiston» (1907, № 132), «Duma

¹⁹ Cyrus Ali Zargar. The Ten Principles: Theoretical Implications of Volitional Death in Najm al-Din Kubra’s al-Usul al-‘Ashara (A Study and Translation) Augustana College, 2013 Hartford Seminary. Published by Blackwell Publishing Ltd., 9600 Garsington Road, Oxford, OX4 2DQ, UK and 350 Main Street, Malden, MA 02148 USA. DOI: 10.1111/j.1478-1913.2012.01420.x

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

va Turkiston musulmonlari»(1907, №239), Abdulqodir Shakuriy «Turkistonda maktab va tarbiya» (1907, №147) kabi maqolalari bilan qatnashganlar²⁰.

«**Tarbiyayi atfol**» 1919 yil Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, mirzo Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon mahdum, Usmonxo‘ja va Mukammaliddin mahdum kabilar tomonidan ochilgan jamiyat²¹.

Tarixiy-retro didaktik -- Retro – qaytish, o’tmishga murojaat etish degan ma’noni bildiradi. Didaktik qadriyatlar esa didaktika, ya’ni ta’lim nazariyasida qo’llanib, muayyan qimmat kasb etgan ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qilgan qadriyatlardir. Demak, tarixiy-retro didaktik qadriyatlar o’tmishda qo’llanilib, bizga meros bo’lib o’tgan va hozirga qadar ahamiyatini yo’qotmagan ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qiladigan didaktik qadriyatlар hisoblanadi.

Tasnif - bilim va ma’lumotlar, muayyan inson faoliyati soxasiga oid uzviy bog‘liq tadrijiy tushunchalar tizimiga tegishli alokadorlikning tavsifiy ifodasi.

«Turkestanskie vedomosti» («Turkiston viloyatining gazeti») – chor amaldori N.P.Ostromov (1846-1928) muharrirligida 1869(70)-1917 yillarda chop etilgan gazeta. Gazetaning maqsadi – Chor Rossiyasining mustamlakasilik siyosatini oqlash, rus madaniyatini targ‘ib etish bo‘lib, unda madaniyat, maorif, siyosat bilan bog‘liq maqollar chop etilgan.

Tasavvuf - Allohning mohiyatini anglash orqali unga etishish haqidagi ilohiy ilm. Tasavvuf g‘oyalari insonni ruhiy o‘z-o‘zini anglash sari yo‘naltirib, qalb ozodligi, fikr erkinligiga ozuqa beradi. Tasavvufdagи mavjud tariqatlar: Hazrati Abu Bakrdan Boyazid

²⁰ O’sha kitob, 53-b.

²¹ O’sha kitob, 271-b.

Bastomiyga qadar siddiqiya, Bastomiydan Abduxoliq G‘ijduvoniya qadar tayfuriya, G‘ijduvoniydan Bahouddin Naqshbandga qadar xojagoniya, Naqshbanddan Xoja Ubaydulloh Ahrorga qadar naqshbandiya, Xoja Ubaydullohdan Imom Rabboniyga qadar naqshbandiya-ahroriya, Imom Rabboniyidan Shamsiddin Mazharga qadar naqshbandiya-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidi Bag‘dodiyga qadar naqshbandiya-mazhariya, Xolidi Bag‘dodiydan keyin esa naqshbandiya-xolidiya kabilardan iborat. Islom olimlari uni nafs manzillarini bosib o‘tish, nafs lazzatlaridan voz kechish, o‘limi yo‘q hayot va hayoti yo‘q o‘lim, ya’ni nafsoniy ma’noda o‘lmog‘-u, insoniy ma’noda yashamoq deb ta’riflaydilar. Tasavvufda ilm tolibi uch tushunchani nazariy-amaliy o‘zlashtirib olmog‘i lozim. Bular shariat, tariqat va haqiqat bo‘lib, ularga erishishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Shariat hukmlarini bilish va amal qilishning lozimligi; tariqat uchun riyozat chekish, o‘zini muayyan narsalardan cheklash, nafsi tarbiyalash; haqiqiy qalb ko‘zini ochishga intilish, tom ma’noda komillikka erishish. Tasavvuf so‘zini Husayn Voiz Koshifiy harfma-harf sharhlab, T-tajvid, behuda ishlardan chetlanish, S- sidq, amallarni sidqidildan ado etish, V – vafo, ahdga vafodorlik, F-fano, o‘zidan voz kechish, deya izohlaganlar. Tasavvufning e’tiborimizni jalb etgan muhim jihatlaridan biri uning komil shaxsni shakllantirish va aqliy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan hayotiy tajribalaridir.

Mo‘min kishining ma’rifatga intilishi va o‘zi bahramand bo‘lgan bilimlarga o‘zgalarni ham sherik qilishi Alloh yo‘lida ado etilayotgan amallardan biri va ularning eng yaxshisi hisoblanadi. Shu sababdan bu yo‘lda ta’madan xoli bo‘lmoq iymonni salomat saqlash deb tushuniladi.

Tafsir ilmi - biror matnning ma’nosini echish, sharhlash, izohlash tafsir deyiladi. Diniy ma’noda Qur’on oyatlarini izohlash

va shu to‘g‘risida yozilgan kitob tafsir deyilgan. Tafsirda odatda har bir sura yoki oyatning qaysi erda nozil bo‘lgani, surada nechta oyat borligi va nimalar xususida gap ketishi, nozir bo‘lishi sabablari batafsil yoritilgan. Islom dini tarixida va qo‘lyozma fondlarimizda fors, turk, urdu va boshqa tillarda bunday tafsirlar juda ko‘p. ammo ulardan to‘qqiztasi – Tafsiri Tabariy, Tafsiri Saolibiy, Tafsiri Zamaxshariy, Tafsiri Bayzoviy, Tafsiri Faxriddin Roziy, Tafsiri Jalolayn (ikki Jalol) – sunniylikda; Tafsiri Tabariy, Tafsiri Hilliy, Tafsiri Xusayniy – shiallikda tan olingan va keng tarqalgan. Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘proq Qur’onning tatar tilida qilingan tafsirlari tarqalgan edi. so‘nggi paytlarda o‘zbek tilida yaratilgan tafsirlardan sobiq muftiy Muhammad Sodiqning «Tafsiri hilol» (T., «Movarounnahr», 1991) ini misol tariqasida keltirish mumkin.

Tahlil-murakkab ob’ektlar kismlarga bulib o‘rganishga qaratilgan fikrlash usuli.

Ta’lim - bilim va ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat.

Ta’lim vositasi – muayyan o‘qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallaridir. Ta’lim vositalari asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko‘rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o‘quv qo’llanmalari, radio, televidenie va kompyuter va hokazolardan iborat.

Ta’lim markazlari (kasbiy (yoki mehnat) ta’limi, shuningdek, tabiiy fanlar (kimyo, fizika) mutaxassislari bo‘yicha tashkil etilgan ta’lim muassasasi.

Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir. Ta’lim metodlari o‘qitishning o‘z oldiga

qo‘ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo‘nalashtirish demakdir.

Ta’limiy qadriyat - “Ta’limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma’naviy- axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga etishida muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi obyektiv va subyektiv omillar majmuasidir”²².

Tahzib – diniy mantiq.

Farzi kifoya ilmlar - dunyo ishlarini yuritish uchun kerak bo‘ladigan ilmlar. Masalan, tib ilmi inson jismini sog‘lomlashtirish uchun, hisob-kitob ilmi esa muomala, merosu vasiyatlarning taqsimotida kerak bo‘ladi. Bu ilmlardan birortasi bo‘lmay qolsa, shahar ahlining barchasi gunohkor bo‘ladi.

Faqih – dunyo ishlarida insonlarni to‘g‘ri yo‘lga soluvchi va siyosat qonunlarini o‘rgatuvchi rahbar., podshohlarga muallim va murshid. Mahalliy hukmdorlar mamlakatni boshqarishning huquqiy-axloqiy asoslarini ishlab chiqishda diniy nizomlarni biluvchi ulamolar, faqihlarga tayanishgan. Aksariyat hukmdorlar faqihlar fatvosini olmaguncha biror jiddiy ishga qo‘l urmas, jinoyatchini jazolamas, molu mulkini musodara qilmas edi. Ya’ni, mustabidlikdan saqlanib, davlatni ilm va qonun asosida boshqarar edi.

Fiqh – islom huquqshunosligi va qonunlari. O‘rta Osiyoda qoraxoniyalar (999-1212) davrida fiqh ilmi rivojlana boshlagan. Faqihlar – islom huquqshunoslari, islom qonunlari himoyachilar, diniy olimlardir. Ularning asosiy vazifasi oddiy kishilarni diniy qonun-qoidalar asosida himoya qilishdan, jamiyatda diniy tartib-

²² Taylanova Sh,Z. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. 13.00.01.- Samarqand: 2019 yil. Pedagogika fanlari falsafa doktori ilmiy d-si.... diss..... 254 bet. 44 betdan.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

intizomni o'rnatishdan iborat bo'lgan. Ular davlat ishlari, elchilik, sud ishlari, shahzodalar tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Abu Sulaymon Juzjoniy, Abu Bakr Muhammad Juzjoniy (Abu Mansur Moturidiyning ustozi), Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, *Abu Lays Samarqandiy* kabilarning nomlari mashhurdir.

Mahalliy hukmdorlar mamlakatni boshqarishning huquqiy-axloqiy asoslarini ishlab chiqishda diniy nizomlarni biluvchi ulamolar, faqihlarga tayanishgan. *Qoraxoniy hukmdorlardan Ibrohim Mahmud Tamg'ochxon faqihlar fatvosini olmaguncha biror jiddiy ishga qo'l urmas, jinoyatchini jazolamas, molu mulkini musodara qilmas edi.*

Hadis - «so'z, xabar, hikoya, yangi” kabi ma'nolariga ega bo'lib, Muhammal alayhissalom tomonidan aytilgan diniy yo'l-yo'riqlar, islomiy odob qoidalari va shartlari, umuman olganda, u kishiga tegishli xabar va rivoyatlar, shar'iy hukmlardir.....

Hadis ilmi – Muhammal alayhissalom tomonidan aytilgan diniy ilmlar, pand-nasihat va hikmatlar, yo'l-yo'riqlar, shariy hukmlar kabilarni o'zida jamlagan ilm. Muhaddis (hadis o'rgatuvchi) o'zi tayin qilgan yoki jamoa belgilagan joy va vaqtda ilm talab qiluvchilarga bilim bera boshlagan. Bilim berishda ilm toliblarini ayniqla qiziqtiradigan, ular eshitmagan, bilmagan hadislarni o'rgatishga harakat qilgan. Bu borada Yusuf ibn Muso Marvaziy bunday deb xabar qiladilar: “Men Basra Jome masjidida edim, nogahon jarchining “Ey, ilm ahli: Hazrat Imom Buxoriy qadam ranjida qildilar”, - deb e'lon qilganini eshitdim. Shunda barcha o'rnidan turib, ul kishiga peshvoz chiqdi. Qarasak, ul kishi hali soqoliga oq tushmagan bir yigit ekanlar, ichkariga kirib ustun ortida namoz o'qidilar. Namoz o'qib bo'lganlaridan so'ng, odamlar u kishini qurshab olishdi-da, muayyan bir vaqtni belgilab, hadis ilmidan dars bermoqlarini iltimos qilishdi. U kishi rozilik

bildirdilar. Keyin boyagi jarchi ikkinchi bor: “Ey, ilm ahli! Hazrat Imom Buxoriy tashrif buyurdilar, biz ul kishidan hadis ilmidan dars bermoqlarini iltimos qildik, ul kishi rozi bo‘ldilar. Ertaga falon vaqtda, falon joyda hozir bo‘lingizlar!”- dedi. Ertasiga o‘sha tayin qilingan joyda muhaddislar, Qur’on va hadis hofizlari, faqihlar hamda shunchaki diniy ilmlarga qiziquvchilar, jami bir necha ming odam to‘plandi. Imom Buxoriy ularning qarshisiga o‘tirgach, dars boshlashdan burun: “Ey Basra ahli! Men bir yosh yigit bo‘lsam-da, hadis aytib bermog‘imni iltimos qildingizlar. Buning uchun sizlardan minnatdorman. Men hozir sizlarga yurtdoshlaringiz rivoya qilgan, o‘zlaringizda yo‘q hadislardan aytib beraman”, -dedilar. So‘ng, ul kishi dars berishga kirishdilar...”²³[; 45].

Hadislarning bu qadar ixlos bilan o‘rganilishining birinchi sababi Rasuli Akram alayhisalom shaxsiga, uning insoniy sifatlari va odatlariga, qolaversa islomiy amallarning bajarilishidan keladigan barokatlarni mukammal bilishga intilishdir. Hozirga qadar hadislar inson ma’naviyatining yuksalishiga sabab bo‘luvchi, uning qalbiga baxt va xotirjamlik hissini olib kiruvchi muhim manba hisoblanadi. Shunday motivatsiyalardan biri sifatida Imom Buxoriy hadislarini o‘qigan kishi albatta orzu-niyatlariga erishishi, chunki ul zot duosi qabul bo‘ladiganlar jumlasidan bo‘lib, ollohdan o‘z hadislarini o‘qiganlarning imonlari va barakotlarini tilaganlari haqidagi da’vatlarni keltirish mumkin.

Tolibning hadis ilmini egallahiga qo‘yiladigan talablar tarkibida muhaddisning o‘zidan bilimliroq, o‘zi bilan teng va o‘zidan bilimi past kimsalardan hadis eshitmay va yozib olmay turib etuk muhaddis bo‘lmasligi, hadis ilmi borasida bahslasha olish, hadis o‘rganish talabida huzuriga kelganlarni noumid qaytarmaslik,

²³ Алимов Усмонхон. IX- XI асрларда Самарқандда калом илмининг ривожланиши. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 192 б. -45- б.

shubhaga o‘rin qoldiradigan fikrlarni ilgari surmaslik, har bir fikr va qarash mutlaq isbot va dalillarga asoslanishi zarurligi; buning uchun dinu diyonatda sobit ustozlardan bilim olish, o‘rganilgan hadislar bevosita sahoba va tobe’inlarga tegishli bo‘lishi kerakligi kabilarni ta’kidlash mumkin.

Hadis o‘rganishning ikkinchi muhim bosqichi uni o‘rganish uchun sahabalar yashagan yurtlarga borib, ilmiy markazlarda hadis ilmini o‘rganishni davom ettirish hisoblangan. Hadis ilmini egallahga havasmandlar o‘zaro birlashib, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan muhaddisdan hadis yuzasidan bilim berishini so‘rashgan. Muhaddis o‘zi tayin qilgan yoki jamoa belgilagan joy va vaqtida ilm talab qiluvchilarga bilim bera boshlagan. Bilim berishda ilm toliblarini ayniqsa qiziqtiradigan, ular eshitmagan, bilmagan hadislarni o‘rgatishga harakat qilingan.

«Haftiyak» - boshlang‘ich sinfda o‘qitilgan Qur’onning ettidan bir qismi.

Hikoya qilish metodi - o‘qituvchi tomonidan yangi o‘tilayotgan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilishdir.

Elektiv prinsip - (lot. Yelektus- tanlangan so‘zidan) – o‘qishda o‘quvchining o‘quv yo‘nalish(profil) i, o‘quv predmetlari va variantlarini erkin tanlash prinsipi

Ekskursiya – bevosita kuzatish asosida muayyan jarayon, voqeal-hodisa yoki faoliyat mazmunini yorituvchi bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlovchi ta’lim shaklidir.

Eksperimental pedagogika - XIX asr oxirlarida Germaniyada vujudga kelgan eksperimental pedagogika bolalarni eksperimental metodlar: anketa, kuzatish, yosh testlari (Bine testlari) ularning o‘quv vaziyatlarida o‘zini tutishlari va qobiliyatlarining namoyon bo‘lishini o‘rganishga qaratiladi. Uning asosiy namoyondalari nemis

pedagoglari **Avgust Lay** (1852-1926), **Ernst Meyman** (1862-1015)lardir. Ular eksperimental metodlarni ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va psixologik –pedagogik me'yorlar bilan boyitish imkonini berishi g'oyasini ilgari surdilar. Bolaning rivojlanishida bilogik omil (nasliy imkoniyatlar) ni o'rganishga katta e'tibor berilgan.

Erkin mакtablar (ularda 30 nafar tahsil oluvchi, 2 nafar o'qituvchi ishtirok etadi, asosiy e'tibor tabaqlashtirilgan ta'limning tashkil etilishiga qaratiladi, o'quv fanlarining qaysi davrda va qanday o'qitilishini tahsil oluvchilarning o'zлari belgilaydilar).

«**Erkin universitet**» (AQSh va Angliyada XX asrning 60-yillarida tashkil etilgan bo'lib, unda istagan shaxs bepul ta'lim dasturi bo'yicha bilim oladi. Dasturga muvofiq ta'lim oluvchi imtihonlarga kelmasligi mumkin, biroq pedagogik ishlab chiqarish malakalarini egallashi shart. Ta'lim davri - malaka oshirish institutlarida bo'lgani kabi 6-8 hafta.

Yagona sanoatlashgan jamiyat nazarisi - XX asrning 60-yillarida vujudga kelib, ta'limda texnokratik yondashuvning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Maktabda ularni yirik sanoat ishlab chiqarishga, bolalarni "texnokratik shaxs"ga aylantirish g'oyasi ilgari surildi. "O'qitish texnologiyasi", o'quv jarayonini eng yangi texnika vositalari yordamida ratsilnalizg'atsiya qilish nazariyasi ishlab chiqildi.

Yangi usul maktablari – usuli savtiya (tovush usuli) asosida bolalarga savod o'rgatish hamda boshlang'ich diniy va dunyoviy bilimlar berishga qaratilgan boshlang'ich maktab. Yangi usul maktablari (Jadid maktablari) "lousul qadim" (eski usul maktablari) va rus-tuzem maktablaridan farq qilib, unda o'quv, yozuv, hisob, jug'rofiya kabi fanlar o'qitilgan. Ular xalqni ma'rifatli, savodli qilishda yuqorida nomlari qayd etilgan maktablardan birmuncha afzalliklarga ega bo'lgan. Ushbu maktablarda ta'lim dasturlariga amal qilingan, o'qitilgan alifbe darsliklarida metodik tavsiyalar ham

taqdim etilgan. Yangi usul maktablarida savodga o‘rgatish davrida izohli o‘qish usulidan foydalanilgan. Bunda o‘quvchining bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga e’tibor berilgan. O‘quvchilar tafakkuriga erkinlikka intilish, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari singdirilgan.

«O‘zbekistonning yangi tarixi» kitobida jadid maktablari miqdoriga taalluqli quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: 1911 yili jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 nafar shogird saboq olgan. Toshkentning o‘zida 24 ta bunday maktablarda 1740 ta bola o‘qigan. 1917 yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan²⁴.

Sharhlab o‘qish – hadislarni (mavzuni) mavjud sharh kitoblar yordamida o‘rganish demakdir. Sharhlab o‘qishda mudarris sharh kitoblar yoki o‘zi yozgan sharhlar asosida o‘qitadi. Sharhlab o‘qitish usuli madrasa va mакtab ta’limida eng ko‘p va uzoq yillar qo‘llanilgan usul hisoblanadi. **Sharhning asosan uch xil turidan foydalanilgan:**

1. Asardan olingan murakkab parchalarni oson so‘zlar yordamida tushuntirish;
2. Ma’lum joylarini amaliy hayot bilan bog‘lab sharhlash;
3. Asardan parchani o‘z fikrlari bilan rivoyatlar, hikoyatlar, tarixiy va amaliy dalillar orqali izohlab keng tushuntirish.

O‘quv jarayonini optimallashtirish - qandaydir o‘qitishning mutlaqo yangi metodlarini yaratish emas, balki ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga qo‘yilgan davlat talablarini amalga oshirish uchun o‘qituvchining *maxsus metodlardan maqsadga muvofiqlarini tanlab va o‘zaro oqilona uyg‘unlashtirib qo‘llashi* tushuniladi. O‘quv jarayonini optimal darajada tashkil etish uchun uning asosiy

²⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида / Тузувчилар: К.Содиков, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов ва бошк.; Тахрир ҳайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошк. – Т.: Шарқ, 2000. – 464 б. – 270-б.

shakl, metod va qonuniyatlarini chuqur bilish, uni optimal darajasini ta'minlash metodikasini o'rganish zarur. Optimallashtirish nazariyasi har qancha jozibador bo'lmasin, o'quv mazmunining nihoyatda katta hajmdagi, o'quvchi imkoniyatlaridan ortiq va barchaga birdek qilib mo'ljallangan auditoriyasida uni keng tatbiq etish mumkin emas. Optimal ta'limni amalga oshirishning amaliy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: asosiyni ajratib olish uchun yangi mavzuni o'rganish rejasini tuzish va o'quvchilarga namoyish qilish; mavzu rejasi o'quvchilar diqqatini asosiy masalalarga jalb etishda muhim o'rinni tutadi; matnni mantiqiy qismlarga ajratish, asosiy so'z va tushunchalarni topish, tayanch nuqtalarini belgilash va so'zlab berish. Asosiyni ajratish ko'nikmalarini tarkib toptirishda o'quvchilarga "matnga sarlavha topish, epigraf tanlash, matn rejasi va tezislarini tuzish, tanyach sxemani ishlab chiqish, xulosa va umumlashtirishlarni ishlab chiqish, bu tushunchalarni kengroq tushunchalarga qiyoslash" kabi topshiriq va ko'rsatmalar berish; har bir dars uchun aniq metodlar majmuini ishlab chiqish.

Qadriyat - qadrli, zarur, foydali borliq, narsa-hodisa, moddiy-ma'naviy boylik, voqelik demakdik. U bir vaqtning o'zida ham subyektiv, ham obyektiv xarakter kasb eta oladi. Qadriyat muayyan borliq, narsa-hodisaning sifatini tavsiflagani sababli subyektiv xarakterga, uning voqelikda mavjudligiga asoslangani sababli obyektiv xarakterga ega bo'ladi. Qadriyat XIX asrning 60-yillaridan qo'llanilib, uni axloqiy va estetik kategoriya sifatida fanga olib kirgan nemis filosofi va vrachi R.G.Lotse borliq, haqiqat va qadriyat tushunchalarini o'zaro munosabatini o'rgangan holda, qadriyatni insoniy munosabatlarga qiyosan tahlil etdi

"Falsafa: qomusiy lug'at" (2004)da esa "Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun

qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksilogik tushuncha”²⁵” deb ta’rif berilgan. Pedagogik ensiklopediyada “Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha”²⁶ ekanligi ta’kidlanadi.

Qaz’iyathoi ma’lum - ma'lum bo‘lgan hukm, voqeа va hodisalar xususida muhokama qilish. Masalan ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan narsa va hodisalar-quyosh, er, oy, turli kitoblardagi yozilgan fikrlar va boshqalar xususida munozara qilish. Ularning xususiyati ahamiyati borasidagi fikrlarni o‘rtoqlashish.

Qaz’iyathoi ma’qul - noma'lum voqeа-hodisalardan hukm chiqarish demakdir. Buning ma’nosи shuki qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan tabiat hodisalarini, inson ruhiyatiga taalluqi turli jarayonlar, kechinmalar, hissiyotlar va boshqalar xususida munozara qilish.

Xat-savod o‘rgatishning murakkabot bosqichi - harflarni qo‘sib yozishga o‘tish. Yozuvni o‘rgatishda «Badonul insho», «Munshaot», «Dastur ul-quzot», Said Salohiddinxo‘ja ibn Oloviddinxo‘janing «Mufradot», Shermuhammad Avazbek o‘g‘li Munisning «Savodi ta’lim» kabi darslik va qo'llanmalaridan foydalilanilgan.

Xat-savod o‘rgatishning mufradot bosqichi - o‘quvchilarga alohida harflar yozdirilgan.

²⁵ Фалсафа. Qисқача изоҳли лугат. – Т.: Шарқ, 2004. – 372 б.

²⁶ Педагогика энциклопедия. III жилд.- Р.Ф. Сафарова, Р.Н. Жўраев. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти: Тошкент- 2017 йил. - 385- бет

MUNDARIJA

Kirish	3
Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar(Avesto, qadimgi toshbitiklar(O’rxun-Enasoy va Kultegin yodgorliklari) va islom asoslari (Qur’oni Karim va Hadisi Sharif)da ilgari surilgan didaktik qadriyatlar mazmuni va ahamiyati).....	15
VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya,maktab va pedagogik fikrlar	24
Sharq uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji (Birinchi renessans davri (IX-XII asrlar)da ilgari surilgan didaktik qadriyatlar: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Abu Lays Samarcandiy, Roziy, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Najmuddin Kubro, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziylarning didaktik qarashlari)	31
XIV asr ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. (Ikkinchi renessans davrida ta’lim. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Ubaydulloh Ahror, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiylarning ta’limni rivojlantirishga oid yondashuvlari).....	72
XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji (Xonliklar davrida ta’lim. So‘fi Ollohyor, Jahon Otin Uvaysiy, Anbar Otin, Ahmad Donish tomonidan ilgari surilgan didaktik qadriyatlar).....	84
XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-choragida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. (Jadid pedagoglari yaratgan darsliklar va ilmiy-metodik adabiyotlarda ilgari surilgan didaktik qadriyatlar)	97
1924-1991 yillarda Ozbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji (Sobiq sovet hokimiyati davrida ilgari surilgan asosiy didaktik qadriyatlar mazmuni va xususiyatlari)	109

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.....	130
Qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. (Sharq va g‘arb pedagoglari ilgari surgan didaktik qadriyatlarning o’zaro qiyosiy tahlili).....	147
Xulosa	165
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati	175
Didaktik materiallar	187
Atamalar izohi	201

JALILOVA NILUFAR TOXIR QIZI

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA
TARIXI**
O‘quv qo‘llanma

Nashr etishda qatnashganlar:

B.Rustamov, G.Raxmatullayeva, Sh.Meyliyev, J. Rahmatullayev, R. Xidraliyev



“Science and innovation” MCHJ

Litsenziya №:285829 27.05.2024

Bosmaxonaga berildi: 02.08.2024. Bosishga ruxsat etildi: 09.08.2024.

Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturası. Ofset bosma.

Shartli bosma taboq: 14.07. Adadi 300 nusxa. 40– raqamli buyurtma.

Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654